

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**Заҳириддин Муҳаммад Бобур номидаги
Андижон давлат университети
Андижон машинасозлик институти**



***«ФАН, ТАЪЛИМ ВА ТЕХНИКАНИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШ
МАСАЛАЛАРИ»***

Халқаро илмий-амалий онлайн анжуман

***«ВОПРОСЫ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ НАУКИ, ОБРАЗОВАНИЯ И
ТЕХНИКИ»***

Международная научно-практическая онлайн конференция

***«ISSUES OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF SCIENCE, EDUCATION AND
TECHNOLOGY»***

International scientific and practical online conference

2022 йил 12 апрель, Андижон

«ФАН, ТАЪЛИМ ВА ТЕХНИКАНИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ»

Халқаро илмий-амалий онлайн анжуман материаллари тўплами
(2022 йил 12 апрель, Андижон).

Ушбу Халқаро илмий-амалий анжуман Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 7 мартдаги 101-Ғ фармойишига асосан ташкил этилган.

Анжуман материалларида глобаллашув жараёнининг ижобий ва салбий оқибатлари, янги муқобил энергия манбааларини ривожлантириш, табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш, геозкологик муаммолар; иқтисодий ва ижтимоий тадқиқотларнинг ҳозирги замон мазмуни; гидрология ва сув ресурсларидан самарали фойдаланиш масалалари, иқлим ўзгариши муаммолари; ахборот тизимларининг амалий аҳамияти; замонавий таълим ва тарбия соҳасида олиб борилаётган инновацион тадқиқотлар натижаларини умумлаштириш ва мувофиқлаштириш асосида Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар кўламини янада кенгайтириш, такомиллаштириш ҳамда бу жараёнга хорижий тажрибаларни қўллаш, хорижий ва республика олий ўқув юртлари, илмий тадқиқот институтлари олимларини, шунингдек ёш тадқиқотчилар ва мутахассисларни кенг жалб этиш масалалари қамраб олинган.

Анжуман материалларидан аниқ ва техник, табиий, ахборот технологиялари, ижтимоий-гуманитар, амалий фанлар соҳалари мутахассислари, илмий ходимлар, мустақил изланувчилар, докторантлар, магистр ва бакалавр талабалар, олий ва ўрта махсус, умумтаълим мактабларининг ўқитувчилари ҳамда барча қизиқувчилар фойдаланишлари мумкин.

Таҳрир ҳайъати:

Бош муҳаррир:

т.ф.н., проф. А.А.Запаров

Ҳайъат аъзолари:

т.ф.н., доц. М.У. Тўраев
ф.-м.ф.н. доц. Х.Ж. Мансуров
ф.-м.ф.н. доц. Н.М. Умрзақов
к.ф.д. проф. И.Р. Асқаров
б.ф.д. проф. Қ.Тожибоев
т.ф.д., проф. М.Ғ.Абдуллаев
ф.ф.н., доц. Д.А. Нурмонова
п.ф.н., доц. Н.Ж. Абдуллаева
каф.мудир С.Тошпўлатова

КОНФЕРЕНЦИЯ ТАШКИЛИЙ ҚЎМИТАСИНИНГ ТАРКИБИ:

1. Юлдашев А.С. – Андижон давлат университети ректори, б.ф.д., профессор, раис;
2. Имирсинова А.А. – Андижон давлат университети илмий ишлар ва инновация бўйича проректори в.б., биология фанлари номзоди, доцент, раис ўринбосари;
3. Муллажонов Р.В. – Андижон давлат университети ўқув ишлари бўйича проректори, ф.м.ф.н., доцент.
4. Махкамов М. К. - Андижон давлат университети ахборот технологиялари бўйича проректори, ф.м.ф.н., доцент;
5. Думаев С. - Андижон давлат университети иқтисодиёт ва молия ишлари бўйича проректори;
6. Расулов Б.М. – АндПИ директори, тарих фанлари доктори;
7. Зайнобидинов С.З. – АнДУ профессори, Ўзбекистон Республикаси фанлар академияси академиги, ф-м.ф.д.;
8. Мамадолимов А.М. – ЎЗМУ профессори Ўзбекистон Республикаси фанлар академияси академиги, ф.м.ф.д.;
9. Тўраев М.У.– Андижон давлат университети Педагогика факультети декани, т.ф.н., доцент;
10. Мансуров Х.Ж. – Андижон давлат университети Физика-математика факультети декани, ф.м.ф.н., доцент;
11. Мадумаров Т.Т. - Андижон давлат университети Ижтимоий-иқтисодиёт факультети декани, ю.ф.д., профессор;
12. Тошпўлатова С.Ю. - Андижон давлат университети Умумтехника фанлари ва меҳнат таълими кафедраси мудири;
13. Мўйдинова М. – Андижон давлат педагогика институти аниқ фанлар ва информатика ўқитиш методикаси кафедраси мудири, ф.м.ф.н.;
14. Запаров А.А.– Андижон давлат университети Умумтехника фанлари ва меҳнат таълими кафедраси профессори, т.ф.н.;
15. Абдуллаева Х.Я. - Андижон давлат университети Тахририй нашриёт бўлими бошлиғи.

ТАБРИК СЎЗИ

Хурматли халқаро анжуман қатнашчилари!

Глобализация даврида мамлакатлар бир-бирлари билан ўзаро муносабатларини кенгайтириб бормоқда. Ўзбекистон жаҳонга юз тутиб, жаҳон интеграциясига чуқур кириб бормоқда. Қўшни мамлакатлар билан яхши қўшничилик, жаҳон ҳамжамияти билан тенг ҳуқуқли муносабатлар ривожланмоқда. Бунинг ёрқин мисоли сифатида мамлакатимиз Президенти муҳтарам Ш.М.Мирзиёевнинг қатор хорижий давлатларга давлат ташрифларини келтиришимиз мумкин.

Бугунги кунда мамлакатимизда катта ўзгаришлар бўлиб ўтмоқда. Туб ислохотлар жамиятимиз ва иқтисодиётимизнинг барча жабҳаларини қамраб олмоқда. Жумладан, олий таълим тизимида ҳам ана шундай жиддий ўзгаришлар амалга оширилиб, илғор хорижий тажрибалар асосида инновация жараёнларига катта эътибор қаратилмоқда. Нуфузли хорижий олий таълим муассасалари билан алоқалар кенгайиб, уларнинг филиаллари юртимизда ташкил этилмоқда. Ўқув, илмий, технологик, инновацион лойиҳалар кенгаймоқда.

Бугун Андижон давлат университетида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 7 мартдаги 101-Ғ фармойишига асосан бўлиб ўтаётган **«ФАН, ТАЪЛИМ ВА ТЕХНИКАНИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ»** мавзусидаги Халқаро илмий-амалий онлайн анжуман айнан шу мазмундаги ишларни яънада ривожлантириш ҳамда замон талаблари даражасига кўтариш мақсадида ўтказилмоқда, деб ҳисоблаш мумкин.

Анжуман мавзуси бугунги кун талаблари асосида танланган. Анжуман ўз олдида жиддий мақсадларни қўйган бўлиб, анжуман дастурида глобаллашув даврида мамлакатимиз ва халқаро миқёсда ўз ечимини кутаётган долзарб масалалар қамраб олинган. Хусусан, глобаллашув жараёнининг ижобий ва салбий оқибатлари, янги муқобил энергия манбааларини ривожлантириш, табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш, геоэкологик муаммолар; иқтисодий ва ижтимоий тадқиқотларнинг ҳозирги замон мазмуни; гидрология ва сув ресурсларидан самарали фойдаланиш масалалари, иқлим ўзгариши муаммолари; ахборот тизимларининг амалий аҳамияти; замонавий таълим ва тарбия соҳасида олиб борилаётган тадқиқотлар

натижаларини умумлаштириш ва мувофиқлаштириш асосида Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар кўламини янада кенгайтириш, такомиллаштириш ҳамда бу жараёнга хорижий тажрибаларни қўллаш, хорижий ва республика олий ўқув юртлари, илмий тадқиқот институтлари олимларини, шунингдек ёш тадқиқотчилар ва мутахассисларни кенг жалб этиш масалалари қамраб олинган.

Кўтарилаётган масалалар кенг мушоҳада юритишга ундайди. Ушбу анжуман Ўзбекистон фанининг нуфузини янада ошишига хизмат қилади. Анжуман қатнашчиларига сиҳат-саломатлик, илмий-педагогик фаолиятларида улкан муваффақиятлар тилаб қоламан.

**Андижон давлат университети ректори,
биология фанлари доктори, профессор А.С. Юлдашев**

ОЛИЙ ТАЪЛИМГА ИННОВАЦИЯЛАРНИ ЖОРИЙ ЭТИШНИНГ ИЖТИМОЙ ТАРАҚҚИЁТДАГИ АҲАМИЯТИ

А.С. Юлдашев – АнДУ Ректори, А.А.Запаров – АнДУ профессори.

Аннотация: Ушбу маърузада мамлакатда таълим соҳасидаги ислохотларни амалга ошириш жараёнида инновацион ёндашувлардан самарали фойдаланиш масалалари ёритилган.

Калим сўзлар: олий таълим, фан, ишланмалар, инновация, инновацион ривожлантириш, интеграция, ривожланиш, ижтимоий тараққиёт, техника, технология таълим тизими, инновацион ёндашувлар, педагогик технологиялар, таълим ислохотлари.

Аннотация: Данный доклад посвящен вопросам эффективного использования инновационных подходов в сфере реформы образования в стране.

Ключевые слова: высшее образование, наука, разработка, инновация, инновационное развитие, интеграция, развитие, социальное развитие, техника, технология, система образования, инновационные подходы, педагогические технологии, образовательные реформы.

Abstract: This article focuses on the effective use of innovative approaches in the field of education reform in the country.

Key words: higher education, science, processing, innovation, innovative development, integration, development, social development, technics, technology, educational system, innovative approaches, pedagogical technologies, educational reforms.

Мамлакатимизда мустақилликнинг илк йиллариданоқ таълим соҳасига давлат даражасида эътибор қаратиб келинмоқда. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг IX сессиясида қабул қилинган “Таълим тўғрисида”ги Қонун ва Кадрлар тайёрлаш миллий дастури ёш авлодни тарбиялашнинг асосий истикбол ва йўналишларини белгилаб берди. Кадрлар тайёрлаш миллий дастурида таълимни тубдан ислох қилишнинг асосий йўналишлари кўрсатиб берилган. Унда “Узлуксиз таълим ижодкор, ижтимоий фаол, маънавий бой шахс шаклланиши ва юқори малакали рақобатбардош кадрлар илдам тайёрланиши учун зарур шарт-шароитлар яратади” - деб кўрсатилган [1, 3].

Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар Стратегиясининг тўртинчи - Ижтимоий соҳани ривожлантиришнинг устивор йўналишининг “Таълим ва фан соҳасини ривожлантириш” деб номланган бандида 2017-2021 филларда “узлуксиз таълим тизимини янада такомиллаштириш, сифатли таълим хизматлари имкониятларини ошириш, меҳнат бозорининг замонавий эҳтиёжларига мос юқори малакали кадрлар тайёрлаш сиёсатини давом эттириш” [2.] кўзда тутилганлигини алоҳида таъкидлаш лозим.

Бундай юқори марраларга эса таълим жараёнига илғор, инновацион ёндашувларни жалб этмай туриб эришиб бўлмайди. Дарҳақиқат, илғор педагогик

технологиялар таълим жараёнини унумдорлигини оширади, ўқувчиларнинг мустақил фикрлаш жараёнини шакллантиради, ўқувчиларда билимга иштиёқ ва қизиқишни оширади, билимларни мустаҳкам ўзлаштириш, улардан амалиётда эркин фойдаланиш кўникма ва малакаларини шакллантиради. Инновацион педагогик технологияларга асосланган таълим жараёнида ўқитувчи ва ўқувчи фаолияти доираси аниқ белгиланади, таълимни ташкил этишнинг аниқ технологияси кўрсатилади.

Бугунги кунда жамиятнинг ижтимоий ва иқтисодий ривожланиш жараёнларини инновацияларсиз тасаввур этиб бўлмайди. Жамиятнинг барча соҳаларига инновацияларни жорий этилиши ижтимоий ҳаётнинг муҳим ҳаракатлантирувчи кучи ҳисобланади. Таълим тизимида инновацияларни жорий этилиши эса, жамият ижтимоий ва иқтисодий такомилени таъминлаш, аҳоли турмуш фаровонлигини ошириш, ижтимоий муаммоларни ҳал этиш жараёнида ўзининг муҳим ўрнига эгадир.

Ҳозирги кунда таълим жараёнига инновацион технологиялар ва интерфаол усулларни қўллашга қизиқиш тобора кенг тус олмоқда. Бундай усулларни қўллаш таълим самарадорлиги ва таъсирчанлигини оширади, ўқувчиларда дарс мазмунини теран англаш кўникмасини шакллантиради.

Таълимнинг инновацион методлари ўқувчиларнинг улкан таълимий кудратидан фойдаланиш ва фаоллаштириш, ўқув жараёнига мусобақа элементларини киритиш имконини беради. Таълимнинг интерфаол методлари таълимда янгиликлар сирасига киради. К.Ангелевский фикрича, «... барча давлатлар таълимга имкон қадар кўп янгилик киритишга интилмоқда... Бугунги янгиликлар уларга уюшган, режали, оммавий... ёндашувни талаб этади. Янгиликлар келажак учун узок муддатли инвестициялардир... Новаторликка қизиқиш уйғотиш, янгилик яратишга интилувчан шахсни тарбиялаш учун таълимнинг ўзи янгиликларга бой бўлиши, унда ижодкорлик руҳи ва муҳити ҳукм суриши лозим» [4].

Инновация инглиз тилидан олинган бўлиб, янгилик яратиш, янгилик каби маънони англатади. Демак, анъанавий таълимдаги каби бир хил қоидалар асосида эмас, балки янгиликлар асосида таълим жараёнининг таъсирчанлигини оширишга қаратилган иш шаклидан фойдаланиш инновация демакдир. Таълимда педагогик технологияларга асосланиш ва инновацияга интилиш, ўқувчиларни фаоллаштиришга қаратилган турли интерфаол услублардан фойдаланиш таълим мақсадини самарали амалга оширишга ёрдам беради.

Инновациялар долзарб, муҳим аҳамиятга эга бўлиб, бир тизимда шаклланган янгича ёндашувлардир. Улар ташаббуслар ва янгиликлар асосида туғилиб, таълим мазмунини ривожлантириш учун истиқболли бўлади. Шунингдек, умуман таълим тизими ривожига ижобий таъсир кўрсатади. Инновация – маълум бир фаолият майдонидаги ёки ишлаб чиқаришдаги технология, шакл ва методлар, муаммони ечиш учун янгича ёндашув ёки янги технологик жараённи қўллаш, олдингидан анча муваффақиятга эришишига олиб келиши маълум бўлган охириги натижадир.

Ўзбекистон Республикасида таълим тизимини такомиллаштириш ва инновацион ривожлантириш имкониятларининг мавжудлиги қуйидагиларда намоён бўлмоқда:

- биринчидан, мамлакатда олий тизим ва илмий муассасалар илмий изланишлар ва тадқиқотлар олиб бориладиган асосий маскандир;
- олий таълимда инновацион ғоялар яратиш ва амалиётга жорий этиш бўйича илмий ва педагогик кадрлар салоҳияти мавжуд;
- учинчидан, хорижий давлатларнинг таълим тизимида инновациялар бўйича тажрибаларини кенг ўрганиш ва маҳаллий шароитда жорий этиш имконияти мавжуд.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев: “Бу ўринда, менинг назаримда, иккита асосий вазифани ҳал этиш зарур: биринчи – илмий муассасаларнинг моддий-техник базасини илғор хорижий марказлар даражасида ва олимлар талабларига мувофиқ сезиларли равишда мустаҳкамлаш керак. Бунда, албатта, давлатнинг эҳтиёжлари ва унинг мақсадли вазифалари инобатга олиниши шарт; иккинчи – академикларни ҳар тарафлама қўллаб-қувватлаш, жумладан, моддий рағбатлантириш бўйича аниқ чора-тадбирларни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш” деб таъкидлаган (1, 46).

Таълим тизимини инновацион ривожлантириш Ўзбекистонда ёшларга ҳар томонлама шарт-шароитлар яратилиб берилаётганлиги билан чамбарчас боғлиқдир. О.Муҳаммаджоновнинг таъкидлашича, “Ёш авлоднинг ҳар томонлама баркамол ривожланиши ва тарбияланишига шароит яратиш Ўзбекистон мустақиллигининг дастлабки йилларидан бошлаб ёшларнинг манфаатларига оид давлат сиёсатининг устувор йуналиши ҳисобланади. Зеро, бу келажакка йўналтирилган сармоя ҳисобланади” [4,28].

Олий таълим тизимининг инновацион ривожлантиришда, авваламбор, олий ўқув юртларини мамлакатимиз ижтимоий-иқтисодий салоҳиятида ўрнини юксалтириш юзасидан қайта кўриб чиқиш мақсадга мувофиқ. Уларни фақатгина таълим даргоҳи эмас, балки илмий ғояларни ишлаб чиқиш, реал ҳаётга янги маҳсулотлар, техника ва технологиялар барпо этувчи муассасалар сифатида ривожлантириш, илм-фан билан шуғулланувчи олимларнинг ҳар томонлама рағбатлантириш, уларнинг меҳнат натижаларини халқ хўжалигига кенг жорий этиш борасида чора-тадбирларни амалга ошириш лозим.

“Мустақил миллий ижтимоий тараққиёт янги сифатий босқичга ўсиб ўтишини таъминлашда моддий ва маънавий ишлаб чиқариш жараёнларини диалектик тарзда уйғунлаштиришнинг яна бир усулини инновацияларни иқтисодиёт ва маънавият соҳасига жорий этиш асосида уларни уйғун тарзда ривожлантиришни йўлга қўйиш ташкил этади. Бу усул ёшларнинг меҳнат фаолиятини иқтисодиёт ва маънавият билан уйғун тарзда ташкил этиш асосида ривожлантиришнинг диалектик хусусиятларини ўзида ифодалаган воситалар орқали иш юритади” [4,64].

Олий таълимда инновацияларни жорий этиш учун ўқитувчи ва талабаларда онгида янги тафакурни шакллантириш, замонавий фикрлаш тарзини ошириш,

технологик ғояларни шакллантириш лозим. “Бугунги жамиятни ривожлантириш учун воқеликка янгича ракурсдан туриб қараш, янгича, яъни инновацион ёндашув лозим бўлади. Бу янгича методология, янгича технология, хуллас инновацион ёндашувдир. Инновацион, яъни янгиликка асосланган технологиялар, янгича бошқарув жараёнларини жорий этиш учун янгича тафаккурга таяниш лозим”[4, 12].

Олий таълимда талабаларга фанлардан фақат билим бериш билан биргаликда, долзарб илмий-техника муаммоларни ечишга жалб этиб, инновацион жараёнлар иштирокчисига айлантириш лозим. Бу жараёнларни ташкил этишда олийгоҳларда илмий-инновацион марказлар, тажриба-техник ва конструкторлик бўлинмалар, технопарклар, юқори технологик жиҳозларга эга замонавий лабораториялар ташкил этиш мақсадга мувофиқ. Бу жараёнда ёш олимлар ва иқтидорли талабаларнинг илмий салоҳияти, янги ғоялар ва инновацияларга илмий ва амалий қўникмалари ошади.

Хулоса қилиб айтганда, инновацияларга оид тушунчаларни атрофлича ўрганиш орқали келгусида мамлакатимиз тараққиётига хизмат қилувчи муҳим йўналишларда муваффақиятларни қўлга киритиш истикболлари мавжуд.

АДАБИЁТ:

1. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак, -Тошкент, “Ўзбекистон”, 2017. –Б.46.
2. 2017- 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар Стратегияси. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон.
3. Ўзбекистон Республикаси Кадрлар тайёрлаш Миллий Дастури. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 05.01.2018 й., 3-сон.
4. О.Муҳаммаджонов. Конституция: халқ манфаатларининг ҳуқуқий кафолати. –Тошкент, “Муҳаррир нашриёти”, 2017. –Б.28.

5- секция: АМАЛИЙ ФАНЛАР ВА САНЪАТ.

**TEKNOLOGIK TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING KREATIV
FIKRLASH QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH USULLARI**

Xayitov Jonibek Xolboboyevich

Termiz davlat universiteti
Texnologik ta'lim kafedrası o'qituvchisi
Termiz, O'ZBEKISTON
E-mail: xayitovjonibek77@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Texnologik ta'lim talabalarining kreativ fikrlashini shakllantirish usullari, metodlari keltirilgan bo'lib, unda talabalarining yosh xususiyatlari, ularni qobiliyatlarini rivojlantirish usullari haqida ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: texnologiya, fan, kreativ fikrlash, qobiliyat shakl, usul, bilim, ko'nikma.

**МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ СПОСОБНОСТЕЙ ТВОРЧЕСКОГО
МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

Хайитов Жонибек Холбобоевич

Термезский государственный университет
Преподаватель кафедры технологического образования
Термез, УЗБЕКИСТАН
Электронная почта: xayitovjonibek77@gmail.com

Аннотация: В данной статье описаны методы формирования творческого мышления у студентов технологического образования, в которых представлена информация о возрастных особенностях учащихся, способах развития их способностей.

Ключевые слова: технология, наука, творческое мышление, форма умения, метод, знание, умение.

**METHODS OF FORMATION OF CREATIVE THINKING ABILITY OF
STUDENTS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION**

Hayitov Jonibek Xolboboyevich

Termez State University
Lecturer at the Department of Technological Education
Termez, UZBEKISTAN
E-mail: xayitovjonibek77@gmail.com

Annotation: This article describes the methods of forming the creative thinking of students of technological education, which provides information about the age characteristics of students, ways to develop their abilities.

Keywords: technology, science, creative thinking, ability form, method, knowledge, skill.

Kreativ fikrlash – bu innovatsion yechimlarni topish, yangi bilimlarni egallash, tasavvurni ta'sirchan ifodalashga qaratilgan g'oyalarni ishlab chiqish, baholash va takomillashtirish jarayonida samarali ishtirok etish qobiliyatidir. Kreativ fikrlash bizga muammolarni hal qilishda noodatiy yechim topishga yordam beradi. Biroq biz uni tanqidiy fikrlash bilan adashtirib yubormasligimiz, aksincha bizga imkonsiz muammolarni hal qilishda bir-birini to'ldirib turuvchi yechimlarni topishda yordam beradigan “aka-ukalar”dek qarashimiz kerak[1].

Bugungi kunda talabalarnig dars jarayonidagi faoliyati hamda kreativligi, kreativ fikrlash jarayoni juda muhim hisoblanadi. Shunday ekan talabalarning kreativ fikrlashni shakllantirishda har bir mutaxassislik fanlarini o'tish jarayonida talabalarni har bir darsda mustaqil fikrlashga o'rgatadigan didaktik o'yinlar, mashqlar va topshiriqlardan izchil foydalanilsa, ta'lim jarayonida mustaqil ishlarni muntazam o'tkazib borilsa, darslarni yaxshi o'zlashtirish jarayonida har-bir talabaga o'tilgan mavzularni yaxshi o'zlashtirishlari uchun o'qituvchi tomonidan muammoli vaziyatlar yaratilsa mazkur muammolarni talabalarni o'zlari hal etishlari uchun imkon berilsa , muvaffaqiyatga erishish mumkin

Dars jarayonida kreativ muhitni hosil qilish lozim. Bunda kreativ metodlardan foydalanish mumkin . Bugungi kunda ta'lim tizimini interfaol metodlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Dars jarayonida interfaol metodlar talabalarni yosh xususiyatini, dunyo qarashlarini inobatga olgan holda dars jarayoni olib boriladi. Bu jarayon yuqori kurslarda esa mukammallashi b boraveradi, chunki yo'qori kurslarda talabalar o'zlari deyarli pedagogik faoliyatga tayyor bo'lib qoladilar.

Talabalarda fikrlash ko'nikmalarini o'rgatish va rivojlantirish juda muhim hisoblanadi bular quyidagilar[2].

1. chunki talabalarning bilimlarini kengaytirishga yordam beradi, shu o'rinda mavzularni chuqurroq o'rganish orqali ularda fanlarga nisbatan qiziqishlar paydo bo'lishi va rivojlanishiga yordam beradi.

2 atrofda dunyo haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lishga yordam berishi mumkin;

3. qimmatli qarorlar qabul qilishda yordam berishi va unchalik ahamiyatsiz narsalarni aniqlashi mumkin;

4. turli muammolarni hal qilishda ustun bo'lishga yordam beradi;

5. mustaqil fikr yuritishda samarali bo'lib, ular tez orada o'zlarining aqlli qarorlarini qabul qilishga imkon yaratiladi;

6. akademik ko'rsatkichlarini yaxshilashda ko'maklashadi;

7. ijodiy yutuqlarni oshiradi;

8. talabalarning tengdoshlari bilan munosabatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Yuqoridagilardan tashqari talabalarga darslarni o'tish jarayonida interfaol metodlardan kuzatish metodi ancha ijobiy samara beradi. Rasmlarni ko'zdan kechirish talabalar ta'lim tarbiyasida ular bilan rasmlarni ko'zdan kechirish, diapozitiv, diafilmlar va kinofilmlarni ko'rish alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Bunday talabalar bilan olib

boriladigan ta'limiy ishlar mazmuni, shuningdek, ular bilish faoliyatining asosiy shakllar bilan belgilanadi[5].

Ta'lim tarbiya jarayonida rasmlarni ko'rib chiqish metodi: xilma-xil didaktik, o'quv vazifalarni hal etish uchun, buyumlar va atrofmuhitdagi hayot hodisalari haqidagi tasavvurlarini aniqlashtirish va boyitish uchun, bilimlarini umumlashtirish va sistemalashtirish uchun, lug'at boyligini faollashtirish va bog'lanishli nutqini rivojlantirish uchun, estetik idrokni shakllantirish, estetik taassurot va his-tuyg'ularni boyitish uchun foydalaniladi. Bugungi kunda rivojlanib borayotgan ta'lim tizimida didaktik o'yinlarni qo'llashda talabalarning fazoviy tasavvurini oshirish darsdagi samaradorlikka erishish uchun keng imkoniyat yaratib beradi.

Didaktik o'yinlar va rivojlantiruvchi mashg'ulotlar talabalarning shu fanga bo'lgan qiziqishlarini va salohiyatlarini rivojlantiradi. Bu o'yinlardan bir nechtasini ko'rib chiqsak va uni talabalarga qanday ahamiyatli ekanligini o'rgansak: "Aqliy hujum" – bu metod talabalarni mavzu xususida keng fikr yuritish, o'z tasavvurlari g'oyalaridan foydalanishga doir ko'nikma, malakalarni hosil qiladi[7].

Bu metod orqali darsda yaratilgan muammo yuzasidan bir necha o'ziga xos yechimlarni topish imkoniyati tug'iladi. "So'zdan so'z yasash" o'yini . Bu o'yin talabalarni so'z boyligini oshirishga, qayta xotiralanishga va mantiqan fikrlashni kengaytirishga undaydi. Bulardan tashqari amaliy mashg'ulotlar jarayonida talabalarga mustaqil topshiriqlar beriladi.

Shundan so'ng o'qituvchi ma'lum vaqtdan keyin ana shu mustaqil topshiriqlaridan foydalangan holda yasagan buyumlari haqida batafsil ma'lumotlar berishadi. Shunday qilib talabalarni amaliy mashg'ulotlar jarayonida kreativ tafakkurini rivojlantiradi qolaversa fanga nisbatan ularda qiziqishlar o'yg'otishadi. Bundan tashqari talabalarni kreativ fikrlashini rivojlantirishda; darslar jarayonida turli xil metodlarni qo'llash mumkin[8].

Xulosa qilib, shuni aytish mumkimki, bilimlarni mukammal izchil yetkazib berish uchun pedagoglar o'z zimmasidagi mas'uliyatni yaxshi his qilishlari kerak. Shuning uchun ham darsslarni o'tish jarayonida ko'p metodlarni qo'llash talabalarning mavzuni asosiy mazmunini tushunmay qolishiga sabab bo'ladi. Talabalarni birinchi kursligidanoq savol va topshiriqlarga to'liq, aniq javob berishlarini talab qilishimiz, ko'proq gapirtirishga atrof muhitga o'z munosabatlarini ochiq aytishga o'rgatib borishimiz zarur. Bu jarayonni har bir guruhgamasuliyat bilan davom ettirish lozim. Shundagina bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga o'z hissamizni qo'sha olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.O'. J.Yo'ldoshev Umumiy Pedagogika. Toshkent-2017
2. H.T.Omonov, N.X. Xo'jayev, S.A.Madyorova, E.U.Eshchonov. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat".Iqtisodiyot-Moliya" Toshkent-2009
- 3.Shomirzayev M. X. Developing educational technologies in school technology education //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – T. 10. – №. 5. – C. 73-79.

4. Shomirzayev M.X. Education is personally focused technology //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2020. – Т. 8. – №. 8.
5. Shomirzayev M.X. et al. National handicrafts of Uzbekistan and its social–economic significance //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2020. – Т. 8. – №. 8. – С. 129-138.
6. Shomirzayev M.X., Yuldashov K. K. The Educational Importance of Teaching Knowledge to Secondary School Students //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS. – 2021. – Т. 2. – №. 08. – С. 132-142.
7. Беспалко В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. —М.: Изд-во Института профессионального образования Министерства образования России, 1995.
8. Azizxo‘jaeva N. N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. —Toshkent: TDPU, 2003.

BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPITENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

**S.Toshpo‘latova, УТФ ва меҳнат таълими кафедраси мудири
Andijon davlat universiteti**

Maqolada "kompitensiya" tushunchasi, kasbiy (pedagogik) kompetensiyalarning turlari va tuzilishi bo'yicha turli nuqtai nazarlar keltirilgan kelajakdagi o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash jarayonida uni shakllantirish zarurligi to'g'risida.

Tayanch so'z va iboralar: *bo'lajak o'qituvchilar, kasb ta'limi, kompetensiya, kompetentlik, kasbiy kompetentlik, fanlararo integratsiya, integrativ-differentsial yondashuv.*

В статье представлены различные точки зрения на понятие «компетентность», виды и структура профессиональной (педагогической) компетентности, сделан вывод о необходимости ее формирования в процессе профессиональной подготовки будущих педагогов.

Ключевые слова и понятия: *будущие учителя, профессиональное образование, компетенция, компетентность, профессиональная компетентность, междисциплинарная интеграция, интегративно-дифференциальный подход*

The article presents the survey of the points of view concerning the concept of competence, types and the structure of professional (pedagogical) competence. The author concludes that the formation of the competence in the process of future teachers' training is of utter importance.

Key words and concepts: *future teachers, vocational education, competence, professional competence, interdisciplinary integration, integrative-differential approach*
Key words and concepts: *future teachers, vocational education, competence, professional competence, interdisciplinary integration, integrative-differential approach.*

O'zbekistonda zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar tadbirkor, ijodkor, mas'uliyatli, aniq qaror qabul qiluvchi kadrlarga bo'lgan ehtiyojni zarurligini

ta'kidlaydi. Shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi davrda informasion jarayonda tezkorlik bilan harakatlana oladigan, mustaqil ravishda takomillashib, rivojlana oladigan muayyan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta'lim jarayonini ijodiy tashkil etishga qodir malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyoj aniq sezilmoqda. Kasb-hunarga rasmiy munosabat emas, balki kasbiy mahorat, ya'ni mutaxassisning professional faoliyat talablariga muvofiqligi birinchi o'rinda turadi.

Shu munosabat bilan, oliy o'quv yurtida ta'lim va tarbiya jarayonida shakllanadigan professional malakali o'qituvchilarni tayyorlash muammosi keskin ravishda yuzaga keladi.

Shu bois, kelgusida texnologiya o'qituvchilarida mutaxassislik fanlarini o'rganish jarayonida kasbiy kompetensiyani shakllantirish masalasini ko'rib chiqish biz uchun qiziqarli va dolzarbdir.

Pedagogik universitetda texnologiya o'qituvchilarini tayyorlash amaliyotini tahlil qilish va ularning kasbiy kompetensiyani shakllantirish bir qator qarama-qarshiliklarni ta'kidlash imkonini berdi. Bu quyidagilar o'rtasidagi ziddiyatdir:

-texnologik ta'limni amalga oshirishga qodir bo'lgan va kasbiy kompetensiyani shakllantirish jarayoniga davlat ta'lim standartlarini yetarli darajada yo'naltira olmaydigan ta'lim sohasidagi kasbiy kompetensiyani mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj:

- mutaxassislik fanlarini o'rganish jarayonida bo'lajak texnologiya o'qituvchisining kasbiy kompetensiyani shakllantirish va ushbu jarayonning yaxlit nazariy va eksperimental asoslari yo'qligi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, ushbu tadqiqotning muammolari mutaxassislik fanlarini o'rganish jarayonida bo'lajak texnologiya o'qituvchisining kasbiy kompetensiyani shakllantirish uchun pedagogik shart-sharoitlarni ilmiy asoslash zarurligidan iborat.

Ko'rib chiqilayotgan muammoning dolzarbligi, uning ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi tadqiqot mavzusini belgilab berdi: "Bo'lajak texnologiya o'qituvchilarining innavasion jarayonda kasbiy kompetensiyani shakllantirish".

Bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini tayyorlashda oliy ta'lim o'qituvchilarining vazifalaridan biri talabalarning bilim olish faoliyatini faollashtirish bo'lib, unda talabalarning ijodiy, bilim qobiliyatini rivojlantirishga tayyor bilimlarni topshirishdan o'tkazish, ularda mustaqil bilim olish ko'nikmalarini shakllantirish ko'zda tutilgan.

O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi-bu o'qituvchining kasbiy muammolari va kasbiy pedagogik faoliyatning haqiqiy holatlarida yuzaga keladigan odatiy kasbiy vazifalarini hal qilish qobiliyatiga ega bo'lgan, bir tomondan bilim, ko'nikma, malaka, kasbiy va hayot tajribasidan foydalangan holda, kasbiy va shaxsiy malakalarni belgilaydigan rivojlangan shaxsning ajralmas xarakteristikasi yoki boshqa tomondan fazilatlarini.

Texnologiya o'qituvchining kasbiy kompetensiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: epistemologik, konstruktiv, tashkiliy, kommunikativ, tadqiqot va reflektiv. Kasbiy mahoratning tarkibiy qismlari motivatsiy, bilim, faoliyat, reflektivdir.

Universitetda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish muammosi turli yondashuvlar nuqtai nazaridan hal etiladi: tizimli, vakolatli, kontekstli. Ilmiy bilimlarning bir turi bo'lgan yondashuvlarning har biri tadqiqot ob'ektining turli jihatlarini aks ettiradi va shuning uchun boshqa yondashuvlar bilan o'zaro bog'liqlikda eng yuqori samaradorlikka ega bo'ladi.

Bo'lajak texnologiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish jarayonining samaradorligi quyidagi shart-sharoitlarni yaratish orqali ta'minlanadi: tizimli yondashuvni amalga oshirish, bo'lajak pedagoglarning kasbiy malakasini shakllantirish uchun o'quv predmetlarining imkoniyatlarini aktallashtirish orqali kontekstli yondashuvni amalga oshirish, ularning ixtisosligi va malakasini hisobga olgan holda, bo'lajak o'qituvchilarning o'z-o'zini rivojlantirish jarayonini rag'batlantirish.

Bo'lajak texnologiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish jarayonining mazmuni mutaxassislik fanlari bilan ta'minlanadi. "Texnologiya" ta'lim sohasidagi o'quv rejasining ikkita variantiga muvofiq texnologik (kasbiy) tayyorgarlikning tegishli darajasiga erishishga yordam beradi: 1 - variant - "Konstruksion materiallarni qayta ishlash texnologiyasi" va 2-variant - "Ro'zg'orshunoslik, mato va oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi".

Bizning fikrimizcha, o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini birinchi navbatda ta'lim muassasasining muayyan mutaxassisiga ta'lim berish va tayyorlash bilan belgilanadi.

Bunday mutaxassisni tayyorlash yaxlit-kontseptual yondashuvni o'z ichiga oladi. Kasb-hunarga (nimani va qanday qilib o'qitishni aniq tasavvur qilish), mehnat qiymatini tan olish (ta'lim olish motivatsiyasi), ta'lim jarayonining optimallashtirilishi, ta'lim texnologiyaga ega bo'lish o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini tashkil etish va o'z-o'zini rivojlantirish (faoliyatni aks ettirish).

Universitetda shaxsning pedagogik malakasini shakllantirish uchta asosiy yo'nalish bo'yicha amalga oshirilishi mumkin: asosiy ta'lim (umumiy kasbiy va fan-kasbiy bilim, ko'nikma va malaka); uslubiy madaniyat; pedagogik ijodkorlik (ijodkorlik). Bu yondashuvlarning barchasi shaxsiy va kasbiy o'sish mexanizmi sifatida aks ettirish rivojlanishi sharti bilan samarali amalga oshiriladi.

Bolajak texnologiya o'qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirish auditoriyada, mustaqil ta'limda, malakaviy va pedagogik amaliyotlarda, innovasion sharoitlarda izchil hamda tizimli amalga oshirilishi zarur.

Hulosa qilib aytganda, innovasion ta'lim jarayoni texnologiya o'qituvchilarga yuqori talablar qo'ymoqdai, chunki ular jamiyatning turli jabhalarida texnologik jarayonlarda xizmat qiladigan, hunar bilan shug'ullanadigan ijodkor, qobilyatli shaxslarni tarbiyalaydilar. Shu munosabat bilan bo'lajak texnologiya o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirish masalasi ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mutaxassislar tayyorlash masalalari va ularning amaliy yechimlarining to'plangan tajribasi adabiyotda ko'p tomonlama yoritilishiga qaramasdan, jamiyatda, fan va ta'limda rivojlanayotgan innovasion tendentsiyalar bu muammoni dolzarblashtiradi va uni kelajakdagi texnologiya o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarlik jarayonini takomillashtirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqishni talab qiladi.

Shu muammolarni hal etish vazifalarni quyidagicha belgiladik .

Birinchiidan, kontseptsiyani aniqlashtirish va jamiyatning zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarida o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini tavsiflash.

Ikkinchiidan, kelajakda o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish jarayoniga nazariy yondashuvlarni izlash ishlari olib borish.

Uchinchiidan , kelajakda texnologiya o'qituvchisi kasbiy kompetensiyasini shakllantirish shartlari aniqlash va sinovdan o'tkazish, universitetda mutaxassisning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning yaxlit pedagogik jarayoni modeli ishlab chiqish.

Adabiyotlar;

1. Абдуллина, О. А. Проблема формирования педагогических умений и навыков у будущих учителей Текст. / О. А. Абдуллина // Проблемы профессиональной подготовки студентов педвузов и университетов. М., 1976.-С. 43-48.
2. Кўйсинов О.А., Муслимов Н.А., Абдуллаева Қ., Гаипова Н., Каримова Н., Қодиров М. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси. Монография. – Т.: “Фан ва технология”, 2013. - 128 б.

CHIZMACHILIK VA DIZAYN FANINI TARIXI NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI

Andijon davlat universiteti
Tasviriy san'at va muhandislik
grafikasi kafedrasini mudiri, dots.
Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich
[*bahtiyor.haqberdiyev@mail.ru*](mailto:bahtiyor.haqberdiyev@mail.ru)
Janubiy Federal universiteti
Muhandislik va kompyuter
grafikasi kafedrasini mudiri, prof.
Abbasov Iftixar Balakishovich

Annotatsiya: *Ushbu maqolada talabalarni chizmachilik va dizayn fanlarini integratsiyalab o'qitishni samaradorligini oshirish usullari, tarixi, dizayn orqali geometric va islami naqshlarni qanday chizilganlik holatlari yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *chizmachilik, dizayn, fan, bilim, malaka, ko'nikma, integratsiya, tasavvur, ixtiro, tarix, shahar, qishloq, geometric jism, orthogonal, tekislik*

Аннотация: *В данной статье описаны пути повышения эффективности обучения студентов за счет интеграции дисциплин рисунка и дизайна, истории, как рисовать геометрические и исламские узоры через дизайн.*

Ключевые слова: *рисунок, проектирование, наука, знание, умение, умение, интеграция, воображение, изобретение, история, город, деревня, геометрическое тело, ортогональное, плоскость.*

Abstract: *This article describes ways to improve the effectiveness of student learning by integrating the disciplines of drawing and design, history, how to draw geometric and Islamic patterns through design.*

Keywords: *drawing, design, science, knowledge, skill, skill, integration, imagination, invention, history, city, village, geometric body, orthogonal, plane.*

Mustaqillikka erishganimizdan keyin halqimizning o'z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlari tarixini bilishga, o'zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. Bu - tabiiy hol. Odamzod borki, avlod-ajdodi kimligini, nasl-nasabini, o'zi tug'ilib voyaga etgan qishloq, shahar, hullaski. Vatanning tarixini bilishni istaydi.

Uch o'lchamli geometrik jismlarni grafik usulda shartli belgilar yordamida tekislikda tasvirlash va undan foydalanish g'oyalari insoniyat jamiyatining rivojlanishida ko'p asrlik tarixga ega. Tarixiy yodgorliklar, arxeologik qazilmalar shuni ko'rsatadiki, odamlar hali yozuv dunyoga kelmagan davrlardayoq atrofidagi turli buyumlarning tasvirini chiza boshlaganlar va o'zaro muloqotda tasvirlardan foydalanganlar. Ibtidoiy odamlar yaratgan qoyalardagi tasvirlar hozirgi to'g'ri burchakli (ortogonal) tasvirlarga o'xshab ketadi. Ko'pincha, mamont, bizon va boshqa hayvonlar yakka-yakka qilib tasvirlangan.

Shu tariqa avvallari oddiyroq, keyinchalik esa undan murakkabroq bo'lgan inshoot va buyumlarning tasvirlarini chiza boshladilar. Dastavval rasmlarning roli ortib bordi, keyinchalik chizmalarning roli keskin oshdi. Chunonchi, inson ongi taraqqiy etgan sari fan-madaniyat chizmalana bordi. Ishlab chiqarish, me'morchilik taraqqiy eta boshladi. Bular o'z o'zida grafikaning asosiy turi hisoblangan chizmalarning mohiyatini orttira boshladi. Uy-joylar, qo'rg'onlar va boshqa inshootlarni qurish davrida birinchi chizmalar paydo bo'ldi. Uch o'lchamli geometrik shakllarni (inshootlarni) grafik usulda shartli belgilar yordamida tekislikda tasvirlash va undan foydalanish g'oyalari insoniyat jamiyati rivojlanishida ko'p yillik tarixga ega. Misol tariqasida eramizdan oldingi 2500 yilga mansub bo'lgan Misrdagi Vavilon haykalini keltiramiz. Vavilonning tizzasidagi plitada saroy plani va uning masshtabi tasvirlangan (1.1 – chizma).



(1.1 – chizma)

Keyinchalik bunday reja-chizmalar pergament qog'ozlarda, yog'och-taxtalarda va xolostlarda kichraytirib bajarila boshlandi. Dizayn uchun esa XX asrni haqli ravishda —dizayn asr deb atash mumkin. Uning 100 yillik tarixida —ilohiy buyuk asarlar dunyoga keldiki, ularni Evropada —dizayn ikonasi deb atashadi. Ular dizayn taraqqiyoti shajarasini (bosqichlarini) aks ettiradi. Bugungi kunlarda ularga bag'ishlab maxsus muzey va ko'rgazma zallari bunyod etilmoqda. Dunyoda nom taratgan Le Karbyuze, Marsel Broyer, Charlz Makintosh va Gerrit Ritveld mebellari, Jezef Xoufman, Karl Pott hamda Arne Yakobson idish-tovoqlari, bu buyumlar hozirgacha ishlab chiqarilmoqda hamda ofis va boshqa salonlar interyerlarining eng nafis va zarur bezaklaridir.

Endilikda dizayn tarixi ham san'at va arxitektura tarixi kabi butun bir fanga aylanib ulgurdi. Dizayn ham o'z tarixi va insonning predmetlar olami muhitiga bo'lgan munosabatini o'rganuvchi madaniy, falsafiy, psixologik nuqtai nazardan o'z nazariyasiga ega bo'lgan fan sohasi ekanligini e'tirof etish mumkin. Bu sohadagi dunyo olimlari, xorijiy va mamlakatimiz tadqiqotchilarining izlanishlarini umumlashtirib, boshqa gumanitar va tabiiy fanlar, texnika yutuqlari, pedagogikpsixologik metod va texnologiyalarni qo'llagan holda chizmachilik va dizayn nomli darslarni tyashkil qilmoqdamiz.

Keyinchalik chizmalarda buyumning chizmaini, shuningdek, o'lchamini ko'rsatishga harakat qilingan va chizmalar astasekin takomillashib borgan. Ko'priknig yuqoridan va soqchi minorasining oldidan ko'rinishidagi chizmasi (XVII asr) berilgan. Rossiyada kemasozlikning rivojlanishi natijasida yanada aniqroq va chizma masshtabiga rioya qilingan chizmalar paydo bo'ldi. Bunda uzunligi, kengligi va balandligi tasvirlangan uchta proyeksiyadan foydalana boshlandi.

O'rta Osiyo mintaqasida qishloq va shaharlarning paydo bo'lishi asrimizdan oldingi bir minginchi yillarning o'rtalariga to'g'ri kelsa, mahalliy uslubda me'morchilik va dekorativ ishlamning ayrim sohalari asrimizdan avvalgi III asrga to'g'ri keladi. O'zbekiston hududida Surxondaryo va boshqa viloyatlarda o'tkazilgan arxeologik qazilmalar shuni ko'rsatadiki, asrimizdan avvalgi VII-V asrlarda O'rta Osiyo bilan Eron Sosoniylari, Vizantiya, Hindiston va Xitoy O'rtasida vujudga kelgan iqtisodiy va madaniy aloqalar natijasida amaliy san'atning rivojlana borishi o'z o'rnida grafika taraqqiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Simmetriya, geometrik chizmalar bu davrda o'z ifodasini topa boshladi. Tasviriy va naqsh san'ati dizaynga uyg'unlashgan holda paydo bo'la boshladi. Ayniqsa, naqsh san'ati Xorazm, Sug'd, Baqtiriya viloyatlarida IV—II asrlardan boshlab rivojlangan. Surxondaryo viloyatidagi Fayoztepa (I II asrlarda), Dalvarzintepadan topilgan naqsh qoldiqlari, Xorazmdagi Tuproqqal'a zallari monumental naqshlar bilan bezatilganligi bizlarga arxeologik qazilmalardan ma'lum.

Xorazm vohasida me'moriylik san'ati eramizdan avvalgi III asrda va eramizning III asrida ulkan yuksaklikka erishdi. Shu davrda Termiz madaniyati shuhrati dunyoga tarqaldi. Afrosiyob va Axsikent yangi eramizning III—VII asrlaridek tom ma'noda gullab yashnadi, tabiiyki, bu davrda o'yma naqshlarni tasvirlash usuli rivojlandi. VII-IX asr o'rtalarida arablar istilosi va islom dinining qabul qilinishi natijasida jonli mavjudotlarni tasvirlash ma'n etildi. Ularning o'miga naqqoshlik rivojlanib, naqshlar bilan unvonli yozuv (epigrafika) uslubi paydo bo'ldi.

XI asr oxirida Buxoro hukmdori Ismoil Somoniy davrida mustaqil feodal davlati tuzilib, fan, madaniyat, san'at va me'morchilik rivojlandi. Bular o'z o'rnida grafikaning rivojlanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Grafikaviy geometrik chizmalar, naqshlarning turli xillari tarkib topa boshladi. IX-X asrlardan naqqoshlik san'ati rivojlandi. XI-XII asrlardan boshlab geometrik naqsh, ya'ni girixlar keng qo'llanila boshlandi. Bunga misol Buxorodagi Ulug'bek, Ismoil Somoniy maqbaralari, Kalon mi norasi, Samarqanddagi Shohizinda, Go'ri Amir maqbaralari, Ulug'bek,

Sherdor, Tillakori madrasalari, Shahrisabzdagi Oq Saroy bezaklari va boshqalardir. O'sha zamon uchun girixning chizmachilik asboblari, matematika formulalari asosida ishlanishi katta ilmiy kashfiyot edi. Bunday olimlar ichida alohida mavqega ega bo'lgan naqqoshlar va chizmakashlar ham bo'lib, ular grafikaning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Me'morlar har bir inshootni qurishda o'ziga xos chizmalardan foydalanishgan.

Ravoq bo'ylash usuli, gumbaz qurish usuli, linga o'rnatish va boshqa usullarning avvalo chizmalari tayyorlangan. Xiyobon va chamanzorlarning tarxini ham tuzishgan. Xalq ustalari binolarni va rasmlar kolleksiyasini yig'ganlar. Bu usul bilan keyingi me'morlarga loyiha va naqsh yasash kaliti berilib, ularning keyingi rivojiga yo'l ochib berilgan.

Keyinchalik tasavvur qilish orqali simmetriya, muvozanat, mutanosiblik, uyg'unlik va chiziqning go'zalligi haqida tushunchalar paydo bo'la boshlagan. Me'morlar loyihalarni chizishda turli sharoitlarni hisobga olishgan. Masalan, Ibn Xoldun yaratgan me'morchilik chizmalariga asosan uy-joylar qurila boshlangan. Amur Temuning zamondoshi yirik olim Ibn Xoldunning fikricha shaharlarni qurishda albatta uning sifatli puxta o'rganib chiqilgan chizmasi boiishi lozim bo'lgan. Ma'lum hunar uchun zarur bo'lgan ilmlarning tarkibiy qismi sifatida chizmakashlik hunari avloddan avlodga o'tgan va takomillashib borgan.

Olimlar, chizmakashlar va me'morlar (ular geometriyani yaxshi bilishgan) bevosita geometrik yasashlar va grafik tasvirlar bilan shug'ullanib, ulardan foydalangan holda o'z fikr va g'oyalarini bayon qilishgan. Natijada yangi-yangi grafik tasvirlar vujudga kelib, takomillashib va rivojlanib borgan.

Qadimgi Sharq mamlakatlarida, Misr va Yunonistonda maxsus geometrik uyg'unlikni belgilovchi me'moriy dizaynga mos "qonun" bo'lganligi va Afina shahridagi qadimgi Akropolning mo'jizadek asori-atiqalari maxsus qonun asosida yaratilganligi haqida tarixiy ma'lumotlar bor. "Qonun" so'zi yunoncha "kanna" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u "Kanna" - o'lchov tayog'i, "Gazcho'p" ma'nosini bildiradi. Demak, me'mor ustalarning ish quroli bo'lgan gazcho'p o'lchov me'yori sifatida, keyinroq hamma soha tartibini belgilovchi "Qonun" so'zining kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Chizmachilik va dizayn fanini tarixi nazariy va amaliy ahamiyati mavzusi bo'yicha hozirgi kunda ilmiy tadqiqotchilar tomonidan izlanishlar olib borilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Haqberdiyev, B. R., & Rustamov, U. (2021). Creative design of buildings and structures. current research journal of pedagogics, 2(09), 76-78.

2. Haqberdiyev, B. R., Otaxonova, S. F., & Qodirova, D. I. (2021). Chizmachilik va dizayn fanlarini integratsiyalash orqali takomillashtirish. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 1189-1192.
3. Haqberdiyev, B. R., Otaxonova, S. F., & Qodirova, D. I. (2021, November). increasing student creativity in the integration of drawing and design sciences. In *Archive of Conferences* (pp. 42-43).
4. Haqberdiyev, B. R. (2021). Oriental architectural monuments. the objectives and tasks of the course of designing architectural elements. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(7), 276-284.
5. Haqberdiyev, B. R., Kochkarov, B., & Mamitaliyev, A. (2020). Contents, value of interdisciplinary relations. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(2), 476-479.
6. Haqberdiyev, B. R. The method of modeling in the integration of disciplines design and engineering graphics *Bulletin of Osh State University*. 2018. № 3. С. 17-20.
7. Abbasov I.B., Hakberdiyev B.R. The integrated design and engineering graphics subjects described in the design and integration В сборнике: International scientific and practical online conference "Innovative ideas, developments in practice: problems and solutions". 2020. С. 121-123.
8. Haqberdiyev Bakhtiyor Rustamovich Designing of architectural elements DOI: <http://doi.org/10.5281/zenodo.4716849> Primedia E-launch LLC, 5518 Flint St, Shawnee, 66203, USA

BO'LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA MUTAXASSISLIK FANLAR BO'YICHA MASHG'ULOTLARDA TALABALARNING TEXNIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK SHART-SHAROITLARI

Rahimova Naima Sobirjon qizi
Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti 1-kurs magistranti

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada oliy ta'limda bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda mutaxassislik fanlari bo'yicha mashg'ulotlarda talabalarning texnik tafakkurini rivojlantirishning metodik shart-sharoitlarini nazariy jihatlarini yoritib berilgan.*

***Аннотация:** В данной статье рассмотрены теоретические аспекты методических условий развития технического мышления студентов при подготовке будущих учителей технологии в высшей школе на уроках предметов специальности.*

***Annotation:** This article describes the theoretical aspects of the methodological conditions for the development of technical thinking of students in the training of future teachers of technology in higher education in the lessons of specialty subjects.*

***Kalit so'zlar:** Texnologik ta'lim, metodika, pedagog, texnik tafakkur, amaliy mashg'ulot.*

***Ключевые слова:** технологическое образование, методика, педагогика, техническое мышление, практические занятия.*

Keywords: *Technological education, methodology, pedagogy, technical thinking, practical training.*

KIRISH. O'zbekiston taraqqiyotida xalqning boy ma'naviy salohiyati va umuminsoniy qadriyatlarga hamda hozirgi zamon madaniyati, iqtisodiyoti, ilmi, texnikasi va texnologiyasining so'nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta'lim tizimini barpo etish dolzarb ahamiyatga ega. Bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimining muhim bosqichi bo'lgan oliy ta'lim tizimiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash sifati va samaradorligiga katta talablar qo'yimoqda.

Jamiyatning ta'limga nisbatan o'sib borayotgan talabini va fandagi sifat siljishlarni hamda uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlaridagi ta'lim mazmuni va usullarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashxislash tizimli yondashuv asosida amalga oshirilganda samara beradi. Pedagogikada ta'lim jarayoniga tizimli yondashuvning asosiy vazifasi tadqiq etilayotgan ob'ektni namoyish etishning konseptual vositalarini, tizimning tasnifi va pedagogik modeli ko'rinishida ishlab chiqishdan iborat.

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini o'z kasbining bilimdoni qilib tayyorlashda oliy o'quv yurtlaridagi talabalar ilmiy tadqiqot ishlari metodologiyasini yaxshi yo'lga qo'yish katta rol o'ynaydi. Bunday ilmiy tadqiqot metodologiyasi bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashning asosi ikki jihatga ega.

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda tadqiqotchilik ko'nikmalarining o'rnini muhim. Bularga nazariy o'rganish, kuzatish, muammoni qo'ya bilish, faraz qilish, farazdan kelib chiqib reja tuzish, tajriba o'tkazish, tajriba natijalarini olish, farazga nisbatan tajriba natijasini taqqoslash, nazariy tahlil qilish va umumlashtirish, amalda qo'llab ko'rish kabilar bilan bog'liq ko'nikmalar kiradi. Aytilganlarning ba'zilarini fan asoslarini o'rganishda, ba'zilarini amaliyot jarayonida, yana boshqalari izlanish ishlari orqali shakllanadi. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining faoliyatida, muammoni qo'yish uchun tadqiqot vazifasi birinchi o'ringa o'tishi maqsadga muvofiq, chunki unda bajariladigan ishning maqsadi va unga bo'lgan ehtiyoj o'z aksini topadi. Texnik ijodkorlikda tadqiqot vazifasi talabalarni izlanish faoliyatiga jalb qilishning asosi hisoblangani uchun u tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishning va ijodkorlik faoliyatini jadallashtirishning zaruriy vositasi bo'lib hisoblanadi. Yuqorida qayd etilganlar ijodkorlik masalalarini yechishda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishning mohiyati va strukturasi to'laroq tavsiflashni taqozo etadi. Tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish deganda talabalarning ilmiy-texnikaviy ijodkorlik masalalarini yechishda tadqiqot vazifalarini bajarish bilan bog'liq ilmiy metodlardan oqilona foydalanishga o'rgatish tushuniladi.

Texnologik ta'lim jarayoni tizimlarini ilmiy-uslubiy tadqiq qilish va ulardan jarayonlarni boshqarishda foydalanish ko'pgina muammolarning echimini topish imkonini yaratadi, bular:

- ❖ rejalashtirilgan ta'lim jarayonini chuqur tahlil qilish;
7. Shomirzayev M.X. The Concept of Pedagogical Technology and Basic Principles. Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal.(Affiliated to Kurukshetra University, Kurukshetra, India), Vol. 10, Issue 11, November 2020 Scientific Journal Impact Factor (Sjif 2020-7.13). Part 1554-1563.

BO'LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O'QITUVCHISINING INNOVATSION MA'DANIYATINING DIDAKTIK HOLATI

Nurmamatov Zuxriddin Shavkat o'g'li

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi.

Termiz, O'ZBEKISTON

E-mail: zuxriddinbekjon@umail.uz

***Annotatsiya:** Maqolada innovatsion madaniyat didaktik yangiliklarning materiali va vositasi va o'qituvchining kasbiy va uslubiy taraqqiyotining manbai bo'lishi mumkin, shu bilan birga u didaktik yangilik chegaralarini belgilaydi va nazorat funksiyasini bajarishi haqida fikr yuritiladi.*

***Kalit so'zlar va tushunchalar:** tenologiya, pedagogika, innovatsiya, faoliyat, tayyorlash, inovator.*

ДИДАКТИЧЕСКИЙ СТАТУС ИННОВАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ ТЕХНОЛОГИИ

Нурмаматов Зухриддин Шавкат оглы

Преподаватель Термезского государственного университета.

Термез, УЗБЕКИСТАН

Электронная почта: zuxriddinbekjon@umail.uz

***Аннотация:** В статье рассматривается, что инновационная культура может быть материалом и средством дидактического новаторства и источником профессионально-методического развития учителя, определяя при этом границы дидактического новаторства и выполняя свою контролирующую функцию.*

***Ключевые слова и понятия:** технология, педагогика, инновации, деятельность, обучение, инноватор.*

DIDACTIC STATUS OF INNOVATIVE CULTURE OF A FUTURE TECHNOLOGY TEACHER

Nurmamatov Zuxriddin Shavkat oglu

Lecturer at Termez State University.

Termez, UZBEKISTAN

E-mail: zuxriddinbekjon@umail.uz

***Annotation:** The article discusses that innovative culture can be a material and means of didactic innovation and a source of teacher professional and methodological development, while defining the boundaries of didactic innovation and fulfilling its supervisory function.*

***Keywords and concepts:** technology, pedagogy, innovation, activity, training, innovator.*

Insoniyat duch kelayotgan muammolardan xabardorlik, bizni texnik yangiliklarni baholash mezonlarini o'zgartirishga majbur qiladi. Insoniyatning o'z kelajagini qurish haqidagi g'amxo'rligi birgalikda yashash, birovning nuqtai nazarini tushunish, muloqot

qilish, hamkorlik qilish, birgalikda harakat qilish, shaxs huquqlarini hurmat qilish, tabiat va an'analarni hurmat qilish g'oyalarini ilgari suradi[3].

Bularning barchasi 1986 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Madaniyatni rivojlantirishning o'n yilligini ta'sis etish to'g'risidagi qarorida o'z ifodasini topdi[2]. Butunjahon madaniyatni rivojlantirish, o'n yilligi bo'yicha idoralararo qo'mita yakuniy ma'ruzasida ta'kidlanganidek, o'zgarishlar an'analar ma'nosini, jamiyatdagi davomiyligni, haqiqiy qadr-qimmat va hayot mazmunini buzmasligi kerak.

“Kelajak ming yillikka insoniyat mavjudligining o'ziga xos belgilari bo'lgan madaniyat va bunyodkorlik eshigidan kirib borish, odamlarning ijodiy impulslarining ulkan kuchini yuzaga chiqarish”[4] - bu Jahon madaniyati o'n yilligining asosiy vazifasidir.

Madaniyatning semantik miqyosi kundalik ongda "madaniy shaxs" tushunchasi bilan mustahkamlangan shaxs madaniyatidan tortib, "tabiat (tabiat)" tushunchasiga qarama-qarshi hisoblangan umuminsoniy madaniyatga qadar davom etadi. Ushbu oraliqda madaniyatning yana ikkita semantik pozitsiyasi tez-tez uchraydi. Muayyan ijtimoiy guruh madaniyati (milliy madaniyat, kasbiy madaniyat va boshqalar) va muayyan jamiyat madaniyati (qadimgi madaniyat, o'rta asrlar madaniyati va boshqalar)[4].

“Madaniyat - bu turli madaniyat vakillari - o'tmish, hozirgi va kelajak o'rtasidagi muloqotda bir vaqtning o'zida mavjud bo'lish shakli, ushbu madaniyatlarning muloqoti va o'zaro avlodi.

Innovatsion madaniyat didaktik yangiliklarning materiali va vositasi va o'qituvchining kasbiy va uslubiy taraqqiyotining manbai bo'lishi mumkin, shu bilan birga u didaktik yangilik chegaralarini belgilaydi va nazorat funksiyasini bajaradi.

Texnologiya fani o'qituvchisining innovatsion madaniyati o'qitish va tarbiyalash kontekstida ko'rib chiqiladigan innovatsion madaniyatning quyi tizimidir. U boshqa madaniyat turlari, masalan, gnostik va loyiha madaniyatlari bilan o'zaro bog'liqdir. Biroq, asosiy e'tibor voqelik haqida yangi bilim olishga qaratilgan gnostik madaniyatdan farqli o'laroq, innovatsion madaniyat ilmiy bilimlarni amaliy qo'llash sohasini dolzarblashtiradi, mavjud bilimlarni va ularni o'qitish samaradorligini oshirish uchun o'zlashtirishni istisno qilmaydi. Loyiha madaniyati bilan ko'p jihatdan mos keladigan innovatsion madaniyat innovatsion va pedagogik faoliyatning barcha pozitsiyalarini birlashtirishni va innovatsion o'zaro ta'sir natijasida ularning mustahkamlanishini ta'minlaydi[6].

Innovatorning innovatsion madaniyati uning ideal innovatsion va pedagogik faoliyatining hosilasi bo'lib, uning sifatini ifodalaydi. Shu bilan birga, u an'analar va ijodkorlikni, teleologik intilishlarni amalga oshirishni va innovator tashabbusini anglatadi. Innovatsion madaniyat texnologiya fani o'qituvchisining kasbiy va uslubiy taraqqiyotini ham belgilaydi.

Agar bir butun sifatida olingan madaniyat inson faoliyatining yig'indisi va mahsuli ekanligidan kelib chiqadigan bo'lsak, innovatsion madaniyat innovatorning innovatsion-pedagogik faoliyatining yig'indisi va mahsuli, ya'ni novator nima yaratayotgani va uni o'z ongida qanday yaratishi va amalga oshirish yig'indisi yo'naltirilgan, erkin va doimiy ravishda innovatsion va pedagogik faoliyatni takomillashtirish.

Innovatsion madaniyatni bunday tushunish uning bir qator o'ziga xos funktsiyalarini shakllantirishga imkon berdi.

Innovatsion madaniyatning ratsional va prakseologik funktsiyasi shundan iboratki, uning mazmuni amaliyot, o'zaro nazorat va pedagogik eksperiment orqali har tomonlama ko'rikdan o'tgan, maqsadga muvofiq tashkil etilgan, samarali o'quv qurollari bilan to'ldirilgan. Bu erda konsentrlangan shaklda innovatsion amaliyotning usullari va vositalari ham taqdim etiladi[1].

Innovatorni innovatsion va uslubiy faoliyatning belgilangan me'yoriy tasdiqlangan, stereotiplangan tartiblariga kiritish tashkiliy-tartibiy yoki didaktik funktsiya tufayli amalga oshiriladi.

Innovatsion madaniyatning tavsiflovchi va tushuntirish funktsiyasi tushunchalar tizimi yordamida innovatsion muammoning mohiyatini etarli darajada ifodalash, shuningdek, o'rganishning davom etayotgan o'zgarishlarini tushuntirishdan iborat bo'lib, bu aniq ma'lumotlarda zarur va o'z vaqtida tuzatishlar kiritishga imkon beradi.

Innovatsion madaniyatning prognostik-boshqaruv funktsiyasi innovatorga o'rganish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan progressiv o'zgarishlarni bashorat qilish, bashorat qilish va ularni boshqarish, tegishli shart-sharoitlar va baholash mezonlarini yaratish imkoniyatini beradi[7].

Innovatsion madaniyat fondida innovatsion va uslubiy faoliyat namunalari va namunalarning mavjudligi innovatorga nafaqat dolzarb innovatsion muammolarga e'tibor qaratish, balki ushbu fondni aks ettirish va yangilash imkonini beradi. Bu innovatsion madaniyatning evristik-kognitiv funktsiyasidir.

Innovatsion madaniyatning kommunikativ-tarjimaviy funktsiyasi tufayli innovatorlarning kollektiv innovatsion ongi uning asosida hamkorlik qiladi, doimiy monitoringni tashkil etish va mahsulotlar almashinuvi va innovatsion va uslubiy faoliyat tartiblari amalga oshiriladi[8].

Xulosa qilib aytganda texnologiya fani o'qituvchisining innovatsion madaniyati innovatsion faoliyat sohasidagi tarqoq bilimlarni mazmunli umumlashtirishdir. U innovatsion faoliyatning asosiy yo'nalishlarida amalga oshiriladigan innovator faoliyatining turli shakllari o'rtasidagi haqiqiy aloqalarni o'z ichiga oladi: uslubiy qidiruv, uslubiy yangilikni yaratish, uslubiy innovatsiyani amalga oshirish va didaktik innovatsiyani aks ettirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jejko I.V. Innovatsion faoliyat samaradorligini ta'minlashda tashkilot xodimlarining roli // Tashkiliy tizimlarda innovatsiyalarning ijtimoiy shakllari. - M.: Vsesoyuz. ilmiy - tadqiqot. in-t tizimlari, issled., 1980. - S. 47-57.
2. Juk A.I. Ijodiy o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi nazariyasi haqida // O'qituvchining ijodiy shaxsini shakllantirish: Sat. ilmiy Art. / Milliy Ta'lim instituti, dots. tadqiqotchi o'qituvchilar. - Minsk, 1993. - S. 13-20.
3. Juravlev V.I. Pedagogika fani va amaliyotining aloqasi. - M.: Pedagogika, 1984. - 176 b.
4. Juravlev V.I. Insoniy fanlar tizimida pedagogika. - M.: Pedagogika, 1990. - 164 b.

5. Zavyalov V.V. O'qituvchining kasbiy va uslubiy mahoratini shakllantirish mezonlari to'g'risida // Novye issled. ped ichida. fanlar. - 1980. - No 2 (36). - S. 56-58.
6. Shomirzayev M. X. Developing educational technologies in school technology education // Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – T. 10. – №. 5. – С. 73-79.
7. Shomirzayev M.X. Education is personally focused technology // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2020. – T. 8. – №. 8.
8. Shomirzayev M.X. et al. National handicrafts of Uzbekistan and its social–economic significance // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2020. – T. 8. – №. 8. – С. 129-138.

ИННОВАЦИОН ЁНДОШУВ АСОСИДА ЎҚУВЧИЛАРДА ТЕХНОЛОГИК КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ МАЗМУНИ, МЕТОД, ШАКЛ ВА ВОСИТАЛАРИ

**Д. Холмирзаева – магистрант, А. Запаров – профессор.
Андижон давлат университети**

***Аннотация:** Ушбу мақолада инновацион ёндошув асосида умумий ўрта таълим мактаби ўқувчиларида технологик компетенцияларни шакллантиришнинг мазмуни, метод, шакл ва воситалари ишлаб чиқилган.*

***Калит сўзлар:** Инновация, инновацион жараёнлар, инновацион таълим, инновацион технологиялар, Технология таълими, технологик компетенция, компьютер соводхонлиги, ахборот муҳити.*

***Аннотация:** В данной статье разработаны содержание, методы, формы и средства формирования технологических компетенций учеников средних общеобразовательных школ.*

***Ключевые слова:** Инновация, инновационные процессы, инновационное обучение, инновационные технологии, Технологическое обучение, технологическая компетенция, компьютерная грамотность, информационная среда.*

Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги томонидан тасдиқланган технология фани ўқув дастурида технология инсон манфаатлари йўлида материя, энергия ва ахборотларни ўзгартириш ҳамда улардан фойдаланиш ҳақидаги фан сифатида таърифланади. Бу эса уни техник меҳнат соҳасида тайёрлаш асослари сифатида анъанавий тушунишга мос келади.

Умумий ўрта таълимда технология ўқув фанини ўқитишнинг асосий мақсади ўқувчиларда техник-технологик ва операцион билим, кўникма, малакаларини ривожлантириш, касб-хунар танлаш, миллий ва умуминсоний қадриятлар асосида ижтимоий муносабатларга кириша олиш компетенцияларини шакллантиришдан иборат[1].

Кейинги вақтларда бутун “табиат – амалиёт – инсон – фан” тизими билан боғланаётган “технология” атамаси янгича талқин этилмоқда.

–технология юнонча *techne* – санъат, маҳорат, *logos* – таълимот. Ўзбекистон энциклопедияси. – Т.: Ўзбекистон энциклопедияси бош редакцияси, 2004. Том 6. 459-б.

–технология юнонча *techne* – санъат, маҳорат, *logos* – таълимот. Политехника луғати. – Т.: Ўзбек Совет Энциклопедияси Бош редакцияси, 1989.

–технология (юнонча *techne* – санъат, маҳорат, *logos* – таълимот) – маҳсулотларни тайёрлаш, материаларни қайта ишлаш, тайёр буюмларни йиғиш, сифатни назорат қилиш, бошқариш жараёнида моддалар, энергия, ахборотларни қайта ўзгартириш усули. Технология иш методлари, услублари, тартибини, иш амаллари ва тадбирлар кетма-кетлигини ўзида мужассамлантиради, у воситалар, жиҳозлар, инструментлар, фойдаланиладиган материаллар билан узвий боғлиқ. Технологик операциялар йиғиндиси технологик жараёнларни ҳосил қилади.

Ҳозирги замон фанида “технология” атамаси қуйидаги бирликларда ишлатилади: ўқитиш технологияси, таълим жараёни технологияси, тайёрлаш технологияси, бошқариш технологияси, мультимедиа технологияси. Профессиональное образование. Словарь.– М.: Издательство “Новь”, 1999.

–технология – ишлаб чиқаришнинг муаян тармоғидаги ишлаб чиқариш жараёнлари йиғиндиси, шунингдек, ишлаб чиқариш усуллариининг илмий тавсифи. Ожегов С.И. Словарь русского языка. – М.: Русский язык, 1986.

Юқорида номлари келтирилган муаллифларнинг фикрича, “технология”га оид ёндашувлар ва қоидаларда у ёки бу меҳнат предметларини қайта ўзгартириш бўйича анъанавий (моддий) ёки умумлашган технологияларга урғу беришнинг турли даражаси кузатилади.

Таҳлиллардан маълум бўладики, “технология” тушунчасига унинг ривожланиши ва моддий ишлаб чиқариш жараёнларини белгилашдан инсон эҳтиёжларини таъминлаш бўйича кенг қайта ўзгартириш фаолиятини аниқлашга ўтиш ҳақидаги ёндашувларда фаол ва муҳим ўзгаришлар юз бермоқда. Бунда технология кенг маънода инсоннинг нафақат моддий ишлаб чиқариш билан боғлиқ фаолияти, балки умуман қайта ўзгартириш фаолияти сифатида ҳам тушунилади.

Технологияга оид асосий ғояларни, хусусан, асосий концепцияларни ўрганиш шуни кўрсатадики, мамлакатимиз педагогикасида ўқувчиларнинг технологик тайёргарлигига табиий-илмий, тузилмавий, функционал ёндашувлар, энг жиддий тарзда, ишлаб чиқариш фаолияти аспектида қараб ўтилади.

Тадқиқотчилар мактаб ўқувчиларининг амалий йўналтирилган янги ўқитиш тизимига ўтишининг шарт-шароитларини аниқлашга катта эътибор берди. Қатор педагог олимларнинг ишларида жамиятдаги таълим салоҳиятини ва ундан фойдаланишни ҳамда эҳтиёжларни ҳисобга олиб, мослашувчан технологик тайёрлашни амалга ошириш имкониятлари баён этилган [2,3,4,5]. Кенг доирадаги мутахассисларнинг жамоавий саъй-ҳаракатлари янги таълим соҳасининг методик, кадрлар ва ахборот таъминотини таъминлаш йўллари аниқлашга қаратилди.

Шахс ривожланишининг ёш даврини ҳисобга олиб, мактаб ўқувчиларида технологик компетенцияларни шакллантиришда қуйидаги вазифалар ҳал этилади:

–ўқувчиларда технологик билим, кўникма ва малакаларни, меҳнат предметлари ва воситаларидан фойдаланиш функционал саводхонлигини шакллантириш;

–фикрлар доирасини кенгайтириш ва фан асосларини ўрганишда олинган билим ва малакаларни технологик фаолиятда мустаҳкамлаш;

–ўқувчиларда фаол ҳаёт позицияни, рақобатбардошликка тайёрликни, бозор муносабатлари тизимига фаол кириша олиш қобилиятини тарбиялаш;

–ижодкорлик қобилиятларини ривожлантириш, лойиҳалаш фаолияти, тадбиркорлик асосларини эгаллаш;

–муҳим касбий сифатларни шакллантириш ва аниқлаш;

–меҳнат бозори билан таништириш, касбий ўз-ўзини белгилаш ва ижтимоий-касбий карьерани режалаштириш;

–касбий фаолиятнинг танланган йўналиши бўйича фаолият усулларини ва меҳнат воситаларини чуқур эгаллаш.

Замонавий педагогик амалиётда мактаб ўқувчиларида технологик компетенцияларни шакллантириш вазифалари таҳлили меҳнат(Технология) таълими анъаналари ва моддий ишлаб чиқариш соҳасига устувор йўналганлик сақланганлигидан далолат беради. Бу билан шакли бўйича технологик, лекин моҳиятига кўра политехник бўлиб қолган амалий йўнатирилган таълимнинг мақсадлари доираси аниқланади.

Амалиётнинг кўрсатишича, умумий ўрта таълим тизимида технологик тайёрлов истиқболлари, унинг аҳамияти ва ўрни ўқитиш жараёнида ўқувчиларнинг кенг ижтимоий касбий шаклланиши эҳтиёжларига мувофиқ ривожланиши вазифалари билан аниқланади. Мактаб ўқувчиларида технологик компетенцияларни шакллантиришнинг ҳозирги замон босқичи илғор назарияси ва амалиёти ижтимоий меҳнат фаолиятининг турли соҳалари тузилмасида амалий йўналтирилган таълим асосларини шакллантириш имконини яратади.

Мамлакатда содир бўлаётган ижтимоий-иқтисодий ўзгаришлар натижасида меҳнат бозори юзага келди, бу эса, ўз навбатида шубҳасиз, таълим бозорига олиб келди. Таълимнинг бозор модели индивиднинг шарт-шароитларига, ишлаб чиқаришнинг эҳтиёжларига, янги ҳуқуқий ва қадриятий йўналишларга мослашиши вазифасини қўяди. Таълим хизматлари тизимига ўтиш буюртмачининг қизиқишлари ва имкониятларини ҳисобга олган ҳолда, таълимга бўлган эҳтиёжларини қониқтириш заруриятини аниқлаб беради[1,2,3].

Технологик компетенцияларни шакллантиришнинг асосий вазифаси ўқувчиларни амалий фаолиятга тайёрлаш, таълим ва амалиётнинг ўзаро таъсирини реал мавжудлик билан оптималлаштириш, мактаб ўқувчиларининг ижтимоий-касбий ўз-ўзини белгилашини ва мослашишини таъминлашдан иборат.

“Технология” ўқув фани умумий ўрта таълим тизимида муҳим ўрин эгаллайди ва ўқувчиларда технологик компетенцияларни шакллантириш ва ўқитишнинг зарурий компоненти ҳисобланади ва уларга технологик билимларини амалиётда қўллаш имкониятини яратади. “Технология” ўқув фанини инновацион

ёндашув асосида ўқитишда ўқувчиларда технологик компетенцияларни шакллантириш ҳам педагогик, ҳам бошқарув масалалари ҳал этишни тақозо этди.

Таълим муассасасида технологияни ўқитишдаги инновацион ёндашув- бу ўқув жараёнига таълим муассасаси томонидан киритилган янгиликларнинг йиғиндисини ифода этади. Бу муҳитда ўқитувчининг педагогик фаолияти ва таълим жараёни (ўқувчиларда технологик компетенцияларни шакллантириш)ни муваффақиятли амалга ошириш мумкин. Инновацион ёндашувни бундай маънода тушунишда технологик таълим учун яратилган педагогик шарт-шароит ўқитувчи фаолиятининг муҳим шarti ҳисобланади.

Инновацион ёндашув асосида ўқувчиларда технологик компетенцияларни шакллантиришнинг асосий мақсади ва мазмуни мактаб ўқувчиларини ижодий меҳнатга тайёрлаш ва унинг ҳар томонлама уйғун ривожланишини таъминлашдан иборат[59]. Мактаб ўқувчиларида технологик компетенцияларни шакллантириш мақсадлар ва мазмунини жорий этиш технологик таълимнинг узлуксизлиги ва яхлитлигини таъминлашни талаб этади.

Амалий йўналтирилган таълим узлуксиз таълим тизимининг ажралмас таркибий қисми ҳисобланади. Мактабда бу ролни технология фанининг ташкил этувчилари ўйнайди. Шу боис технология фанимактаб ўқувчиларида технологик компетенцияларни шакллантириш тизимининг таянч этувчиси сифатида тушунилади. Биринчидан, у касблар тузилмасида мактаб ўқувчиларининг роли ва ўрнини кўрсатиб, ўқувчиларини амалий фаолият учун зарур бўлган долзарб билимлар сифатида яхлит ҳолда бирлаштириши керак; иккинчидан, мактаб ўқувчиларида функционал ва технологик саводхонлик ҳамда моҳирликнинг муайян даражасини шакллантириши; учинчидан, шахс ривожланишининг диагностик функцияларини амалга оширишга ёрдамлашиши; тўртинчидан, малакали мутахассисни шакллантиришга замин яратилиши лозим.

Умумий ўрта таълим мактаб 5-7-ўқувчиларида инновацион ёндашув асосида технологик компетенцияларни шакллантиришга йўналтирилган фаолиятга тайёрлаш индивидуал таълимни ташкил этиш билан бевосита боғлиқ бўлиб, мазкур соҳада қатор тадқиқот ишлари амалга оширилган.

Сўнги йилларда таълимни индивидуаллаштириш муаммоси бўйича кўпгина илмий тадқиқот ишлари амалга оширилган. Ўқувчилар мустақил ишини индивидуаллаштириш орқали уларнинг билиш фаоллиги ва мустақиллигини ривожлантириш, мактабларда ўқитишни индивидуаллаштириш ва табақалаштириш, технологияни самарали ўқитишда ўқувчиларга индивидуал ёндашиш, индивидуал ёндашиш асосида ўқувчиларнинг технологик билими сифатини ошириш, ўзлаштирмовчи ўқувчилар билан индивидуал ишлаш, ўқитишни индивидуаллаштириш ва табақалаштириш, ўқувчилар ўқув фаолиятини индивидуал ўқитиш орқали бошқариш, ўқувчилар билан индивидуал иш олиб бориш, тайёрлов курси тингловчиларини индивидуал ўқитиш, модулли ўқитиш индивидуал таълимни амалга оширишнинг имконияти сифатида, компьютер ёрдамида технологияни ўқитиш жараёнини индивидуаллаштириш, педагогик олий таълим муассасасаларида ахборот-коммуникацион технологиялари ёрдамида

технологияни ўқитишни индивидуаллаштириш каби илмий тадқиқот ишлари [3,4,5,6,7] шулар жумласидандир.

Ўқувчиларда қайта ўзгартириш фикрлашини ривожлантириш барча ўқув фанларини ўқитиш жараёнида қўлланиладиган технологик билимларнинг ажралмас(инвариант) қисми ҳисобланади. Бундай умумлаштирилган тавсиф умумий мақсадларни таърифлаш ва ўқув режасидаги ҳар қандай фан бўйича ўқувчиларда технологик компетенцияларни шакллантиришга қаратилган технологик таълим мазмунини аниқлаш имконини беради(2.1-жадвал)[3].

2.1-жадвал

Ўқувчиларда технологик компетенцияларни шакллантиришга қаратилган технологик таълим мазмуни.

Технологик таълим мақсадлари	Технологик тайёргарлик мазмуни
Ўқувчиларда шахсий сифатларнинг шаклланиши	Яратиш ва қайта ўзгартириш фаолиятида технологик ва функционал саводхонликни шакллантириш, лойиҳалаш, яратиш ва меҳнат предметида фойдаланишда аниқ фаолият турида ўз-ўзини такомиллаштириш ва ўзини ижодий намоён этишга бўлган қобилиятларни, меҳнатга ижобий муносабатни, мотивацияни меҳнатсеварликни ривожлантириш
Ўқувчининг ижтимоий–маданий ривожланишини таъминлаш асосида уларни технологик фаолиятга, меҳнатга тайёрлаш	Ижтимоий-меҳнат маданияти, хулқ-атвор ва мулоқот, технологик маданият ва меҳнат маданияти, экологик ва эргономик маданият, эстетик маданият, турмуш маданиятини ва шахслараро муносабатларни ривожлантириш.
Меҳнат фаолиятига тайёрлаш орқали инновацион ёндашув асосида ўқувчиларда технологик компетенцияларни шакллантириш	Шахсий имкониятлар, иқтисодий, техник-технологик, эргономик, эстетик ва экологик талаблар; яратиш ва қайта ўзгартириш фаолияти учун омиллар ва шарт-шароитларни мувофиқлаштириш асосида меҳнат фаолиятида сифат ва миқдорий жиҳатидан энг мақбул самарадорликка эришиш бўйича қобилиятларни ривожлантириш орқали инновацион ёндашув орқали ўқувчиларда технологик компентцияларни шакллантириш
Технологик таълим-тарбияни инновацион ёндашув асосида ташкил этиш орқали ўқувчини ҳаётий, ижтимоий ва касбий соҳаларда фаолият кўрсатишга тайёрлаш	Ўз-ўзига баҳо бериш ва ўз мавқеини топишга тайёрликни шакллантириш: эҳтиёжларга эришиш йўлларида, касбий карьера қобилиятлари ва имкониятларида; айна иқтисодий формацияда ижтимоий стратегиялар, ижтимоий гуруҳлар ва уларнинг мақомига эга даражаларида; ҳаётий фаровонликка эришишнинг турли касбий ва ижтимоий шарт-шароитларидаги имкониятларида.

Мактаб ўқувчиларида технологик компетенцияларни шакллантириш мазмуни ва мақсад-вазифаларини жорий этишда ўқитишнинг шакл ва методлари, ўқув жараёнини ташкил қилиш ва таъминлаш шарт-шароитлари ҳамда педагогик фаолият мезонлари ва кўрсаткичлари муҳим аҳамият касб этади.

Технологик таълим-тарбияни инновацион ёндашув асосида ташкил этиш орқали ўқувчини ҳаётий, ижтимоий ва касбий соҳаларда фаолият кўрсатишга тайёрлаш Ўз-ўзига баҳо бериш ва ўз мавқеини топишга тайёрликни

шакллантириш: эҳтиёжларга эришиш йўлларида, касбий карьера қобилиятлари ва имкониятларида; айти иктисодий формацияда ижтимоий стратегиялар, ижтимоий гуруҳлар ва уларнинг мақомига эга даражаларида; ҳаётий фаровонликка эришишнинг турли касбий ва ижтимоий шарт-шароитларидаги имкониятларида.

Мактаб ўқувчиларида технологик компетенцияларни шакллантириш мазмуни ва мақсадларини жорий этиш барча умумий ўрта таълим соҳалари ва фанларининг кенг қамровли ўзаро таъсирини, ўқувчиларнинг технологик таълимнинг узлуксизлиги ва яхлитлигини таъминлашни талаб қилади. Мактаб ўқувчиларида технологик компетенцияларни шакллантиришнинг турли шакллари, тизимлари ва методлари интеграцияси асосида амалий фаолият турларини ўзлаштиришини қамраб олиши керак. Ўқув жараёни самарадорлигини оширишда таълим ресурсларидан уйғун фойдаланиш вазифаси қўйилади.

Қўйилган технологик амалий вазифани ҳал этиш умумий ўрта таълим тизимида технология фанининг аҳамияти ва ўрнини белгилаб беради. Демак, технологик таълим амалий таълимнинг умумий ва махсус бўлимлари асосида фанга оид билимларни амалий қўллаш бўйича таянч кўникмаларни эгаллашни таъминлашга хизмат қилади.

Технологиянинг атроф-муҳит билан боғлиқлигининг ёрқин характери таълим тизимини ташқи олам билан боғловчи бўғин родини ўйнашига имкон яратади. У ўзгаришлар ва ривожланишнинг муҳим шarti сифатида намоён бўлади[4,5]. Шундан келиб чиқиб, мактаб ўқувчиларида технологик компетенцияларни шакллантириш умумий ўрта таълим тизимининг элементи сифатида қуйидаги вазифаларни амалга оширишга имкон яратади:

–реал ижтимоий-меҳнат фаолияти тузилмасида мактаб ўқув фанлари аҳамияти ва ўрнини аниқлаш;

–бевосита амалий фаолиятни таъминловчи ўқув фанларининг долзарб билимларини интеграциялаш;

–ўқувчиларни ўқитиш, ривожлантириш ва тарбиялаш жараёнларини таъминлаш ва мувофиқлаштириш;

–мактаб ўқувчиларида технологик компетенцияларни ижтимоий аҳамиятга эга даражада шакллантириш;

–ўқув фаолиятининг яхлит дидактик занжирини таъминлаш, ўқув жараёнининг қайтар алоқасини амалга ошириш;

–назарий ва амалий таълимнинг ўзаро бирлигини ҳамда, ўқитишнинг узлуксизлиги ва изчиллигини таъминлаш.

Муаммо таҳлили асосида ва ўтказилган тадқиқотлардан келиб чиқиб, мактаб ўқувчиларида технологик компетенцияларни шакллантириш мазмунини қуйидагича таърифлаш мумкин: мактаб ўқувчисида технологик компетенцияларни шакллантириш мазмуни унинг атроф-олам билан кенг ўзаро таъсири тизимида, технология фани доирасида педагогик ташкил қилинган қайта ўзгартириш шароитида шахсни ўзгартириш, билим, кўникма, малакаларини ошириш жараёни ва унинг натижасидан иборат.

Мактаб ўқувчиларини амалий ўқитишнинг хусусияти меҳнат фаолиятининг турли соҳаларини ўзлаштиришга йўналганлиги ва уларни ўрганиш усулларининг хилма-хиллиги билан боғлиқ. Қайта ўзгартириш фаолиятининг моҳияти умумийлигини ҳисобга олган ҳолда технологик компетенцияларнинг барча йўналишларида ягона ғоя, ёндашув ва тамойиллар асос қилиб олиниши, моддий ва маънавий кадриятларни яратишга амалий ўқитишнинг умумий тизимлари, шакллари, методлари ва педагогик воситаларидан фойдаланиш мумкин.

Мактаб ўқувчиларида технологик компетенцияларни шакллантиришнинг комплекс қурилиши амалий вазифаларни ечиш жараёнида ўқитувчи раҳбарлиги остида амалга ошириладиган ўқувчиларнинг турли хил ўқув фаолиятига асосланилади. Амалий фаолият ижрочиларининг касбий ролли функциялари технологик фаолияти турлари, мақсадлари, предметлари ва мазмунининг умумлашган тизими сифатида берилиши мумкин (2.1-расмга қаранг). Расмда технологик компетенцияларни шакллантириш жараёнида ўқувчилар ўқув фаолиятининг тизими келтирилган (харфли ва рақамли белгиланишлар амалий ўқув фаолияти турлари ва даражаларига мос). Ўқув фаолиятининг ҳар бир ташкил этувчисининг аҳамияти ва ўрни, бир тарафдан, меҳнат объекти ва воситасига боғлиқ, бошқа тарафдан педагогик жараён субъекти бўлган ўқувчининг шахси билан аниқланади.

Технологик компетенцияларни шакллантириш турли хил фаолият турларини уларнинг мазмуни ва якуний натижаларига кўра бирлаштиради. Мактаб ўқувчиларида технологик компетенцияларни шакллантириш жараёнида ўрганиладиган ўқув амалий фаолият функциялари тузилмаси меҳнат фаолияти жараёнида уларнинг натижалари бўйича меҳнатни касбий тақсимлаш асосида ишлаб чиқилди. Ўқув фаолиятининг предмети ўқувчиларнинг амалий ишлари нимага йўналтирилган бўлса, шу нарсани аниқлайди. Амалий фаолият функциялари меҳнат предметини тайёр буюмга айлантиришнинг аниқ босқичи вазифалари (эҳтиёжни аниқлаш ва муаммоларни қўйишдан қарорларни ишлаб чиқиш, меҳнат жараёнини ташкил қилиш, уни жорий этиш ва меҳнат маҳсулини амалий қўллашгача бўлган вазифалар) билан белгиланади.

Репродуктив ўқитишнинг педагогик жараёнида жараён тескари тартибда ривожланади. Аввал ўқувчилар тайёр буюмлар билан таништирилади, меҳнат предметларининг функционал имкониятлари ўрганилади.

Кейин типик буюмлар элементлари ва намуналарини яратишга амалий тайёрланади, меҳнат жараёни ташкил қилинади, конструкциялар ва янги буюмлар ишлаб чиқилади, ҳатто комплекс масалаларни ечишга ўргатилади.

Репродуктив ўқув фаолияти функцияларининг кўрсатиб ўтилган изчиллиги меҳнат предмети билан таништиришдан бошланиб, у билан боғлиқ амалий фаолият билимлари ва малакалари мажмуасини эгаллагунга қадар жорий этилади (2.1-расмда – чапдан ўнгга). Олинган таянч тайёргарликнинг интегратив асоси ижодий ўқув масалаларини, шу жумладан, ўқув лойиҳалари шаклидаги масалаларни қўйиш ва ҳал этиш имкониятини яратади. Ижодий ўқув фаолияти реал фаолият босқичлари тартибда (2.1-расмда – ўнгдан чапга) амалга

оширилади. Бу эҳтиёжни аниқлашдан то изланувчи, конструкторлик технологик ва яратувчанлик фаолияти жараёнида уни қаноатлантириш воситаларини яратишгача бўлган вақтни қамраб олади. Ўқув лойиҳасининг якуний босқичи тайёр буюмнинг функционал имкониятарини синаш ва олинган натижаларни таҳлил қилишдан иборат.

Маълум бўлган фаолият даражалари типологиясига таяниб[3], мактаб ўқувчиларида технологик компетенцияларни шакллантиришда ўқув фаолиятининг қайта тиклаш, такомиллаштириш, ташаббускорлик, ижодкорлик каби тўрт даражасини ажратдик.

Уларни қисқача тавсифлаймиз:

1-даража – типик ўқув вазифаларини ечиш мақсадида намуналарни *қайта тиклаш*;

2-даража – функционал имкониятларини ривожлантириш мақсадида ўқув фаолиятининг мавжуд объектларини *такомиллаштириш*;

3-даража – қўйилган муаммоларни ҳал этиш учун маълум буюмларнинг янги шакллари ишлаб чиқиш ва яратишда *ташаббускорлик*;

4-даража – комплекс ўқув фаолияти жараёнида реал эҳтиёжларни аниқлаш ва амалий таъминлаш асосида эркин ифодаланган *ижодкорлик*.

Амалий фаолиятнинг юқорида кўриб чиқилган функцияларининг ҳар бири лойиҳаларни бажаришда қуйидан бошлаб (намуналар бўйича) ва ижодий вазифаларни ҳал этиш даражасигача кўтарилиб, ўқитишнинг у ёки бу даражасида ўрганилиши мумкин. Фаолиятнинг турли функциялари ва даражаларини қиёслаш мактаб ўқувчиларини технологик тайёрлаш жараёнида ўқув фаолиятининг комплекс тизимини яратишга имкон беради.

Технологик компетенцияларни шакллантириш тизими шу маънода инновацион бўлишга қаратилганки, бунда ўқувчи учун субъектив янгилик бўлган ўқув амалий фаолияти ўқитишнинг муҳим шарти бўлиб ҳисобланиши керак. Ўқув фаолиятининг *инновационлиги* мотивация асоси, ўқув жараёнини ҳаракатлантирувчи куч бўлиб ҳисобланади. У ўқувчининг ижодий юксалиш даражасини – ўқитишни ривожлантириш спирали “қадам”ини белгилаб беради.

Ўқитишнинг мустақиллиги даражалари типологияси бирлигида кўриб чиқилган амалий фаолият турлари тузилмаси технологик тайёргарлик жараёнида мактаб ўқувчилари ўқув фаолияти таснифининг интегратив шаклини ажратиб кўрсатишга имкон берди:

$$T = \sum_M \sum_N T_{M,N}$$

Унга кирувчи $T_{M,N}$ компонентлар ўқув фаолияти мазмунини белгилаб беради. Амалий фаолият турларини аниқлаштириш ва тақсимлаш жамоавий ижодий ўқишни ташкил қилишда муҳим аҳамиятга эга. Технологик тайёргарликнинг интегратив хусусияти амалий фаолиятнинг турли соҳасига йўналганлигини кўзда тутди. Шунга кўра, ўқув фаолиятининг кўриб чиқилган тизими мактаб ўқувчилари технологик тайёргарлиги жараёнида ижтимоий-меҳнат

фаолиятининг турли соҳаларида меҳнат турлари ва предметларининг кенг комплекси учун жорий этилиши мумкин.

Мактаб ўқувчиларида технологик компетенцияларни шакллантиришнинг мақсад ва вазифалари тизими, шунингдек, таълим муассасасининг ўзига хос хусусиятлари ва шарт-шароитларини ҳисобга олиб, ўқитиш метод ва шакллари танланиши динамикасини асослаб беришни мақсадга мувофиқ деб ҳисобладик.

Технология фанини ўқитишда ўқувчиларда технологик компетенцияларни шакллантириш методикасини такомиллаштириш ҳамда меҳнат фаолиятига тайёрлашнинг назарий ва амалий асослари ҳақидаги инновацион ёндашувлар, мактаб ўқувчиларида технологик компетенцияларни шакллантириш жараёни, технологик компетенцияларни шакллантиришнинг ташкилий-тузулмавий модели самарадорлигини текшириш мақсадида турли мактабларда тажриба-синов ишлари ўтказилди.

Адабиёт

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 6 апрелдаги “Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-хунар таълимининг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида”ги 187-сонли қарори.
2. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантиришнинг назарий – методик асослари.: Автореф. дис. пед. фан. докт. – Т.: 2007. – 45 б.
3. Зарипов Л.Р. Инновацион ёндашув асосида 5-7-синф ўқувчиларида технологик компетенцияларни шакллантириш методикаси. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т.: 2020. –125 б.
- 4.Зарипов Л.Р. Инновацион таълим шароитида ўқувчиларни технологик тайёрлаш // Педагогика журнали. 2019 йил. № 5. - Б. 92-98.
- 5.Mangal S.K., Fundamentals of Educational Technology, Ludhiana: Tandon Publications, 1994.
- 6.Нишоналиев У.Н. Таълим стандартлари ва педагогик инновациялар – Т.; Халқ таълим, 1999, № 6. 28 – 31 бетлар.
- 7.Ғолипов Ў.Қ. Олий педагогик таълим тизимида умуммеҳнат ва касбий кўникма ҳамда малакаларни ривожлантиришнинг педагогик технологиялари. Монография. Т.: “Фан”. 2004. –168 с.
- 8.Шарипов Ш. Ўқувчилар касбий ижодкорлиги узвийлигини таъминлашнинг назарияси ва амалиёти. Дисс. ... пед. фан. докт. – Т., 2012. – 307 б.

ТЕХНОЛОГИЯДАРСЛАРИДА КОМПЬЮТЕР ДАСТУРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ МЕТОДИКАСИ

**У.Тургунова - магистрант, А.Запаров - профессор.
Андижон давлат университети**

Аннотация: Ушбу мақолада технология дарсларида компьютер дастурларидан фойдаланиш имкониятлари ва методикаси ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: *Дидактик принциплар, компьютер соводхонлиги, ахборот технологиялар, компьютер тизимлари, ахборот муҳити.*

Аннотация: *В данной статье разработаны возможности и методика использования компьютерных программ на занятиях технологии.*

Ключевые слова: *Дидактические принципы, компьютерная грамотность, информационные технологии, компьютерные системы, информационная среда.*

Ўзбекистон Республикаси таълим тизимида Технология фанини ўқитишни такомиллаштиришга бағишланган кўплаб илмий-тадқиқот ишлари олиб борилган ва олиб борилмоқда. Қилинган илмий-методик тадқиқотларнинг таҳлили шуни кўрсатадики, ўрганилаётган ва тадқиқ қилинаётган муаммонинг назарий ва амалий томонларининг айрим қирралари билан, яъни республикада Технология, ўқувчиларнинг меҳнат дарслари орқали касбга йўналтириш ишлари бўйича тадқиқотлар билан шуғулланган олимлар У.Н.Нишоналиев, Ў.Қ.Толипов, А.Р.Ходжабоев, Н.А.Муслимов, Ш.С.Шарипов, Н.Ш.Шодиев, О.А.Қўйсинов, К.Давлетов, Я.Хайдаровларнинг ишларини қайд этиш мумкин[8,9].

Замонавий микроэлектроника ва компьютер фан – техника тараққиётининг ривожланишида муҳим рол ўйнайди. Ҳозирги вақтда ахборотларни узатиш сақлаш ва қайтадан ишлашни ҳисоблаш техникасиз амалга ошириб бўлмайди .

Инсон қабул қилаётган ҳар хил оқимдаги ахборотларни ажратиб олишда ҳисоблаш техникаси жуда катта ёрдам бермоқда. Шунинг учун ҳозирги пайтда таълимни компьютерлаштириш масаласи долзарб бўлиб турибди. Бунинг учун қуйидаги асосий йўналишларни;

-умумтаълим мактабларида информатика ва ҳисоблаш техникаси асосларини ўрганишларини такомиллаштириш;

-ўқувчиларни ҳисоблаш техникасини турли соҳаларда фойдаланиш тайёргарлигини кенгайтириш ва чуқурлаштириш;

-таълимнинг барча босқичларида ўқув жараёнини ҳисоблаш техникасидан фойдаланиш билан дажаллаштириш;

-узлуксиз таълим тизимидаги барча ўқув юртларини ҳисоблаш техникаси ва компьютер тизимлари билан тўла-тўқис жихозлаш;

-ўқув мақсадида компьютерни дастурий таъминотини ва ўқув ҳамда назорат дастурларини ишлаб чиқишни марказлаштириш ва стандартлаштиришни амалга оширишни тақозо қилади.

Шу муносабат билан мақабда ўқув жараёнида информатика ва ҳисоблаш техникасини ўқитиш ҳамда тарғибот қилиш мактаб информатикасининг асосий йўналишларидан бири бўлиб қолди.

Қатор илмий ишларда ўқув жараёнида компьютерлардан фойдаланиш масалалари дарсларини ҳар хил шакилларини мавжуд бўлган ўқитиш усулларини кучайтириш нуктаи назардан тадқиқотлар олиб борилган.

Ҳисоблаш техникасидан фойдаланишда биринчи ўринда тўлиқ маълумотга ва касбий саводхонликка эга бўлиши керак. Компьютер билан мулоқатда бўлишда шуни ётда тутиш керкки илжи борича сўзларни тўғри ёзиш керак. Сабаби компьютер хато сўзларни тушунмайди. Бундан ташқари масалаларни тўғриечишда

биринчи ўринда машина ёрдамида модел ва жараёнларнинг пайдо бўлишини тўғри тузиш керак. Бундан ташқари масалаларни тўғри ечиш биринчи ўринда машина ёрдамида модел ва жараёнларнинг пайдо бўлишини тўғри тузиш лозим.

Умумий ўрта, Олий таълим ўқув жараёнида компьютердан фойдаланиш фақатгина информатика, математика дарслари ўқитувчиларининг иши бўлиб қолиши керак эмас балки барча предмет ўқитувчиларининг иши бўлмоғи лозим.

Инсоннинг машинага билимни узатиш қобилиятидан умидни узса бўладиган даражада орқада қолган. Бундан шундай хулоса қилиш мумкинки ҳали барча мактаблар оммавий тарзда компьютер технологияси билан жиҳозланиб бўлмаган бир пайтда унинг дастурий таъминотини ва ўқув дастурининг таъминоти ҳамда ўқув дастурининг яратилиши мураккаблигини ҳисобга олган ҳолда бу ишларни амалга ошириш зарур.

Давр талаби нуқтаи назардан Технология дарсларини бошқаришга компьютер тизимларининг кириб келиши, уларнинг сезиларли даражада ўзгаришига олиб келади.

Ҳисоблаш техникаси ўқувчи учун фан ва ўқитиш дастурси сифатида, меҳнатни илмий ташкил қилиш ҳамда кучли ўқув қуроли сифатида қўлланилади. Демак, ҳисоблаш техникаси ҳақида гап юритар эканмиз, унинг учта асосий тушунчаси ҳақида тўхталиб ўтиш жоиздир.

Ўқитиш технологияси – ўқитиш жараёнида илмий йўналишни ҳамда мактабнинг материал-техник базасини илмий-техника ютуқлари асосида янгилашни назарда тутати.

Ўқитишда электроникадан фойдаланиш – фан техника тараққиётининг электроника йўналишини ривожланиши асосида пайдо бўлган. Бу усулда ўқитиш рецептив (бир йўналишли) тизимларга бўлинади.

Компьютерли ўқитиш – бу тизимда ўқитиш жараёнида ўқув дастурси сифатида компьютердан фойдаланилади.

Агар Технология дарсларини компьютерлаштириш ҳозирги мактабдаги фанларни ўқитишда замонавий дарс ўқитиш услуби сифатида кўрилса, ҳисоблаш техникасини ишлатиш ўқитувчи учун яна битта керакли қурол бўлиб қолади.

Ҳозирги кунда дастурчи маълум объектни танлаб, 3Dstudio тахни яратади. Сўнгра уни ўқитувчига кўрсатиб, услубий жиҳатдан ишлов бермоқчи бўлади. Аслида эса аксинча бўлиши керак. Мутахассис ўқитувчи таълимни лойиҳалаштиради ва шу асосда 3Dstudio тах учун сценарий ёзади. Бошқа мутахассислар билан муҳокамадан ўтказгач, сценарий матни дастурчиларга топширилади. Дастурчилар 3Dstudio тахни яратиб, уни экспертизага топширишлари лозим. Экспертизада дастурнинг психологик, услубий, гигиеник ва бошқа жиҳатлари тажриба асосида ўрганилади ва қайта ишлов берилиб, оммавий қўллашга тавсия этилади. Бу 3Dstudio тахни яратишда педагогик сценарийнинг мукамал бўлиши муҳимлигини кўрсатади. Шундан келиб чиққан ҳолда дастлаб педагогик сценарийда ёритилиши лозим бўлган элементларни таҳлил қиламиз.

Педагогик сценарий бир неча қисмдан ташкил топади. Сценарийнинг «Кириш» қисмида 3Dstudio тахни яратишдан кўзланган асосий мақсад баён

килинади. Кириш қисмидан кейин «Дастурчига кўрсатмалар» баёни берилади. Дастурчига мўлжалланган кўрсатмалар 3Dstudio maxнинг техник лойиҳаси бўлиб, дастур ҳужжатлари қаторига киради ва таълим жараёнидаги ўқувчи билан компьютер мулоқотининг изоҳланишини, 3Dstudio max билан ишлашнинг қисқача қоидаларини ўзида мужассамлаштиради. У техник топшириқ асосида яратилади ва дастурчининг 3Dstudio max хомаки вариантини яратишида фойдаланиладиган асосий материал бўлиб ҳисобланади.

Дастурчига мўлжалланган кўрсатмалар билан биргаликда ўқитиш алгоритми ҳам яратиб борилади. Унда ўқитиш дастуридаги барча амаллар таркиби кўрсатилади ва дастурчи учун дастурлашга қўйиладиган талабларни ўз ичига олган кўрсатмалар баён қилинади. Педагогик сценарийнинг «Дастурчига кўрсатмалар» қисми мазмунини қисқача тавсифлаймиз.

Аксарият дастурларда унинг номланиши эълон қилингандан сўнг, қоидаларни ўрганиш, қоидаларни қўллаб машқ қилиш, назарий билим, амалий кўникма ва малакаларни назорат қилиш ҳолатларидан бирини танлаш талаб қилинади. Ўргатувчи ҳолатда ўқувчига ўқиш учун материал тасвирланади, мустақил хулоса чиқариш ва умумлаштиришга тайёрловчи саволлар қўйилади, мисол, чизма ва жадваллар келтирилади.

3Dstudio maxда дарснинг биргина қисмини акс эттирувчи бундай танловлар бўлмаслиги лозим. У дарснинг барча босқичларини – уй вазифасини текшириш, ўтган мавзуни такрорлаш ва янги мавзуни ўрганишга замин ҳозирлаш, ўқув материални баён қилиш, ўрганилган материални машқлар асосида мустаҳкамлаш, тест ўтказиш, ўқувчиларни баҳолаш, уларнинг дарсдаги фаолиятига кўра турли қийинчиликдаги вазифаларни тайинлаш босқичларининг барчасини қамраб олиши лозим.

Мазкур босқичларнинг ҳар бирини ташкил қилиш учун педагогик сценарийда алоҳида-алоҳида маълумот бериш лозим. Шу мазмун хусусида фикр юритиб, дастлаб ўтган мавзуни такрорлаш ва янги мавзуни ўрганишга замин тайёрлаш жараёнини ташкил қилиш ҳақида тўхталамиз.

Ҳар бир мавзудаги таянч тушунчалар ажратилиб, улар мазмуни ва изоҳланиши биргаликда маълумотлар омиборига жойлаштирилган бўлади.

Мазкур босқични кроссворд тарзида ташкил қилиш ҳам мумкин. Бу усулда экранда тушунчанинг изоҳи тасвирланади ва унга мос тушунчанинг номини киритиш ўқувчидан талаб қилинади. Шу тарзда ўтган мавзунинг асосий қисми таққорланади. Сўнгра янги мавзу билан боғлиқ ўқув материални баён қилишга ўтилади.

Дастурчиларнинг фикрича, бу энг оддий босқич. Аслидачи? Кўп ҳолларда дарсликдаги матн мисол ва иллюстрациялар билан бойитилиб, бўлақларга бўлинади ва асосий элементлар ажратилиб, экран кадрларига кўчирилади. Албатта, бу етарли эмас. Кўзланган мақсадга эришиш учун ўқитувчи ва ўқувчи фаолиятини, уларнинг ўзаро алоқасини таҳлил қилиб, бу жараёнга компьютер қандай янгилик кирита олишини аниқлаш ва уларни 3Dstudio maxларда шакллантириш лозим.

Ўқув материални баён қилиш жараёнини ташкил этиш учун ҳар бир мавзуга мос маъруза матни тайёрланади. Ундаги янги тушунчалар ажратилиб, тавсифлари матн охирида келтирилади. Шунингдек, ҳар бир мавзу бўйича ўқувчилар тасаввур қилиши қийин бўлган ҳодиса ва жараёнларни намоёиш қилиш ўринлари аниқланади ва уларнинг мазмуни батафсил баён қилинади. 3Dstudio тахдаги кейинги жараён машқларни бажариш жараёнини ташкил қилишдир. Машқ бажартириш жараёнини ташкил қилиш анча мураккаб жараён. Бу турли ўқув фанлари учун бир неча турдаги машқларнинг мавжудлиги билан ҳам боғлиқ. Ҳар бир турдаги амалий ишни компьютерда бажартириш учун алоҳида усул, интерфейс ишлаб чиқилади.

Мисол сифатида биргина тушунча мазмунини тушунишга доир амалиётларни компьютерда бажартириш жараёнини кўриб чиқамиз. Қуйидаги машқ берилган бўлсин:

Қуйидаги фикрлардан қайсилари тўғри?:

- а) дастурлаш тили компьютер билан мулоқот қилиш учун ишлатилади;
- б) компьютерга киритилган дастур машина тилига таржима қилинади;
- в) транслятор ва компилятор компьютер қурилмаси.

Тўғри жавоб: а, б.

Бу турдаги барча машқларда:

- а) машқ шarti берилади (1-сатр);
- б) бир нечта ҳолат берилади (а, б, в ҳолатлар);
- в) ҳар бир ҳолатнинг тўғри ёки нотўғрилиги берилади (жавоб).

Амалий ишни бажартириш учун экранда машқ шarti ва ҳолатлар тасвирланади. Ўқувчидан жавобни киритиш талаб қилинади. Бунда ўқувчи экрандаги мос саволлар учун «тўғри» ёки «нотўғри» ёзувларини танлаш билан жавоб беради. Барча ҳолатларга жавоб берилгандан сўнг машқнинг натижаси экранда тасвирланиб, ўқувчининг хатолари кўрсатилади.

Қайси мавзуда шу турдаги машқ бўлса, уларнинг барчаси шу шаклда бажарилади. Бу эса мазкур турдаги машқларнинг шартларини бир маълумотлар омборида, ундаги ҳолатлар ва уларга мос жавобларни бошқа маълумотлар омборига жойлаштириб, машқни компьютерда бажартиришнинг ўзига хос процедурасини ишлаб чиқишни тақозо этади. Бундай процедура яратилгач, маълумотлар омборида жойлашган шу турдаги ихтиёрий амалий ишларни компьютерда бажартириш мумкин бўлади.

Ҳар бир дарс учун қийинчилик даражаси 3 хил бўлган вазифаларни бериш режалаштирилади: А – қийин топшириқ; В – ўрта қийинликдаги топшириқ; С – осон топшириқ. А вазифа ўзлаштириши 80 %дан юқори бўлган ўқувчиларга, В вазифа ўзлаштириши 60 – 80 % оралиғида бўлган ўқувчиларга, С вазифа ўзлаштириши 60 % дан паст бўлган ўқувчиларга берилади.

Учала қийинчиликдаги вазифа ҳам 7 тур машқдан бирортасига мансуб бўлади. Шунинг учун уларнинг бажарилишини ҳам компьютерда назорат қилиш мумкин. Юқорида уй вазифасини компьютерда текшириб, ўқувчига 0 баллдан h баллгача тўплаш имконияти берилади деганда шу мазмун назарда тутилган эди.

Энди муайян ўқувчига айнан қайси вазифа берилганлиги ва унинг қайси турдаги машққа мансублигини аниқлаш хусусида тўхталамиз.

Дарснинг ўқувчилар билимини баҳолаш босқичида юқорида баён қилинган мазмундаги қайднома ўқувчи экранда тасвирлангандан сўнг, ундаги маълумотлар компьютер хотирасига ҳам ёзиб қўйилади.

Кейинги дарсда уй вазифасини текшириш босқичи етгач, компьютер хотирадан ўқувчининг фамилияси ва исмини излаб топади. Бугун n-дарс бошланган бўлса, хотирадан ўқувчининг (n-1)-дарсдаги ўзлаштириш фоизи аниқланади. Фоизнинг юқорида кўрсатилган оралиқлардан қайси бирига тегишлилигига кўра А, В, С қийинликдаги топшириқлардан қайси бири вазифа сифатида берилганлиги аниқланади ва компьютер уни хотирадан ўқийди. Хотирада эса ҳар бир вазифанинг қайси турдаги машққа тегишлилиги қайд қилинган бўлади. Шу тартибда уй вазифасининг текширилиши ҳам машқ бажарилгандек назорат қилинади.

Шунингдек, 3Dstudio тахларда кадрлар ахборот берувчи, ўргатувчи, назорат қилувчи, бажарилган ишларни қайта ишловчи, шарҳловчи характерда бўлиши мумкин.

Дастурнинг ҳар бир кадри одатда тахминий режалаштирилади ва бу дастурнинг яратилиш жараёнини осонлаштирилади.

1. Бошланғич кадр. Ҳар бир дастур ишга тушганда ўзини «таништириши» ва қандай вазифани бажаришга мўлжалланганлигини қисқача баён қилиши лозим. Бу кадр 3Dstudio тах номи ва унинг яратувчилари билан таништириш учун хизмат қилади.

Барча 3Dstudio тахларда титул вароғидаги маълумотларни стандарт жойлаштиришга ҳамда уларнинг экранда тез пайдо бўлиб, тез йўқолишига эришиш мақсадга мувофиқ. Бу билан ўқувчининг вақти тежаланиши ва унинг диққати кераксиз элементларга қаратилишининг олди олинади. Бошланғич кадрда эса алоҳида «дастур ҳақида» тармоғини ҳосил қилиб, унда дастур ҳақидаги маълумотлар (станоклар номи, яратувчининг фамилияси, детал номи) ни жойлаштириш, улар ҳақида батафсил маълумот бериш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Компьютер ва ахборотли технологияларини ишлаб чиқишни ташкил этишнинг 2001-2005 йиллардаги тараққиёт Дастури, «Интернет» Халқаро ахборот тизимида кенг кўламли киришни ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 230 сонли Қарори (23 май 2001 йил).
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 6 апрелдаги «Умумий ўрта, ўрта махсус ва касб-хунар таълимининг Давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида»ги. 187 - сон қарори.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947 - сон фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й. 6 - сон, 70-модда.
4. Электрон ўқув услубий мажмуалар. Олий таълим муассасалари учун / А.Парпиев, А.Марахимов, Р.Ҳамдамов, У.Бегимкулов, М.Бекмуратов, Н.Тайлоқов. -

Т.: ЎзМЭ давлат илмий нашриёти, 2008.

5. Янги ахборот технологиялари. Олий таълим муассасалари учун / А.Парпиев, А.Марахимов, Р.Ҳамдамов, У.Бегимқулов, М.Бекмурадов, Н.Тайлоқов. - Т.: ЎзМЭ давлат илмий нашриёти, 2008.

6. Абдураимов Ш.С., Тўрабеков Ф.С. Технология фанини ўқитишга инновацион ёндашув // Педагог кадрлар малакасини ошириш ва қайта тайёрлаш жараёнида педагогик ва ахборот-коммуникацион технологияларни қўллаш муаммолари: Республика илмий-амалий конференция материаллари. - Тошкент: ЎМКХТТКМО ва УҚТИ, 2007.

7. Бегимқулов У.Ш. Педагогик таълим жараёнларини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва бошқариш назарияси ва амалиёти.: Пед.фан.докт. ... дисс. автореф. - Т.: 2007.

8. Нишоналиев У.Н. Янги педагогик ва ахборот технологиялари: муаммолар, ечимлар // Педагогик таълим. - Тошкент, 2000. - №3.

9. Нишоналиев У.Н., Усмонов С.А. “Компьютер дастурларини таълимда қўллаш муаммолари”. “Замонавий илм-фан ва технологияларнинг энг муҳим муаммолари” Республика илмий-амалий анжумани (14-15 май, 2004 й.) материаллари. Жиззах, ЖизПИ. 2004 йил.

МАКТАБ ТЕХНОЛОГИЯ ТАЪЛИМИДА МИЛЛИЙ ХУНАРМАНДЧИЛИКНИНГ СПЕКТРАЛ - ВАРИАТИВ КОМПОНЕНТЛАРИНИ ФАНЛАРАРО ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

**М. Холиқова – магистрант, М.Х. Шомирзаев, А.А. Запаров - профессорлар.
Андижон давлат университети, Термиз давлат университети**

***Аннотация:** Ушбу мақолада умумий ўрта таълим мактаби технология таълимида миллий хунармандчиликнинг спектрал-вариатив компонентларини фанлараро такомиллаштириш имкониятлари ва методик асослари ишлаб чиқилган.*

***Калим сўзлар:** миллий хунармандчилик, амалий ва бадиий безак санъати, спектрал - вариатив компонентлар, Технология таълими, ахборот технологиялари, компьютер соводхонлиги, ахборот муҳити.*

***Аннотация:** В данной статье разработаны возможности и методические основы межпредметного усовершенствования спектрал-вариативных компонентов национального ремесленничества при технологического обучения средних общеобразовательных школ .*

***Ключевые слова:** национальное ремесленничество, прикладное и художественное искусства, спектрално-вариативные компоненты, Технологическое обучение, информационные технологии, компьютерная грамотность, информационная среда.*

***Abstract:** In this article, the possibilities and methodological foundations of inter-subject improvement of the spectral-variable components of national handicrafts in the technological teaching of secondary schools are developed.*

Key words: national handicrafts, applied and artistic arts, spectral-variable components, technological training, information technologies, computer literacy, information environment.

Бугунги глобаллашув даврида замонавий психология ва педагогика узлуксиз таълим тизимида ўқитиладиган барча фанларга янада кенг кириб бормоқда, бу эса умумтаълим мактабларида ўқитиладиган каштачилик соҳасига ҳам тааллуқли бўлиб, ўқувчининг таълим жараёнида ижодий фикрлаши, ўрганган нарсаларини амалиётга татбиқ қилишига кенг йўл очмоқда.

Умумтаълим мактабларига илк бор қадам қўйган ва каштачилик сирларини ўрганишни бошлаган ўқувчи нақш элементларининг шакли, унинг композицион тузилиши хусусиятларини, Шарқнинг буюк хунарманд ва усталарининг ижодларини кузатиб, ўрганиб олади. Халқ хунармандчилигини ўрганиш умумтаълим мактаблари ўқувчиларида бадиий-эстетик дидни, меҳнатсеварликни ривожлантиришга ва қатор фойдали кўникма ва малакаларни ҳосил қилишга хизмат қилади, уларнинг ижодий қобилиятларини аниқлаш ва ўстиришга ёрдам беради[1,2,3,4,5].

Ўқувчилар бу соҳани мукамал эгаллашлари учун, энг аввало, халқ хунармандчилиги жараёни билан яқиндан танишишлари мақсадга мувофиқ.

Умумтаълим мактабларида амалий ва бадиий безак санъатини ўқитишнинг аҳволини ўрганиш билан бирга уни амалиётда қўллаш методикаси тажриба-синов ишлари жараёнида амалга оширилади. Ташкилий ва методик тайёргарлик ишларини бажариш мақсадида педагогик тажриба-синов ишларининг самарасини кафолатлайдиган режа ишлаб чиқилди. Бунда тажриба-синов ишларини сифатли амалга оширишга имкон берадиган тажриба-синов майдонлари, бу жараёнда иштирок этувчи синов ва назорат синфлари белгиланди ҳамда тажриба-синовга тақдим этиладиган дидактик мажмуа (дарс ишланмалари, ўқитувчилар учун методик кўрсатмалар, анкеталар ва ҳ.к.) ишлаб чиқилди.

Умумтаълим мактаблари ўқитувчилари нафақат фан асосларини, балки ахборот технологияларини ҳам эгаллаган бўлишлари, ўзларининг педагогик маҳоратларини тўхтовсиз ошириб боришлари талаб этилади. Ана шу мақсадда:

- ўқитувчиларнинг халқ хунармандчилигидан назарий ва амалий машғулотларни ўтишда ахборот технологияларининг таълим тараққиётида ҳаракатланувчи куч эканлиги; замонавий педагогик технологияларнинг тарихий тараққиёт босқичлари; хорижий мамлакатлар таълим тизимида қўлланиб келинаётган интерфаол методлар; замонавий педагогик технологияларнинг миллий хунармандчиликка оид машғулотларда қўлланиш имкониятлари; халқ миллий хунармандчилиги машғулотларида ахборот – коммуникация технологиялари имкониятларидан самарали фойдаланиш, уни амалиётда қўллаш йўллари; ўқувчиларнинг билими, кўникма ва малакалари ҳамда ижодий иш натижаларини назорат қилиш ва баҳолаш йўналишлари бўйича билимларини аниқлаш зарур[6,7,8,9,10].

Маълумки, таълим-тарбия самарадорлигига эришиш йўлида ўқитувчи ўқувчиларнинг билим олиш мотивларига бефарқ қараши асло мумкин эмас. Чунки билим эгаллашга бўлган муносабат ўқувчининг танланган касбига бўлган қизиқиши билан уйғунлашиб кетади. Шунга кўра, ўқувчининг халқ миллий ҳунармандчилигига бўлган қизиқиш мотивларига асосий эътибор қаратилди.

Педагогик тажриба-синов жараёнида ўқувчининг нақш композициялари тузиш учун дастлабки билими, кўникма ва малакаларини билиш мақсадида ўтказган суҳбатларимиз ва анкета саволларидан олган жавобларидан маълум бўлдики, деярли 75% ўқувчида келажакда каштачилик санъатини эгаллаш хоҳиш-истаклари мавжуд.

Психологик жиҳатдан ўқувчиларда миллий ҳунармандчиликни ўрганишга бўлган қизиқишни шакллантиришда мустақил билимларни ўзлаштириш, ижодий фаолиятга киришиш, нақш композицияларини тузишда мантиқий фикрлаш, қўйилган муаммо ечимини топишга ўргатиш кабилар муҳим ҳисобланади. Бунда ўқувчиларда мустақил таълим эгаллаш йўлида ўз олдига янги талаблар қўя бошлайди. Бу жараён ўз-ўзини тарбиялаш заминиде амалга ошади. Ана шунда таълим ижтимоий бурч даражасига кўтарила боради. Чунки таълим ўқувчини меҳнатга, касбий фаолиятга тайёрловчи омил вазифасини бажаради.

Тадқиқий кузатувлар асосида ўқувчиларнинг дастлабки бир ой давомидаги каштачилик ҳунарига бўлган қизиқиш мотивларини алоҳида ўрганиб чикдик. Бу жараён икки йўналишда ўз ифодасини топди. Биринчиси – “янги жамоа”ни аста-секинлик билан ўзаро танишувидан иборат бўлиб, “жамоа” орасида фаолларнинг кўзга ташланиши, айниқса, каштачилик сирларидан тўла ёки бир оз хабардор бўлган ёш йигит ва қизлар оз бўлса-да, ўзларининг мазкур соҳа борасида амалий тажрибалари билан ажралиб турганлар, иккинчиси кимнингдир маслаҳатига кўра, ўқишга қабул қилинган ўқувчиларнинг таълим жараёнидаги фаолиятлари ўрганилди.

Олиб борилган тадқиқий кузатувлар ижтимоий долзарб масалани талаблар даражасида эмаслигини кўрсатди. Бундай ёндашув асосида салбий омилларнинг шаклланиши ўқувчида дастлабки нотўғри тушунчаларни келтириб чиқариши мумкин.

Ҳозирги ёшларнинг илмий ва ижодий дунёқараши анча кенг бўлиб, буни уларнинг келажакда ким бўлиш ва касб танлаш мотивларидан ҳам билса бўлади. Айниқса, жамиятга фойда келтириш, танлаган касби бўйича уни давом эттириш, ўрганган касбини ёшларга ўргатиш, жамиятда шаклланиб келатган ёшларнинг амалий санъатга бўлган қизиқишини ўз вақтида аниқлаб, унга тегишли ёрдам ва шарт-шароитлар яратиб бериш, ҳозирги куннинг муҳим вазифаларидан ҳисобланади.

Халқ ҳунармандчилиги турларини мукамал эгаллаган шахснинг шарафли, масъулиятли ва жамият ривожиде тутган ўрнини англаб етган шахс келажакда адашмайди. Чунки у жамиятнинг ижтимоий, иқтисодий, сиёсий, маданий ва маърифий-тарбиявий ривожиде ўсиб келатган авлод кўлида эканлигини касб бурчи нуқтаи назардан таҳлил эта олади. Айниқса, ҳаётимни халқ ҳунармандчилигига

бағишлаш орзусидаман деган ўқувчилар халқ миллий хунармандчиликни ривожлантиришдек эзгу ишга ўз хиссаларини қўшиш истагида эканликларини билдиришдилар.

Тадқиқий кузатувларимизнинг кўрсатишича, юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда, умумтаълим мактабларида қуйидаги вазифаларнинг ҳал этилиши биринчи даражали аҳамият касб этади:

- ўқувчиларнинг касб танлашида методик кўрсатма ва маслаҳатлар беришни кучайтириш; фан ўқитувчиларининг миллий хунармандчиликдан ўқув-методик ишларини режалаштириш; таълим жараёнининг илғор усулларида, ўқитишнинг ташкилий шакллари ва воситаларидан оқилона фойдаланиш асосида ўқувчиларга миллий хунармандчиликдан таълим беришда инновацион методлардан фойдаланиш; таълим-тарбия жараёнининг мантиқий уйғунлигини ошириш, миллий хунармандчилик дарслари дастурий материалларнинг такрорланишига йўл қўймаслик, уларнинг мантиқий кетма-кетлиги, изчиллиги, узлуксизлиги ҳамда узвийлигини бўлажак миллий хунармандчилик усталарининг назарий билими, амалий кўникма ва малакаларини ривожлантириш нуқтаи назаридан таъминлаш; бўлажак халқ хунармандчилиги усталарининг мустақил таълим олиш фаолиятига методик раҳбарлик қилишни режалаштириш, такомиллаштириш, назорат қилишнинг оқилона шакллари ишлаб чиқиш; технология таълими жараёнини зарур жиҳозлар, жумладан, техник ва кўргазмали воситалар, шунингдек, нақш композицияларини ишлашда компьютер дастурларидан фойдаланишни йўлга қўйиш; умумтаълим мактабларида технология фанидан халқ хунармандчилиги машғулотида ўқувчиларнинг онги ва тафаккурини ривожлантириш, назарий билими, амалий кўникма ва малакаларини шакллантириш ўқувчилик бурчи ва мажбуриятларини англаб етишни ўргатиб боришда таълим-тарбиянинг турли метод ва воситаларидан кенг қамровда фойдаланишни назарда тутиш; ҳар бир дарс аниқ мақсадни кўзлаган ҳолда, пухта режалаштирилган бўлиши, унинг таълимий, тарбиявий ва ривожлантирувчи мақсадларининг аҳамияти, дарс босқичлари, кўргазмали материаллардан фойдаланиш, ғоявий, мафкуравий мазмунига мос келиши, назариянинг амалиёт билан узвийлиги, кўргазмали воситалар билан жиҳозланиши, ўзига мос усул, метод ва воситалардан самарали фойдаланилган ҳолда ташкил этилиши, ўқитувчи ва ўқувчининг ўзаро фаол муносабатда бўлиши ҳисобга олиниши зарур.

Ўқувчиларни миллий хунармандчиликка ўргатишда таълимнинг замо-навий методларидан фойдаланишга муҳим аҳамият берилган. Ўқувчиларда ўтилаётган мавзуга нисбатан қизиқиш уйғотиш, назарий билим, амалий кўникма ва малакаларни шакллантириш, мавзуга оид дидактик ва тарқатма материалларни яққа ва гуруҳ ҳолида ўзлаштириб олишлари учун суҳбат-мунозара ташкил этиш, тарқатма ва дидактик материаллар тайёрлаш кабиларнинг бир мақсадга йўналтирилган, олдиндан пухта лойиҳалаштирилган ва кафолатланган натижа беришга қаратилган педагогик жараёнлар ишлаб чиқилган бўлиши керак.

Технология таълими жараёнида ахборот технологияларини қўллашнинг ўрни ва аҳамиятини изоҳлаб бериш, бўлажак технология таълими ўқитувчи-сини

тайёрлашда умумкасбий фанларни ахборот технологиялари асосида ўқитишнинг дидактик имкониятлари, замонавий ўқитиш технологиялари ва воситалари асосида умумкасбий тайёргарлик фанларини ўқитишнинг концептуал асослари, умумкасбий тайёргарлик фанларини ўқитишда бўлажак технология таълими ўқитувчисини касбий тайёрлаш мазмуни ва унинг мантикий-тузилмавий схемаси изоҳлаш таълим самарадорлигини оширишга хизмат қилади.

Ўқувчиларни ўқитишда ахборот технологияларидан фойдаланишга касбий тайёрлашнинг асосий йўналишлари аниқланди ва модели ишлаб чиқилди: ўқувчиларни педагогик фаолият жараёнида АТларидан фойдаланишга тайёрлаш ҳолати ўрганилиб, уларнинг технология таълими жараёнида ўқитишнинг ахборот технологияларини қўллаш кўникмалари ташхис қилинди.

Педагогик адабиётлар таҳлили асосида ва ўқувчининг касбий фаолиятида ахборот технологиялардан фойдаланиш талабларидан келиб чиққан ҳолда, тадқиқот давомида қуйидаги мезонлар ажратиб кўрсатилди: мотивация ва касбий фаолиятда ахборот технологияларидан фойдаланиш бўйича билимларнинг эгалланганлик даражаси; ўқувчи ўқув фаолиятида ахборот технологиялардан фойдаланишда ижодкорлик кўникма ва малакаларнинг шаклланганлик даражаси.

Технология таълими жараёнида ўқувчиларнинг ахборот технологияларидан фойдаланиш тузилмаси схемаси ишлаб чиқилди. Технология таълими жараёнида ўқувчиларнинг ахборот технологияларидан педагогик тузилмасининг мақсад компоненти (жамиятнинг рақобатбардош технология таълими ўқитувчисини тайёрлашга ижтимоий буюртмасига кўра, Ўзбекистон Республикаси олий касбий таълимнинг ДТСлари асосида технология таълими ўқитувчисини ахборот технологиялари асосида тайёрлаш ва натижасини аниқлаш, ташкилий компоненти (вазифалар, таълим метод ва шакллари, таълим тамойилларини аниқлаш ва ишлаб чиқиш), мазмуний компоненти (“Халқ хунармандчилиги” фани бўйича ишлаб чиқилган дастурлар асосида – инновацион, компетенциявий, интегратив, шахсий-фаолиятли ёндашувларни қўллаб, амалий машғулотларни ташкил этиш орқали ўқувчилар фаолиятининг вариативлиги, субъективлиги, ижодий индивидуаллигини, шахсий имкониятларни ривожлантириш) дан иборат.

Илмий-тадқиқот ишларини ўрганиш натижасида амалий педагогик тажрибадан келиб чиқиб, бўлажак технология таълими ўқитувчиларини тайёрлашда ИТНларидан фойдаланишнинг педагогик тузилмаси схемаси ва натижасини ташхис қилиш модели ишлаб чиқилди.

Технология фанини ўқитишда ўқувчиларнинг ахборот технологияларидан турли даражадаги вазифаларни бажаришлари орқали амалга оширилди. Вазифаларни бажаришда фаолиятнинг хусусиятига қараб, ахборот технологиялар асосида касбий, педагогик кўникма ва малакаларни ривожлантиришнинг тўрт (интуитив, репродуктив, продуктив, ижодий) даражаси белгиланди.

Технология фанини ўқитиш ўқувчиларнинг ахборот технологияларига қизиқиши тузилмаси илмийлик, узвийлик, кетма-кетлик, кўргазмалилик, фаоллик, фанлараро алоқадорлик тамойилларига асосланган, шунингдек, таълим натижасини аниқлаш учун баҳолаш мезонлари аниқланиб олинди.

Эксперт баҳолаш мезонларини белгилаш ва уларнинг объективлик, интегративлик, қайтар алоқа ўрнатиш, психологик мослашувчанлик каби ташкилий-функционал имкониятларини тизимлаштириш орқали бўлажак технология фани ўқитувчиларининг касбий фаолиятга тайёргарлик даражасини педагогик ташхис қилиш методлари (дарсни специфик таҳлил қилиш, ижодий топшириқ, амалий ишлар) такомиллаштирилди.

Ўқувчиларда касбий билим, кўникма ва малакаларни АТлари асосида шакллантириш жараёни вазиятни яратишда мазкур педагогик жараён иштирокчилари, яъни бўлажак технология фани ўқитувчилари фаолиятининг ўзига хос хусусиятлари, унинг таркибий қисмлари мазмуни, компьютерни ўқувчининг фаолияти объекти сифатида жалб этиш ҳолатлари кузатилди. АТлари асосида ўқитишда ўрганилаётган педагогик ҳодиса ёки жараённинг ахборот модели ўқувчи фаолиятининг объекти ҳисобланади.

Ўқувчиларда билим, кўникма ва малакаларни АТлар асосида шакллантириш педагогик таъминотининг зарурий шарти педагогнинг мазкур жараёнга тайёрлиги ҳисобланади. Ўқитувчи халқ ҳунармандчилиги ўқув фанини АТлардан фойдаланган ҳолда ўрганиш асосига методик тизим билим, кўникма ва малакаларни шакллантириш дастурига эга бўлиши керак.

Умумтаълим мактабларида технология таълими йўналишлари битирувчилари Малака талаблари ва уларнинг касбий-педагогик тайёргарлик даражаларини ташхислашнинг таҳлилий, лойиҳалаш ва педагогик прогностик компонентлари функцияларини интегратив мувофиқлаштириш асосида бўлажак технология таълими ўқитувчиларини АТлари асосида тайёрлашнинг концептуал асоси мазмуни такомиллаштирилди.

Адабиёт

1. Абдуллев У. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар. - Т.: Янги аср авлоди, 2005. -Б. 214-215.
2. Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. -Тошкент: Меҳнат,1991.-Б. 9
3. Гончарова П.А. Бухоро Зардўзлик санъати. -Тошкент: Ўзбекистон, 1986. - 121 б.
4. Гюль Э. Жойнамоздаги рамзлар. // Халқ талими. –Тошкент. -1993. -5-сон. - Б.23.
5. Жаббаров И. Ўзбеклар: турмуш тарзи ва маданияти. Монография. - Тошкент: Ўқитувчи, 2004. –Б. 13.
6. Йўлдошев Ж. Ғ. Таълимга инновацион ёндашув. // Халқ талими. – Тошкент. -2014. -3-сон. - Б.14.
7. Karimov I. Mehnat ta'limida o'quvchilar ijodkorlik faoliyatini tashkil etishning uyq'unlashgan texnologiyalari: Monografiya, uslubiy yo'nalish. –Т.: “Adabiyot uchqunlari”, 2015. – В. 66
8. Қўйсинов О.А., Шарипов Ш.С., Арипов М., Бегимқулов У. ва.б. Билим олишнинг интеллектуал тизимини ишлаб чиқиш назарияси ва амалиёти. Монография. Т.: “Фан”, 2011. -14 б.

9. Шомирзаев М.Х. Ўзбек миллий хунармандчилигида инновацион жараёнлар. Ўқув-услубий кўлланма. -Т.: “Yangi nashr”, 2017. -48 б.

10. Шомирзаев М.Х. Ўзбек миллий хунармандчилигининг спектрал-вариатив компонентлари. Ўқув-услубий кўлланма. -Т.: “Yangi nashr”, -2018. -48 б.

ИННОВАЦИОН ЁНДОШУВ АСОСИДА 5-7 - СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДА ТЕХНОЛОГИК КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ИМКОНИАТЛАРИ

М.К. Абдулхамидова,

технологик таълим мутахассислиги магистранти.

А.А.Запаров,

профессор, Андижон давлат университети

Аннотация: Ушбу мақолада инновацион ёндошув асосида умумий ўрта таълим мактаби 5-7 - синф ўқувчиларида технологик компетенцияларни шакллантиришнинг педагогик имкониятлари ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: Инновация, инновацион жараёнлар, инновацион таълим, инновацион технологиялар, Технология таълими, ахборот технологиялари, компьютер соводхонлиги, ахборот муҳити.

Аннотация: В данной статье разработаны педагогические-психологические возможности изучения национального ремесленничества учениками средних общеобразовательных школ .

Ключевые слова: Инновация, инновационные процессы, инновационное обучение, инновационные технологии, информационные технологии, компьютерная грамотность, информационная среда.

Республикамизда амалга оширилаётган чуқур ижтимоий-иқтисодий, сиёсий ва ҳуқуқий ислохотлар мамлакат ва жамият ҳаётидаги, таълим соҳасидаги инновацион ёндашувлар билан узвий боғлиқ. Инновацион ёндашувлар бўлажак мутахассисларни инновацион фаолиятга тайёрлашга алоҳида эътибор қаратиш зарурлигини кўрсатади.

Жамиятда таълим ролининг ўзгаришини кўп жиҳатдан инновацион жараёнлар белгилаб беради. Мактаб таълимини замонавий нуқтаи назардан инновацион ривожлантириш, юзаки қараганда анча осон туюлади, аммо бу анча мураккаб иш бўлиб бунда “янги”, “янгилик”, “инновация”, “инновацион жараёнлар”, “инновацион таълим”, “инновацион технологиялар” каби тушунчаларни замонавий нуқтаи назардан пухта ўзлаштириш ва уларга таяниш зарур бўлади.

Инновацион технологиялар – бу ўқитувчи ва ўқувчиларнинг ўзаро таъсирлашишининг принципиал жиҳатдан янги услуб ва методлари бўлиб, улар педагогик фаолиятда самарали натижаларга эришишни таъминлайди[1,2,3].

Ривожланиш инсон фаолиятининг ажралмас таркибий қисмидир. Инсон тажриба тўплагани сари ўз фаолияти услублари ва методларини такомиллаштиради, ақлий имкониятларини кенгайтиради ҳамда доимий равишда

ўзи ҳам ривожланиб боради. Бу инсоннинг ҳар қандай фаолиятига, жумладан, педагогик фаолиятга ҳам тегишлидир.

Ўқитувчи инновацион ёндашув асосида ўқувчиларни технологик компетенциясини шакллантириш учун, энг аввало, педагогик инновациялар тўғрисида тушунчага эга бўлиши керак. Педагогик инновацион жараёнлар Ўзбекистонда ўтган асрнинг 50 йиллари охиридан бошлаб, мустақил Ўзбекистонда эса, кейинги 10 йилликда олимлар томонидан махсус ўрганила бошланган. Сўнгги йилларда мамлакатимиз олимлари томонидан инновация, инновацион тафаккур, инновацион фаолият, инновацион бозор, педагогик инновациялар ҳақида илмий тадқиқотлар олиб борилмоқда.

Ўзбекистонда педагогик инновациянинг ривожланиши кенг жамоатчи-педагоглар ҳаракати мактабининг тез ривожланишига бўлган талаб ва уни педагогларнинг таъминлай олмасликлари натижасида юзага келган зиддиятлар билан боғлиқ. Эндиликда янгиликларни умумий қўллаш доираси анча кенгайди. Шу сабабли янги билимларга бўлган талаб, “янгилик”, “инновация”, “инновацион жараён”, “инновацион технологиялар”, “инновацион фаолият” тушунчалари маъносини англашга эътибор кучайди.

Замонавий ўқув дарсларида лойиҳалаш фаолиятини жорий этиш – инновацион усулни қўллаш дарс самарадорлигини оширишга хизмат қилади. Инновацион технологиялар педагогик жараён ҳамда ўқитувчи ва ўқувчи фаолиятига янгилик, ўзгаришлар киритиш бўлиб, уни амалга оширишда, асосан, интерфаол услублардан фойдаланилади[2,3,4,5].

Тез ва шиддат билан ривожланаётган ахборот асрида ўқувчилар билимли, чуқур мушоҳада ва мулоҳаза асосида қарорлар қабул қилишга қодир, фаннинг сир-асрорларини пухта эгаллаган бўлишлари шарт. Бу эса, ўз навбатида, мустақил давлатимиз келажаги бўлмиш ёшларни тарбиялашда ва уларнинг баркамол инсон бўлиб шаклланишида ўқитувчилар, педагог олимлар, корхона раҳбарлари, бошқарув персоналлари зиммасига ўта масъулиятли вазифаларни юклайди.

Сўнгги йилларда таълим тизимидаги инновациялар долзарб бўлиб бормоқда. Зеро, айнан таълим инсон мавжудлигини белгилаб берувчи асосий соҳалардан ҳисобланади. Таълимнинг замонавий тизимида жамиятнинг асосий талабларидан бири ҳар томонлама ривожланган, мураккаб вазиятларда ностандарт ечимларни топишга, ижодий фикрлай оладиган ва бутун ҳаёти давомида узлуксиз таълим олишга қодир шахсни тарбиялаб вояга етказиш, шакллантиришдан иборат. Бу эса инновацион ёндашув асосида ўқувчиларни технологик компетенциясини шакллантиришни талаб қилади[6, 7].

Маънавий ва моддий қадриятлар соҳасида жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий йўналишларидаги туб ўзгаришлар ҳозирги таълим ислохотлари шароитида ўқувчиларни ҳаётга тайёрлаш муаммоси уларда технологик компетенцияларни шакллантиришни сифат жиҳатдан мутлақо янги даражага кўтаришни талаб этмоқда.

Технологик компетенцияни шакллантиришнинг мақсади – турли йўналишларда ҳалол, ижодий меҳнатга тайёрликни шакллантириш, шахснинг саломатлигини мустаҳкамлаш, ҳар томонлама ривожланишига ёрдам беришдир.

Сўнги йилларда педагогика фанида мактаб ўқувчилари шахсини ҳар томонлама ривожлантиришнинг муҳим воситаси сифатида уларда технологик компетенцияларни шакллантириш муаммосини ўрганишга эътибор кучайиб бормоқда. Бунга қуйидаги йўналишларни мисол қилиб келтириш мумкин:

–илмий-техника тараққиёти шароитида ўқитишни ишлаб чиқариш меҳнати билан бирлаштириш асосида мактаб ўқувчиси шахсини шакллантиришнинг назарий асосларини ишлаб чиқиш;

–ўқитишни ижтимоий фойдали меҳнат билан боғлашнинг яхлит жараёнида ўқувчиларнинг таълим, меҳнат фаолияти, касб танлашга онгли муносабатини янада самарали шакллантириш;

–ўқитишнинг ишлаб чиқариш билан бирлиги жараёнининг асосий зиддиятлари ва уларни ҳал этиш усулларини аниқлаш.

“Технология” фанини инновацион ёндашув асосида ўқитишнинг долзарблигининг илмий асослари таълимни инсонпарварлаштириш концепциясини, ўқитишда муаллифлик стили, шахсга йўналтирилган таълимни жорий этиш, таълимда расмиётчиликни бартараф этиш, ўқувчиларнинг ижодий имкониятларини ривожлантириш шарт-шароитларини яратиш, ҳозирги замон жамиятининг ижтимоий-маданий эҳтиёжларининг ўқувчиларнинг мустақил ижодий фаолиятига мослигини таъминлаш билан изоҳланади.

Мактаб амалиётида ўқувчиларнинг технологик компетенцияларини шакллантиришда қатор камчиликлар аниқланди: педагогик ходимларда инновацион ижтимоий-иқтисодий шарт-шароитларда меҳнат тарбияси ва технологик таълим мақсади ҳақида замонавий тасаввурлар мавжуд эмас; қишлоқ мактаблари ўқувчилари меҳнат тарбияси мазмуни бугунги кун талаблари асосида ишлаб чиқилмаган, ўқувчиларнинг индивидуал хусусиятлари ва қизиқишлари етарли даражада ҳисобга олинмайди, меҳнат тарбияси атроф-муҳитнинг минтақавий ва миллий ўзига хос хусусиятлари ҳисобга олинмаган ҳолда умумий тарзда ташкил этилади; мактаб ўқувчиларида технологик компетенцияларни шакллантиришни ташкил қилиш замонавий талабларга мос келмаслиги ҳоллари мавжуд; технологик таълим ва тарбия моддий-техник базасининг юқори эмаслиги ҳамда ушбу камчиликларнинг натижаси ўлароқ ўқувчиларда меҳнатга эҳтиёжнинг мавжуд эмаслиги.

Тажрибалардан аён бўладики, технологик компетенция алоҳида ажратилган компетенция эмас, балки бошқа таянч компетенцияларнинг элементи ҳисобланади. У кўп ҳолларда “Технология” ўқув фани доирасида шакллантириладиган компетенция сифатида талқин этилди. Технологик компетенцияни ўқувчиларнинг технологик амалларни изчил бажариш тартибига, технологик меъёрларга, техника хавфсизлик қоидаларига ва меҳнат муҳофазаси талабларига роия этган ҳолда, аниқ вазиятларда маҳсулотни тайёрлаш (ишлаб чиқиш) бўйича билимлари, кўникмалари, малакаларидан самарали фойдаланиш қобилияти сифатида таърифлаш мумкин.

Педагогик тадқиқотлар шуни кўрсатадики, «компетенция» тушунчасининг моҳият – мазмуни унинг мажмуавий хусусиятида, яъни ўқув фаолиятини амалга ошириш учун ҳар бири тенг қийматли ва муҳим аҳамиятга эга бўлган билимлар, кўникмалар, кадриятлар, йўналишлар ва муносабатлар интеграциясида ўз ифодасини топади. Ташкилий-технологик компетенциялар меҳнат қуролларини танлаш, зарурурий материалларни излаш, уларни қайта ишлашнинг технологик усулларини аниқлаш, ишларни режалаштириш ва меҳнат жараёнини ўрганишдаги инновацион ёндашув билан узвий боғлиқ.

“Технология” фанини инновацион ёндашув асосида ўқитишнинг мақсади ўқувчиларнинг интеллектуал, коммуникатив, технологик ва ижодий қобилиятларини, фикрлаш усулларини ривожлантириш, сифатий билимлари, кўникма, малакалари, бир сўз билан айтганда технологик компетенцияларини шакллантиришдан иборат. Юқорида баён этилган мақсадлар асосида “Технология” фанини инновацион ёндашув асосида ўқитишнинг қуйидаги вазибалари белгиланди: ўқув-тарбия жараёнини мақбуллаштириш, ўқитувчи ва ўқувчининг ҳамкорлиги учун шарт-шароитлар яратиш, ўқувчиларда ўқишга доимий ижобий муносабат шакллантириш, уларни креатив фаолиятга жалб этиш, ўқув материалларни ва уни узатиш усулларини тўғри танлаш. “Технология” фанини инновацион ёндашув асосида ўқитишда ривожлантирувчи, муаммоли ўқитиш, танқидий фикрлашни ривожлантириш, ўқитишга дифференцион ёндашув, дарсда муваффақиятга эришиш учун шароит яратиш ва бошқалар ётади. Инновацион ёндашув асосида ўқитишнинг асосий тамойиллари креативлик (ижодкорликка йўналганлик); тизимдаги билимларни ўзлаштириш, дарсларнинг ноанъанавий шакллари, кўргазмалилик методидан фойдаланишдан иборат.

Технология фанини анъанавий ўқитишда асосан ўқувчиларга билим бериш, уларни меҳнат фаолиятига жалб этишга эътибор қаратилган, ўқувчилар нофаол, ўқитувчи эса фаол бўлган бўлса, “Технология” фанини ўқитишда инновацион методларни қўллаш – бу ўқувчи билан мулоқот қилишнинг янги методлари (STEAM, STEM, уйин технологиялари, лойиҳалаш, индивидуал таълим), улар билан ҳамкорлик позицияси, уларни бугунги замон муаммоларига жалб этишни тақозо этади. Инновацион методлар – бу ўқувчиларга ўз имкониятларини намоён этиш методларидир.

Умумтаълим мактабларида фанларни ўқитиш жараёнида фан-техника тараққиёти, инженерия, математика ва кундалик ҳаёт билан боғлаб ўрганишнинг STEAM (science, technology, engineering, art and mathematics) ёндашуви таълим-тарбия жараёнини ташкил этиш долзарб масаладир. STEAM замон талаблари асосида халқаро миқёсида ўқувчиларга таълим-тарбия беришда умумтаълим фанлари бўйича фанлараро боғланиш ва амалий ёндашувни кучайтиришга қаратилган умумий режа. STEAM ўзига табиий фанлар, технология, инженерлик, санъат, ижодкорлик, математика фанларининг амалий жиҳатларини умумлаштириб интеграциялашни назарда тутди. STEAM-таълим илмий методлар, техник иловалар, математик моделлаштириш, муҳандислик дизайнини биргаликда қўллаш

имконини яратади. Бу эса ўқувчининг инновацион фикрлашини, уларда технологик компетенцияларнинг шаклланишини таъминлайди.

Адабиёт

1. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантиришнинг назарий – методик асослари.: Автореф. дис. пед. фан. докт. – Т.: 2007. – 45 б.
2. Зарипов Л.Р. Инновацион ёндашув асосида 5-7-синф ўқувчиларида технологик компетенцияларни шакллантириш методикаси. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т.: 2020. –125 б.
3. Зарипов Л.Р. Инновацион таълим шароитида ўқувчиларни технологик тайёрлаш // Педагогика журнали. 2019 йил. № 5. - Б. 92-98.
4. Mangal S.K., Fundamentals of Educational Technology, Ludhiana: Tandon Publications, 1994.
5. Нишоналиев У.Н. Таълим стандартлари ва педагогик инновациялар – Т.; Халқ таълим, 1999, № 6. 28 – 31 бетлар.
6. Толипов Ў.Қ. Олий педагогик таълим тизимида умуммехнат ва касбий кўникма ҳамда малакаларни ривожлантиришнинг педагогик технологиялари. Монография. Т.: “Фан”. 2004. –168 с.
7. Шарипов Ш. Ўқувчилар касбий ижодкорлиги узвийлигини таъминлашнинг назарияси ва амалиёти. Дисс. ... пед. фан. докт. – Т., 2012. – 307 б.

БЎЛАЖАК ТЕХНОЛОГИК ТАЪЛИМ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ ЎҚУВ ЖАРАЁНИ НАТИЖАЛАРИНИ БАҲОЛАШГА ЎРГАТИШНИНГ НАЗАРИЙ-МЕТОДИК АСОСЛАРИ

Н.Н. Зухриддинова, технологик таълим мутахассислиги магистранти,

А.А.Запаров, профессор.

Андижон давлат университети

***Аннотация:** Ушбу мақолада инновацион ёндашув асосида бўлажак технологик таълим ўқитувчиларини ўқув жараёни натижаларини баҳолашга ўргатишнинг назарий-методик асослари ишлаб чиқилган.*

***Калит сўзлар:** Инновация, инновацион жараёнлар, инновацион таълим, инновацион технологиялар, Технология таълими, ўқув жараёни, баҳолаш.*

***Аннотация:** В данной статье разработаны теоритическо-методические основы оценки результатов учебных процессов будущих учителей Технологии на основе инновационного подхода.*

***Ключевые слова:** Инновация, инновационные процессы, инновационное обучение, инновационные технологии, учебный процесс, оценка.*

Мамлакатимизда бўлажак технологик таълим ўқитувчилари касбий тайёргарлигини шакллантиришнинг турли йўналишлари бўйича илмий изланишлар олиб борилаётган бўлсада, уларнинг барчаси ягона мақсад -таълим-тарбия жараёнини демократиялаштириш, унинг шахсга йўналганлигини таъминлаш ва

кадриятли ёндашув асосида ўқитувчининг касбий маҳоратини ривожлантиришга қаратилганлиги билан тавсифланади.

Ўқитувчининг касбий фаолиятини ривожлантириш бўйича олиб борилаётган тадқиқотларни қуйидаги йўналишларга ажратиш мумкин.

Биринчи йўналишдаги тадқиқотларда – ўқитувчилар тайёрлаш, уларнинг касбий тайёргарлигини таъминлашга йўналтирилган жараён орқали ўқитувчиларда баҳолаш фаолиятини ривожлантириш масаласи ҳамда унинг методологик асослари ўрганилган. Бу борада республикамызда Н.Н.Азизходжаева, Ф.Р.Юзликаев, А.М.Индиаминов, Н.Н. Сайидахмедов, Н.А.Муслимов, Н.Ш.Шодиев, О.Қ. Ҳайдарова, Ш.С.Шарипов, Г.Т. Боймуродова, Б.Маъмуров, Ш.Н.Мажитова, Ш.С.Шодмонова каби тадқиқотчилар томонидан кенг кўламдаги илмий изланишлар олиб борилган.

Рус олимлари О.Ю.Маркова, И.А.Колесникова, В.Сластенин, Е.А.Крюкова, Л.М. Митина, М.Мындыкану, В.В.Сериков, А. Радугин, И.П. Раченко ва бошқалар томонидан муаммонинг илмий-назарий, методологик йўналишлари ўрганилган.

Иккинчи йўналишдаги тадқиқотларда касбий ривожланишнинг психологик асослари ва механизмлари, бўлажак технологик таълим ўқитувчиларида касбий фаолликни ривожлантиришнинг педагогик-психологик масалалари ўзбек психологларидан Р.З.Гайнутдинов, М.Г.Давлетшин, Э.Ғозиев, С. Жалилова, А.Жабборов, М. Капланова, Д.Арзиқулов, Р. Асамова, Б.Қодиров, К.Қодировларнинг илмий ишларида ўз аксини топган.

Мазкур йўналишнинг психологик асослари рус олимларидан К.А.Абульханова, А. Славская, А.Леонтьев, В.Сластенин, Л.С.Выготский ва бошқалар томонидан тадқиқ этилган.

Қайд этилган тадқиқотларнинг ўзига хос хусусияти шундан иборатки, уларда фан-техниканинг илғор ютуқлари асосида таълим мазмуни, ўқитишнинг шакл, метод ва воситаларига инновациялар киритиш орқали шахс касбий фаоллигининг ривожланиши учун қулай ва зарурий педагогик шароитни яратиш масаласи назарий-амалий йўналишларда кенг ўрганилган. Шунингдек, илғор педагогик технологиялар ва уларни таълим жараёнига татбиқ этиш муаммолари В.В. Гузеев, Ў.Қ.Толипов, В.П.Беспалько, У.Ш.Бегимкулов, Н.Н.Азизходжаева, А. Абдуқодиров, М.Юсуповлар томонидан тадқиқ этилган.

Кўрсатиб ўтилган тадқиқотларда бўлажак технологик таълим ўқитувчиларида ўқув жараёни натижаларини баҳолаш кўникмаларини шакллантириш масаласи тўлиқ ечилмаган бўлсада, у бўлажак ўқитувчи касбий тайёргарлигининг асосини ташкил этувчи ҳодисалардан бири сифатида қисман ёритилган[4,5,6,7].

Мавжуд илмий ёндашувларни умумлаштириш натижасида бўлажак технологик таълим ўқитувчилари касбий ривожланишига қўйилаётган ижтимоий-педагогик талабларни қуйидагича белгиладик:

1. Бўлажак технологик таълим ўқитувчисининг касбий компетенцияларни эгаллаши билан боғлиқ шахсий-касбий сифатларини бойитиш.
2. Бўлажак технологик таълим ўқитувчисининг касбий ривожланиш жараёни ҳақидаги билимларини ўқув дастурлари мазмунига сингдириш.

3. Бўлажак технологик таълим ўқитувчиларида таълим муассасасидаги педагогик жараёни ташкил этиш учун зарур бўладиган билим, кўникма, малака ва компетенцияларни шакллантириш.

4. Бўлажак технологик таълим ўқитувчисининг касбий тайёргарлигини янги сифат босқичига кўтариш.

5. Олий таълим жараёнига илғор хорижий тажрибаларни олиб кириш орқали бўлажак технологик таълим ўқитувчиларининг педагогик маҳоратини ошириш ва бошқалар.

Бўлажак технологик таълим ўқитувчиси шахсига қўйилаётган талабларнинг биринчи таркибий қисми касбий аҳамиятга эга бўлган шахсий-касбий сифатлари мажмуини ифодалайди. Замонавий педагогик-психологик тадқиқотларда ўқитувчининг шахсий-касбий сифатларига қуйидаги талаблар қўйилади: кенг дунёқараш ва чуқур фундаментал билимларни эгаллашлари; ўзлари танлаган касбий фаолиятга ҳурмат билан қарашлари; ижодий фикрлаш, ижодий фаолият кўрсатиш ва ижодкорлик лаёқатига эга бўлишлари; талабаларга қадриятли муносабатда бўлишлари; таълим натижаларини аниқ ташхислай ва баҳолай олишлари лозим.

Олий таълим муассасаслари битирувчилари, яъни бўлажак технологик таълим ўқитувчисининг касбий тайёргарлигини таъминлаш жараёнининг иккинчи муҳим таркибий қисми, уларни талаба-ёшларнинг ривожланиши ҳақидаги мавжуд билимлар ва амалий тажрибалардан хабардор қилишдан иборат. Талабалар бўлажак технологик таълим ўқитувчиси сифатида шахснинг ривожланиш қонуниятлари, психология, хусусан, ёш даврларининг педагогик-психологик асосларини билишлари, турли ёш даврларида таълим олувчи шахсининг ривожланиш қонуниятлари ҳақида маълумотга эга бўлишлари, шунингдек, ўзлаштирилаётган билимларнинг шахс сифатлари ривожланишидаги аҳамиятини тушунишлари ҳамда англаб етишлари лозим.

Бўлажак технологик таълим ўқитувчиларини тайёрлаш жараёнига қўйилаётган талабларнинг учинчи таркибий қисмини педагогик жараёни ташкил этиш ва унинг натижаларини баҳолаш учун зарур бўладиган билим, кўникма ва малакалар ташкил этади.

Маълумки, ўқув жараёни натижаларининг баҳоси таълим олувчиларнинг ўзлаштириш даражаларинигина ифодаламайди. Ўқув жараёни натижасини баҳолаш орқали таълим олувчиларни ўқув фаолиятига самарали йўналтириш, уларда ижобий майлларни ҳосил қилишга эришилади. Таълим олувчилар фаолиятини объектив баҳолаш орқали уларда ўз-ўзини баҳолаш кўникмалари шакллантирилади, ўз-ўзига нисбатан танқидий муносабатда бўлиш тажрибаси ҳосил қилинади. Шунинг учун ҳам баҳолаш фаолиятининг ранг-баранглиги талабалар олдида унинг ўзига хос жиҳатларини ўрганиш ва хусусиятларини ўзлаштириш вазифасини қўймоқда. Бу эса бўлажак технологик таълим ўқитувчиларининг талаба-ёшлар ўқув фаолиятининг ўзига хос жиҳатлари ва йўналишларини ўзлаштириш имкониятини вужудга келтиради. Шунинг учун ҳам бўлажак технологик таълим ўқитувчиларида

ўқув жараёни натижаларини баҳолаш кўникмаларини шакллантириш ва ривожлантириш муҳим педагогик аҳамиятга эга.

Ўқитувчи ва таълим олувчилар мулоқоти орқали таълим натижаларини баҳолаш имконияти вужудга келади. Агар бўлажак ўқитувчи ўз кўникмаларини ижодий тарзда намоён қилиш жараёнида ўзининг касбий ривожланишидаги муаммоларини еча олса, ўқув жараёнини мунтазам таҳлил қилиш компетенциясига эга бўлади. Бўлажак технологик таълим ўқитувчиси истиқболдаги амалий фаолиятида учрайдиган муаммолар, касбий вазифаларни ечишга хизмат қиладиган билим ва тажрибаларга эга бўлмаса, таълим натижаси сифати ва самарадорлигини таъминлай олмайди. Бўлажак технологик таълим ўқитувчисига шахсий-касбий тажрибанинг бойитилиши ва ривожланиши таълим олувчиларнинг ўзига хос хусусиятлари билан боғлиқ ҳолда амалга ошади. Бунда бўлажак ўқитувчининг касбий лаёқатни ривожлантиришга оид топшириқларни муваффақиятли ечиши ҳамда ўз касбий фаолиятининг назарий-амалий асосларини фаол тарзда ўзлаштириши муҳим аҳамиятга эга.

Узлуксиз таълимнинг мазмун-моҳиятини ифодаловчи етакчи ҳолат таълим муассасаларида фаолият кўрсатаётган мутахассисларнинг ривожланишга бўлган эҳтиёжларидир. Ривожланиш шахсинг асосий имкониятидир. Ўқитувчининг асосий фаолияти таълим жараёнини таълим олувчилар шахсига йўналтириш ва уни самарали ташкил этишдан иборат. Олий таълим муассасасида бўлажак ўқитувчи шахсий-касбий жиҳатдан ўзини англайди, фаолиятининг жамият ҳаёти учун аҳамиятли жиҳатларини тушуниб етади. Бўлажак ўқитувчининг талаба-ёшларга нисбатан инсонпарварона муносабатда бўлиши ва ўқув жараёни сифати ва самарадорлигини таъминлаш соҳасидаги билимларни ўзлаштириши алоҳида аҳамиятга эга. Шу тариқа у касбий жиҳатдан ўзлигини англаш даражасига кўтарилади.

Бўлажак ўқитувчи олий таълим жараёнида касбий фаолиятнинг ўзига хос жиҳатларини ўзлаштиради. Шахс фаолиятини ривожлантириш назариясига асосланган ҳолда бўлажак ўқитувчининг шахсий-касбий тараққиётига мутахассиснинг касбий такомиллашув жараёни сифатида ёндашиш лозим. Бўлажак технологик таълим ўқитувчиларини тайёрлашнинг барча жараёнларида талабалар шахсий тажриба ва касбий тафаккурга эга бўлишлари керак.

Бўлажак технологик таълим ўқитувчиси касбий фаолиятининг таркибий қисмини ўқув жараёни натижаларини баҳолаш ташкил этади. Таълим олувчиларнинг ўзлаштириш даражаларини, яъни дидактик жараён натижаларини баҳолашуларнинг ўзлаштириш даражаси ва эришган ютуқларини аниқлаштириш имконини беради. Билимларни ўзлаштириш, ташхислаш жараёнида мақсадни амалга ошириш натижаси сифатида ҳам баҳоланади. Ҳар қандай дидактик жараённи ташхислашнинг мақсади ўқув вазиятининг бориши, унинг маҳсулдорлиги, талаба-ёшларнинг ўзлаштириш даражаларини ўз вақтида аниқлашдан иборат. Назорат қилиш, билимларни баҳолаш, таълим олувчиларнинг билимдонлик даражалари, билим, кўникма, малака ва компетенцияларнинг шаклланганлигини аниқлаш ташхислашнинг зарурий таркибий қисмлари сифатида

намоён бўлади. Ўқув жараёни натижаларини назорат қилиш ва баҳолаш унинг таркибий қисми сифатида уларни ривожланиш сари ундайди.

Бўлажак технологик таълим ўқитувчилари ўқув жараёни натижаларини баҳолаш кўникмаларини ҳар томонлама пухта эгаллашлари керак. Ўқув жараёни натижаларини ташхислаш ва баҳолашга объектив ёндашиш ўқитувчининг инсонпарварлик талабларига амал қилишини тақозо этади. Ўқитувчи қадриятли ёндашув ва инсонпарварлик тамойилларига асосланган ҳолда ташкил этиладиган дидактик жараёнларда назоратни юзаки тарзда амалга оширмаслиги лозим. Дидактик ташхислаш ўқитишнинг ўзига хос методи сифатида таълим натижаларини аниқ ифодалаш ва баҳолашга хизмат қилиши керак. У, биринчи навбатда, талаба-ёшларнинг ўзлари учун самарали бўлган ўз-ўзини назорат қилиш билан чамбарчас боғланиши лозим.

Таълим натижаларини баҳолаш таълим олувчиларнинг ўзлаштириш даражаларини аниқлаш имконини беради. Ташхислаш назоратнинг асосий таркибий қисми ҳисобланади. Унинг асосий дидактик вазифаси таълим жараёни субъектлари орасида тесқари алоқани, ўқитувчининг ўқув материални ўзлаштирилганлик даражаси ҳақида объектив маълумот олиши, талаба-ёшлар билимидаги бўшлиқлар ва етишмовчиликларни ўз вақтида аниқлашни таъминлашдан иборат. Ташхислаш нафақат ўқув жараёни натижаларининг сифати ва самарадорлигини аниқлашдангина иборат, балки ўқув меҳнатининг кўламини ҳам ифодалашга хизмат қилади.

Таълим олувчиларнинг ўзлаштириш даражаларини аниқлаш ва баҳолаш ҳам ташхислаш жараёнининг таркибий қисми ҳисобланади. Ташхислашдан ташқари назорат ўз ичига баҳолаш ва текшириш натижаларини ҳам қамраб олади.

Ўқув жараёни натижаларини ташхислаш ва баҳолашда асосий ўринни ташхислаш натижалари эгаллайди. Бунда ўқув фаолияти натижаларининг сифат ва миқдор кўрсаткичлари ҳисобга олинади. Миқдорни ифодаловчи кўрсаткичлар муайян баллар ва фоизларда акс этади. Сифат кўрсаткичлар эса баҳоловчи хулосаларда акс эттирилади. Ҳар бир хулосада аниқ, олдиндан келишилган баллар, кўрсаткичлар намоён бўлади. Шунини алоҳида таъкидлаш керакки, баҳолаш фаолиятининг натижаси бўлган ифодаловчи кўрсаткичлар, баҳоловчи хулосалар аниқ баён этилади.

Ўқув жараёни натижасининг миқдорий кўрсаткичлари ўзлаштиришнинг баҳоси, ўзлаштирилган билим, кўникма ва компетенцияларнинг кўлами ва ҳажми орасидаги алоқадорликни ифодалайди. Мазкур мезонлар асосида ўқув жараёни натижасини баҳолаш учун тақдим этилган ҳодисалар ҳамда ўзлаштирилган ахборотларнинг кўламини аниқ баҳолаш лозим. Бу вазифаларни ўқитувчи самарали технологиялар ёрдамида амалга ошириши керак. Ушбу соҳадаги билимлар ва технологияларни бўлажак технологик таълим ўқитувчилари олий таълим муассасаларида ўзлаштиришлари ва амалий тажрибаларига сингдиришлари керак.

Ўқув жараёни натижаларини баҳолаш қуйидаги бир қатор тамойилларга асосланади.

Ўқув жараёни натижаларини аниқлаш ва баҳолаш мақсадида таълим олувчиларнинг ўзлаштириш даражаларини ташхислаш ва назорат қилишнинг объективлиги яъни, ташхислаш тестлари ва жараёнларининг мазмун-моҳиятини илмий жиҳатдан асослаш; ўқитувчининг барча таълим олувчиларга тенг, дўстона муносабатда бўлишига эришиш; талаба-ёшларнинг билим, кўникма, малака ва компетенцияларининг аниқ, мос равишда ўрнатилган мезонлар асосида баҳоланишини таъминлаш.

Амалий жиҳатдан шу нарса аниқки, қўйилган баҳо уни қайси ўқитувчи қандай методлар ёрдамида ташхислаш ва назорат қилиш асосида қўйганлигидан қатъий назар объектив характерга эга бўлиши керак. Ўқув жараёнида талаба-ёшлар томонидан ўзлаштирилган билим, кўникма, малака ва компетенциялар ҳамда уларга тақдим этилган ўқув материалларининг ҳажми орасидаги мутаносибликни аниқлаш баҳонинг объективлигини таъминлашда муҳим аҳамиятга эга. Ўзлаштириш кўрсаткичлари, яъни ўқув жараёнининг маҳсулдорлиги ташхислаш ва баҳолашнинг ўзаро муносабатидан келиб чиққан ҳолда аниқланади.

Ўқув жараёни натижаларини ташхислаш ва баҳолашнинг изчиллиги – дидактик жараённинг барча босқичларида ташхислашга асосланган назоратнинг амалга оширилишида намоён бўлади. Мазкур жараён касбий билимларни дастлабки идрок этишдан бошлаб, уни амалда қўллашгача бўлган дидактик ҳаракатларни қамраб олади. Ўқув жараёни натижаларини ташхислаш ва баҳолашнинг тизимлилиги талаба-ёшларнинг бутун дарс жараёнидаги узлуксиз ҳаракатларини ташхислаш ва назорат қилишни назарда тутаети.

Ўқув жараёнидаги назорат қуйидаги таркибий қисмларга бўлинган ҳолда амалга оширилиши керак. Шундагина таълим олувчилар билишлари ва бажара олишлари зарур бўлган барча амалий ҳаракатларни ишончли тарзда аниқлаш имконияти яратилади. Ўқув жараёни натижаларини ташхислаш ва баҳолашнинг изчиллиги тамойили ташхислашга яхлит тарзда ёндашиш имконини беради. Бу жараёнда назорат қилиш методлари, воситалари, шаклларининг ранг-баранг кўринишлари, текширишлар, баҳолаш ҳаракатлари ўзаро чамбарчас алоқадорликда амалга оширилади. Бундай ёндашув ташхислашнинг айрим методлари ва воситалари умумийлигини инкор қилмайди.

Ўқув жараёни натижаларини баҳолашнинг кўргазмалилиги – барча таълим олувчиларни ягона мезон асосида очик тарзда синовдан ўтказишни тақозо этади. Ҳар бир таълим олувчини назорат қилиш жараёнида аниқланган рейтинг кўргазмалилик, очиклик характериға эга бўлиб, таълим олувчиларнинг ўзлаштириш даражаларини ўзаро қиёслаш имконини беради.

Ўқув жараёни натижаларини баҳолашнинг очиклиги. Ушбу тамойил ўқув жараёни натижаларини далиллар ёрдамида асосланишини таъминлашға хизмат қилади.

Баҳо ўқитувчининг объективлиги ва таълим олувчилар олдиға қўйилган талабларни улар томонидан англанишиға қўмаклашади.

Кўриниб турибдики, ўқув жараёни натижасини баҳолашға бўлажак технологик таълим ўқитувчиларини тайёрлаш бугунги кунда ўзининг назарий

хамда амалий ечимини кутаётган долзарб педагогик муаммо сифатида намоён бўлмоқда.

Адабиёт

1. Абасов З.А. Проектирование и совершенствование контрольно оценочного компонента учебной деятельности школьников. // Завуч. Научно-практический журнал. – 2004, №4, с.21-45.
2. Азизходжаева Н.Н. Ўқитувчи мутахассисларни тайёрлаш технологияси. – Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2000. – 52 б.
3. Акимов В. В. Актуальные вопросы технологического образования будущих учителей технологии // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2017. – Т. 11. – С. 1–4. – URL: <http://e-koncept.ru/2017/770130.htm>.
4. Беспалько В.П. Параметры и критерии диагностической цели. Школьные технологии, 2006. - №1, с.118-128
5. (Б. Е. Стариченко. Оценка результатов учебной деятельности студентов в рамках информационно технологической модели обучения.// Образование и наука. 2013. № 5 (104))
6. Муслимов Н.А. технологик таълим ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари: Пед. фан. докт. ... дисс. – Т.: 2007. – 357 б.
7. Юсупов М.М. Бўлажак технологик таълим ўқитувчиларини ўқув жараёни натижаларини баҳолашга ўргатиш методикаси. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация. ЖДПИ, 2021.

ТЕХНОЛОГИЯ ДАРСЛАРИНИ ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАР АСОСИДА ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

**Ш.Б. Тошмирзаева, технологик таълим мутахассислиги магистранти,
А.Запаров, профессор.
Андижон давлат университети**

***Аннотация:** Ушбу мақолада Технология дарсларини инновацион технологиялар асосида ташкил этишнинг назарий асослари ишлаб чиқилган.*

***Калит сўзлар:** Инновация, инновацион жараёнлар, инновацион таълим, инновацион технологиялар, Технология таълими, ўқув жараёни, баҳолаш.*

***Аннотация:** В данной статье разработаны теоретические основы организации уроков Технологии на основе инновационных технологий.*

***Ключевые слова:** Инновация, инновационные процессы, инновационное обучение, инновационные технологии, учебный процесс, оценка.*

Бугунги кунда мустақил фикр юрита оладиган ва мустақил харакат қила оладиган ёш авлодни тарбиялаш асосий вазибалардан ҳисобланади. Шунинг учун ҳам дидактик олимлар ва илғор ўқитувчилар ўқувчиларда ўқув фаолиятига ижодий ёндашишни ривожлантириш йўлларини кунт билан изламоқдалар. Булар жамиятни

тарбиялашнинг янги тузилмасини яратишдан иборат умумий жараённинг давомидир. Замонавий таълимни ташкил этишга қўйиладиган муҳим талаблардан бири ортиқча руҳий ва жисмоний куч сарф этмай, қисқа вақт ичида юксак натижаларга эришишдир. Қисқа вақт орасида муайян назарий билимларни ўқувчиларга етказиб бериш, уларда маълум фаолият юзасидан кўникма ва малакаларни хосил қилиш, шунингдек, ўқувчилар фаолиятини назорат қилиш, улар томонидан эгалланган билим, кўникма ҳамда малакалар даражасини баҳолаш ўқитувчидан юксак педагогик маҳорат ҳамда таълим жараёнига нисбатан янгича ёндашувни талаб этади.

Инновацион технология ўз моҳиятига, кўра субъектив хусусиятга эга, яъни, ҳар бир педагог таълим ва тарбия жараёнини ўз имконияти, касбий маҳоратидан келиб чиққан ҳолда ижодий ташкил этиши лозим. Қандай шакл, метод ва воситалар ёрдамида ташкил этилишидан қатъий назар инновацион технологиялар:

- педагогик фаолият (таълим-тарбия жараёнининг) самарадорлигини ошириши;
- ўқитувчи ва ўқувчилар ўртасида ўзаро ҳамкорликни қарор топтириши;
- ўқувчилар томонидан ўқув предметлари бўйича пухта билимларнинг эгалланишини таъминлаши;
- ўқувчиларда мустақил, эркин ва ижодий фикрлаш кўникмаларини шакллантириши;..
- ўқувчиларнинг ўз имкониятларини рўёбга чиқара олишлари учун зарур шартшароитларни яратиши;
- педагогик жараёнда демократик ва инсонпарварлик ғояларининг устуворлигига эришишни кафолатлаши зарур.

Хозирги кунда таълим жараёнида интерактив методлар инновацион технологиялар педагогик ва ахборот технологияларини ўқув жараёнида куллашга бўлган қизиқиш, эътибор кундан-кунга кучайиб бормоқда, бундай бўлишининг сабабларидан бири шу вақтгача анъанавий таълимда ўқувчи-ўқувчиларни фақат тайёр билимларни эгаллашга ўргатилган бўлса, замонавий технологиялар уларни эгаллаётган билимларини ўзлари қидириб топишларига, мустақил ўрганиб таҳлил қилишларига, ҳатто хулосаларни ҳам ўзлари келтириб чиқаришларига ўргатади. Ўқитувчи бу жараёнда шахсни ривожланиши, шаклланиши, билим олиши ва тарбияланишига шароит яратади ва шу билан бир каторда бошқарувчилик, йўналтирувчилик функциясини бажаради. Таълим жараёнида ўқувчи асосий фигурага айланади.

Замонавий педагогикада таълим беришнинг умумий шакллари (жамоавий, гуруҳли, яқка тартибда) ва ўқув-тарбиявий жараённи ташкил этиш шакллари (дарс, фан, техника тўғараклари, ўқувчилар илмий уюшмалари, экскурсиялар) фарқланади.

Таълимни ташкил этиш шакллари педагогик жараённи ташкил этишнинг тарихан мавжуд бўлган, барқарор ва мантиқан тугалланган кўриниши бўлиб, унга мунтазамлик ва яхлитлик, ўз-ўзини ривожлантириш, шахсийлик ва фаолиятли

характер, иштирокчилар таркибини доимийлигига ўтказишнинг муайян тартиби мавжудлиги хосдир.

Дарснинг таркибий элементлари:

Биринчи элемент - ташкилий қисм.

Иккинчи элемент - уйга берилган ёзма вазифани текшириш.

Учинчи элемент - ўқувчилар билимини оғзаки текшириш (ёки сўраш).

Тўртинчи элемент - янги материални тушунтириш.

Бешинчи элемент - уйга вазифа бериш.

Олтинчи элемент - янги материални мустаҳкамлаш.

Еттинчи элемент - дарсни уюшқоқлик билан яқунлаш.

Дарснинг тузилиши:

Анъанавий дарс тузилиши: сўраш, тушунтириш, мустаҳкамлаш, уйга вазифа бериш.

Замонавий дарс тузилиши дидактик асосига мантиқий психологик тузилиш.

Замонавий дарс тузилишига қўшимча мотивланган методик дидактик тузилиши:

1. Таянч (аввалги) билимларни ва ҳаракат усулларини фаоллаштириш.
2. Янги тушунча ва ҳаракат усулларини шакллантириш.
3. Билимларни қўллаш, билиш ва кўникмаларни шакллантириш (махсус такрорлаш ва мустаҳкамлаш).

Дарснинг мантиқий-психологик тузилиши:

1. Маълум билимларни тиклаш ва идрок этиш.
2. Ўқувчилар томонидан янги билимларни англаш ва тушуниш.
3. Билим элементлари ва ҳаракат усуллари умумлаштириш.
4. Билимлар ва янги ҳаракат усулларини намунадагидек ҳамда ўзгартирилган шароит вазиятларида қўллаш олиш.

Дарсда излаш фаолият бошқичлари:

1. Муаммоли вазиятни ташкил этиш ва муаммони қўя олиш.
2. Тахминлар, фаразларни илгари суриш ва уларни асослаш.
3. Фаразларни исбот этиш.
4. Муаммоларнинг тўғри ҳал этилганлигини текшириш.
5. Хулосаларни шакллантириш.
6. Билимларни нотаниш (ностандарт) вазиятларда қўллаш.

Дарснинг мотивланган тузилиши:

1. Ўқувчиларнинг диққатини ташкил этиш ва бошқариш.
2. Фаолият мазмунини шарҳлаш (изоҳлаш).
3. Мотивланган ҳолатларни актуаллаштириш.
4. Ўқувчилар билан ҳамкорликда дарснинг мақсадини белгилаш.
5. Мақсадга эришишда ютуқли вазиятларни вужудга келтириш.
6. Ўқувчиларнинг ҳаракатларида ижобий ҳис-туйғу ва ўзига ишончни қўллаб-қувватлаш.

Ўқув фаолияти тузилиши:

Ўқув фаолияти: талаб + мотив + ўқув ҳаракатлари + ўзини-ўзи назорат + ўзини-ўзи баҳолаш.

Таълим муассасаларидаги ўқитиш жараёнининг шакл ва методларини ташкил қилишнинг кўпқиррали ягона тизими рамкасида амалга оширилади. Ўқитишнинг шакл ва методлари йиғиндиси ўқув жараёнининг объектив қонуниятлари билан белгиланадиган ягона дидактик комплексни ташкил этади.

Таълим муассасасидаги ўқитишнинг шакл ва методлари таснифи ўзаро боғланган ва ўзаро шартланган икки фаолиятга таянади:

- ўқув жараёнини бошқариш ва ташкил этиш бўйича ўқитувчиларнинг фаолияти;
- ўқувчилар ўқув ва билиш фаолияти;

Замонавий ўқитиш технологиялари-мажмуавий интегратив тизимлар бўлиб, улар ўзида таълим мақсадлари билан белгиланган касбий кўникма, малакалар ва шахс хислатларини ўрганувчилар томонидан эгалланиши ҳамда билимларни ўзлаштиришга йўналтирилган операция ва ҳаракатларнинг тартиблаштирилган тўпламини акс эттиради. Бу ўринда таълим мақсадларининг белгиланиши (кимга ва нима учун?), мазмунни танлаш ва ишлаб чиқишга татбиқ этиш (нима?), таълим жараёнларини ташкил қилиш (қандай?), таълим методи ва воситаларини белгиланиш (нималар ёрдамида?), шунингдек, ўқитувчилар малака даражаси (ким?) ҳамда эришилган натижаларни баҳолаш методи (қандай йўл билан?) га асосланиши лозим. Келтирилган мезонларнинг мажмуавий қўлланилиши ўқув жараёни моҳияти ва унинг технологиясини белгилаб беради.

Инновация (инглизча Innovation) – янгилик киритиш, янгилик демакдир. Инновацион технологиялар педагогик жараён ҳамда ўқитувчи ва ўқувчи фаолиятига янгилик, узгаришлар киритиш бўлиб, уни амалга оширишда асосан интрактив методлардан тўлиқ фойдаланилади. Интрактив методлар бу жамоа бўлиб фикрлаш деб юритилади, яъни педогоик таъсир этиш усуллари бўлиб, таълим мазмуниининг таркибий қисми хисобланади. Яъни педагог ва ўқитувчи-ўқувчиларнинг биргаликда фаолият кўрсатиши оркали амалга оширилади.

Бундай педагогик ҳамкорлик жараёни бир катор хусусиятларга эга:

- ўқувчи-ўқувчининг дарс давомида бефарк бўлмасликка, мустақил фикрлаш, ижод этиш ва изланишга мажбур этиш;
- ўқув жараёнида билимга бўлган қизиқишларини доимий равишда бўлишини таъминлайди;
- ўқувчи-ўқувчининг билимга бўлган қизиқишини мустақил равишда ҳар бир масалага ижодий ёндошган ҳолда кучайтириш;
- педагог ва ўқувчи-ўқувчининг ҳаммиша ҳамкорликдаги фаолиятини ташкиллаштириш;

Педагогик технология масалалари муаммоларни ўрганаётган ўқувчилар, илмий тадқиқотчилар, амалиётчиларнинг фикрича педагогик технология – бу факат ахборот техногияси билан боғлиқ ҳамда ўқитиш жараёнида қўлланиши зарур бўлган ТСО, компьютер масофали ўқитиш ёки техникалардан фойдаланиш деб белгиланади. Педтехнологиянинг энг асосий негизи бу ўқитувчи ва ўқувчи-

ўқувчининг белгиланган мақсаддан қафолатланган натижага ҳамкорликда эришишлари учун танланган технологияларга боғлиқ. Яъни ўқитиш жараёнида мақсад бўйича натижага эришишда қўлланиладиган ҳар бир таълим технологияси ўқитувчи ва ўқувчи ўртасида ҳамкорлик фаолиятини ташкил эта олса, ҳар иккаласи ҳам ижобий натижага эриша олса, ўқув жараёнида мустақил фикрлай олса, ижод қилса, изланса, таҳлил қилса, хулоса чиқарса, ўзларига гуруҳга, гуруҳ эса уларга баҳо бера олса, ўқитувчи уларнинг бундай фаолиятлари учун имконият ва шароит яратса, шу ўқитиш жараёнининг асоси ҳисобланади.

Ҳар бир дарс мавзу, ўқув предметининг ўзига хос технологияси бор. Яъни ўқув жараёнидаги педтехнология, бу яқка тартибдаги жараён бўлиб, у ўқувчи эҳтиёжидан келиб чиққан ҳолда бир мақсадга йўналтирилган, лойихалаштирилган ва қафолатланган натижа беришга қаратилган педагогик жараёндир.

Мақсадни амалга ошириши ва қафолатланган натижага эришиш, ҳам ўқитувчи ҳам ўқувчининг ҳамкорликдаги фаолияти ҳамда улар куйган мақсад танланган мазмун, метод, шакл, воситага яъни технологияга боғлиқ. Ўқувчи ва ўқитувчи мақсаддан натижага эришишида қандай технологияни танлашлари уз ихтиёрида. Чунки ҳар иккала томоннинг асосий мақсади аниқ: натижага эришишга қаратилган, бунда ўқувчи билим савияси гуруҳ характери шароитига қараб ишлатиладиган технологиялар танланади.

Шу билан бир каторда ўқитиш жараёнини олдиндан лойихалаштириш зарур, бу жараёнда ўқитувчи ўқув предметининг ўзига хос томонини жой ва шароитни, ТСОни, энг асосийси ўқувчининг имконияти ва эҳтижини ҳамда ҳамкорликда ишлай олишини ҳисобга олиш керак. Шундагина кутилган натижага эришиш мумкин. Киска қилиб айтганда ўқувчи-ўқувчини таълимнинг марказига олиб чиқиши керак. Ўқитувчи томонидан ҳар бир дарсни яхлит холид билиши, таъсаввур қилиши, дарсни лойихалаштириб олиши керак. Бунда ўқитувчи у томонидан дарсни технологик ҳаритасини тузиб олиш аҳамиятга эга. Чунки дарснинг технологик ҳаритаси ҳар бир мавзу, дарс ва ундаги предмет фаннинг хусусиятидан, ўқувчининг имконияти ва эҳтиёжидан келиб чиққан ҳолда тузилади. Технологик ҳарита тузиш учун педагогика, психология, хусусий методика, педагогик ва ахборот технологияларидан хабардор бўлиш лозим. Шу билан бир каторда жуда кўп усулларни билиши зарур. Дарсни ранг баранг қизиқарли бўлишида пухта уйлаб тузилган дарснинг лойихалаштирилган технологик ҳаритасига боғлиқ. Дарснинг технологик ҳаритасини қандай тузиш, бу ўқитувчининг тажрибаси, куйган мақсади ва ихтиёрига боғлиқ. Технологик ҳарита яхлит аниқ белгиланган мақсад, вазифа ва қафолатланган натижа, дарс жараёнини ташкил этишининг техноогияси тўлиқ уз ифодасини топган бўлиши керак. Технологик карта ўқитувчини конспект ёзишдан халос этади. Чунки бунда дарс жараёнини барча қирралари уз аксини топади.

Адабиёт

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 6 апрелдаги “Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-хунар таълимининг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида”ги 187-сонли қарори.

2. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантиришнинг назарий – методик асослари.: Автореф. дис. ... пед. фан. докт. – Т.: 2007. – 45 б.

3. Муслимов Н.А. Мутахассиснинг касбий шаклланишида масофавий таълимдан фойдаланиш йўллари // Ж. Infocom.UZ. -2004. -№ 5. –Б. 60-62.

4. Зарипов Л.Р. Инновацион таълим шароитида ўқувчиларни технологик тайёрлаш // Педагогика журнали. 2019 йил. № 5. - Б. 92-98.

5. Mangal S.K., Fundamentals of Educational Technology, Ludhiana: Tandon Publications, 1994.

6. Нишоналиев У.Н. Таълим стандартлари ва педагогик инновациялар – Т.; Халқ таълим, 1999, № 6. 28 – 31 бетлар.

7. Толипов Ў.Қ. Олий педагогик таълим тизимида умуммехнат ва касбий кўникма ҳамда малакаларни ривожлантиришнинг педагогик технологиялари. Монография. Т.: “Фан”. 2004. –168 с.

8. Шарипов Ш. Ўқувчилар касбий ижодкорлиги узвийлигини таъминлашнинг назарияси ва амалиёти. Дисс. ... пед. фан. докт. – Т., 2012. – 307 б.

ТЕХНОЛОГИЯ ДАРСЛАРИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ТЕХНОЛОГИК БИЛИМ ВА КЎНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА МОСЛАМАЛАРНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ

**А.Х. Узақова, технологик таълим мутахассислиги магистранти,
А.А. Запаров, профессор.
Андижон давлат университети**

***Аннотация:** Ушбу мақолада Технология дарсларида ўқувчиларнинг технологик билим ва кўникмаларини шакллантиришда мосламаларнинг ўрни ва аҳамияти ўрганилган.*

***Калит сўзлар:** Технология таълими, ўқув жараёни, технологик билим ва кўникмалар.*

***Аннотация:** В данной статье исследованы место и значение приспособлений в формировании технологических знаний и навыков учеников на уроках Технологии.*

***Ключевые слова:** Технологическое обучение, учебный процесс, технологическое знание и навыки.*

Ўзбекистон Республикаси мустақилликка эришгандан кейин дастлабки ислохотларда фан ва таълимни ривожлантиришига алоҳида эътибор қаратилди. Бу борада қабул қилинган «Таълим тўғрисида»ги қонун ва «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури»да янги авлодни ўқитиш ва тарбиялаш, малакали кадрлар тайёрлаш, уларни малакасини ошириш ва қайта тайёрлаш, ДТСлар ишлаб чиқиш ҳамда таълим жараёнига янги педагогик технологияларни жорий қилиш асосий мақсад қилиб қўйилган.

Хусусан, ўқувчиларни Технология соҳасида амалий кўникмалари билан бир қаторда замонавий компьютер-ахборот технологияларидан фойдаланишга ўргатиш жорий этиш зарур тадбирлардан бири бўлиб қолди. Мазкур мақсадга эришишга

2004 йил 20 февралда қабул этилган Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2004-2008 йилларда мактаб таълимини ривожлантириш дастурини тайёрлаш тадбирлари тўғрисида» қабул этилган фармони ҳамда унда белгиланган режалар амалиётга жорий этилмоқда.

Айниқса:

- Технологияни моддий техника базасини ривожлантириш;
- Технологияга ҳос ўқув ва лаборатория ускуналари, компьютер техникаси, дарсликлар ва ўқув-услубий материаллардан дарсларда унумли фойдаланиш;
- Технология тизимида қўлланилаётган таълим стандартлари ва ўқув дастурларини такомиллаштириш;
- Технологияни малакали педагог кадрлар билан таъминлаш ҳамда уларни сифатини ошириш ва ҳоказо. Бу борада:

Компьютер-ахборот технологияларини Технологиянинг барча босқичларида кенг қўламда қўлланиш имконияти пайдо бўлди. Ушбу изланишда талабаларни барча ақлий, жисмоний ҳамда айниқса техникавий - технологик жиҳатларини ўзлаштиришда дастлабки жараёнларни ўрганилиши, илғор ахборот технологияларини яратиш ва жорий этиш орқали таълим тизимини жаҳон андозалари даражасига олиб чиқишга ҳаракат қилиш - асосий мақсадлардан биридир. Компьютер-ахборот технологияси мактаб ўқув режасидаги барча фанларни айниқса ўқувчиларни Технологиядаги барча меҳнат ҳаракатларини узлуксиз ҳолатларини ўзлаштириш илмийлик, тизимлилик ва кетма - кетлик назариянинг амалиёт билан чамбарчас боғлиқлиги, ўқитувчи ва ўқувчилар ҳамкорлик меҳнатларини оддийдан мураккабга йўналтириш, кўрсатмалилик, билимларни мустаҳкам ўзлаштириш, оммавийлик ва фаолликни ошириш каби асосий дидактик тамойилларни ўз ичига олади

Республикада амалга оширилаётган чуқур ижтимоий-иқтисодий, сиёсий ва ҳуқуқий ислохотлар мамлакат ва жамият ҳаётидаги, таълим соҳасидаги инновацион ёндашувлар билан узвий боғлиқ. Инновацион ёндашувлар бўлажак мутахассисларни инновацион фаолиятга тайёрлашга алоҳида эътибор қаратиш зарурлигини кўрсатади.

Ўқитувчи инновацион ёндашув асосида ўқувчиларни технологик компетенциясини шакллантириш учун, энг аввало, педагогик инновациялар тўғрисида тушунчага эга бўлиши керак. Педагогик инновацион жараёнлар Ғарб давлатларида ўтган асрнинг 50 йиллари охирларидан бошлаб, мустақил Ўзбекистонда эса, кейинги 10 йилликда олимлар томонидан махсус ўрганила бошланган.

Технология таълимини ихтисослаштирилган ҳолатида кўриб, унинг таркибида қуйидаги йўналишлар аниқланди:

1.Технология дарсларида ўқувчиларнинг металлга ҳос технологик билим ва кўникмаларни шакллантиришда ўтмишдаги ҳамда замонавий ишлаб чиқаришларидан қўлланиладиган мосламаларнинг турлари ва аҳамияти.

2.Технология дарсларида ўқувчиларнинг ёғочга ҳос технологик билим ва кўникмаларни шакллантиришда ўтмишдаги ҳамда замонавий ишлаб

чиқаришларида қўлланиладиган мосламаларнинг турлари ва аҳамияти.

3.Технология дарсларида ўқувчиларнинг технологик билим ва кўникмаларни шакллантиришда газламага хос ўтмишдаги ҳамда замонавий ишлаб чиқаришларида қўлланиладиган мосламаларнинг турлари ва аҳамияти.

4.Технология дарсларида ўқувчиларнинг пазандачиликка хос ўтмишдаги ҳамда замонавий ишлаб чиқаришларида қўлланиладиган мосламаларнинг турлари ва аҳамияти.Технология дарсларида ўқувчиларнинг қишлоқ хўжаликка хос технологик билим ва кўникмаларини шакллантиришда ўтмишдаги ҳамда замонавий ишлаб чиқаришларида қўлланиладиган мосламаларнинг турлари ва аҳамияти.

5.Технология дарсларида ўқувчиларнинг миллий ҳунармандчиликка хос технологик билим ва кўникмаларини шакллантиришда ўтмишдаги ҳамда замонавий ишлаб чиқаришларида қўлланиладиган мосламаларнинг турлари ва аҳамияти.

Қайд этилган Технология йўналишларига хос мавжуд ўқув материаллари дастлабки таҳлилидан маълум бўлдики:

1. Технология методикаси ўз ўрнида қўлланилмоқда.
2. Технологиянинг илмий жihatлари асосланган.
3. Технологиянинг амалий қўлланилиши равшан бўлди.
4. Технология дарсларида технологик билим ва кўникмалар дарсларда шаклланиб келмоқда.
5. Технологиянинг ахборот ресурслари дарсма-дарс ёритилади. Уларнинг илмий методик, педагогик ва техник-технологик жihatлари амалий ҳолатларда ўз аксини топган.

Бўлажак Технология ўқитувчиси фаолиятларида ҳам педагогик фаолиятлари хос психологик-педагогик, техник-технологик, касбий, илмий- педагогик, ахборот-технология ва бошқа тайёргарликлар юзасидан тегишли билим, малака, кўникма ҳосил қилишга имкониятлар мавжуд. Улар тўғрисида кенг чуқурроқ ҳолатида фикрлар юритишда маълум бўладики, талабалар Технология методикаси фанида қуйидагилардан хабардор бўладилар:

- «Меҳнат» - инсоннинг ақлий ва «жисмоний» ҳолатида бажарилган иш натижасидир. Ундан инсонга маълум бўлдики, меҳнатсиз улар ҳаётга зарур эҳтиёжларга (озикага, пана жойга, ривожланишга замин ярата олмаслигига эриша олмаслигига ета олмайдилар) мазкур фикрлар, уларни тарақий фаолиятларига интилиш зарурлигини пайқаб билиморқали ривожланишга интилдилар.

- «Меҳнат» ижобий ҳолатида фойдали ва «унумли» мезони билан сифатини англатади.

- «Меҳнат» инсоннинг ҳаётидаги ҳар бир жараёнида маълум ижодий «иш» бажаришни, тайёрлаган, «махсулот», «буюм», яқунланган илмий изланиш, тарбияланган фарзанд, ўқувчи, талаба, шогирд билан белгиланади.

-Қайд этилган барча «ижобий» меҳнат негизида илм, фан, таълим, тарбия асослари ёндошган ҳолатида пайдо бўлади.

Шунинг учун келтирилган ҳар хил атамалар, тушунчалар, ибораларни ёш авлодга тушунтириш, ўқитиш, шакллантириш жараёнлари тарбиячидан, таълим

берувчидан, мураббийдан, устоздан - маълум даражада педагогика, психология, дарс технология, ўқитиш воситалардан фойдаланиш каби имкониятларни мукамал ўзлаштиришни тақозо этади. Бу борада энг мураккаби - дарс ўтиш методларидан унумли фойдаланишни ўрганиши, ҳар бир дарс мақсадига биноан методларни танлаш, уни ўтказиш технологияларни ишлаб чиқиш ва дарс мақсадига эришиш.

Бу борада таъкидлаш зарурки, ҳар бир бўлажак Технологияўқитувчисининг фаолиятида фақат ўзига хос инновациялар мавжуд, улар ўз инновацияларидан фойдаланишга интиладилар.

Демак, шулардан келиб чиққан ҳолда, Технология ўқитиш методикаси - бу ўқувчиларни «нимага ўқитиш»ни ўргатиш, нимани шакллантириш (ДТСга асосланган Технология мазмуни);

Меҳнат қилишни «қандай ўқитиш», «ўргатиш», ўзлаштириш - мавжуд имкониятларни янги педагогик технологиялардан фойдаланиш, уларда умумий ва хусусий инновацияларни қўллаш, ноанъанавий усулларни ишлатиш ўқувчиларда дарсни ўзлаштириш тажрибасига таяниш ва ҳақозо.

Шуларга таянган ҳолда, Технология ўқитиш методикасида талабалар умумий ўрта таълим мактаблари 5-9 синфлардаги «Технология»ни ДТС асосида (металлга, ёғочга ва газламага ишлов бериш технологиялари, пазандачилик асослари) ўқитиш учун педагогика, психология ва махсус фанлардан олган билимларни мужассамлаштириш билан танланган ихтисосликлари бўйича таълим - тарбия жараёнини ташкил қилиш ва амалга ошириш йўллари орқали бўлажак Технология ўқитувчи-мутахассисликка услубий билим, кўникма, малакалар билан қуроллантиришга оид аниқ масалалар билан танишадилар.


Технология ўқитиш методикаси фани бўлажак ўқитувчиларга ўқитиш тамойиллари, Технология йўналиши бўлса, дастурлар мазмуни билан таништиришда Технология дарсларида ва синфдан ташқари ишларда ўқувчиларнинг фикрлаш қобилиятларини ривожлантириш элементларини, ўқув методик адабиётларни ўрганиш ҳамда таҳлил қилиш, дарсларни режалаштириш, меъорий ҳужжатларни юритиш, педагогик амалиётнинг мақсади, вазифалари ва мазмуни, курс ишларини бажариш таркиби, ўқув-модий техник база таҳлилларини ўрганишга қаратилган.

«Технология ўқитиш методикаси» дарслигида бўлажак ўқитувчиларнинг Технологиянинг мазмуни, унинг тарихий тараққиёти Технологиянинг дидактик тамойиллари, ташкилий шакиллари, услублари режалаштириувчи ҳужжатлар, ретинг баҳолаш мезонлари, меҳнат тайёргарлиги, ДТС асосида (металлга, ёғочга ва газламага ишлов бериш технологиялари, пазандачилик ва қишлоқ хўжалик асослари ҳамда Технологиянинг бошқа турлар) умумий ва хусусий масалалар, уларнинг назарий асослари ҳамда матаб ислоҳатида меҳнат ва касбий тайёргарликда тайёрланаётган ва қўлланилаётган турли каструкцияли мосламалар тутган ўрни ва бошқа муаммолар юзасидан техник ватехнологик билим ҳамда кўникмалар билан қуроллантириш орқали мустақил Ўзбекистонни халқ таълим тизимидаги Технологияучун ўқитувчи-кадрлар тайёрлашга хизмат қилади. Унда Технологияметодикаси фани бўйича маъруза, амалий лаборатория ва семинар

машғулотлари ўтказилади. Ҳар бир турдаги машғулотларни ўтказишда қайси ихтисослаштирилган Технологиябўлмасин, унда уч-тўрттадан мосламалар, бир-иккитадан кондуктор, беш-олтитадан жихоз шаклидаги қурулмаларга эҳтиёжлар керак бўлади. Улар албатта мослама кўринишида қўлланилади, ҳамда ўз олдига қўйилган мақсади, мазмуни ва ташкилий шакллари, усуллари билан бир-бирини тўлдирди.

Барча машғулотларда қўлланиладиган мосламалар юзасидан шаклланган билимларни, кўникмаларни яхлит ҳолатда мужассамлаштирилган моделларни амалда синаб кўриш педогогик амалиёт орқали амалга ошириши зарур.

«Технология ўқитиш методикаси» фани бўйича талабаларни Технология мутахассислигига хос фаолиятга тайёрлаш жараёнида техник ва технологик билим ва кўникмаларга қўйилган талаблар ўз аксини топган. Шунда бўлажак мҳнат таълими ўқитувчилариюқори малакали, билимли, технологик билим ва кўникмалар юзасидан замонавий Технологияметодлари ва ахборот технологияларидан фойдаланиш малакаси, иш-ҳаракат усуллари ва услубий ўзлаштириш, ўқувчиларда меҳнатдаги иқтисодий экологик, меҳнат тарбияси, амалий меҳнат ва бошқа асослар мажмуавий ҳолатда тадбиқ этишни ўрганишлари лозим.



1-шакл.

Шунда ҳар бир умумтаълим фанлари (физика, математика, биялогия ва ҳоқоза фанлар), айниқса мактабдаги, коллежда ўзлаштирилган меҳнат, касб-ҳунар ва ишлаб чиқариш юзасидан маълумотлар ҳамда умумий педагогик, психологик ва методик билимлар «Технология ўқитиш методикаси»ни ўзлаштиришга замин бўлиб, бу фанга белгиланган ДТС ни бойитиш, кенгайтириш ва чуқурлаштиришга олиб келади.

Уларни ўқитилишда 1-шаклда ўрнини топган фанлар фундаментал ҳолатда қабул этилган. Шундай қилиб, биз Технологияни ихтисослаштирилган негизда ўқитилаётган дарсларида ўқувчиларни техникада таянган технологик билим ва кўникмаларни шакллантиришда мавжуд мосламаларнинг аҳамияти мавзусига ёндашиб келишиши, унинг назарий, амалий ва бошқа шакллардаги машғулотларда мосламаларнинг турли шакллари (кондуктор, шаблон юпқа шаклларда ишлаб чиқилган ва ҳоқозалар) ўқувчиларга ёрдам беради. Булар ёрдамида ҳар бир меҳнат машғулотларда юқорида келтирилган мосламалар ихтисослаштирилган Технологиядарсларида фойдаланиши негизда мундарижадаги ҳар бир мавзудаги илмий изланишлар қўлланиладиган мосламалар мазмунидаги мавжуд технологик

«технологик билим, кўникмалар» қуйдагича ёритилиши мақсадга мувофиқ.

Адабиёт

1. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантиришнинг назарий – методик асослари.: Автореф. дис. ... пед. фан. докт. – Т.: 2007. – 45 б.
2. Муслимов Н.А. Мутахассиснинг касбий шаклланишида масофавий таълимдан фойдаланиш йўллари // Ж. Infocom.UZ. -2004. -№ 5. –Б. 60-62.
3. Зарипов Л.Р. Инновацион таълим шароитида ўқувчиларни технологик тайёрлаш // Педагогика журнали. 2019 йил. № 5. - Б. 92-98.
4. Mangal S.K., Fundamentals of Educational Technology, Ludhiana: Tandon Publications, 1994.
5. Нишоналиев У.Н. Таълим стандартлари ва педагогик инновациялар – Т.; Халқ таълим, 1999, № 6. 28 – 31 бетлар.
6. Толипов Ў.Қ. Олий педагогик таълим тизимида умуммехнат ва касбий кўникма ҳамда малакаларни ривожлантиришнинг педагогик технологиялари. Монография. Т.: “Фан”. 2004. –168 с.
7. Шарипов Ш. Ўқувчилар касбий ижодкорлиги узвийлигини таъминлашнинг назарияси ва амалиёти. Дисс. ... пед. фан. докт. – Т., 2012. – 307 б.

KASB-HUNAR MAKTABLARIDA DARS DAN TASHQARI MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

**O'ktamova Diloromxon Qodirjon qizi, Texnologik ta'lim mutaxassisligi magistranti,
A.A.Zaparov, AnDU professori**

Ma'ruzada kasb-hunar maktablarida darsdan tashkari mashg'ulotlarni xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish texnologiyasini o'rganish va ular asosida tashkil qilish bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: kasb-hunar, kasb-hunar maktabi, kasb-hunarga yo'naltirish, darsdan tashkari mashg'ulotlar, innovatsiyon texnologiyalar.

В докладе рассказывается об изучении и организации внеурочной деятельности в профессионально-технических училищах на основе зарубежного опыта.

Ключевые слова: профессия, профессионально-техническая школа, профориентация, внеучебная деятельность, инновационные технологии.

The report describes the study and organization of extracurricular activities in vocational schools based on foreign experience.

Key words: profession, vocational school, career guidance, extracurricular activities, innovative technologies.

Bugungi kunda umumta'lim maktablarining asosiy vazifalaridan biri o'sib kelayotgan yosh avlodni jamiyatda faol ishtirol etish va faoliyatga tayyorlashdir.

Kasb-hunarga yo'naltirish-o'quvchilarning kasb-hunar va mehnat bilan bog'liq rejalarni tuzish, kasb-hunar va mehnat faoliyati sohasini tanlash jarayoniga rahbarlik

qilish demak. Bundan kelib chiqadiki, kasb-hunarga yo'naltirish maktab faoliyatining ajralmas qismidir. Bu nafaqat maktabning, balki barcha o'quvchi yoshlar ta'lim-tarbiyasiga ma'sul ijtimoiy insitutlar, shu jumladan, oila, mahalla, davlat tashkilotlari va boshqala rasosiy vazifasidir. Respublikamiz ham rivojlangan davlatlar qatori sanoatlashgan mamlakatlar sirasigayaqinlashmoqda. Albatta bunda yangi kasblarning kirib kelishi bilan bog'liq bo'lmoqda.

Respublikamizda ham yangi kasb-hunar maktablari, texnikumlar va turli xil markazlar tashkil etilib kasb-hunarga o'rgatilmoqda. Shu o'rinda dunyo mamlakatlari kabi masalan Turkiya, Hindiston, Pokiston mamlakatlari dunyo mamlakatlarigadasturchishifokorlar tayyorlab berayotgan davrda bizham nufuzli kasb egalarinitayyorlash nafaqat respublikamizga balki dunyo mamlakatlariga tayyorlash maqsadga muvofiq dab o'ylaymiz. Kasbiy tarbiyaning bosh maqsadi yosh avlodni ma'naviy axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy ma'naviy tarixiy an'analarga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib amalga joriy etishdir. Darsdan tashqari mashg'ulotlarda kasbiy tarbiyaning asosiy vazifasi shaxsning aqliy, axloqiy, erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir. Buning uchun: yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishga ko'maklashish, o'z-o'zini idora va nazorat qila bilishini shakllantirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, ularda reja va amal birligi hissini uyg'otish; o'quvchilarni milliy, umuminsoniy qadriyatlar, Vatanimizning boy ma'naviy merosi bilan tanishtirish, madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo'lgan talablarini shakllantirish, malaka hosil qildirish, tobora o'stirib, boyitib borish va estetik tushunchalarini shakllantirish; har bir o'smirning bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish, inson faoliyatining turli sohalarida joriy qilib ko'rish, bolalar ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish va yanada qo'llab -quvvatlash uchun shart-sharoit hozirlash; -insonparvarlik odobime'yorlarini shakllantirish (bir-birinitushunadigan, mehribonlik, shafqatlilik, irqiy va milliy kamsitishlarga toqatsizlik), muomala odobi kabi kasbiy tarbiya vositalari (nohaqlikka, yolg'onchilikka, tuhmat, chaqimchilik) ga toqatsizlik; -vatanparvarlik, dunyoviy fikrlash, jamiyatimizda yashayotgan odamlar bilan o'zaro munosabat mulqotini o'rganish, o'z xalqiga, davlatiga sodiqlik, uning himoyasi uchun hamisha shay bo'lib turish, yoshlarimizni erkin, mustaqil fikrlashga o'rgatish zarur.

Darsdan va maktabdan tashqari kasbiy tarbiyaviy ishlar o'quvchilarning qiziqishi, istaklari, xohish va ehtiyojlariga suyangan holda, ularning darsdan bo'sh vaqtlarining o'quv tarbiya jarayonini to'ldiradi. U o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi. O'quvchilarda kasbiy tarbiyani shakllantirishda kitob va kitobxonlik muhim ahamiyat kasb etadi. Bilim manbai bo'lgan kitobni sevis, uni o'qish va ko'z qorachig'idek saqlay bilish lozim. O'qish uchun uni tanlay olish va o'qish madaniyatini bilish kerak. Bu ishda ustozu murabbiylar va kutubxona xodimlari yordam berishlari lozim. Kasbiy tarbiyani amalga oshirishda ta'lim muassasalarida umuminsoniy qadriyatlar doimo diqqat markazida bo'lishi va uni amalga oshirish uchun shaxs erkinligi va

oshkoralikni himoyalash har bir kishining asosiy vazifasidir. Kundalik tarbiyaviy ishlarni shunday tashkil etish zarurki, natijada o'quvchilar Respublika mustaqilligi sharoitida uning muammolarini o'z inqiroziga qabul qiladigan bo'lsin. Ularning og'irligini o'z elkasiga oladigan, mumkin qadar Vatanga foyda keltiradigan shaxs bo'lib ulg'aysin. Bugungi kunda olib borilayotgan, ko'zda tutilgan barcha yangilanish jarayonlari, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy sohalaridagi tub o'zgarishlar hammaning fidokorona xizmati tufayligina yuzaga kelishini tushunsin.

O'qituvchining belgilangan rejani bajarish yuzasidan tashkil etadigan o'quv ishlari tayyorlov va bajarish bosqichlariga bo'linadi. Darsga tayyorlanish davomida o'qituvchi o'z imkoniyatiga qarab quyidagilarni ta'minlaydi; ta'limning zarur bo'lgan texnik vositalarini, ko'rgazmali qurollar, qo'llanmalarni, didaktik va tarqatiladigan materiallarni tayyorlaydi; murakkabliklar vujudga kelishining oldini olish va, eng muximi, joylarni tanlab olish uchun navbatdan tashqari, dastlabki diafilmlarni ko'rish, ko'rgazmalarni qarab chiqish, tajribalarni amalga oshirish ishlarini o'tkazadi; oldindagi tajribalar, amaliy ishlar va ko'rgazmalarni tayyorlash ishlariga o'quvchilarni jalb etadi. Uyda va darsda takrorlash uy ishlarini hamda o'zlashtirilgan nazariy mavzuni mustaxkamlash, mashqlarni avvaldan bajarib ko'yishga chorlaydi.

O'qituvchi dastlabki tashkiliy ishlar davomida darsning rejasiga ba'zi bir o'zgarishlar, anikliklar kiritadi, o'quvchilarda kiyinchiliklar tug'dirishi mumkin bo'lgan ba'zi bir topshiriqlarni olib tashlaydi yoki bo'laklarga ajratadi. Bevosita darsda ta'lim jarayonini tashkil etish, bir tomondan, o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirish yuzasidan faoliyatlarini tashkil etish, ularning oldiga o'quv topshiriqlarini qo'yish, o'quvchilarga tegishli sharoitlarni yaratish, amaliy ishlarni tashkil etish davomida o'quvchilar o'rtasida vazifalarni aniq taqsimlash va ular oldida turgan faoliyatning turlari haqida tushunarli, aniq yo'l-yo'riqlar berish, o'quv topshiriqlarini bajarish mobaynida o'quvchilarga o'z vaqtida yordam ko'rsatish kabilarni qamrab oladi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning faolligini rag'batlantirishsiz muvaffaqiyatli o'qitishni tasavvur etib bo'lmaydi.

Rag'batlantirishlar o'quvchilarning diqqat-e'tiborlarini mavzuga jalb etish hisobiga, shuningdek havasmandlikni, tirishqoqlikni, sinchkovlikni, bilimga, qiziquvchanlikni uyg'otish hisobiga ham amalga oshirilishi mumkin. Darsning borishi jarayonida, xususan uning ikkinchi qismida, o'quvchilarning tabiiy ravishda charchashlari yuz bera boshlaganda va ular toliqishni, charchoqni ketkazadigan ta'sirlarga muhtoj bo'lganda (foydalanadigan rag'batlantirish usullarini o'ylab topish kerak).

Ta'limning tashkiliy jabhasi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning belgilangan tartibda amalga oshiriladigan faoliyatining tashqi ko'rinishi ta'limning tashkiliy ko'rinishini belgilaydi. Ta'limning tashkiliy shakllari o'qituvchi va o'quvchining hamjihatlikdagi faoliyatini aniqlab beradi, ommaviy ta'lim va aloxida (individual) holdagi ta'limning nisbatlarini belgilaydi.

O'rta Osiyo va umuman SHarq ta'limi alohidalik, ayrimlik, yakka holda o'rgatish xususiyatlariga ega edi, o'rta asrlar davrida esa mashg'ulotlar o'quvchilarning uncha katta bo'lmagan guruhlarida o'tkazilgan. XVI asrda dunyo maktablarining tajribalarini o'rganish asosida YA. A. Komsinskiy dars shaklidagi ta'limni tashkil etishdan iborat sinf

— dars tizimini nazariy jihatdan tushuntirib berdi. Ta'limning tashkiliy — dars shakli davomidz o'quv mashg'ulotlari o'qituvchining rahbarligida, o'rnatilgan jadvalga ko'ra, doimiy bo'lgan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladi. Ta'limning sinf — dars shakli XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshlarida Angliyada yoyildi va bellankaster tizimi deb nomlandi. Bu nom uni taklif etgan mualliflar A. Bella va D. Lankaster ismi shariflaridan hosil qilingandir.

Sinf — dars tizimi amalda ko'p jixatdan ustun ekanligini namoyon etdi va ko'pgina mamlakatlarda qo'llana boshlandi. Uquvchilarning anglash faoliyatlarini yanada faollashtirish uchun qilingan harakatlardan biri ta'limning yangi tashkiliy turi bo'ldi. Bu XX asrning boshlarida AQSH jamoat arbobi E. Tarkxerst tomonidan taklif etilgan edi, Bu dalston-reja deb nomlanib, ta'limni individuallashtirish va har bir o'quvchiga o'rgatishda mustaqil ravishda hamda o'z tezligida ilgari siljish imkoniyatini beradigan ta'lim turi edi.

Dars hozirgi zamon o'quv jarayonida tahsil maqsadlarini amalga oshirishda asosiy ta'lim shakli hisoblanadi. Bir necha asrlar davomida ta'limning dars shaklidan boshqa bir yangi shaklini pedagogika nazariyasi ham, amaliyoti ham taklif etganicha yo'q. O'tkazilgan dars o'quvchilarni ham, o'qituvchilarni ham qanoatlantirishi uchun ma'lum darajada umumiy talablarga javob berishi kerak, SHulardan ba'zilarini eslatib o'tamiz. Ayrim olingan biron-bir dars-predmet kalendar dasturidagi o'z o'rniga ega bo'lishi, maqsadi aniq belgilangan bo'lishi kerak. Dars o'tish jarayonida shakllantirilishi lozim bo'lgan bilim iqtidor va ko'nikmalarning erishiladigan darajasi bilan ham belgilanishi ma'qul bo'ladi. Darsda ishlatiladigan usullar, vositalar turkumi aniq bo'lishi oldindan belgilanishi maqsadga muvofiqdir. Darsga qo'yiladigan didaktik talablardan yana biri shukn, beriladigan o'quv material sistemali ravishda osondan — keyinga, oddiydan — murakkabga, o'quvchilar yosh xususiyatlarini xisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. O'qituvchi darsni tashkil qilar ekan, o'quvchilar o'quv faoliyatini aktivlashtiruvchi ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning muqobil rejalarini amalga oshirishni ko'zda tutmog'i lozim.

Darsga qo'yiladigan tashkiliy talablar: mavzu (kalendar) asosida dars o'tkazishning ishlab chiqilgan aniq rejasi mavjud bo'lishi, dars o'z vaqtida boshlanib, o'z vaqtida tugashi kerak. Darsning mantiqiy izchilligi, tugallanganligi va darsning boshidan to oxirigacha o'quvchilar ongli intizomi ta'minlanmog'i lozim, Darsni tashkil etishda turli-tuman vositalardan, o'quv-texnik, komp'yuter, statsionar va dinamik ko'rgazmali qurollardan foydalanish ko'zda tutiladi.

Darsning tarkibiy tuzilishi o'rganilayotgan materialning mazmuniga, darsda foydalaniladigan ta'limning usul va uslublariga, o'quvchilarning tayyorlanish hamda rivojlanish darajasiga, o'quv jarayonida darsning o'rniga bog'liq bo'ladi.

Darslar juda ham turli-tuman tarkibiy tuzilishlarga ega bo'lib, ularni bir, marta doimiy ravishda mavjud bo'ladigan ko'rinish tarzida rejalashtirish va qotib qolgan namuna asosida o'tkazaverish mumkii emas. Darsning tarkibiy tuzilishiga yuqorida qayd etib o'tilgan omillar qatorida mazkur sinfda ishlashning haqqoniy shart-sharoitlari, shuningdek o'qituvchi ish faoliyatining ijodiy. xarakteri katta ta'sir ko'rsatadi. Har bir dars boshqa darslardan hatto ular bitta mavzu yuzasidan teng, yonma-yon sinflarda o'tkazilganda ham, uning o'ziga xos jihatlariga ko'ra farq qiladi. Darsda har doim

o'qituvchining maxsus «pedagogik yondashuv tarzi»ni ko'rish mumkin. Masalan, kombinatsiyalashgan dars quyidagi ko'rinishda tashkil etiladi: tashkiliy ish, o'quvchilarga berilgan uy ishlarining bajarilishini tekshirish, o'rganilgan material yuzasidan o'quvchilardan so'rash, o'qituvchi tomonidan yangi materialning bayon etilishi, o'rganilgan materialni mustahkamlash, uyga topshiriqlar, vazifalar berish.

O'qituvchining darsga tayyorlanishida dastlabki bosqichlar alohida o'rin tutadi. Uquv yili boshlanishi oldidan o'qituvchi dasturdagi hamma mavzularni o'rganish vaqtini taqsimlab chiqadi, unga muvofiq bo'lgan kalendar rejasini tuzadi. Ushbu reja o'qituvchiga dars o'tishida birinchi hujjat sifatida xizmat qiladi. Darsning rejasini ixtiyoriy tuziladi, ammo unda quyidagi tarkibiy qismlar aks etishini ta'minlash zarur: darsning o'tkazilish muddati va uning mavzu rejasini bo'yicha tartib rakami; o'tkaziladigan sinfi, dars mavzusi; ta'limning vazifalari, shakllantiriladigan bilim va ko'nikmalar; o'quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirish; dars bosqichlarining davomiyligi va ushbu bosqichlarda vaktning taqsimlanishini ko'rsatgan holdagi tarkibiy tuzilishi; uquv materialining mazmuni; darsning har bir qismida o'qituvchi va o'quvchining ish usullari; ta'limning ko'rgazmalni va texnik vositalarini qo'shib xisoblaganda darsni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv qurollari; darsda bevosita o'tkaziladigan test sinovlari; uy vazifalari, topshiriqlar.

Darsning yutug'i va uning natijalari nafaqat o'qituvchi tayyorgarligiga, balki o'quvchilarning tayyorgarliklariga ham bog'liqdir. Afsuski, ushbu masalaga ko'pincha o'qituvchilar o'zlarining amaliy ishlarida etarli darajada e'tibor bermaydilar. SHu bilan birga o'quvchilarning navbatdagi darsga (yoki darslarga) tayyorlanishlari ularda ijobiy psixologik kayfiyatni vujudga keltiradi, anglashga, bilishga bo'lgan yuqori darajadagi qiziqishni tug'diradi. Uquvchilarni darslarga tayyorlashda quyidagilar nazarda tutiladi: ularni oldinda turgan darsning dasturiy o'rganish rejasini bilan tanishtirish (bu hususan yukori sinflar bilan o'quv ishlarida ham juda zarurdir); o'quvchilarning tushunishi mumkin bo'lgan darslarning ayrim bo'limlari bilan tanishish; navbatdagi darsda ko'rsatiladigan masalalar yuzasidan ilmiy-ommabop adabiyotlarni o'qish, yangi materialni o'rganishga ko'maklashadigan kuzatishlar va uncha murakka6 bo'lmagan tajribalarni o'tkazish.

O'quvchilarning darsdagi ishlarini barcha uchun umumiy (frontal) shaklda tashkil etish bilan bir qatorda, turli mashqlarni guruhlariga ajratib bajarish shakllari ham qo'llaniladi. SHu bilan birga u o'quvchilarning individual (alohida holdagi) va har tomonlama (frontal) ishlari bilan juda xam mustahkam bog'liqdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, maqsadga muvofiq bo'lgan guruhning tarkibi 5—7 kishidan iborat bo'lishi kerak. Hamkorlikdagi ishlar uchun bir xil ishlash kobilyatiga va taxminan bir xil o'zlashtirish darajasiga ega bo'lgan o'quvchilardan guruh jamlash zarur. Qoida bo'yicha ushbu guruhlarning tarkibi doimiy bo'lmasdan, har bir fan bo'yicha turlicha bo'ladi, o'quvchilarning o'zlari tomonidan belgilanadi, o'qituvchi esa o'quvchilar orasidagi 'o'zaro munosabatlarni hisobga olgan holda to'rtilab, bir yo'nalishga solib boradi.

O'quvchilarning guruh ishlari deyarli barcha didaktik masalalarni: masala va mashqlarni echish, mustahkamlash, yangi materialni o'rganishda qo'llanilishi mumkin. Guruhlarda ham o'quvchilarning mustaqil ishlashlari tashkil etiladi, ammo tabaqalashgan

guruhga tegishli topshiriqlarni bajarish o'quvchilarni jamoa bo'lib ishlash metodlariga o'rgatadi, muloqot esa, psixologlar ta'kidlab o'tganidek, shaxsiyatparastlikdan qutulish imkoniyatini yaratadi.

O'quvchilarning har tomonlama (frontal), guruh va individual (alohida) ishlari tarbiyaviy hamda ta'lim vazifalarini amalga oshirishga ta'sir ko'rsatadi. SHuning uchun o'qituvchi o'quv fanining o'ziga xos tomonlarini, o'rgatayotgan materialning mazmunini o'qitish metodlarini, sinf va ayrim o'quvchining o'ziga xos jihatlarini hisobga olgan holda bu masalalarni muvofiqlashtirishi kerak.

O'qituvchi darslarda o'quvchilarga bo'lgan talabchanlikni o'zaro hurmat, ziyaklik bilan olib borishi lozim. Darsda o'quvchilarga o'qituvchining murojaat shakli ham farqsiz emas. Uquvchilarni ismi sharifi bilan atash maksadga muvofiqroqdir. Uqituvchi darslarda faqatgina ziyak va mehribon, quvnoq, xushyor bo'libgina qolmay, balki jiddiy qiyofaga kirishi ham kerak.

O'qituvchining o'quvchilarga munosabatidagi ishonch, o'qitishning turli shakllaridan foydalanish, o'quvchi ishlariga haqqoniy baho berish, ularga har doim yordam ko'rsatish — bular juda katta didaktik va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarda mehnat malakalarini hamda ijobiy axloqiy fazilatlarni shakllantiradi,

Dars berishni takomillashtirib borish uchun yangi sharoitlarda ta'limni tashkil etishning asosiy shakllarini o'rganish zarur. Bunda ta'lim samaradorligi o'quvchilar tomonidan olingan bilimlar bilan chegaralanmaydi, balki anglashning ko'nikma va malakalarini egallash bilishga bo'lgan qiziqishlarni ham qo'shib oladi.

O'quv-tarbiya muassasalarida dars o'quvchilarning yoshiga hamda ularning imkoniyatlarini xisobga olgan holda o'ziga xos shaklda, tashkil etiladi. Masalan, quyi sinflarda, o'quvchilar diqqatini qiyosan juda xam tez qo'shish zarur bo'lib, darslarda o'quv ishlarining har xil turlari, jumladan, o'yin va mashg'ulot xarakteriga ega bo'lganlaridan foydalaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: “O'zbekiston”, 2017.-102b.
2. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017.-488 b.
3. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T.: “Ma'naviyat”, 2008.-176 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi “Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida”gi 187-sonli Qarori.
5. Tolipov O'., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari – T.: 2006. – 163 b.
6. Qo'ysinov O.A., Tohirov O'.O., Mamatov D.N., Aripova D.F. Mehnat ta'limi. 7-sinf. // O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – T.: “POYTAXTPRINT” MCHJ, 2016.-166 b.
7. Qo'ysinov O.A., Tohirov O'.O., Mamatov D.N., Aripova D.F. Mehnat ta'limi. 8-sinf. // O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – T.: 2016.-134 b.
8. Qo'ysinov O.A., Tohirov O'.O., Mamatov D.N., Aripova D.F. Mehnat ta'limi. 9-sinf. // O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – T.: 2016.-136 b.

Elektron ta'lim resurslari:

1. www.edu.uz.
2. www.uzedu.uz.
3. www.eduportal.uz.
4. www.ZiyoNet.uz.

ТЕХНОЛОГИЯ ТАЪЛИМИДА МИЛЛИЙ ХУНАРМАНДЧИЛИКНИ КРЕАТИВ ЁНДАШУВ АСОСИДА ЎРГАНИШНИГ ПЕДАГОГИК- ПСИХОЛОГИК ИМКОНИАТЛАРИ

М.О.Абдуллаева, Фаргона давлат университети магистранти

***Аннотация:** Ушбу мақолада умумий ўрта таълим мактаби ўқувчиларида миллий хунармандчиликни креатив ёндашув асосида ўрганишнинг педагогик-психологик имкониятлари ишлаб чиқилган.*

***Калим сўзлар:** Миллий хунармандчилик, амалий ва бадиий безак санъати, Технология таълими, креативлик, креативлик сифатлари, креатив фикрлаш, ахборот технологиялари, компьютер соводхонлиги, ахборот муҳити.*

***Аннотация:** В данной статье разработаны педагогические-психологические возможности изучения национального ремесленничества учениками средних общеобразовательных школ на основе креативного подхода .*

***Ключевые слова:** Национальное ремесленничество, прикладное и художественное искусства, Технологическое обучение, креативность, креативные качества, креативное мышление, информационные технологии, компьютерная грамотность, информационная среда.*

Кириш. Умумтаълим мактабларида Халқ хунармандчилигини ўрганиш ўқувчиларда бадиий-эстетик дидни, меҳнатсеварликни ривожлантиришга ва қатор фойдали кўникма ва малакаларни ҳосил қилишга хизмат қилади, уларнинг ижодий қобилиятларини аниқлаш ва ўстиришга ёрдам беради[1,2,3,4,5].

Ўқувчилар бу соҳани мукамал эгаллашлари учун, энг аввало, халқ хунармандчилиги жараёни билан яқиндан танишишлари мақсадга мувофиқ.

Ушбу мақолада умумий ўрта таълим мактаби ўқувчиларида миллий хунармандчиликни креатив ёндашув асосида ўрганишнинг педагогик-психологик имкониятлари ишлаб чиқиш **асосий мақсад** қилиб олинди.

Умумтаълим мактабларида амалий ва бадиий безак санъатини ўқитишнинг аҳволини ўрганиш билан бирга уни амалиётда қўллаш методикаси тажриба-синов ишлари жараёнида амалга оширилади. Ташкилий ва методик тайёргарлик ишларини бажариш мақсадида педагогик тажриба-синов ишларининг самарасини кафолатлайдиган режа ишлаб чиқилди. Бунда етакчи олимларимиз томонидан ишлаб чиқилган тажриба-синов ишларини сифатли амалга оширишга имкон берадиган тажриба-синов майдонлари, бу жараёнда иштирок этувчи синов ва назорат синфлари белгиланди, ҳамда тажриба-синовга тақдим этиладиган дидактик мажмуалардан фойдаланилди[7,8,9,10].

Ўқув машғулотларининг аввалдан режалаштирилишидан воз кечиш, талабаларда танқидий, креатив тафаккурни шакллантириш ва ривожлантириш, уларни ижодий фикрлаш, янги ғояларни ўйлаб топишга мажбур қилиш таълим олишга бўлган муносабатни ўзгартириш, уларни ютуқларга эришишга рағбатлантиришда асосий омил – **креативлик**дир.

Шахсда креативлик сифатларини ривожлантириш жараёнининг умумий моҳиятини тўлақонли англаш учун дастлаб “креативлик” тушунчасининг маънони тушуниб олиш талаб этилади. Алан Дж. Роунинг фикрига кўра, “креативлик – ўз қийматига эга оригинал ғоялар мажмуи” саналади[10]. У ўз тадқиқотларида тушунчани шундай изоҳлайди: “креативлик – шахс томонидан амалга ошириладиган амалий ҳаракат бўлиб, у ўзида муайян янгиликни акс эттириши ва маълум амалий қийматга эга бўлиши керак”. А.Запаров ва бошқ. нинг ёндашуви нуктаи назаридан ифодаланса, креативлик “муайян соҳа бўйича ўзлаштирилган пухта билимлар билан бирга юқори даражада ноодатий кўникмаларга ҳам эга бўлиш” демакдир[9,10,11].

Юқорида билдирилган фикрларга таянган ҳолда “креативлик” тушунчасини куйидагича шарҳлаш мумкин: креативлик (лот., инг. “create ” – яратиш, “creative” – яратувчи, ижодкор) – индивиднинг янги ғояларни ишлаб чиқаришга тайёрликни тавсифловчи ва мустақил омил сифатида иқтидорлиликнинг таркибига кирувчи ижодий қобилиятидир.

Узлуксиз таълим тизимида умумий ўрта таълим мактаби ўқувчисининг креативлигини шакллантиришнинг назарий услубий асосларини ўрганишнинг **долзарблиги** педагог ижодкор шахсининг ўз устида ишлаши, ривожланиши ва етукликка интилиши ҳам касбий фаолиятида фаоллигини орттиришнинг ижтимоий ва амалий аҳамияти билан аниқланади.

Шундай қилиб, ўқитиш вазифаси ижодий фикрлаш, таҳлил қилиш, ғояларни яратиш ва ечимларни топа билишдан иборат бўлиб қолади.

Маълумки, таълим-тарбия самарадорлигига эришиш йўлида ўқитувчи ўқувчиларнинг билим олиш мотивларига бефарқ қараши асло мумкин эмас. Чунки билим эгаллашга бўлган муносабат ўқувчининг танланган касбига бўлган қизиқиши билан уйғунлашиб кетади. Шунга кўра, ўқувчининг халқ миллий ҳунармандчилигига бўлган қизиқиш мотивларига асосий эътибор қаратилди.

Педагогик тажриба-синов жараёнида ўқувчининг нақш композициялари тузиш учун дастлабки билими, кўникма ва малакаларини билиш мақсадида ўтказган суҳбатларимиз ва анкета саволларидан олган жавобларидан маълум бўлдики, деярли 75% ўқувчида келажакда каштачилик санъатини эгаллаш хоҳиш-истаклари мавжуд.

Психологик жиҳатдан ўқувчиларда миллий ҳунармандчиликни ўрганишга бўлган қизиқишни шакллантиришда мустақил билимларни ўзлаштириш, ижодий фаолиятга киришиш, нақш композицияларини тузишда мантиқий фикрлаш, қўйилган муаммо ечимини топишга ўргатиш кабилар муҳим ҳисобланади. Бунда ўқувчиларда мустақил таълим эгаллаш йўлида ўз олдига янги талаблар қўя бошлайди. Бу жараён ўз-ўзини тарбиялаш заминида амалга ошади. Ана шунда

таълим ижтимоий бурч даражасига кўтарила боради. Чунки таълим ўқувчини меҳнатга, касбий фаолиятга тайёрловчи омил вазифасини бажаради.

Тадқиқий кузатувлар асосида ўқувчиларнинг дастлабки бир ой давомидаги каштачилик хунарига бўлган қизиқиш мотивларини алоҳида ўрганиб чиқдик. Бу жараён икки йўналишда ўз ифодасини топди. Биринчиси – “янги жамоа”ни аста-секинлик билан ўзаро танишуvidан иборат бўлиб, “жамоа” орасида фаолларнинг кўзга ташланиши, айниқса, каштачилик сирларидан тўла ёки бир оз хабардор бўлган ёш йигит ва қизлар оз бўлса-да, ўзларининг мазкур соҳа борасида амалий тажрибалари билан ажралиб турганлар, иккинчиси кимнингдир маслаҳатига кўра, ўқишга қабул қилинган ўқувчиларнинг таълим жараёнидаги фаолиятлари ўрганилди.

Олиб борилган тадқиқий кузатувлар ижтимоий долзарб масалани талаблар даражасида эмаслигини кўрсатди. Бундай ёндашув асосида салбий омилларнинг шаклланиши ўқувчида дастлабки нотўғри тушунчаларни келтириб чиқариши мумкин.

Ҳозирги ёшларнинг илмий ва ижодий дунёқараши анча кенг бўлиб, буни уларнинг келажакда ким бўлиш ва касб танлаш мотивларидан ҳам билса бўлади. Айниқса, жамиятга фойда келтириш, танлаган касби бўйича уни давом эттириш, ўрганган касбини ёшларга ўргатиш, жамиятда шаклланиб келаётган ёшларнинг амалий санъатга бўлган қизиқишини ўз вақтида аниқлаб, унга тегишли ёрдам ва шарт-шароитлар яратиб бериш, ҳозирги куннинг муҳим вазифаларидан хисобланади.

Халқ хунармандчилиги турларини мукаммал эгаллаган шахснинг шарафли, масъулиятли ва жамият ривожига тутган ўрнини англаб етган шахс келажакда адашмайди. Чунки у жамиятнинг ижтимоий, иқтисодий, сиёсий, маданий ва маърифий-тарбиявий ривожига ўсиб келаётган авлод қўлида эканлигини касб бурчи нуқтаи назардан таҳлил эта олади. Айниқса, ҳаётимни халқ хунармандчилигига бағишлаш орзусидан деган ўқувчилар халқ миллий хунармандчиликни ривожлантиришдек эзгу ишга ўз ҳиссаларини қўшиш истагида эканликларини билдиришдилар.

Тадқиқий кузатувларимизнинг кўрсатишича, юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда, умумтаълим мактабларида қуйидаги вазифаларнинг ҳал этилиши биринчи даражали аҳамият касб этади:

- ўқувчиларнинг касб танлашида методик кўрсатма ва маслаҳатлар беришни кучайтириш; фан ўқитувчиларининг миллий хунармандчиликдан ўқув-методик ишларини режалаштириш; таълим жараёнининг илғор усулларидан, ўқитишнинг ташкилий шакллари ва воситаларидан оқилона фойдаланиш асосида ўқувчиларга миллий хунармандчиликдан таълим беришда инновацион методлардан фойдаланиш; таълим-тарбия жараёнининг мантиқий уйғунлигини ошириш, миллий хунармандчилик дарслари дастурий материалларнинг такрорланишига йўл қўймаслик, уларнинг мантиқий кетма-кетлиги, изчиллиги, узлуксизлиги ҳамда узвийлигини бўлажак миллий хунармандчилик усталарининг назарий билими, амалий кўникма ва малакаларини ривожлантириш нуқтаи назаридан таъминлаш;

бўлажак халқ ҳунармандчилиги усталарининг мустақил таълим олиш фаолиятига методик раҳбарлик қилишни режалаштириш, такомиллаштириш, назорат қилишнинг оқилона шакллари ишлаб чиқиш; технология таълими жараёнини зарур жихозлар, жумладан, техник ва кўргазмали воситалар, шунингдек, нақш композицияларини ишлашда компьютер дастурларидан фойдаланишни йўлга қўйиш; умумтаълим мактабларида технология фанидан халқ ҳунармандчи-лиги машғулотларида ўқувчиларнинг онги ва тафаккурини ривожлантириш, назарий билими, амалий кўникма ва малакаларини шакллантириш ўқувчилик бурчи ва мажбуриятларини англаб етишни ўргатиб боришда таълим-тарбиянинг турли метод ва воситаларидан кенг қамровда фойдаланишни назарда тутиш; ҳар бир дарс аниқ мақсадни кўзлаган ҳолда, пухта режалаштирилган бўлиши, унинг таълимий, тарбиявий ва ривожлантирувчи мақсадларининг аҳамияти, дарс босқичлари, кўргазмали материаллардан фойдаланиш, ғоявий, мафкуравий мазмунига мос келиши, назариянинг амалиёт билан узвийлиги, кўргазмали воситалар билан жихозланиши, ўзига мос усул, метод ва воситалардан самарали фойдаланилган ҳолда ташкил этилиши, ўқитувчи ва ўқувчининг ўзаро фаол муносабатда бўлиши ҳисобга олинishi зарур.

Ўқувчиларни миллий ҳунармандчиликка ўргатишда таълимнинг замонавий методларидан фойдаланишга муҳим аҳамият берилган. Ўқувчиларда ўтилаётган мавзуга нисбатан қизиқиш уйғотиш, назарий билим, амалий кўникма ва малакаларни шакллантириш, мавзуга оид дидактик ва тарқатма материалларни яққа ва гуруҳ ҳолида ўзлаштириб олишлари учун суҳбат-мунозара ташкил этиш, тарқатма ва дидактик материаллар тайёрлаш кабиларнинг бир мақсадга йўналтирилган, олдиндан пухта лойиҳалаштирилган ва кафолатланган натижа беришга қаратилган педагогик жараёнлар ишлаб чиқилган бўлиши керак.

Технология таълими жараёнида ахборот технологиялари(АТ)ни қўллашнинг ўрни ва аҳамиятини изоҳлаб бериш, бўлажак технология таълими ўқитувчи-сини тайёрлашда умумкасбий фанларни ахборот технологиялари асосида ўқитишнинг дидактик имкониятлари, замонавий ўқитиш технологиялари ва воситалари асосида умумкасбий тайёргарлик фанларини ўқитишнинг концептуал асослари, умумкасбий тайёргарлик фанларини ўқитишда бўлажак технология таълими ўқитувчисини касбий тайёрлаш мазмуни ва унинг мантикий-тузилмавий схемаси изоҳлаш таълим самарадорлигини оширишга хизмат қилади.

Ўқувчиларни ўқитишда ахборот технологияларидан фойдаланишга касбий тайёрлашнинг асосий йўналишлари аниқланди: ўқувчиларни педагогик фаолият жараёнида АТларидан фойдаланишга тайёрлаш ҳолати ўрганилиб, уларнинг технология таълими жараёнида ўқитишнинг ахборот технологияларини қўллаш кўникмалари ташхис қилинди.

Ўқувчиларда касбий билим, кўникма ва малакаларни АТлари асосида шакллантириш жараёни вазиятни яратишда мазкур педагогик жараён иштирокчилари, яъни бўлажак технология фани ўқитувчилари фаолиятининг ўзига хос хусусиятлари, унинг таркибий қисмлари мазмуни, компьютерни ўқувчининг фаолияти объекти сифатида жалб этиш ҳолатлари кузатилди. АТлари асосида

ўқитишда ўрганилаётган педагогик ҳодиса ёки жараённинг ахборот модели ўқувчи фаолиятининг объекти ҳисобланади.

Ўқувчиларда билим, кўникма ва малакаларни АТлар асосида шакллантириш педагогик таъминотининг зарурий шarti педагогнинг мазкур жараёнга тайёрлиги ҳисобланади. Ўқитувчи халқ хунармандчилиги ўқув фанини АТлардан фойдаланган ҳолда ўрганиш асосига методик тизим билим, кўникма ва малакаларни шакллантириш дастурига эга бўлиши керак.

Педагогик адабиётлар таҳлили асосида ва ўқувчининг касбий фаолиятида ахборот технологиялардан фойдаланиш талабларидан келиб чиққан ҳолда, тадқиқот давомида қуйидаги мезонлар ажратиб кўрсатилди[6]: мотивация ва касбий фаолиятда ахборот технологияларидан фойдаланиш бўйича билимларнинг эгалланганлик даражаси; ўқувчи ўқув фаолиятида ахборот технологиялардан фойдаланишда ижодкорлик кўникма ва малакаларнинг шаклланганлик даражаси.

Технология таълими жараёнида ўқувчиларнинг ахборот технологияларидан фойдаланиш тузилмаси ишлаб чиқилди. Технология таълими жараёнида ўқувчиларнинг ахборот технологияларидан педагогик тузилмасининг мақсад компоненти (жамиятнинг рақобатбардош технология таълими ўқитувчисини тайёрлашга ижтимоий буюртмасига кўра, Ўзбекистон Республикаси олий касбий таълимнинг ДТСлари асосида технология таълими ўқитувчисини ахборот технологиялари асосида тайёрлаш ва натижасини аниқлаш, ташкилий компоненти (вазифалар, таълим метод ва шакллари, таълим тамойилларини аниқлаш ва ишлаб чиқиш), мазмуний компоненти (“Халқ хунармандчилиги” фани бўйича ишлаб чиқилган дастурлар асосида – инновацион, компетенциявий, интегратив, шахсий-фаолиятли ёндашувларни қўллаб, амалий машғулотларни ташкил этиш орқали ўқувчилар фаолиятининг вариативлиги, субъективлиги, ижодий индивидуаллигини, шахсий имкониятларни ривожлантириш) дан иборат.

Хулосалар

Илмий-тадқиқот ишларини ўрганиш натижасида амалий педагогик тажрибадан келиб чиқиб, бўлажак технология таълими ўқитувчиларини тайёрлашда илмий-тадқиқот натижаларидан фойдаланишнинг педагогик тузилмаси схемаси ва натижасини ташхис қилиш модели ишлаб чиқилди.

Технология фанини ўқитиш ўқувчиларнинг ахборот технологияларига қизиқиши тузилмаси илмийлик, узвийлик, кетма-кетлик, кўргазмалилик, фаоллик, фанлараро алоқадорлик тамойилларига асосланган, шунингдек, таълим натижасини аниқлаш учун баҳолаш мезонлари аниқланиб олинди.

Эксперт баҳолаш мезонларини белгилаш ва уларнинг объективлик, интегративлик, қайтар алоқа ўрнатиш, психологик мослашувчанлик каби ташкилий-функционал имкониятларини тизимлаштириш орқали бўлажак технология фани ўқитувчиларининг касбий фаолиятга тайёргарлик даражасини педагогик ташхис қилиш методлари (дарсни специфик таҳлил қилиш, ижодий топшириқ, амалий ишлар) такомиллаштирилди.

Умумтаълим мактабларида технология таълими йўналишлари битирувчилари Малака талаблари ва уларнинг касбий-педагогик тайёргарлик

даражаларини ташхислашнинг таҳлилий, лойиҳалаш ва педагогик прогностик компонентлари функцияларини интенгратив мувофиқлаштириш асосида бўлажак технология таълими ўқитувчиларини АТлари асосида тайёрлашнинг концептуал асоси мазмуни такомиллаштирилди.

Технология дарсларида ўқувчиларда креатив фикрлаш қобилиятини ривожлантириш – бу мустақил фикрлайдиган, ҳар қандай муаммога тезлик билан оқилона ечим топа биладиган, фикрий қарамликдан йироқ баркамол авлод тарбиялаш имконини беради.

Адабиёт

1. Абдуллев У. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар. - Т.: Янги аср авлоди, 2005. -Б. 214-215.
2. Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. -Тошкент: Меҳнат, 1991. -Б. 9
3. Гончарова П.А. Бухоро Зардўзлик санъати. -Тошкент: Ўзбекистон, 1986. -121 б.
4. Гюль Э. Жойнамоздаги рамзлар. // Халқ талими. –Тошкент. -1993. -5-сон. - Б.23.
5. Жаббаров И. Ўзбеклар: турмуш тарзи ва маданияти. Монография. - Тошкент: Ўқитувчи, 2004. –Б. 13.
6. Йўлдошев Ж. Ғ. Таълимга инновацион ёндашув. // Халқ талими. – Тошкент. -2014. -3-сон. - Б.14.
7. Karimov I. Mehnat ta'limida o'quvchilar ijodkorlik faoliyatini tashkil etishning uyg'unlashgan texnologiyalari: Monografiya, uslubiy yo'nalish. –Т.: “Adabiyot uchqunlari”, 2015. – В. 66
8. Кўйсинов О.А., Шарипов Ш.С., Арипов М., Бегимқулов У. ва б. Билим олишнинг интеллектуал тизимини ишлаб чиқиш назарияси ва амалиёти. Монография. Т.: “Фан”, 2011. -14 б.
9. Шомирзаев М.Х. Ўзбек миллий хунармандчилигида инновацион жараёнлар. Ўқув-услубий қўлланма. -Т.: “Yangi nashr”, 2017. -48 б.
10. Алан Дж. Роу. Креативное мышление / Алан Дж. Роу; пер. с англ. Островской В.А. - М.: НТ Пресс, 2007. - 176 с.
11. Zapparov A., Toychiev R., Khusanov U. Teaching technology in general secondary schools on the “stem” educational approach. «Экономика и социум». № 1(80) 2021, стр. 107-115.

TEKNOLOGIYA TA'LIMIDA MILLIY HUNARMANDCHILIKNI O'QITISHNI FANLARARO TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI

М.О.Абдуллаева, Фарғона давлат университети магистранти

Annotatsiya: Maqolada texnologiya ta'limida milliy hunarmandchilikni o'qitishni fanlararo takomillashtirishning nazariy metodologik asoslari tahlil qilingan. Milliy hunarmandchilikning spektral - variativ komponentlarini fanlararo takomillashtirish uzluksiz ta'limning tarkibiy qismi sifatida qaralishi tavsiya qilingan.

Kalit so'zlar: innovatsion yondashuv, texnologik kompetensiyalar, metod, uzluksiz ta'lim jarayoni, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar.

Аннотация: В статье анализируются теоретико-методические основы междисциплинарного совершенствования обучения народным промыслам в технологическом образовании. Междисциплинарное совершенствование спектрально-вариативных компонентов народных промыслов рекомендуется рассматривать как неотъемлемую часть непрерывного образования.

Ключевые слова: инновационный подход, технологические компетенции, метод, процесс непрерывного обучения, выбор профессии, национальные и общечеловеческие ценности.

Resume: The article analyzes the theoretical and methodological foundations of interdisciplinary improvement of teaching folk crafts in technological education. Interdisciplinary improvement of the spectral-variable components of folk crafts is recommended to be considered as an integral part of continuous education.

Key words: innovative approach, technological competencies, method, lifelong learning process, profession choice, national and universal values.

Kirish. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoev say-harakati bilan milliy an‘analarimizni qadrlash, uni kelgusi avlodga asrab-avaylab etkazish masalasiga katta e‘tibor berildi. Xalqimiz bunga javoban milliy an‘anamiz hisoblangan kashtachilikni saqlab qolish uchun *do‘ppi, chorsi, zardevor, choyshab, palak, joynamoz* kabi kashta buyumlarini tikib, an‘ana tarzda yosh avlodga o‘rgatishga harakat qilmoqda. Bu esa Farg‘ona vodiysida yashovchi xalqlarning an‘analarni o‘rganish va shu masalalarda ilmiy - tadqiqot ishlarini olib borish uchun katta yo‘l ochdi. Shu tariqa kashta tikish an‘anasi davom etmoqda.

Jahon ta‘lim muassasalarida milliy hunarmandchilikning spektrial-variatiiv komponentlarining fanlararo takomillashuvida kreativ-modulli texnologiyalarga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xalqaro tashkilotlar tomonidan “Ta‘lim-taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlariga etkazuvchi muhim faoliyat” deb e‘tirof etilishi munosabati bilan katta yoshdagi aholi kompetensiyasini baholash xalqaro dasturi (PIAAC), o‘quvchilar bilimni baholash (PISA), texnologiya ta‘limini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etishni baholashda (STEM)dan foydalanilmoqda hamda kasbiy mahoratni shaxs sifatleri bilan uyg‘unlashtirish, turli o‘zgarishlarga tez moslashish, innovatsion yondashuvni ta‘lim jarayonlariga izchil joriy etish, ta‘lim jarayonlarini modellashtirishning istiqbolli yo‘nalishlarini aniqlash bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Dunyoda milliy hunarmandchilikni ta‘lim jarayoniga kiritish samaradorligini oshirish, bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilari kasbiy sifatlarini rivojlantirish komponentlarini aniqlash, texnologiya fanining metodik ta‘minotini takomillashtirish, bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining sifati buyurtmachilar talablariga mosligini ta‘minlash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga katta e‘tibor qaratilmoqda. Ilmiy izlanishlarda texnologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishning istiqbolli yo‘nalishlarini belgilash, amaliy mashg‘ulotlarning virtual shakllarini joriy etish, texnologiya fanining fanlararo bog‘liqligini aks ettiruvchi mashg‘ulotlar majmui asosida

o'qitish sifati va samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy izlanishlar ustuvor darajada amalga oshirilmoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida ta'lim sohalarini sifat jihatdan jadal rivojlantirish, bu borada bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish, professional ta'limni joriy etish hamda maktab texnologiya ta'limida milliy hunarmandchilikni rivojlantirish kabi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, o'qitish metodikasini takomillashtirish, texnologiya fanini chuqur va puxta o'rganishga e'tiborni qaratish, Davlat ta'lim standartlari (DTS)da ko'zda tutilgan baholash mezonlarini ishlab chiqish"¹ kabi vazifalar belgilangan. Shundan kelib chiqqan holda texnologiya fani misolida o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha, jumladan, milliy hunarmandchilik yo'nalishida hunarmandchilik namunalari turlarining integrativ xossalarini aniqlashtirish, o'quvchilarni ma'naviy-kasbiy tarbiyalash tizimi komponentlari va tayanch kompetensiyalari mazmunini takomillashtirish, o'quvchilarning individual xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ma'naviy-kasbiy tarbiyalash mazmuni, shakli, metodlari va vositalarini takomillashtirish hamda milliy hunarmandchilik namunalari asosida o'quvchilarda ma'naviy-kasbiy sifatlarni rivojlantirish kabilar yuzasidan tadqiqotlarni amalga oshirishni taqazo etadi.

Ma'lumki, milliy hunarmandchilik O'zbekistonda qadimdan rivojlangan va hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish avlodlardan avlodlarga an'anaviy tarzda o'rgatib kelingan. Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida bu haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Ammo o'tgan asrdagi siyosiy jarayonlar va mustabid tuzum davrida milliy hunarmandchilik butunlay ishdan chiqdi. Faqat mustaqillik tufayli bu milliy qadriyatlar qayta tiklana boshladi.

T.Abdullaev XIX-XX asrlarda O'zbekiston milliy hunarmandchiligining rivojlanish bosqichlari va tendensiyalarini ilmiy asoslab berishga harakat qilgan[4].

Mustaqillik yillarida hunarmandchilikning rivojlanishi haqida fransuz tadqiqotchilari tomonidan ham monografik asarlar yaratilgan. Masalan, G. Degeorge va M.Shomirzaevlarning tadqiqot ishlarida o'zbek hunarmandchilik sohalarini, jumladan, naqqoshlik, kashtachilik tarixiga oid ma'lumotlar berilgan [5].

Ma'lumki, Markaziy Osiyo jahonning eng ko'hna madaniyat o'choqlaridan hisoblanadi. Tarixiy manbalarniig guvohlik berishicha, mahalliy aholi mato to'qish va unga badiiy ishlov berish bilan qadimgi davrlardanoq shug'ullanib kelishgan. Xalq an'anaviy hunarmandchiligining yuksak namunasi hisoblangan matoga kashta tikish hunari, kashtado'zlik Markaziy Osiyo xalqlarida miloddan avvalgi asrlardayoq shakllana boshlagan.

Farg'ona vodiysi hunarmandchiligi ko'plab olim va mutaxassislar diqqatini o'ziga jalb qilgan. Ularning ilmiy izlanishlari, asosan, hunarmandchilikning kelib chiqishi, urf-odatlar bilan bog'liqligi, turmush madaniyati jihatidan o'rganilgan. Bundan oldin ham o'zbek an'anaviy hunarmandchiligi ko'plab etnograf, pedagog olimlarni, san'atshunos mutaxassislarni qiziqtirgan. Ularning ilmiy-tadqiqot ishlari natijasida an'anaviy

hunarmandchilik, ayniqsa, kashtadoʻzlik sanʼat darajasiga koʻtarilganini, badiiy oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻlib kelganligini koʻramiz.

Xulosa. Texnologiya taʼlimida milliy hunarmandchilikni oʻqitishni fanlararo takomillashtirishning nazariy metodologik asoslari Fargʻona vodiysi xalqining anʼanaviy hunarmandchiligini tarixiy-etnografik, taʼlim-tarbiyaviy jihatdan oʻrganish, tadqiqot mavzusiga bevosita aloqador muammoli yoʻnalishlar boʻyicha quyidagi guruhlariga ajratib tahlil qilish mumkin:

1. Fargʻona vodiysi xalqi anʼanaviy hunarmandchiligining shakllanish tarixi va hunarmandchilik genezisiga aloqador ilmiy adabiyotlar.

2. XIX-XX asrlarda Fargʻona vodiysi xalqining mato tayyorlash usullariga oid va vodiy hunarmandchiligida etnik jamoalar.

3. Moddiy madaniyatning oʻziga xos xususiyatini koʻrsatib beruvchi monografik asarlar.

4. Totalitar tuzum davridagi psixologik-pedagogik va tarixiy-etnografik tadqiqot ishlar.

5. Mustaqillik davridagi ilmiy-tadqiqot ishlar.

6. Fargʻona vodiysi kashtadoʻzligi haqidagi xorijiy olimlarning monografik asarlari.

Shuningdek, bugungi kunda Fargʻona vodiysi aholisining qadimgi va ilk oʻrta asrlar davridagi kashtadoʻzlik tarixini, uning taʼlim-tarbiyaviy ahamiyatini oʻrganishga doir bir qancha yutuqlar qoʻlga kiritilgan. Ayniqsa, arxeolog olimlarning bu boradagi ishlarini alohida eʼtirof etish kerak. Chunonchi, A.N.Bernshtam [6], A.A.Anorboev [7], G.Maytdinova [8], etnograf - olim U.Abdullaev [9] kabi tadqiqotchi-larning ilmiy-tadqiqot ishlarida biz oʻrganayotgan milliy hunarmandchilikning spektral-variativ komponentlari shakllanishi jarayoniga doir maʼlumotlar mavjud.

Fargʻona vodiysi hududida arxeologlar tomonidan olib borilgan kuzatishlar natijasida paxta, jun va ipakdan tayyorlangan kiyimlarning qoldiqlari topilgan.

U.A. Abdullaev, A.A. Ashirov kabi tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari Fargʻona vodiysini tarixiy-etnografik jihatdan oʻrganishda muhim ahamiyatga ega boʻldi. U. Abdullaevning «Fargʻona vodiysida xalqlararo jarayonlar» asari Fargʻona vodiysi xalqlari, ularning tarkibi va xalqlarning joylashuv xususiyatlari, xalqlarning xoʻjalik faoliyati, turar joylari va shakllanish jarayonidagi oʻzaro xalqaro aloqalar, vodiy xalqining anʼanaviy kiyimlari, taomlari, maʼnaviy madaniyat sohasidagi xalqlararo munosabatlari oʻrganilgan[9]. Bu asar Fargʻona vodiysi xalqlarining anʼanaviy kashtadoʻzligining etnohududiy xususiyatlarini oʻrganishda yordam beradi.

ADABIYOT

1. Oʻzbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlan-tirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasi. -T: Akadem. nashr, 2017.- 47 b.

2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 aprel-dagi “Oʻzbekiston Respublikasi xalq taʼlimi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi PF-5712-son farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasinig 2017 yil 6 apreldagi “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limining Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi. 187 - son qarori.

4. Abdullev U.Farg‘ona vodiysida etnoslararo jarayonlar. - T.: Yangi asr avlodi, 2005. -B. 214-215.

5. Шомирзаев М.Х. Ўзбек миллий хунармандчилигида инновацион жараёнлар. Ўқув-услубий кўлланма. -Т.: “Yangi nashr”, 2017. -48 б.

6. Bernshtam A.N.Kirgizskiy narodniy povestvovatelniy uzor Kirgizskiy natsionalniy uzor.- Leningrad-Frunze, 1948.

7. Anorboev A. A. Qadimgi va o‘rta asrlarda Axsikent. //O‘zbekiston tarixida qadimgi Farg‘ona. -Т., 2001.

8. Maytdinova G. Rannesrednovekovie tkani Sredney Azii. -Dushanbe: Danish, 1996. -S. 65.

9. Abdullev U. Farg‘ona vodiysida etnoslararo jarayonlar. - T.: Yangi asr avlodi, 2005. -B. 214-215.

ТЕХНОЛОГИЯ ТАЪЛИМИДА ИННОВАЦИОН ЁНДОШУВ АСОСИДА ЎҚУВЧИЛАРДА ТЕХНОЛОГИК КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

Н.О. Рахматова – Фарғона давлат университети магистранти

***Аннотация:** Ушбу мақолада инновацион ёндошув асосида умумий ўрта таълим мактаби ўқувчиларида технологик компетенцияларни шакллантиришнинг педагогик шартлари ишлаб чиқилган.*

***Калит сўзлар:** Инновация, инновацион жараёнлар, инновацион таълим, инновацион технологиялар, Технология таълими, технологик компетенция, ахборот технологиялари, компьютер соводхонлиги, ахборот муҳити.*

***Аннотация:** В данной статье разработаны педагогические-психологические возможности изучения национального ремесленничества учениками средних общеобразовательных школ .*

***Ключевые слова:** Инновация, инновационные процессы, инновационное обучение, инновационные технологии, Технологическое обучение, технологическая компетенция информационные технологии, компьютерная грамотность, информационная среда.*

Кириш. Жамиятда таълим ролининг ўзгаришини кўп жиҳатдан инновацион жараёнлар белгилаб беради. Мактаб таълимини замонавий нуқтаи назардан инновацион ривожлантириш, юзаки қараганда анча осон туюлади, аммо бу анча мураккаб иш бўлиб бунда “янги”, “янгилик”, “инновация”, “инновацион жараёнлар”, “инновацион таълим”, “инновацион технологиялар” каби тушунчаларни заонавий нуқтаи назардан пухта ўзлаштириш ва уларга таяниш зарур бўлади.

Республикамизда амалга оширилаётган чуқур ижтимоий-иктисодий, сиёсий ва ҳуқуқий ислохотлар мамлакат ва жамият ҳаётидаги, таълим соҳасидаги инновацион ёндашувлар билан узвий боғлиқ. Инновацион ёндашувлар бўлажак

мутахассисларни инновацион фаолиятга тайёрлашга алоҳида эътибор қаратиш зарурлигини кўрсатади.

Инновацион технологиялар – бу ўқитувчи ва ўқувчиларнинг ўзаро таъсирлашишининг принципиал жиҳатдан янги услуб ва методлари бўлиб, улар педагогик фаолиятда самарали натижаларга эришишни таъминлайди[1].

Ривожланиш инсон фаолиятининг ажралмас таркибий қисмидир. Инсон тажриба тўплагани сари ўз фаолияти услублари ва методларини такомиллаштиради, ақлий имкониятларини кенгайтиради ҳамда доимий равишда ўзи ҳам ривожланиб боради. Бу инсоннинг ҳар қандай фаолиятига, жумладан, педагогик фаолиятга ҳам тегишлидир. Дастлаб илмий тадқиқот ишимизнинг мавзусига доир “таълим” ва “инновация” атамалари мазмунига эътибор қаратамиз.

“Ўзбекистон миллий энциклопедияси”да кўрсатилишича, инновация тушунчаси қуйидаги маъноларни англатади: “Инновация (инглизча innovation – киритилган янгилик, ихтиро) –1) техника ва технология авлодларини алмаштиришни таъминлаш учун иктисодиётга сарфланган маблағлар; 2) илмий-техника ютуқлари ва илғор тажрибаларга асосланган техника, технология, бошқариш ва меҳнатни ташкил этиш каби соҳалардаги янгиликлар, шунингдек, уларнинг турли соҳалар ва фаолият доираларида қўлланиши”[2,3].

Ҳар қандай янгилик жамиятдаги ўзгаришлар туфайли ва илмий техника тараққиётининг мантиқий давоми сифатида пайдо бўлади. Фаолият соҳаларида янгиликлар бўлиши муқаррар. Илмий техника тараққиёти корхона ва ташкилотларнинг меҳнат фаолиятида муҳим ўзгаришларни тақозо этади.

Ўқитувчи инновацион ёндашув асосида ўқувчиларнинг технологик компетенциясини шакллантириш учун, энг аввало, педагогик инновациялар тўғрисида тушунчага эга бўлиши керак. Педагогик инновацион жараёнлар Фарб давлатларида ўтган асрнинг 50 йиллари охирларидан бошлаб, мустақил Ўзбекистонда эса, кейинги 10 йилликда олимлар томонидан махсус ўрганила бошланган. Сўнгги йилларда мамлакатимиз олимлари томонидан инновация, инновацион тафаккур, инновацион фаолият, инновацион бозор, педагогик инновациялар ҳақида илмий тадқиқотлар олиб борилмоқда.

Ўзбекистонда педагогик инновациянинг ривожланиши кенг жамоатчи-педагоглар ҳаракати мактабининг тез ривожланишига бўлган талаб ва уни педагогларнинг таъминлай олмасликлари натижасида юзага келган зиддиятлар билан боғлиқ. Эндиликда янгиликларни умумий қўллаш доираси анча кенгайди. Шу сабабли янги билимларга бўлган талаб, “янгилик”, “инновация”, “инновацион жараён”, “инновацион технологиялар”, “инновацион фаолият” тушунчалари маъносини англашга эътибор кучайди.

Замонавий ўқув дарсларида лойиҳалаш фаолиятини жорий этиш – инновацион усулни қўллаш дарс самарадорлигини оширишга хизмат қилади. Инновацион технологиялар педагогик жараён ҳамда ўқитувчи ва ўқувчи фаолиятига янгилик, ўзгаришлар киритиш бўлиб, уни амалга оширишда, асосан, интерфаол услублардан фойдаланилади[2,3,4,5].

Тез ва шиддат билан ривожланаётган ахборот асрида ўқувчилар билимли, чуқур мушоҳада ва мулоҳаза асосида қарорлар қабул қилишга қодир, фаннинг сир-асрорларини пухта эгаллаган бўлишлари шарт. Бу эса, ўз навбатида, мустақил давлатимиз келажаги бўлмиш ёшларни тарбиялашда ва уларнинг баркамол инсон бўлиб шаклланишида ўқитувчилар, педагог олимлар, корхона раҳбарлари, бошқарув персоналлари зиммасига ўта масъулиятли вазифаларни юклайди.

Сўнгги йилларда таълим тизимидаги инновациялар долзарб бўлиб бормоқда. Зеро, айнан таълим инсон мавжудлигини белгилаб берувчи асосий соҳалардан ҳисобланади. Таълимнинг замонавий тизимида жамиятнинг асосий талабларидан бири ҳар томонлама ривожланган, мураккаб вазиятларда ностандарт ечимларни топишга, ижодий фикрлай оладиган ва бутун ҳаёти давомида узлуксиз таълим олишга қодир шахсни тарбиялаб вояга етказиш, шакллантиришдан иборат. Бу эса инновацион ёндашув асосида ўқувчиларни технологик компетенциясини шакллантиришни талаб қилади[6, 7].

Маънавий ва моддий кадрятлар соҳасида жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий йўналишларидаги туб ўзгаришлар ҳозирги таълим ислохотлари шароитида ўқувчиларни ҳаётга тайёрлаш муаммоси уларда технологик компетенцияларни шакллантиришни сифат жиҳатдан мутлақо янги даражага кўтаришни талаб этмоқда.

Замонавий мактаблардаги технологик тайёрлаш босқичи ўқувчиларнинг ижтимоий эҳтиёжи ва қизиқишларидан келиб чиққан ҳолда шахсий интилишлари ва қобилиятларини уйғунлаштиришга қаратилган. У ўқувчиларнинг ижтимоий муносабатларни билишига йўналтирилиши керак.

Ўқувчиларда технологик компетенцияни шакллантириш – ўқувчиларни технологик ҳаёт тарзига тайёрлашга, умумий фаровонлик йўлида ақлий ва жисмоний меҳнатга, амалий ҳамда ахлоқий-психологик тайёрликни шакллантиришга йўналтирилган ўқитиш, тарбиялаш ва ривожлантиришнинг яхлит узлуксиз жараёнидир.

Технологик компетенцияни шакллантиришнинг мақсади – турли йўналишларда ҳалол, ижодий меҳнатга тайёрликни шакллантириш, шахснинг саломатлигини мустаҳкамлаш, ҳар томонлама ривожланишига ёрдам беришдир.

Шахсни политехник таълим воситасида ривожлантириш ва ўқитишни ишлаб чиқариш, амалиёт билан боғлаш муаммоларининг назарий асослари П.Р.Атутов, С.Н.Скатин ва У.Нишоналиевлар томонидан тадқиқ этилган.

Н.Ш.Шодиев ва К.Давлатовларнинг изланишларида мамлакатимиздаги умумий ўрта таълим мактаблари ривожланишининг турли босқичларида меҳнат таълими, ижтимоий фойдали ва ишлаб чиқариш меҳнати жараёнида ўқувчиларни ҳаётга тайёрлаш ва тарбиялаш масаласи таҳлил этилган.

Етакчи педагог олимлар Ш.С.Шарипов, Н.А.Муслимов ва О.А.Кўйсинов, Л.Р.Зариповларнинг тадқиқот ишларида ўқувчиларнинг умуммеҳнат кўникмалари, конструкторлик ва ижодий қобилиятларини шакллантириш, ижодий фаолиятининг асослари сифатида техник фикрлаши, билишга бўлган қизиқишлари ва технологик тайёргарлигини ривожлантириш муаммолари ўрганилган.

Юқорида номлари тилга олинган олимлар изланишларининг илмий-педагогик таҳлилидан кўринадики, сўнгги йилларда педагогика фанида мактаб ўқувчилари шахсини ҳар томонлама ривожлантиришнинг муҳим воситаси сифатида уларда технологик компетенцияларни шакллантириш муаммосини ўрганишга эътибор кучайиб бормоқда. Бунга қуйидаги йўналишларни мисол қилиб келтириш мумкин:

–илмий-техника тараққиёти шароитида ўқитишни ишлаб чиқариш меҳнати билан бирлаштириш асосида мактаб ўқувчиси шахсини шакллантиришнинг назарий асосларини ишлаб чиқиш;

–ўқитишни ижтимоий фойдали меҳнат билан боғлашнинг яхлит жараёнида ўқувчиларнинг таълим, меҳнат фаолияти, касб танлашга онгли муносабатини янада самарали шакллантириш;

–ўқитишнинг ишлаб чиқариш билан бирлиги жараёнининг асосий зиддиятлари ва уларни ҳал этиш усулларини аниқлаш.

“Технология” фанини инновацион ёндашув асосида ўқитишнинг долзарблигининг илмий асослари таълимни инсонпарварлаштириш концепциясини, ўқитишда муаллифлик стили, шахсга йўналтирилган таълимни жорий этиш, таълимда расмийликни бартараф этиш, ўқувчиларнинг ижодий имкониятларини ривожлантириш шарт-шароитларини яратиш, ҳозирги замон жамятининг ижтимоий-маданий эҳтиёжларининг ўқувчиларнинг мустақил ижодий фаолиятига мослигини таъминлаш билан изоҳланади.

Мактаб амалиётида ўқувчиларнинг технологик компетенцияларини шакллантиришда қатор камчиликлар аниқланди[3]: педагогик ходимларда инновацион ижтимоий-иқтисодий шарт-шароитларда меҳнат тарбияси ва технологик таълим мақсади ҳақида замонавий тасаввурлар мавжуд эмас; қишлоқ мактаблари ўқувчилари меҳнат тарбияси мазмуни бугунги кун талаблари асосида ишлаб чиқилмаган, ўқувчиларнинг индивидуал хусусиятлари ва қизиқишлари етарли даражада ҳисобга олинмайди, меҳнат тарбияси атроф-муҳитнинг минтақавий ва миллий ўзига хос хусусиятлари ҳисобга олинмаган ҳолда умумий тарзда ташкил этилади; мактаб ўқувчиларида технологик компетенцияларни шакллантиришни ташкил қилиш замонавий талабларга мос келмаслиги ҳоллари мавжуд; технологик таълим ва тарбия моддий-техник базасининг юқори эмаслиги ҳамда ушбу камчиликларнинг натижаси ўлароқ ўқувчиларда меҳнатга эҳтиёжнинг мавжуд эмаслиги.

Таҷрибалардан аён бўладики, технологик компетенция алоҳида ажратилган компетенция эмас, балки бошқа таянч компетенцияларнинг элементи ҳисобланади. У кўп ҳолларда “Технология” ўқув фани доирасида шакллантириладиган компетенция сифатида талқин этилди. Технологик компетенцияни ўқувчиларнинг технологик амалларни изчил бажариш тартибига, технологик меъёрларга, техника хавфсизлик қоидаларига ва меҳнат муҳофазаси талабларига роия этган ҳолда, аниқ вазиятларда маҳсулотни тайёрлаш (ишлаб чиқиш) бўйича билимлари, кўникмалари, малакаларидан самарали фойдаланиш қобилияти сифатида таърифлаш мумкин.

Педагогик тадқиқотлар шуни кўрсатадики, «компетенция» тушунчасининг моҳият - мазмуни унинг мажмуавий хусусиятида, яъни ўқув фаолиятини амалга

ошириш учун ҳар бири тенг қийматли ва муҳим аҳамиятга эга бўлган билимлар, кўникмалар, кадриятлар, йўналишлар ва муносабатлар интеграциясида ўз ифодасини топади. Ташкилий-технологик компетенциялар меҳнат қуролиларини танлаш, зарурий материалларни излаш, уларни қайта ишлашнинг технологик усулларини аниқлаш, ишларни режалаштириш ва меҳнат жараёнини ўрганишдаги инновацион ёндашув билан узвий боғлиқ.

Технология фанини анъанавий ўқитишда асосан ўқувчиларга билим бериш, уларни меҳнат фаолиятга жалб этишга эътибор қаратилган, ўқувчилар нофаол, ўқитувчи эса фаол бўлган бўлса, “Технология” фанини ўқитишда инновацион методларни қўллаш – бу ўқувчи билан мулоқот қилишнинг янги методлари (STEAM, STEM, уйин технологиялари, лойиҳалаш, индивидуал таълим), улар билан ҳамкорлик позицияси, уларни бугунги замон муаммоларига жалб этишни тақозо этади. Инновацион методлар – бу ўқувчиларга ўз имкониятларини намоён этиш методларидир.

Умумтаълим мактабларида фанларни ўқитиш жараёнида фан-техника таракқиёти, инженерия, математика ва кундалик ҳаёт билан боғлаб ўрганишнинг STEAM (science, technology, engineering, art and mathematics) ёндашуви таълим-тарбия жараёнини ташкил этиш долзарб масаладир. STEAM замон талаблари асосида халқаро миқёсида ўқувчиларга таълим-тарбия беришда умумтаълим фанлари бўйича фанлараро боғланиш ва амалий ёндашувни кучайтиришга қаратилган умумий режа. STEAM ўзига табиий фанлар, технология, инженерлик, санъат, ижодкорлик, математика фанларининг амалий жиҳатларини умумлаштириб интеграциялашни назарда тутди. STEAM-таълим илмий методлар, техник иловалар, математик моделлаштириш, муҳандислик дизайнини биргалликда қўллаш имконини яратади. Бу эса ўқувчининг инновацион фикрлашини, уларда технологик компетенцияларнинг шаклланишини таъминлайди.

Хулоса

Технология фанини инновацион ёндашув асосида ўқитишнинг мақсади ўқувчиларнинг интеллектуал, коммуникатив, технологик ва ижодий қобилиятларини, фикрлаш усулларини ривожлантириш, сифатий билимлари, кўникма, малакалари, бир сўз билан айтганда технологик компетенцияларини шакллантиришдан иборат. Юқорида баён этилган мақсадлар асосида Технология фанини инновацион ёндашув асосида ўқитишнинг куйидаги вазибалари белгиланди: ўқув-тарбия жараёнини мақбуллаштириш, ўқитувчи ва ўқувчининг ҳамкорлиги учун шарт-шароитлар яратиш, ўқувчиларда ўқишга доимий ижобий муносабат шакллантириш, уларни краетив фаолиятга жалб этиш, ўқув материалларни ва уни узатиш усулларини тўғри танлаш. “Технология” фанини инновацион ёндашув асосида ўқитишда ривожлантирувчи, муаммоли ўқитиш, танқидий фикрлашни ривожлантириш, ўқитишга дифференцион ёндашув, дарсда муваффақиятга эришиш учун шароит яратиш ва бошқалар ётади. Инновацион ёндашув асосида ўқитишнинг асосий тамойиллари креативлик (ижодкорликка йўналганлик); тизимдаги билимларни ўзлаштириш, дарсларнинг ноанъанавий шакллари, кўргазмалилик методидан фойдаланишдан иборат.

Адабиёт

1. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантиришнинг назарий – методик асослари.: Автореф. дис. ... пед. фан. докт. – Т.: 2007. – 45 б.
2. Зарипов Л.Р. Инновацион ёндашув асосида 5-7-синф ўқувчиларида технологик компетенцияларни шакллантириш методикаси. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т.: 2020. –125 б.
3. Зарипов Л.Р. Инновацион таълим шароитида ўқувчиларни технологик тайёрлаш // Педагогика журнали. 2019 йил. № 5. - Б. 92-98.
4. Mangal S.K., Fundamentals of Educational Technology, Ludhiana: Tandon Publications, 1994.
5. Нишоналиев У.Н. Таълим стандартлари ва педагогик инновациялар – Т.; Халқ таълим, 1999, № 6. 28 – 31 бетлар.
6. Толипов Ў.Қ. Олий педагогик таълим тизимида умуммехнат ва касбий кўникма ҳамда малакаларни ривожлантиришнинг педагогик технологиялари. Монография. Т.: “Фан”. 2004. –168 с.
7. Шарипов Ш. Ўқувчилар касбий ижодкорлиги узвийлигини таъминлашнинг назарияси ва амалиёти. Дисс. ... пед. фан. докт. – Т., 2012. – 307 б.

TEKNOLOGIYA TA'LIMIDA INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILARDA TEKNOLOGIK KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING METOD VA SHAKLLARI

N.O. Raxmatova – Farg'ona davlat universiteti magistranti

Аннотация: *Maolada innovatsion yondashuv asosida o'quvchilarda texnologik kompetensiyalarni shakllantirishning metod va shakllari tahlil qilingan. Texnologik kompetensiyalarni shakllantirish uzluksiz ta'lim jarayonining tarkibiy qismi sifatida qaralishi tavsiya qilingan.*

Калит со'злар: *innovatsion yondashuv, texnologik kompetensiyalar, metod, uzluksiz ta'lim jarayoni, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, STEAM ta'lim yondashuvi .*

Аннотация: *В статье анализируются методы и формы формирования технологических компетенций у студентов на основе инновационных подходов. Формирование технологических компетенций рекомендуется рассматривать как неотъемлемую часть процесса непрерывного образования.*

Ключевые слова: *инновационный подход, технологические компетенции, метод, процесс непрерывного обучения, выбор профессии, национальные и общечеловеческие ценности, образовательный подход STEAM.*

Resume: *The article analyzes the methods and forms of formation of technological competencies among students on the basis of innovative approaches. The formation of technological competencies is recommended to be considered as an integral part of the process of continuous education.*

Key words: *innovative approach, technological competencies, method, lifelong learning process, career choice, national and universal values, STEAM educational approach.*

Kirish. Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida maktab o'quvchilarida texnologik kompetensiyalarni shakllantirishning asosiy maqsadlari O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi buyurtmasini bajarishga qaratilgan ta'lim jarayonida birlashadi. Yoshlarimizni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash, jumladan, maktab o'quvchilarida texnologik kompetensiyalarni shakllantirishning maqsad va vazifalari Prezidentimiz farmonlari, davlatimiz qonunlari, dasturlari va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan aniqlanadi[1,2,3].

Vatanimiz va chet el olimlarining ta'kidlashlaricha, texnologiya fani o'quvchilarning texnik-texnologik va operatsion bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga tayyorlashdan iborat[4,5,6,7]. Mazkur ta'rif umumiy o'rta ta'lim tizimida texnologiya fanining muhim o'rni va keng funksiyalarini belgilaydi.

Umumiy o'rta ta'limda texnologiya o'quv fanini o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarda texnik-texnologik va operatsion bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat[3,5,6].

Pedagogik kuzatishlar va amaliy tajribalar ko'rsatadiki, "Texnologiya" fanini o'qitishda o'qitishning innovatsion metodlarini, jumladan, STEAM – ta'lim yondashuvini qo'llash, zamonaviy dasturlarni joriy etishga bugungi kunda nafaqat O'zbekistonda, balki butun dunyoda katta ehtiyoj mavjud. Chunki jamiyat taraqqiyotining hozirgi davrida o'quvchilarni yoshligidanoq ishlab chiqarish, sanoat, xizmat ko'rsatish sohalari talablari asosida texnologik tayyorlash dolzarb masalaga, ehtiyojga aylanmoqda. Biroq maktab o'quvchilarida texnologik kompetensiyalarini shakllanganligi darajasi bugungi davr talablariga (texnologik savodxonlikning yuqori darajasi, kundalik muammolarni mustaqil hal etish qobiliyati, tez o'zgarayotgan ijtimoiy muhitga qiynalmasdan tez moslasha olish tarablariga) yetarlicha mos emas.

Muammoning hozirgi holatidan ayonlashadiki, texnologik kompetensiyalarni talqin qilish borasida umumiy yondashuvlarning ko'pligiga qaramay, o'quvchilarda texnologik kompetensiyalarni shakllantirish an'anaviy ravishda moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishlar sohasidagi mehnat ta'limining ayrim masalalari bilan cheklanib qolinadi. Shunga ko'ra, maktab o'quvchilarida texnologik kompetensiyalarni shakllantirish maqsadini ijtimoiy-mehnat faoliyatining barcha sohalarida o'sib kelayotgan yosh avlodning hayotiy, kasbiy qiziqishlari va qadriyatlariga moslashtirish zarur[13].

Texnologik kompetensiyalarni shakllantirishda o'quvchilarni amaliy faoliyatga yo'naltirib o'qitish va pedagogik jarayon ishtirokchilarining faoliyatini maqsadga muvofiq holda tashkil etish va ta'minlashni talab qiladi. Shu bois maktab o'quvchilarida texnologik kompetensiyalarni shakllantirish metod va shakllarini ishlab chiqish muammosi yuzaga keladi. Eng avvalo, o'quvchilarning maktab o'quv jarayonidagi amaliy o'quv faoliyati va texnologiya o'qituvchisining pedagogik faoliyati metod va

shakllarini ko‘rib chiqamiz. O‘qitish o‘quvchilar o‘quv faoliyati va o‘qituvchi kasbiy faoliyatini alohida tashkil etuvchilar (komponentlar)ga ajratishni ko‘zda tutadi. Bunday ajratish usullari va o‘quv elementlarini birlashtirish usuli turlicha bo‘lib, o‘quv jarayoni tuzilmasi va metodlarini turlicha belgilaydi.

Har qanday amaliy ish usullari va yakunlangan operatsiyalardan tashkil topadigan mehnat faoliyatlari izchil harakatlar tizimidan iborat. Amaliy faoliyatni o‘rganish va o‘zlashtirish tartibi o‘quvchilar tayyorgarligining u yoki bu tizimini aniqlab beradi. O‘quvchilarni texnologiyaga o‘rgatish tizimi deganda “o‘qitish mazmuni, metodlari va uni tashkil qilish birligini nazarda tutuvchi va texnologiyaning muayyan bo‘limi bo‘yicha zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash maqsadida o‘quvchilarning o‘quv materialini o‘rganish izchilligi”ni belgilab beruvchi “didaktik kategoriyani” tushunish kerak[5,6].

Mehnat harakatlari, usullari va operatsiyalarini avtomatizm darajasigacha etkazishga qaratilgan o‘qitishning motorli-mashq tizimi ya’nada maxsus, tor yo‘nalish hisoblanadi [10].

Real amaliy faoliyat shakllariga o‘rgatishning operatsion va motorli-mashq tizimlarining yetarlicha yuqori darajada mosligiga qaramasdan bunday tayyorgarlik o‘quvchilarni yaxlit mehnat jarayonidan, uning umumiy qurilishi va oxirgi natijalarga erishish yo‘llarini tushunishdan bir oz uzoqlashtiradi. Texnologik uzluksizlikning ta‘minlanmaganligi va yakunlanmaganligi pedagogik jarayonda kamchiliklarga, o‘qitish motivatsiyasining pasayishiga, real faoliyatda natijaga erishmaslikka va ba’zi harakatlarni bajarish malakalarini shakllantirish uchun resurslarni samarasiz sarflashga olib keladi. Bu va shunga o‘xshash omillar o‘qitishning ayni tizimlarini lokal, o‘ziga xos tarzda joriy etishni aniqlab berdi.

Predmetli va operatsion o‘qitish tizimlari imkoniyatlarini birlashtirish muayyan darajada yuqorida qayd etilgan muammolardan ba’zilarini hal etishga imkon beradi. Buning uchun dastlabki mehnat harakatlarini o‘zlashtirish o‘rganilayotgan operatsiyalarni bajarishda qisman ishlov beriladigan, maxsus tanlab olingan ob’ektlarda amalga oshiriladi. O‘qitishning integrativ operatsion-predmet tizimi yanada murakkab tipik ob’ektlarni tayyorlashda amaliy faoliyat ko‘nikmalarining izchil egallanishini ko‘zda tutadi va mutaxassislarni tayyorlash jarayonida keng foydalaniladi.

Predmetli va operatsion tizimlar masalalarini hamkorlikda yechish o‘qitishning operatsion-kompleks tizimni yaratishda rivojlantiriladi. U amaliy faoliyatning ayrim elementlarini izchil o‘rganish va o‘zlashtirishga hamda rejalashtirilgan natijani olgunga qadar butun mehnat jarayonini amalga oshirishga imkon beradi. Ana shu asosda mazkur tizim malakali ijrochilarni amaliy tayyorlash jarayonida ilg‘or tizimlardan biri hisoblanadi. Biroq zamonaviy ishlab chiqarish shart-sharoitda bu yetarli emas. Kompetentli, tashabbuskor, oldinga intiluvchi o‘quvchini tayyorlash uchun uni o‘qitish tizimi qo‘yilgan vazifalarni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida mustaqil ijodiy amaliy faoliyat qobiliyatlarini rivojlantirishni talab qiladi[11].

Ko‘rilayotgan o‘qitish tizimlarining har biri muayyan pedagogik afzalliklar va imkoniyatlarga ega. Maktab o‘quvchilarida texnologik kompetensiyalarni

shakllantirishning didaktik tizimini yaratishda ularni hisobga olish va foydalanish zarur, umumiy tarzda uni *samarali-innovatsion* tizim sifatida tasavvur qilish mumkin.

O'quvchilarda texnologik kompetensiyalarni shakllantirishni ishlab chiqarish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda yakuniy natijalarga erishishga, real moddiy va ma'naviy mehnat mahsullarini qo'llashga umumiy yo'naltirilgan samarali o'qitish tizimi sifatida tavsiflash mumkin [12].

O'qitishning maqsadi va natijasi o'quv faoliyati jarayonida shaxsda shakllanadigan yangi sifatlardir. Bu ko'proq o'quv ishini tashkil qilishning yuqorida ko'rib chiqilgan metodlari asosida produktiv o'qitishga tegishlidir. Produktiv o'qitish o'quvchilarni tayanch reproduktiv o'qitish bo'limlarini o'z ichiga oladi. O'quvchilar keyinchalik ijodiy amaliy o'quv faoliyatiga jalb etiladi. U M.N.Skatkin va I.YA.Lerner tomonidan taklif qilingan o'quvchilarning bilish faoliyati ahamiyati, o'rni va xususiyatiga bog'liq holda fikrlash yo'nalishlarini hisobga oluvchi va o'quv jarayonini tashkil etishning tushuntirish-illyustrativ, reproduktiv, muammoli, evristik (qisman-izlanishli) va tadqiqot metodlarini o'z ichiga oluvchi o'qitish metodlari tipologiyasi asosida qurilishi mumkin [13]. Ijodiy o'quv faoliyati jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni egallash va rivojlantirish orqali o'quvchilarda shaxsiy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan *loyihali o'qitish* eng samarali hisoblanadi. Loyihali o'qitish mustaqil faoliyat tizimining tarkibiy qismi hisoblangan tadqiqot metodining davomi va rivojlanishi natijasi hisoblanadi[7,8,9].

Texnologik kompetensiyalarni shakllantirish uzluksiz ta'lim jarayonining tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim. Maktab o'quvchilarida texnologik kompetensiyalarni shakllantirishning kompleks qurilishi amaliy vazifalarni yechish jarayonida o'qituvchi rahbarligi ostida amalga oshiriladigan o'quvchilarning turli xil o'quv faoliyatiga asoslaniladi. Amaliy faoliyat ijrochilarining kasbiy rolli funksiyalari texnologik faoliyati turlari, maqsadlari, predmetlari va mazmunining umumlashgan tizimi sifatida berilishi mumkin. O'quv faoliyatining har bir tashkil etuvchisining ahamiyati va o'rni, bir tarafdin, mehnat obekti va vositasiga bog'liq, boshqa tomondan pedagogik jarayon subekti bo'lgan o'quvchining shaxsi bilan aniqlanadi.

Texnologik kompetensiyalarni shakllantirish turli xil faoliyat turlarini ularning mazmuni va yakuniy natijalariga ko'ra birlashtiradi. Maktab o'quvchilarida texnologik kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida o'rganiladigan o'quv amaliy faoliyat funksiyalari tuzilmasi mehnat faoliyati jarayonida ularning natijalari bo'yicha mehnatni kasbiy taqsimlash asosida ishlab chiqildi. O'quv faoliyatining predmeti o'quvchilarning amaliy ishlari nimaga yo'naltirilgan bo'lsa, shu narsani aniqlaydi. Amaliy faoliyat funksiyalari mehnat predmetini tayyor buyumga aylantirishning aniq bosqichi vazifalari (ehtiyojni aniqlash va muammolarni qo'yishdan qarorlarni ishlab chiqish, mehnat jarayonini tashkil qilish, uni joriy etish va mehnat mahsulini amaliy qo'llashgacha bo'lgan vazifalar) bilan belgilanadi.

Reproduktiv o'qitishning pedagogik jarayonida jarayon teskari tartibda rivojlanadi. Avval o'quvchilar tayyor buyumlar bilan tanishtiriladi, mehnat predmetlarining funksional imkoniyatlari o'rganiladi(jadvalga qarang)[5,6].

Jadval: reproduktiv o'qitishning pedagogik jarayoni.

Faoliyat darajalari	IV	Ijodkorlik	O-IV	Я - IV	T- IV	K- IV	T- IV	Б- IV	K- IV
	III	Tashabbuskorlik	O- III	Я - III	T- III	K- III	T- III	Б- III	K- III
	II	Takomillashtirish	O-II	Я - II	T- II	K- II	T- II	Б- II	K- II
	I	Qayta tiklash	O-I	Я - I	T- I	K- I	T- I	Б- I	K- I
Faoliyat tavsifi	Funkciya	Amaliy operatsional	Yaratuvchilik	Tehnologik	Konstruktorlik	Tadqiqotchilik	Boshqaruv	Kompleks	
	Natija	Foydalanish mag'ulotlari	Buyum	Tehnologik jarayon	Konstruksiya	G'oya	Dastur	Ehtiyojni qondirish	
	Mazmuni	Ob'ektdan foydalanish	Buyumni tayyorlash	Tehnologiyani ishlab chiqish	Konstruksiyani ishlab chiqish	Qarorni izlash	Muammoni aniqlash	Muammoni hal etish	
	Predmet	Buyum	Tehnologik jarayon	Konstruksiya	G'oya	Muammo	Ehtiyoj	qadriyat	
	Kasbiy rol'	Duradgor	Ishchi	Tehnolog	Konstruktor	Izlanuvchi	Menenjer	Ijodkor	

Asosiy hulosalar:

1. Texnologik kompetensiyalarni shakllantirish uzluksiz ta'lim jarayonining tarkibiy qismi hisoblanadi. Texnologiya predmetining asosini texnologiya va texnologik ta'lim haqidagi fanlar tashkil qiladi.
2. Tadqiqot natijalari o'quvchilar texnologik kompetensiyalarini shakllantirishning maqsad va vazifalari dualizmining mavjudligi hamda uni hisobga olish zarurligini ko'rsatdi. Mazkur holat o'quvchilarni faoliyatning turli sohalarida mehnatga va kelgusida kasblardan birini puxta egallashga kompleks tayyorlash bilan izohlanadi.
3. Maktab o'quvchilarida texnologik kompetensiyalarni shakllantirish mazmuni mehnat faoliyati sohalarida tizimida o'qitish bosqichlari va darajalarining maqsad va vazifalariga mos holda aniqlanadi. Mehnat predmetlari bilan bog'liqlik maktab o'quvchilarida texnologik kompetensiyalarni shakllantirish tizimining tuzilmaviy asosini tashkil qiladi. Texnologik kompetensiyalarni shakllantirishning ko'p qirrali asosi texnologiya ta'lim sohasining invariant tashkil etuvchisini aniqlaydi. Maktab o'quvchilarida texnologik kompetensiyalarni shakllantirishning variativ komponenti mintaqaviy-milliy o'ziga

xoslikni va pedagogik jarayon ishtirokchilarining individual ehtiyojlarini e'tiborga olishni taqozo etadi.

4. Innovatsion yondashuv asosida maktab o'quvchilarida texnologik kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni innovatsion, uzluksiz o'quv faoliyati tizimi sifatida qaralishi tavsiya qilindi. Mazkur o'qitish tizimining samaradorlik xususiyati real moddiy va ma'naviy mahsulotlarni yaratish va amaliy qo'llashga umumiy yo'nalganligi bilan belgilandi. O'quv faoliyatining innovatsionligi o'quvchilarning amaliy masalalarni mustaqil yechishlarida namoyon bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyot:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent: 2017 yil, 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda, 23-son, 448-modda.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni// Xalq so'zi. – Toshkent, 2019 yil 30 aprel. № 88 .

2. Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli qarori.

3. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: Ped.fan. dok. diss... Avtoreferati. – T., 2003. – 44 b.

4. Bepalko V.P. Sлагаемые педагогической технологии/ V.P.Bepalko. - M.: Pedagogika, 1989. - 192 s.

5. Зарипов Л.Р. Инновационный подход в образовании 5-7-классов учащихся в педагогической компетентности учителей // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т.: 2020. –125 б.

6. Zaripov L.R. Innovatsion ta'lim sharoitida o'quvchilarni texnologik tayyorlash // Pedagogika jurnali. 2019 yil. № 5. - B. 92-98.

7. Mardanov SH.Q. Pedagog kadrlarni ta'limiy qadriyatlar asosida tayyorlash va malakasini oshirishning pedagogik asoslari: Ped. fan. dok. ...diss. – T., 2006. – 302 b.

8. Muslimov N.A. Mutaxassisning kasbiy shakllanishida masofaviy ta'limdan foydalanish yo'llari // J. Infocom.UZ. -2004. -№ 5. –B. 60-62.

9. Mangal S.K., Fundamentals of Educational Technology, Ludhiana: Tandon Publications, 1994.

10. Qodirov X.SH. Kasb ta'limi o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash metodikasini takomillashtirish. Dis. ...p.f.f.d.(PhD) – T.:2017.-150b.

11. Serebrennikov JI.H. Проблемы и перспективы технологического образования / JI.H. Serebrennikov. // Технология XXI. - Киров, 2001. - S. 56-57.

12. To'rabekov F.S. Bo'lajak mehnat ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llash metodikasi ped.fan. nom. diss. . Toshkent – 2011 175 b.

TEXNOLOGIYA TA'LIMIDA TARBIYA JARAYONINI TEXNOLOGIYALASHTIRISH

Shomirzaev Maxmatmurod Xuramovich,

Termiz davlat universiteti texnologik ta'lim kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari
doktori (DSc)

E-mail: shomirzaevm@tersu.uz

Annotatsiya: Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Texnologiya" fani darslarini tashkil etish samaradorligini oshirishda tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish orqali o'quvchilarni kasbkorlikka yo'llashning mazmun-mohiyati yoritilgan.

Tayanch so'zlar: maktab, sinf, guruh, tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, pedagogika, tarbiya, ta'lim, usul, jarayon, texnologiyalashtirish, rejalashtirish, kasb, samaradorlik, vatanparvarlik, milliy g'urur.

Аннотация: В статье раскрывается важность направления учащихся на профессию через технологизацию учебного процесса с целью повышения эффективности организации «Технологических» уроков в общеобразовательных школах.

Ключевые слова: школа, класс, группа, воспитатель, ученик, педагогика, воспитание, образование, метод, процесс, технология, планирование, профессия, работоспособность, патриотизм, национальная гордость..

Annotation: The article describes the importance of sending students to the profession through the technologicalization of the educational process in order to increase the effectiveness of the organization of "Technology" lessons in secondary schools.

Keywords: school, class, group, educator, pupil, pedagogy, upbringing, education, method, process, technology, planning, profession, efficiency, patriotism, national pride.

"Texnologiya" fani darslarini tashkil etish samaradorligini oshirish, o'qituvchi kadrlar tayyorlash masalalari atroflicha o'rganilgan, foydali maslahatlar, uslubiy tavsiyalar berilgan. Biz mana shunday tavsiyalardan foydalangan holda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan "Texnologiya" fani mashg'ulotlarini rejalashtirish va o'tkazishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalarini talqin qilib ko'rmoqchimiz. Chunki umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan "Texnologiya" fani mashg'ulotlarining samarali bo'lishi eng avvalo shu fan o'qituvchilarning mashg'ulotlarga qay darajada tayyorgarlik ko'rishiga, mashg'ulotlarni o'tkazishni qanday rejalashtirishiga va, nihoyat, amalga oshirishiga bevosita bog'liqdir. Binobarin mashg'ulotlarni qanday rejalashtirish va o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish mashg'ulot samaradorligini oshirishga qaratilgan dastlabki va eng muhim omildir. Bunda, albatta, mashg'ulotlarda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish

o'quvchilarning faolligini va darslarning samardorligini oshirishda alohida ahamiyatga ega, deb hisoblaymiz [7].

Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Agar farzandlarimizga to'g'ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqada ularning yurish-turishi, kayfiyatidan ogoh bo'lib turmasak, ularni ilm-u hunarga o'rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qo'yishimiz hech gap emas" [1].

Hozirgi vaqtda tarbiya tajriba va baholovchi mulohazalarning katta avlodlarning kichik avlodga bir tomonlama o'tishi tarzida emas, balki kattalar va bolalarning birgalikda hayot kechirish sohasidagi o'zaro yordami va hamkorligi tarzida tushunilishi va qabul qilinishi lozim.

Tarbiyachining faoliyati – komil inson tarbiyasi yo'lidagi mashaqqatli va fidoyi mehnatdir, bu mehnat chuqur insonparvarlik mohiyatiga ega bo'lib, uni faqat o'z kasbining jonkuyariga ishonib topshirish mumkin [2]. Yosh avlodning ijtimoiy va ma'naviy qurshovi doimo o'zgarib boradi. Ishlab chiqarish, biznes olamida, ijtimoiy hayotda, o'zaro aloqa munosabatlarida o'z o'rmini topa bilish, o'z-o'zini anglash va takomillashtirishni talab etadi. Erkin, komil shaxsni shakllantirish muammosi ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni pedagogik texnologiya relsiga o'tkazishni taqozo etadi. Bu jarayon oson kechmaydi, chunki butun ixtiyoriy ko'rilayotgan va joriy etilayotgan tarbiya tizimini qat'iyon ilmiy asoslangan pedagogik tizimga aylantirish kerak. Aslida ham, ijtimoiy tajriba elementlari (bilim, ko'nikma, ijodiy faoliyat va b.) obyektiv borliqqa munosabatlar – pedagogik jarayon mahsulidir va ma'lum pedagogik tizim doirasida shakllantiriladi. Pedagogik texnologiya esa amaliyotga joriy etilayotgan pedagogik tizim loyihasidir.

Hozirgi paytda pedagogika fanida tarbiyaviy ishlar jarayonini tashkil etadigan ikki asos bor:

1. Shaxsning o'z-o'zini ro'yobga chiqarishi, o'z-o'zini namoyon qilish jihati.
2. Uning ijtimoiylashuvi, me'yorda faoliyat kechirishini ta'minlash jihati.

Ular bir-birini boyitib o'zaro ta'sirga kirib, shaxsning ijtimoiy salohiyatini eng ko'p darajada ochib berishga ko'maklashuvi lozim. Faqat bitta narsani pedagog hisobga olishi kerak: maktab o'quvchilari o'z-o'zini ro'yobga chiqarishga mustaqil darajada hali tayyor emas, chunki ularning yosh xususiyatlari bunga imkon bermaydi. Shuning uchun tarbiya ishlarida pedagog o'z o'quvchilarining oilasi va hamkasblari bilan hamkorlikda tarbiyaviy maqsadni amalda qo'llashi shart. Bunda o'qituvchi ta'lim bilan bir qatorda, tarbiyani ham uzviy bog'lab olib borishi kerak. Pedagogning muhim vazifasi – faqat tarbiya jarayonining mazmunini yangi ijtimoiy shart-sharoitlarga moslashtirishigina emas, balki tarbiyaning yangi shakllari, vositalari va usullarini, qisqa aytib, yangi tarbiyaviy pedagogik texnologiyalarni izlash, har bir muayyan holatda ularni birga qo'shib olib borishdan iborat.

"*Tarbiyachi* ↔ *tarbiyalanuvchi*" pedagogik tizimi natijalar samardorligini baholash mezonlari faqat tarbiyachi ish rejasini mavjudligi, hujjatlarning to'g'ri yuritilishi, bolalar faoliyatining tashkil etilishidan iborat emas, balki, sinf, jamoada har bitta bolaning o'zini tutishi, kirishimligi, o'ziga mos mashg'ulot tanlab olishi, qobiliyati, hissiy sog'lomligi, hayotsevarligi, do'stlariga hayri xohligi, kamtarinligi, pedagoglarning

bolalarga munosabatidan qoniqishi kabi masalalar ham kiradi. Oxirgi paytlarda bular qatoriga pedagogning ilg'or texnologiyalar bilan ta'minlanishi qo'shildi, chunki texnologiyaning kasbdagi ahamiyati, shubhasiz, kattadir.

Tarbiyaviy ishlardagi pedagogik texnologiyaning asosiy element (komponent)lari quyidagicha bo'ladi:

- tarbiya usullari va uslublari;
- tarbiya vositalari; tarbiyaviy ishlarni tashkil etish shakllari;
- o'quvchilarning uyushmalari.

Bularni maktab tarbiya jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar sifatida quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin [4]:

1. Bolalarda ijtimoiy ongini shakllantiruvchi texnologiyalar (pedagogik ta'sir etish, suhbat va hikoya o'tkazish, namuna ko'rsatish).

2. Bolalar faoliyati jarayonida ularda ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirish texnologiyalari (mashq orqali o'rgatish, o'yinlarni tashkil qilish, talab qilish, topshiriq berish, musobaqalardan foydalanish).

3. Bolalarni o'z-o'zini boshqarishga o'rgatish texnologiyalari (o'z-o'zini tahlil qilish, o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'ziga xizmat va b.).

4. Bolalarni tarbiyalashda rag'batlantirish va jazolash usullaridan foydalanish texnologiyalari (rag'batlantirish va jazolashning shakllari, shart-sharoitlari va ularning xususiyatlari).

5. O'quvchilar jamoasini tuzish va shaxsni jamoa yordamida tarbiyalash texnologiyasi.

6. Bolalarni o'rganish (pedagogik diagnostika) texnologiyalari.

7. Bolalar bilan individual ishlash texnologiyalari (o'zlashtirilmayotgan bolalar, tarbiyasi og'ir bolalar, iqtidorli bolalar bilan ishlash, shaxsiy yordam berish va h.).

8. Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish, tahlil qilish va baholash texnologiyalari (rejalashtirish, nazorat qilish, tahlil qilish, baholash, korreksiya qilish).

Yuqoridagilarning barchasi umumiy tarzda pedagogika fanidagi darslarida nazariy jihatdan o'rganiladi. Galdagi vazifa ana shu nazariy ma'lumotlarni amlda qo'llashni o'rganishdan iboratdir


Quyida ayrim pedagogik texnologiyalarni, innovatsion metodlarni tarbiya ishlari jarayoniga moslashtirish va foydalanish bo'yicha tavsiyalar beramiz.

Aqliy hujum – bu usul sinf hayoti va ijtimoiy faoliyatga bog'liq muammolarni hal qilish bo'yicha g'oya va fikrlarni bildirish usulidir. Masalan, sinfdagi "Kamolot" uyushmasi bo'limlari bo'yicha reja tuzish, ba'zi tantanali ommaviy tadbirlarni tayyorlash va boshqa shu kabi ommaviy muammoli ishlarda mazkur usul juda o'rinli va samaralidir. Masalan o'quvchilarga "Sog'lom inson" deganda nimani tushunasiz, deb savolni bersak, ulardan turli xil javob olishimiz mumkin: Yuqori sinflarda yoki talabalar guruhida esa murakkabroq muammo qo'yish mumkin: "Vatan nimadan boshlanadi?" va h.k.

Tarbiyaviy ishlarda aqliy hujum usuli bilan bir qatorda, munozara, davra suhbatlari va yozma bahslar kabi usullarni ham keng miqyosda qo'llash mumkin. Bunday usullar yordamida o'quvchilar o'rtasida quyidagiga o'xshash muammolarni muhokama etish mumkin:

- yoshlarning huquq va burchlari;
- o‘quvchi yoshlarning prezidentimizga, davlat ramzlariga munosabati qanday bo‘lmog‘i lozim?;
- milliy istiqlol g‘oyasi va yoshlar;
- davlat va boshqa tillarga munosabat;
- majburiy yoki muqobil xizmat nima?;
- diniy oqimlar va terrorchilarning buzg‘unchilik ishlari;
- zamonaviy yigit va qizlar nima bilan faxrlanadi? va h.

Tarbiyaviy ishlar jarayonini yanada takomillashtirish maqsadida sinf jamoasini kichik guruhlariga bo‘lish ham muhim ahamiyatga ega. Mazkur usul yordamida pedagog o‘z o‘quvchilarining qiziqish va ehtiyojlari o‘rganishga, imkoniyat va qobiliyatlarini aniqlashga hamda rivojlantirishga imkon topishi mumkin. Masalan: sinf (guruh) rahbari o‘quvchilarni tarbiyalashda tabaqalashtirish qoidasiga asoslangan holda ularni 5-6 kishidan iborat bo‘lgan 3-5 ta kichik guruhlariga ajratadi va ular zimmasiga sinfdagi ijtimoiy hayotning bir aniq soha (o‘qish, sport, mehnat, dam olish, badiiy bezatish va b.) bo‘yicha mas’uliyatni yuklaydi. Har qaysi kichik guruhning nomi, shiori, emblemasi bo‘lishi kerak. Bunday kichik guruhning pasporti (vizitkasi) quyidagicha bo‘lishi mumkin [5]:

	Guruh nomi:
---	--------------------

Kichik maktab yoshidagi bolalarga “Kamalak”, “Boychechak”, “G‘uncha” nomlari mos keladi. Katta o‘quvchilarga va talabalarga esa guruh nomlari murakkab-roq bo‘lishi kerak. Masalan ularga “Ziyo”, “Zukko”, “Tinchlik”, “Istiqlol”, “Istiqbol”, “Uchqun” kabi nomlari mos keladi. Kichik guruh sarkorlarni har chorak yoki yarim yilda o‘zgartirish mumkin. Bu har qaysi o‘quvchiga ham rahbar, ham bo‘ysunuvchi sifatida bo‘lishiga imkon yaratadi.

Xulosa qilib aytganimizda, yuqorida aytilgan usul-vositalar orqali umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish orqali texnologiya ta’limida o‘quvchilarni kasb-korlikka yo‘llashning samaradorligi oshadi. Natijada o‘quvchilarning dunyoqarashi kengayadi, mustaqil fikrlashi o‘rtadi, dunyoviy muammolarga, ba’zi mashhur insonlarning qarashlariga o‘z munosabatini bildirishga va o‘z fikrlarini bayon etishga imkoniyat yaratiladi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo‘lida yanada hamjihat bo‘lib, qat’iyat bilan harakat qilaylik. // “Xalq so‘zi”, 2017-yil, 16-iyun.
2. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. –T.: O‘qituvchi, 2004. – 236 b.
3. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi: “Nasaf”, 2000.

4. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. –T.: “Fan”, 2006.- 89 b.
5. Sattorova Z. va b. Texnologiya: 9-sinf uchun darslik. –T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 66 b.
6. Shomirzayev M.X. Texnologiya fanini o‘qitishning samaradorligini oshirish yo‘llari. –T.: “Gold print nashr”, 2019. – 32 b.
7. Shomirzayev M.X. O‘zbek milliy hunarmandchiligining shakllanish genezisi va rivojlanish texnologiyasi.- T.: “Yangi nashr”, 2019. – 52 b.
8. Shomirzayev M.X. O‘zbek milliy hunarmandchiligida innovatsion jarayonlar. - T.: “Yangi nashr”, 2019. – 88 b.
9. Shomirzayev M.X. O‘zbek milliy hunarmandchiligining spektiral-variativ komponentlari.- T.: “Yangi nashr”, 2019. – 27 b.
10. Shomirzayev M.X., Karimov I.I. Texnologiya fanini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar.- T.: “Universitet”, 2020. – 172-177 b.

ТЕХНОЛОГИЯ ФАНИ ДАРСЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Шомирзаев Махматмурод Хурамович,

Термиз давлат университети технологик таълим кафедраси доценти, педагогика
фанлари доктори (DSc)
E-mail: shomirzaevm@tersu.uz

***Аннотация:** Мақолада Ўзбекистон Республикаси умумий ўрта таълим мактабларида “Технология” фани дарсларини ташкил этиш шакл ва методлари мантиқан кетма-кетликда изчил ёритилган.*

***Таянч сўзлар:** мактаб, технология, дарс, синф, методика, тарбия, таълим, билим, давлат, жамият, миллий дастур, тизим, кадрлар, техник ижодкорлик, рационализаторлик, ихтирочилик, хунар, ишлаб чиқариш.*

***Аннотация:** В статье последовательно описаны формы и методы организации уроков по предмету «Технология» в общеобразовательных школах Республики Узбекистан в логической последовательности.*

***Ключевые слова:** школа, технология, урок, класс, методика, воспитание, образование, знания, государство, общество, национальная программа, система, кадры, техническое творчество, рационализация, изобретение, профессия, производство.*

***Annotation:** The article consistently describes the forms and methods of organizing lessons on the subject "Technology" in secondary schools of the Republic of Uzbekistan in a logical sequence.*

***Keywords:** school, technology, lesson, class, methodology, upbringing, education, knowledge, state, society, national program, system, personnel, technical creativity, rationalization, invention, profession, production.*

Кириш. Ўзбекистон Республикасидан Президент Ш.М.Мирзиёевнинг бевосита ташаббуси ва раҳбарлигида қабул қилинган ҳамда изчил равишда амалга

ошириладиган Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиш бўйича Ҳаракатлар стратегияси республикамизда ривожланиш тараққиётнинг янги босқичини бошлаб берди. Бу жараённинг амалий натижалари бугунги кунда ҳаётимизнинг барча соҳаларида, энг муҳими, халқимизнинг онг-у тафаккури, интилиш ва ҳаракатларида яққол намоён бўлмоқда.

Ҳаракатлар стратегиясининг тўртинчи – Ижтимоий соҳани ривожлантиришнинг устувор йўналишларидан бири бўлган таълим тизимини такомиллаштириш масаласига ҳам алоҳида эътибор қаратилган¹.

Давлатимиз раҳбари ҳар бир вилоятга ташрифи доирасида ўтказилган йиғилишларда, турли учрашувларда сўзлаган нутқи ва суҳбатларида баркамол авлодни тарбиялаш, ёшларни соғлом турмуш тарзига амал қилиб яшаш масалаларига кун тартибидаги долзарб масала сифатида қараш зарурлигини таъкидлаб келмоқда. Президентимиз таъкидлаганидек: “Агар фарзандларимизга тўғри тарбия бермасак, ҳар куни, ҳар дақиқада уларнинг юриш-туриши, кайфиятидан огоҳ бўлиб турмасак, уларни илм-у ҳунарга ўргатмасак, муносиб иш топиб бермасак, бу омонатни бой бериб қўйишимиз ҳеч гап эмас”².

Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида” ва “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури тўғрисида”ги қонунларда ҳам мамлакатимизда жаҳон андозалари талабларига жавоб бера оладиган юксак малакали мутахассис кадрлар тайёрлаш вазифалари белгиланган. Жумладан, Кадрлар тайёрлаш миллий дастурининг мақсади – таълим соҳасини тубдан ислоҳ қилиш, уни ўтмишдан қолган мафкуравий қарашлар ва сарқитлардан тўла халос этиш, ривожланган демократик давлатлар даражасида, юксак маънавий ва ахлоқий талабларга жавоб берувчи малакали кадрлар тайёрлашнинг миллий тизимини яратишдан иборатдир³.

Таълим-тарбия соҳасидаги ислохотлар босқичма-босқич амалга ошириб бориладиган ҳозирги даврда Кадрлар тайёрлаш миллий дастури талабларидан босқичда амалга ошириладиган “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”да кўзда тутилган асосий мақсадлардан яна бири бозор иқтисодиётига ўтиш даврига мослаша оладиган, рақобатдош, фаол шахсларни, яъни мутахассисларни шакллантиришдан иборатдир. Бу масала бошқа фанлар қатори “Технология” фанини ўқитишда ҳам асосий вазифа ҳисобланади.

Таълим-тарбия ишларини ривожлантириш соҳасида амалга ошириладиган ислохотлар жараёнида асосий бўлган ҳисобланган умумий ўрта таълим мактабларида таълим самарадорлигини ошириш муҳим вазифа ҳисобланади. Бунинг учун эса ўқитиш жараёнида таълим усулларида унумли ва оқилона фойдаланиш ҳамда бу усуллارни такомиллаштириш, янгиларини излаб топиш, қўллаш орқали бошқа фанлар қатори “Технология” фани машғулотларининг самарадорлигини ошириш ҳам талаб қилинади. Шу сабабли бугунги кунда таълим-тарбия соҳасидаги асосий долзарб масала – таълим усуллари ва шакллари яхши эгаллаган, уларни амалда қийналмай қўллаш оладиган малакали ўқитувчилар – педагог кадрларни тайёрлашдан иборат бўлиб қолмоқда. Чунки ўқувчиларга таълим-тарбия бериш, уларни касбларга йўналтиришда ўқитувчи шахси ва унинг

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. Тошкент шаҳри, 2017-йил 7- февраль PF - 4947.

² Мирзиёев Ш.М. Ватанимиз тақдири ва келажаги йўлида янада ҳамжиҳат бўлиб, қатъият билан ҳаракат қилайлик. // “Халқ сўзи” газетаси., 2017-йил, 16-июнь.

³ Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида” ва “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури тўғрисида”ги қонунлари. –Т.: “Шарк”, 1997.

фаолияти алоҳида аҳамиятга эгадир. Бинобарин, ўқитувчи олиб борадиган очик мулоқот тарзидаги машғулот жараёни ўрнини бошқа ҳеч нарса боса олмайди. Шунинг учун ҳам таълим-тарбия сифати ва самарадорлигини ошириш малакали, етук ўқитувчи кадрлар тайёрлаш, уларнинг касбий маҳоратини оширишнинг муҳим гарови ҳисобланади. Ҳозирги кунда таълим-тарбия жараёнида методика ибораси билан бирга, педагогик технология ибораси ҳам кенг қўлланилмоқда. Албатта бу ибора (атама) ларнинг ўхшаш ва фарқли томонлари мавжуд. Уларнинг умумий ўхшашлик томони шундаки, ҳар иккала атама ҳам таълим-тарбия бериш ишларини амалга ошириш жараёнини ифодалайди. Шу билан бирга, методика деганда, ўқув жараёнини ташкил этиш ва ўтказиш бўйича тавсиялар йиғиндиси тушунилса, педагогик технологияга ўқитувчининг касбий фаолиятини янгиловчи ва таълимда яқуний натижани кафолатлайдиган тадбирлар йиғиндиси, мажмуаси сифатида қаралмоқда. Бундан кўринадики, педагогик технологияга методиканинг янги, ўргатувчи билан ўрганувчининг ўзаро биргаликдаги фаолиятига асосланган соҳаси сифатида қараш мумкин. Умуман олганда, “технология” сўзи ишлаб чиқариш ва техника тараққиёти билан боғлиқ ҳолда фанда 1872-йилдан қўлланила бошлаган. **“Технология”** – юнонча сўз бўлиб, “течне” – маҳорат, санъат ҳамда “логос” – тушунча, таълимот сўзларининг бирикмасидан ҳосил бўлган. **“Технология”** атамаси, дастлаб, ишлаб чиқариш соҳасида қўлланилган бўлиб, унга материалларга, ярим тайёр маҳсулотларга ишлов бериш, уларнинг таркибини, хусусиятлари, кўриниши, тайёрланиши, қўлланиш соҳасини ўзгартириш йўллари ҳақидаги фан сифатида қаралган. Технология атамасига берилган яна куйидагича таърифлар мавжуд:

– ишлаб чиқариш жараёнида ашёлар, материаллар, ярим тайёр ашёларни қайта ишлаш, тайёрлаш ҳолати, хусусияти, шаклини ўзгариш методлари йиғиндиси (Сиёсий луғат, 1989);

– фан сифатида технологиянинг вазифаси ҳар томонлама самарали ва тежамли ишлаб чиқариш жараёнларини аниқлаш ва амалиётда ундан фойдаланиш мақсадида физика, кимё, механика ва бошқа қонуниятларни бажариш (Қомусий луғатдан);

– якунида қўйилган мақсадга эришиш ва фаолият объектининг ўзгаришига имкон берувчи фаолият (Н.С.Стефанов);

– ишлов бериш, вазиятни ўзгартириш санъати, маҳорати, қобилияти ҳамда методлари йиғиндиси (В.М.Шепел);

– фаолиятни ташкил этиш қоидаси ва уни амалга ошириш воситаси (В.В.Гузев).

Ўқувчиларга ишлаб чиқариш соҳалари ҳақида маълумот бериш, уларни келгусида ишлаб чиқариш соҳаларида ишлашга тайёрлашда умумий ўрта таълим мактабларида ўқитиладиган **“Технология”** фани дарслари катта аҳамиятга эга. Чунки умумий ўрта таълим мактабларида ўқитиладиган **“Технология”** фани дарсларида мактаб ўқувчиларига техника, технология, ишлаб чиқариш асослари, касблар ҳақида маълумот ва тушунчалар берилади, уларни касбларга йўналтириш ишлари олиб борилади.

“Технология” фани дарсларининг мақсади. Технология фани дарсларида ўқувчилар ишлаб чиқариш жараёни, ишлаб чиқариш соҳалари, бунда қўлланиладиган асбоб-ускуналар ва механизм-машиналар, уларнинг турлари ва ишлатилиши билан таништирилади ҳамда оддий буюмларни тайёрлаш ўргатилади.

“Технология” фани дарслари жараёнида турли табиий ҳамда металл ва металлмас материалларга технологик усуллар асосида ишлов бериш ишларини ўргатиш орқали ўқувчиларни касб-хунарга йўналтиришни янада кучайтириш, халқ

хунармандчилиги асослари, рўзгоршунослик, электротехника ишларини бажаришда касб-хунарга йўллаш бўйича билим, кўникма ва малакаларни эгаллаш ҳамда уларни ҳаётда қўллай олиш лаёқатини шакллантириш кўзда тутилган.

Умумий ўрта таълим муассасаларида “Технология” фанини ўқитишдан асосий мақсад – ўқувчиларда техник-технологик ҳамда технологик жараён давомида бажариладиган оператсиялар юзасидан олган билим, кўникма ва малакаларини мустақил амалий фаолиятида қўллаш, касб-хунар танлаш, миллий ва умуминсоний қадриятлар асосида ижтимоий муносабатларга кириша олиш компетенцияларини шакллантириш-дан иборат.

Умумий ўрта таълим мактабларида ўқитиладиган “Технология” фанининг асосий вазифалари:

– материаллар ва уларнинг хоссалари, хусусиятлари ҳамда техник объект ва технологик жараёнларга оид маълумотларни ўргатиш;

– техник объект ҳамда технологик жараёнларда махсус ва умуммехнат оператсияларини билиш;

– технологик жараёнларни бошқариш, махсус ва умуммехнат оператсияларини амалиётда қўллай олиш;

– техник ва креатив фикрлашни, интеллектуал қобилиятларини шакллантириш;

– технологик жараён ва тайёрланган маҳсулотларни бажариш кетма-кетлиги ҳамда маҳсулот сифатини таҳлил қила олиш;

– буюмларни тайёрлаш бўйича меҳнат жараёнларини бажаришга оид хулосалар чиқариш ҳамда меҳнат оператсияларини, маҳсулот сифатини баҳолай олиш;

– онгли равишда касб танлашга тайёрлаш ишларини амалга оширишда таянч ва “Технология” фанига оид компетенцияларни шакллантириш ҳамда ривожлантиришдан иборат.

Изланиш объекти. Умумий ўрта таълим мактабларида “Технология” фани бошланғич синфларда умумлашган ҳолда, 5-9-синфларда “Технология ва дизайн”, “Сервис хизмати” ҳамда “Умумлашаган” йўналишларида ўқитилади.

“Технология” фани қуйидаги бўлимлар асосида ўқитилади.

1-4-синфларда:

1. Қоғоз ва картон билан ишлаш.
2. Табиий ва турли материаллар билан ишлаш.
3. Газлама ва толали материаллар билан ишлаш.
4. Бадиий куриш-яшаш ва техник моделлаштириш.

5-7-синфларда:

Технология ва дизайн йўналиши

1. Ёғочга ишлов бериш технологияси.
2. Полимер материалларга ишлов бериш технологияси.
3. Металлга ишлов бериш технологияси.
4. Электротехника ишлари.
5. Рўзгоршунослик асослари.

II. Сервис хизмати йўналиши

1. Пазандачилик асослари.
2. Газламага ишлов бериш технологияси.
3. Рўзгоршунослик асослари.

8-9-синфларда:

Технология ва дизайн йўналиши

1. Халқ ҳунармандчилиги технологияси.
2. Ишлаб чиқариш ва рўзгоршунослик асослари.
3. Электроника асослари.
4. Ижодий лойиҳа тайёрлаш технологияси.
5. Касб танлашга йўллаш.

I. Сервис хизмати йўналиши

1. Халқ ҳунармандчилиги технологияси.
2. Ишлаб чиқариш ва рўзгоршунослик асослари.
3. Электроника асослари.
4. Ижодий лойиҳа тайёрлаш технологияси.
5. Касб танлашга йўллаш.

Малакали ўқитувчилар етарли бўлган тақдирда V-IX синфларда “Технология” фанидан ўқувчилар сони 25 нафар ва ундан зиёд бўлган умумий ўрта таълим мактабларида икки гуруҳга бўлиб ўқитишга рухсат берилади.

Ҳар бир дарс хавфсизлик техникаси қоидалари ва санитария-гигиена талабларига риоя қилган ҳолда ташкил этилади.

Шунингдек, ўқувчиларга “Технология” фани йўналишлари бўйича касб турлари ҳақида ахборотлар берилади.

“Технология” фанининг йўналишлари мактаб атрофидаги корхона, ташкилот, хўжалик ва касб-ҳунар коллежларида кенг тарқалган соҳалар, касбларга мувофиқ танлаб олинади. Йирик саноат ишлаб чиқариш ривожланган ҳудудлардаги мактабларда “Технология” фани дарсларида ўқувчиларни шу саноат соҳасига оид замонавий касбларга йўналтириш имкониятлари яратилиши лозим.

“Технология” фани дарсларини амалга ошириш учун қуйидаги ташкилий ва услубий вазифаларни ҳал қилиш лозим:

Ташкилий вазифалар. “Технология” фани бўйича назарий машғулотлар учун ўқув хонаси ва амалий машғулотлар учун устахона ташкил қилиш ва уларда хавфсиз ва қулай меҳнат шароитларини яратиш. Ўқувчиларни машғулотлар учун зарур хом ашё, материал, асбоб-ускуналар билан таъминлаш ҳамда мосламалар, механизмлар станоклар билан амалий ишлаш жараёнини ташкил қилиш. Санитария-гигиена ҳамда меҳнат хавфсизлиги бўйича меъёрий ҳужжатларда белгиланган талабларнинг тўлиқ бажарилишини таъминлаш ва мунтазам назорат қилиб бориш.

Ўқувчиларнинг турли касблар бўйича меҳнат жараёнлари ва касб эгалари билан яқиндан танишишларини амалга ошириш учун корхоналар, жамоа хўжаликлари, ташкилотлар, муассасалар билан доимий алоқа ўрнатиш^б.

Расмий ҳужжатлар: меъёрий режалаштирувчи ҳужжатлар, устахонада хавфсизлик техникаси, санитария-гигиена талаблари ва биринчи тиббий ёрдам кўрсатиш қоидаларига доир ҳужжатларни юритиш.

Услубий вазифалар. Машғулотларнинг ярим ёки бир йиллик иш режаларини тузиш, бунда маҳаллий шароитлар, эҳтиёжлар ва имкониятларни ҳисобга олган ҳолда, касблар таснифи асосида ўқувчиларни яқиндан таништириш мумкин бўлган касб турларини танлаш. “Технология” фанидан ўғил ва қиз болаларнинг ўзига хос машғулотларини ва касб танлашларини амалга ошириб бориш. Машғулотларда замонавий педагогик ва ахборот технологиялари, янги дидактик материаллар, воситалардан кенг фойдаланиш, таълим ва тарбия бирлигини таъминлаш. Ўқувчиларда турли касбларга тегишли дастлабки меҳнат кўникма ва малакаларини, меҳнатсеварликни шакллантириш. “Технология” фани дарслари жараёнида ўқувчиларни ақлий ва ахлоқий жиҳатдан ривожлантириб боришда уларнинг ёш

хусусиятларини, шахсий психологик ва физиологик сифатларини ҳисобга олиш. Ўқувчиларнинг билими, кўникма ва малакаларини мунтазам назорат қилиб бориш.

Дастурдаги технология йўналишлари бўйича машғулотларни ташкил қилиш ва ўтказиш кетма-кетлиги маҳаллий шароит ва имкониятлар ҳисобга олинган ҳолда ўқитувчи томонидан ҳал қилинади.

Олинган натижалар. Юқоридаги фикрлардан шуни айтиш жоизки, “Технология” фани вазифалари мазмунан мураккаб диалектик боғлиқликда бўлади. Буни тушуниш учун шуни назарда тутиш керакки, “Технология” фани вазифалари турли даражада кўйилади ва ҳал қилинади.

Хулоса. Юқорида баён этилган маълумотлардан шундай **хулоса** қилиш мумкин, ўқувчиларни ўқитиш, тарбиялаш машаққатли иш ҳисобланади. Бунда ўқитувчининг энг машаққатли ишларидан бири шуки, у ҳар бир ўқувчининг шахсий (индивидуал) хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда машғулотларда барча ўқувчиларнинг фаоллигига эришишдан иборат. Бу ўринда ўқувчининг фаоллиги ўз-ўзидан ошмаслигини, балки бу онгли муносабат натижаси эканлигини ёддан чиқармаслик зарур. Модомики, фаоллик онглилик натижасида вужудга келар экан, у таълим-тарбия ишининг мазмуни, ташкил этиш шакли, амалга ошириш методлари ва воситаларини ўзаро мувофиқлаштиришни тақозо этади. Ўқитувчи онгли равишда ўқувчиларда ўқишга қизиқишини янада ошириши лозим.

Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, умумтаълим мактабларида бошқа фанлардан фарқли равишда “Технология” фани машғулотларида ўқувчиларнинг фаоллигини ошириш орқали уларда ишлаб чиқариш соҳалари ҳақидаги тушунчаларни шакллантиришда катта имкониятлар мавжуд. Чунки “Технология” фани машғулотларида назарий таълим амалий таълим билан узвий боғлаб олиб борилади. Бу ўқувчиларнинг мустақил ишлашини, имконият даражасида ўз қобилиятларини намоён этишларини таъминлайди. Ўқувчилар машғулотлар давомида ўзлари яратган буюмларни кўриб қувонади, ёнидаги ўртоқлари ясаган буюмлар билан таққослайди, ютуғидан мағрурланади, камчилиги бўлса тўғрилайди. Бу эса ўқувчиларни мустақил шахс бўлиб камолга етишишларидаги илк қадамлари бўлади. Бундай ишларни ташкил этишда ўқитувчининг маҳорати, хусусан, машғулот кўринишига қараб ўқитиш шакли ва методларини қўллаши муҳим амиятга эгадир.

Кейинги пайтларда мамлакатимизда таълим соҳасида катта ўзгариш-лар рўй бермоқда. Буни таълим тизимини ислоҳ қилишга қаратилган директив ҳужжатлар, таълим стандартлари, ўқув дастурлари ва яратилаётган адабиётлар ҳамда қад ростлаётган янги таълим муассасалари мисолида яққол кўриш мумкин. Шу билан бирга, ўз ечимини кутиб турган айрим ишлар ҳам мавжуд. Шулардан бири дарсларда ўқувчиларнинг билиш фаолиятини фаоллаштириш, мустақил фикрлаш ва ишлай олиш фаолиятига ўргатишнинг янада самарали шакл ва усулларини ишлаб чиқиш, ҳаётга татбиқ этишдир.

Таълим мазмуни яхшилаш, ўқитишнинг турли хил фаол усулларидан фойдаланиш замон талабига айланиб қолди. Таълим жараёнида ўқитувчи меҳнатининг натижаси кўп жиҳатдан ўқувчиларнинг фаоллигига боғлиқдир. Бунинг учун ўқитувчи янгиликлар излаши, ташаббускорлик ва ижодкорлик намуналарини кўрсатиши керак.

Шунинг учун “Технология” фани дарсларини такомиллаштириш, бунда ўқувчиларнинг назарий ва амалий иш фаолиятини фаоллаштириш, уларда фаол ишлашга оид меҳнат кўникмаларини шакллантириш катта аҳамиятга эгадир, деб ҳисоблаш мумкин.

Тавсиялар:

Юқорида баён қилинган фикрларга асосан қуйидагиларни **тавсия** қилиш мумкин:

1. Ўқувчиларни ишлаб чиқаришнинг асосий бўғинлари, соҳалари билан таништиришда, уларни мустақил ҳаётга тайёрлашда ва турли касбларни танлашга йўналтиришда “Технология” фани дарсларида катта имкониятлар мавжуд. Шу сабабли “Технология” фани дарсларини ташкилий-услубий, илмий-техникавий, ғоявий-сиёсий томондан пухта ўтказишга эришиб бориш ҳар бир “Технология” фани ўқитувчисининг касбий бурчидир.

2. “Технология” фани дарсларида ўқувчиларнинг билиш фаолиятини фоллаштириш, уларда ижобий ва ижодий ишлаш кўникмаларини шакллантириш – ўта муҳим педагогик, психологик, физиологик ва техник-технологик омиллар орқали амалга ошириладиган мураккб жараёндир. Шунини унутмаслик керакки, бу ишларни амалга оширишда ўқитувчининг ўрнини ҳеч нарса боса олмайди. Шу сабабли аввало ўқитувчининг ўзи тинмай касбий маҳоратини, илмий-услубий савиясини ошириб бориши керак.

3. Шунини алоҳида таъкидлаш керакки, таълим-тарбия ишларида ўқувчиларнинг билиш фаолиятини фаоллаштириш, амалий ишларни тушунган ҳолда бажариш кўникмаларини сингдириш – аста-секинлик билан амалга ошириладиган ва узок давом этадиган педагогик фаолият жараёнидир. Яъни ўқувчи бирданга фаол, ишни тез ва мукамал бажарадиган бўлиб қолмайди. Шунинг учун бу ишларда шовша-шошарлик қилиш ярамайди. Балки ишни узок истиқболни кўзлаган ҳолда чидам билан олиб боришга тўғри келади. Турли даврларда яшаб ўтган барча буюк алломалар томонидан ёшларни янгича яшашга ва тафаккур юритишга ўргатиш ҳамма вақт ҳам давр талаби эканлиги таъкидланган. Бунда ўқувчиларнинг фаоллигини ошириш муҳим аҳамиятга эгадир. Чунки ўқувчи таълим-тарбия жараёнида фаол бўлса – у аълочи ва жамоатчи ўқувчи бўлади. Шу руҳда тарбияланган ўқувчи эса келажакда ҳам ўзининг бу хусусиятини сақлаб қолган ҳолда, ҳатто ривожлантирган ҳолда фаол ишчи-хизматчи, бир сўз билан айтганда, жамиятнинг фаол аъзоси, фуқароси бўлиши мумкин.

4. Умумий ўрта таълим мактабларида ўтиладиган “Технология” фани машғулотларида ўқувчиларга таълим-тарбия бериш ва бу жараёнда уларнинг фаоллигини ошириш учун оддий, яъни ўқитишнинг анъанавий шакл ва методлари билан бир қаторда инноватсион педагогик технологиялардан ҳам фойдаланиш яхши натижа беради. Бу ишларнинг самарадорлигини ошириш учун аввало шу ишларни амалга ошириш босқичларини олдиндан пухта лойиҳалаштириб олиш керак.

5. Тажрибалардан маълум бўлдики, технология дарсларининг самарадорлигини ва ўқувчиларнинг фаоллигини оширишда бир қатор интерфаол методлар, жумладан, ақлий ҳужум, кластер, кичик гуруҳларда ишлаш, баҳс-мунозара, тақдирот, БББ, “Агар мен...” каби интерфаол методлардан фойдаланиш яхши самара беради. Шунинг учун келгусида ҳам бундай методлардан фойдаланишга эътиборни кучайтириш, уларнинг янги-янги қирраларини очишга ҳаракат қилиш зарур, деб ҳисоблаймиз. Айниқса, ўқитувчилар учун БББ методи ташҳис ўрнини боса олади. Яъни биз бу методни қўллаш орқали ўқувчиларнинг нималарни билишини, нималарни билиб олганликларини ва нималарни билишни хоҳлашларини аниқлай оламиз. Одатда ҳар қандай одамга билган нарсалари ҳақидаги маълумотларни бериш улар учун унчалик қизиқ туюлмайди. Шунинг

учун ҳам биз ўқувчиларга билишни хоҳлаган нарсалари хақида маълумот берсак улар учун қизиқарлироқ бўлади.

Адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016-йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий якунлари ва 2017-йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза, 2017-йил 14-январ. –Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 104 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз // Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи. –Т.: “Ўзбекистон”, 2016.
3. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курагимиз. –Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 488 б.
4. Мирзиёев Ш. Ватанамиз тақдири ва келажаги йўлида янада ҳамжихат бўлиб, қатъият билан ҳаракат қилайлик. // Халқ сўзи, 2017-йил, 16-июн.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. Тошкент шаҳри, 2017-йил 7- февраль РҒ - 4947.
6. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида” ва “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури тўғрисида”ги қонунлари. –Т.: “Шарқ”, 1997.
7. Бабанский Ю.К. Ҳозирги замон умумий таълим мактабида ўқитиш методлари. –Т.: “Ўқитувчи”, 1990. – 232 б.
8. Йўлдошев Ж.Ғ., Усмонов С.А. Педагогик технология асослари. –Т.: Ўқитувчи, 2004. – 236 б.
9. Каримов И. Мехнат таълими дарсларида ўқитишнинг интерфаол методларидан фойдаланиш: Ўқув қўлланма. –Т.: РТМ, 2009. – 24 б.
10. Каримов И. Мехнат таълими ўқитиш технологиялари: Ўқув қўлланма. –Т., “Адабиёт учқунлари”, 2013. – 228 б.
11. Каримов И. Мехнат таълимида ўқувчилар ижодкорлик фаолиятини ташкил этишнинг уйғунлашган технологиялари: Монография, услубий йўналиш. –Т.: “Адабиёт учқунлари”, 2015. – 172 б.
12. Муслимов Н.А. ва б. Мехнат таълими ўқитиш методикаси ва касб танлашга йўллаш: Дарслик. –Т., 2014. – 292 б.
13. Очилов М. Янги педагогик технологиялар. Қарши: “Насаф”, 2000. – 52 б.
14. Shomirzayev, M.Kh. (2019). Local features of the traditional embroidery of the Ferghana valley. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*. - 7 (12). -P. 970-973.
15. Shomirzayev, M.Kh. (2020). Education is personally focused technology. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8 (8), Part. 93-99.
16. Shomirzayev, M.Kh. et al. (2020). National handicrafts of Uzbekistan and its social – economic significance. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8 (8), Part III. 129-138.
17. Shomirzayev, M.Kh. (July, 2020). Technology of Educational Process in School Technology Education. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*. Impact Factor 5.366. -№ 02. -P. 212 - 223. (www.usajournalshub.com/index.php/tajssel).

18. Shomirzayev, M.Kh. (30 July, 2020). Developing Educational Technologies in School Technology Education. The American Journal of Social Science And Education Innovations, Impact Factor 5.26. -P.II/VII 51 - 57. (www.usajournalshub.com/index.php/tajet).

19. Шомирзаев М.Х. Бойсун қуроқчилик санътини ўргатишда тарихий анъаналарнинг ўрни // Бойсун - моддий ва номоддий маданияти бешиги” мавзусидаги Халқаро илмий-амалий конференцияси. – Т.: Yangi nashr, 2018. - Б.62-67.

20. Шомирзаев М.Х. Ўзбек миллий ҳунармандчилигида инновацион жараёнлар. Услубий кўлланма. –Т.: “Янги нашр”, 2019. – 88 б.

21. Шомирзаев М.Х. Ўзбек миллий ҳунармандчилигининг спектирал-вариатив компонентлари. Услубий кўлланма. –Т.: “Янги нашр”, 2019. – 48 б.

ЧИЗМАЧИЛИК ВА ДИЗАЙН ФАНЛАРИНИ ИНТЕГРАЦИЯЛАШГАН МАВЗУЛАРИНИ ЎҚИТИШ

*АндДУ ТСМГ кафедраси мудири,
доцент. Б.Р.Ҳақбердиев
АндДУ ТСМГ 2-босқич талабаси
Ш.Ф.Отахонова
АндДУ РТД 3-босқич талабаси
Д.И.Қодирова*

Аннотация; Ушбу мақолада асосан муҳандислик графикаси ва дизайн фанларини интеграция орқали ўқитишни такомиллаштиришда чизмачилик ва дизайн фанларини алоқадорликларидаги мавзуларни педагогик технологиялар ёрдамида дарс ўтишига доир манбалар ёритиб берилган.

Калит сўзлар; чизмачилик, дизайн, интеграция, педагогика, технология, таълим, методика, санъат, муаммо, мавзу, аудитория, иллюстрация, темп, сифат, детал.

Аннотация; В этой статье в основном рассматриваются ресурсы для преподавания тем, связанных с науками о рисовании и дизайне, с использованием педагогических технологий для улучшения преподавания инженерной графики и наук о дизайне посредством интеграции.

Ключевые слова; рисунок, дизайн, интеграция, педагогика, технология, образование, методология, искусство, проблема, предмет, аудитория, иллюстрация, темп, качество, деталь.

Annotation; This article mainly focuses on resources for teaching topics related to the art and design sciences, using pedagogical technologies to improve the teaching of engineering graphics and design sciences through integration.

Keywords; drawing, design, integration, pedagogy, technology, education, methodology, art, problem, subject, audience, illustration, pace, quality, detail.

Кўплаб ишлаб чиқариш соҳаларини технологиялаштириш эмас, балки таълим соҳасига, маданият соҳасига, гуманитар соҳаларига ҳам кириб келди. Жадаллик билан ривожланиб бораётган шу кунларда биз ахборот, педагогик, тиббиёт технологиялари ҳақида гапирамиз. Педагогик технология деб одатда мақсади таълим жараёнининг самарадорлигини ошириш, таълимда кўзланган натижаларга эришишга бўлган чет эл педагогикасининг йўналишига айтилади (М. Кларин, 1989) миллий педагогик адабиётларда бундай ҳолларда ўқитишнинг


дидактикаси ёки методикаси ҳақида гапирадилар, бироқ “технология” термини ҳозирги кунда жуда кенг тарқалган бўлиб келмоқда.

Технология – бу бирон-бир ишда, маҳоратда, санъатда қўлланиладиган услублар тўпламидир (талқинли луғат). Педагогик технология – бу ўқув жараёнини амалга ошириш мазмунли техникасидир (В.П. Беспалько). Педагогик технология – бу ўқитишда режалаштирилган натижаларга эришиш жараёнини тасвирлашдир (И.П. Волков). Педагогик технология – бу ўқитиш, тарбиявий воситалар, шакллари, методлари, усул, услубларининг махсус тўплами ва тузилишини белгиловчи психологик-педагогик кўрсатмалар йиғиндиси, у педагогик жараённинг ташкилий методик қуроли демакдир (Б.Т. Лихачев).

Педагогик технологияда дарс бериш усулнинг асосий вазифаси – таълим тўғри бериш, мутахассисликка ўргатиш. Бунга мисол қилиб чизмачилик ва дизайн фанларини интеграциялаб ўқитишни олишимиз мумкин. Белгилари: бу икки фанни интеграцияси бўйича қатъий тузилма; нутқий – интеграциялашган мавзуларни мантиқий баён қилиш, интеграциялашган мавзуларда тўпланган ахборотнинг қўплиги. Маърузалар, бизга, талабаларнинг унчалик эътибор бермайдиган фанини интеграциялаб ўқитиш орқали муҳим манбаларини ажратиб кўрсатиш имконини беради.


Талабалар билан муҳандислик графикаси фан ўқитувчиси биргаликдаги ушбу чизмачилик ва дизайн фанларини алоқадорлигини ташкил этиш усулининг самарадорлик шартлари қуйидагилардан иборат деб ҳисоблаймиз:

- чизмачилик ва дизайн фанларини алоқадорлик мавзуларини батафсил режасини тузиш;
- ҳар бир дарсда чизмачилик ва дизайн фанларини мавзулар режасини эшиттириб бориш;
- чизмачилик ва дизайн фанларини мавзулар режасини ҳар бир манбаларини ёритишдан сўнг қисқача умумий хулоса қилиб олиш;
- чизмачилик ва дизайн фанларини мавзулар режасини бир мавзудан кейинги мавзуга ўтишда самарали интеграциясини таъминлаш;
- чизмачилик ва дизайн фанларини интеграциялашган мавзулар бўйича талабалар ўртасига муаммоли мавзу бериш ва ечимини йиғиш;
- чизмачилик ва дизайн фанларини интеграциялашган мавзулари бўйича ёзиш зарур бўлган жойларни ёздириш;
- чизмачилик ва дизайн фанларини интеграциялашган мавзулари бўйича график чизиш зарур бўлган жойларни қўлда ёки Auto CAD дастурида чиздириш;



1-чизма талаба томонидан қўлда чизилган деталнинг учта кўриниши ва яққол тасвири

- чизмачилик ва дизайн фанларини алоқадорлик мавзуларини, алоҳида ҳолатларини маъруза ёки амалий ёки семинарларни ўтадиган ўқитувчилар томонидан батафсил таҳлил қилиш имконини берувчи семинар машғулотлари ва амалий машғулотлар билан қўшиб олиб боришдан иборатдир.




2-чизмада дизайнга мос ҳолда Auto CAD дастурида деталнинг яққол тасвири чизилди.

Чизмачилик ва дизайн фанларини интеграция орқали ўқитишда педагогик техникадан фойдаланиш бўйича тавсиялар:


- чизмачилик ва дизайн фанларини алоқадорлик мавзуларини дар мобайнида

Ўтишда нутқ оҳангингизни сал баландлатиб, парталар оралиғида юриб, зарурат туғилганда имо-ишоралардан ҳам фойдаланинг;

- чизмачилик ва дизайн фанларини алоқадорлик мавзуларидан ҳар бирини ўзингиз завқу-шавқ билан талабаларни қизиқтириб дарс ўтишингиз уларни бу икки фанни интеграциясига бўлган қизиқишларини янада орттиради. Сиз томонингиздан чизмачилик ва дизайн фанларини алоқадорлик мавзуларини ўта қизиқарли деб ҳисоблашингизни ва талабалар график саводхонликларини қандай ўзлаштириши сизни бефарқ қолдирмаслигини намоён этсангиз, сизнинг чизмачилик ва дизайн фанларини алоқадорликларини ёритиб беролсангиз албатта уларни руҳлантиради;
- чизмачилик ва дизайн фанларини алоқадорлик мавзуларини баён қилиш суръати (темп) ҳам катта аҳамиятга эга. Талабаларнинг дарсга бўлган тайёргарлик даражасига, уларнинг ёшига мос келиши керак, дарс мавзуларини асосий ҳолатларини ёзиб ва чизиб олишга имкон туғдириш учун эса, у жуда тез бўлиши керак эмас.




3-чизма а),




б)

- чизмачилик ва дизайн фанларини интеграциялашда сиз томонингиздан детални учта кўриниши ва яққол тасвирини кўриш бўйича маъруза ўтсангиз ва доскага чизмаларни чизиб тушунтириб берсангиз ҳам 3-чизма а), б), синфда 30 ёки 25 нафар талаба бўлса ҳаммаси ҳам мавзунини тўлиқ тушинмайди. Дарсни дизайнга мос ҳолда қилиб 34-чизма а) ва б) лардаги детални тайёр ҳолда кўрсатсангиз фазовий тасаввурлари орқали чизмаларни дизайнга мос ҳолдагисини кўриб барча кўринишларини ва яққолини тезда чизиб беришади.

Сиз томонингиздан чизмачилик ва дизайн фанларини алоқадорлик мавзуларини ўтишда кўргазма қуролларидан фойдаланиш ҳам материални самарали қабул қилишга ва тушунишга ёрдам беради.



4- чизма а),



б)

Фойдаланилган адабиётлар;

1. Haqberdiyev, B. R. (2021). Goals and objectives of pedagogical experimental work. *International Engineering Journal For Research & Development*, 6(3), 2-2.
2. Haqberdiyev, B. R., & Rustamov, U. (2021). Creative design of buildings and structures. *current research journal of pedagogics (2767-3278)*, 2(09), 76-78.
3. Haqberdiyev, B. R. (2020). Contents, value of interdisciplinary relations. *Solid State Technology*, 63(6), 203-206.
4. Haqberdiyev, B. R. The method of modeling in the integration of disciplines design and engineering graphics *Bulletin of Osh State University*. 2018. № 3. С. 17-20.
5. Nasritdinova, U., & Khahkberdiyev, B. (2020, July). Results theoretical study of the form of a front surface of a chisel-cultivator stand. In *IOP Conference Series: Materials Science and Engineering (Vol. 883, No. 1, p. 012108)*. IOP Publishing
6. Valiyev A.N., Haqberdiyev B.R., Gulomova N.X., Boboyeva Z.A “Drawing” (mechanical drawing) Tashkent 2020
7. Haqberdiyev Bakhtiyor Rustamovich Designing of architectural elements DOI: <http://doi.org/10.5281/zenodo.4716849> Primedia E-launch LLC, 5518 Flint St, Shawnee, 66203, USA
8. Abbasov I.B., Hakberdiyev B.R. The integrated design and engineering graphics subjects described in the design and integration В сборнике: *International scientific and practical online conference "Innovative ideas, developments in practice: problems and solutions"*. 2020. С. 121-123.

**TEXNOLOGIK TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHGA
YANGICHA YONDASHUV**

Avazbayev Atajan Ismailovich, Nizomiy nomidagi TDPU “Texnologik ta’lim metodikasi” kafedrasi dotsenti.

Seytnazarov Jasurbek Qanatbay o’g’li, Nizomiy nomidagi TDPU “Texnologik ta’lim” ta’lim yo’nalishi TT-202 guruh talabasi

***Annotatsiya:** Maqolada ta’limda yangicha yondashuv bo’lgan ta’limning kredit-modul tizimi, uning maqsad vazifalari, mazmuni, modulga asoslangan o’quv dasturlari sxemasi hamda texnologik ta’lim jarayonini kredit-modul tizimi asosida tashkil etish shart-sharoitlari yoritilgan.*

***Kalit so’zlar:** Uchinchi renessans, kredit, modul, kredit-modul, ta’limning kredit tizimi, kredit-modul tizimi, o’qish yuklamasi.*

***Аннотация:** В статье рассматриваются кредитно-модульная система образования как новый подход к образованию, ее цель и задачи, содержание, схема модульных образовательных программ и условия организации технологического образовательного процесса на основе кредитно-модульной системы.*

***Ключевые слова:** Третий ренессанс, кредит, модуль, кредит-модуль, кредитная система образования, кредитно-модульная система, учебная нагрузка.*

***Abstract.** The article discusses the credit-modular education system as a new approach to education, its goals and objectives, content, scheme of modular educational programs and conditions for the organization of the technological educational process based on the credit-modular system.*

***Key words.** Third Renaissance, credit, module, credit module, credit system of education, credit-modular system, educational load.*

Ma’lumki yurtimiz o’zining buyuk mutaffakkirlari bilan dunyoga mashxur. Xozirda va kelajakda ham shunday mashxur bo’lishi uchun shijoatli, bilimli, xar tomonlama barkamol yoshlarni tarbiyalab yetishtirishimiz zarur. Mamlakatimiz ayni paytda Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoev rahbarligida Uchinchi Renessansga qadam qo’ymoqda. Shu maqsad yo’lida ta’lim tizimi tubdan isloh qilinmoqda. 2020 yil 29 dekabrda Prezidentimiz Oliy Majlisga Murojaatnoma-sida ham bu haqda “Biz o’z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug’ maqsadni qo’yg’an ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Mirzo Ulug’beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog’lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g’oyamizning asosiy ustunlari bo’lib, xizmat qilishi lozim.

Ushbu maqsad yo’lida yoshlarimiz o’z oldiga katta marralarni qo’yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko’mak berish – barchamiz uchun eng ustuvor vazifa bo’lishi zarur. Shundagina farzandlarimiz xalqimizning asriy orzu-umidlarini ro’yobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanadi” degan fikrlarni bildirib o’tgan.

Bu qo’yilgan vazifani amalga oshirish uchun birinchi navbatda oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlaydigan oliy ta’lim tizimiga xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta’limning ilg’or standartlarini joriy etish, jumladan o’quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo’naltirilgan ta’limdan amaliy ko’nikmalarni shakllantirishga yo’naltirilgan

ta'lim tizimiga o'tish; oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish zarur.

Bu borada bir qancha ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi asosida 2030 yilga qadar Respublikadagi barcha oliy ta'lim muassasasi (OTM)ning 85 foizini kredit-modul tizimiga o'tkazish ko'rsatib o'tildi. 2020/2021 o'quv yilining o'zida 33 ta oliy ta'lim muassasasi kredit-modul tizimi asosida ta'lim jarayonini boshladi. 2020/2021 o'quv yilidan kredit-modul tizimiga o'tkazilgan 33 ta oliy ta'lim muassasasi qatorida Nizomiy nomidagi Toshkent Davlatni pedagogika universitetining 1-kurs talabalari xam kredit-modul tizimi asosida o'qishni boshlashdi. Bugungi kunda Universitetning Texnologik ta'lim yo'nalishi, magistratura mutaxassisligi 1 va 2-kurslarida ta'lim jarayonini kredit-modul tizimi asosida amalga oshirilmoqda.

Kredit-modul ta'lim tizimida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarining mustaqil ishlashini ta'minlash; talabalar bilimini reyting asosida baholash.

Kredit-modul tizimining asosiy maqsadi-dars mashg'ulotlarini nafaqat o'qitishni innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida olib borish, balki talabaga mustaqil o'qib-o'rganish, ta'limga yangicha yondashuv, munosabatda bo'lish, mehnat bozori talabidan kelib chiqib, zaruriy va chuqur nazariy bilimlarni egallash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga o'rgatishdan iboratdir.

Mazkur tizim talabaning kasbiy rivojlanishi va kamolotiga yo'naltirilgan, ilm sohibining butun hayoti davomida bilim olishini ta'minlashga hamda mehnat bozori va zamonaviy talablarga javob bera oladigan inson kapitalini shakllantirishga qaratilgan tizim xisoblanadi.

Ta'lim jarayoni ushbu tizim asosida olib borilayotgan ilg'or xorijiy OTMlar tajribasiga ko'ra, kredit-modul tizimida o'quv jarayoni har semestrda 4 tadan 8 tagacha moduldan iborat bo'ladi. Talaba yuqori malakali mutaxassis bo'lib shakllanishi uchun nafaqat axborotlar, balki ularni qayta ishlash, amaliyotga joriy qila olish malakasiga ega bo'lishi talab etiladi.

Modulga asoslangan o'quv dasturlari maxsus sxema asosida ishlab chiqiladi va ular quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi:

- o'quv maqsadi hamda vazifalarning to'liq ochib berilishi;
- talabaning fanni (kursni) tugatgandan keyingi orttirishi lozim bo'ladigan malakalariga qo'yiladigan talablar;
- modul tarkibiga kirgan har bir fanning qisqacha mazmuni (sillabus), ya'ni ma'ruzalar mavzulari, seminar va amaliy mashg'ulotlarning rejasi, mustaqil ta'limni baholash uchun mo'ljallangan topshiriqlar;
- o'qitishning qisqacha bayoni: ta'lim berish usul hamda vositalari; bilimlarni baholashning usul va shakllaridan iborat.)

Kredit-modul ta'lim tizimida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarining mustaqil ta'limini (ishlarini) tashkil etish; talabalar bilimini reyting asosida baholash.

Xozirgi kunda bu ikkita masala bo'yicha ham ma'lum muammolar mavjud.

1. Talabalarning mustaqil ta'limini (ishlarini) tashkil etish bo'yicha muammolar:

- Talabalarning mustaqil ta'limi (ishlari) ning mavzusini belgilash va ular mazmuni, hamda ularni tashkil etishning mukammal tizimi yo'qligi;

- o'qituvchilar tomonidan mustaqil ta'limi (ishlari) topshiriqlarini bajarish va topshirish tartibi to'liq ishlab chiqilmaganligi;

- o'qituvchilar tomonidan talabalar mustaqil ta'limi (ishlari) qabul qilish faoliyatining to'liq samara bermayotganligi.

2. Talabalar bilimini reyting asosida baholash bo'yicha:

- Talabalar bilimini reyting asosida baholashda mashg'ulot turlari bo'yicha ballar taqsimotining o'bektiv hal qilinmaganligi;

- Talabalarning mustaqil ta'limi (ishlari)ni baholash mezonlarining talab darajasida ishlab chiqilmaganligi.

Bu muammolarni ijobiy hal qilish uchun quyidagilarga alohida e'tibor qaratish zarur:

- Talabalarning mustaqil ta'limi (ishlari) ning mavzusini belgilash va ular mazmuni, hamda ularni tashkil etishning mukammal tizimini yaratish;

- o'qituvchilar tomonidan mustaqil ta'limi (ishlari) topshiriqlarini bajarish va topshirish tartibi to'liq ishlab chiqiish va amaliyotga tadbiiq etish;

- o'qituvchilar tomonidan talabalar mustaqil ta'limi (ishlari) qabul qilishning aniq va samarali mexanizimini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq etish;

- Talabalar bilimini reyting asosida baholashda mashg'ulot turlari bo'yicha ballar taqsimotini qayta ko'rib chiqish-mustaqil ta'lim uchun imkon darajada ko'proq ball ajratish.

Va nihoyat bularning barchasi samarali bo'lishi uchun o'qituvchiga mustaqil ta'lim uchun o'quv yuklamasi ajratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5847-sonli farmoni.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 martdagi "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Xarakterlar strategiyasining "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" PF-5953-son farmoni.

3.O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 2020 yil 31 dekabrdaagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" VM 824-sonli qarori.

4.Avazbayev.A.I, Jamaldinova, M. Texnologiya fanini "STEAM-ta'lim" yondashuvi asosida o'qitishning mohiyati va afzalliklari. Jamiyat va innovatsiyalar, 2(5) 2021, 109–115 b.

5.Robert Wagenaar, A History of ECTS, 1989-2019. Developing a World Standard for Credit Transfer and Accumulation in Higher Education. International Tuning Academy, 2020. Available at.

6.Usmanov.B.Sh,Xabibullayev.R.A.Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-

modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma.2020 y.

7.O'rinov.V. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida ECTS Kredit-modul tizimi: Asosiy tushunchalar va qoidalar.Toshkent 2020 y.64b.

ТЕХНОЛОГИЯ ФАНИ МАШҒУЛОТЛАРИДА МУҲАНДИСЛИК ГРАФИКАСИ ВА ДИЗАЙН ФАНИГА ОИД ТУШУНЧАЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

И.Каримов, Қўқон ДШИ доценти, пед.ф.н.

Аннотация; Ушбу мақолада технология ҳамда муҳандислик графикаси ва дизайн фанларини интеграция орқали ўқитишни такомиллаштиришда педагогик технологиялар ёрдамида дарс ўтишига доир манбалар ёритиб берилган.

Калит сўзлар; чизмачилик, дизайн, интеграция, педагогика, технология, таълим, методика, санъат, муаммо, мавзу, аудитория, иллюстрация, темп, сифат, детал.

Аннотация; В этой статье рассматриваются ресурсы для преподавания тем, связанных с науками технологии также о рисовании и дизайне, с использованием педагогических технологий для улучшения преподавания инженерной графики и наук о дизайне посредством интеграции.

Ключевые слова; рисунок, дизайн, интеграция, педагогика, технология, образование, методология, искусство, проблема, предмет, аудитория, иллюстрация, темп, качество, деталь.

Annotation; This article mainly focuses on resources for teaching topics related to the art and design sciences, using pedagogical technologies to improve the teaching of engineering graphics and design sciences through integration.

Keywords; drawing, design, integration, pedagogy, technology, education, methodology, art, problem, subject, audience, illustration, pace, quality, detail.

Маълумки, ўқувчилар мактаб ўқув устахоналарида ўтказиладиган технология фани машғулотларида ёғоч, пластмасса ва металлдан бирор буюм яшаш, бу материалларни механик равишда қайта ишлаш билан шуғулланиди. Бунда буюм ва деталларни яшаш жараёни бир неча босқични, жумладан, қуйидагиларни ўз ичига олади: а) деталнинг чизмаси билан таништирилади; б) берилган ўлчамлар асосида чизма бўйича материалда режалаш ишлари бажарилади; в) режаланган материалга ишлов бериш, яъни ишнинг хусусиятига қараб кесиш, арралаш, рандалаш, эговлаш ва аниқ ўлчамга келтириш ишлари бажарилади. Тайёр бўлган деталлар бириктирилади, текширилади ва пардозланади.

Деталь ва буюмларни яшаш жараёнида ўқувчилар улар ҳақида тасаввур ҳосил қилишлари учун чизмалардан фойдаланилади. Шу

сабабли амалий машғулотлар иш чизмалари ва технологик карталарга таянган ҳолда олиб борилади. Яъни буюм ҳақида дастлабки тасаввур ҳосил қилинади. Бу тасаввур ўқувчининг кейинги босқичдаги фаолиятини бошқариб туради, яъни ўқувчининг кейинги фаолияти берилган иш чизмасини қанчалик тўғри ўқий олишига боғлиқ. Ўқувчи бутун машғулот давомида чизмага мурожаат қилиб туради. Бу эса иш кетма-кетлигини бузилмаслигига ва тасаввурни йўқолмаслигига ёрдам беради.

Ўқувчиларнинг мазкур ишларни бажаришлари чизмачилик қоидаларни билишларига олиб келади. Шунинг учун технология фани дарсларида чизмачиликнинг айрим қоидаларини ўргатиб бориш, яъни иш чизмаси ва фазовий кўринишлар тўғрисида тушунчалар бериб бориш мақсадга мувофиқдир. Бу эса ўз навбатида ўқитувчининг маҳоратига боғлиқдир. Масалан, оддий бирикмаларни тайёрлашни олайлик. Бу бирикма чизмасини кўрган ўқувчи унга зътибор бермаслиги ҳам мумкин. Лекин унинг фазовий кўринишини, яъни асл ҳолатини кўрганда қизиқиши ортади. Шу бирикмани яшаш учун унда ич-ичидан иштиёқ пайдо бўлади ва шу билан бирга деталнинг қандай кўринишда эканлигини ўқувчи уни тайёрламасдан олдин кўз олдига келтира олади. Шунинг учун ҳар бир дарсада, ҳар бир детал ва буюмни тайёрлашда унинг иш чизмаси билан бирга фазовий кўриниши берилса технология фани дарсларининг самараси ортади.

Ҳозирда ўқувчиларга дарс ўтиш жараёнларида турли видеоматериаллардан фойдаланилмоқда. Булардан фойдаланишнинг яхши томони шундаки, уларда ўқувчиларда фазовий тасаввурларни ўстириш омиллари мавжуд. Унга кўра ўқувчилар тақдим этилган буюмларни қандайлигини олдиндан билиб оладилар ва тайёрланиши зарур бўлган буюм ҳақида олдиндан тасаввур ҳосил қиладилар. Шуларга кўра ўқувчи берилган чизма бўйича материалда режалашни ва турли иш амалларини (арралаш, рандалаш, ўйиш-тешиш ва ҳ.) тўғри бажариш имкониятига эга бўлади. Бунда ўқувчиларга юртимизда яратилган қадимий иншоотлар, ноёб тасвирий ишлар, меъморий обидалар ҳақида ҳам маълумот бериш ўринлидир.

Технология фани ва чизмачилик. Технология фани дарсларини чизмаларсиз тасаввур этиб бўлмайди. Технология фани дарсларида чизмалар ҳам ўз ўрнида жуда зарурдир. Чунки ҳар қандай детални яшаш аввало унинг чизмасини ўқишдан бошланади ва бу жараёнда ўқувчида бўлажак буюм ва унинг қисмлари тўғрисида тасаввур ҳосил бўлади. Бинобарин, технология фани дарсларидаги муҳим кўргазмалардан бири бўлган технологик ва инструкция карталарни чизиш ва улардан фойдаланиш ҳам чизмалардан қандай фойдаланишга боғлиқдир. Демак, ўқувчиларнинг амалий фаолияти ва

тайёрланадиган буюмларнинг сифати кўп жихатдан уларнинг чизмачиликка оид билим ва кўникмаларга ҳам боғлиқ экан. Бироқ чизмачилик VIII синфдан бошлаб ўқитилади. Шу сабабли технология фани ўқитувчиси V синфдан бошлаб ўқувчиларга чизма, ўлчам, ўк чизиқлари, кесим, қирқим, чизмачилик асбоблари ва улардан фойдаланиш ҳақида маълумотлар бериб бориши зарур. Бунда ўқувчиларнинг олдинги синфларда шу соҳага оид олган билимларини ҳисобга олган ҳолда иш кўрилиши лозим.

Технология фанида мозаика усулидан фойдаланиш. Технология фанига оид амалий машғулотларда бирор деталь ёки буюмни тайёрлашдан олдин ўқувчиларга уларни қандай тузилишга ва кўринишга эга эканлиги ҳақида маълумот бериш муҳим аҳамиятга эга. Бунда ҳар қандай деталь ёки буюмнинг тузилиши ва кўринишини тушунтиришда чизмаларнинг ўрни беқиёсдир. Шу сабабли технология фани дарсларида ўқувчиларга олдиндан чизмачилик фанидаги айрим тушунчаларни, жумладан, *иш чизмаси, эскиз, техник расм* каби тушунчаларни бериш ўринлидир. Бу тушунчаларни ўқувчиларга мос ҳолда қуйидагича таърифлаш мумкин:

1. Буюмнинг қўлда чизилган яққол тасвири техник расм дейилади. Бунда аксанометрик қоидалар асосида буюмнинг учта томони кўрсатилади ва буюм қисмлари орасидаги мутаносиблик сақлаб қолинади, аниқ ўлчам ёки масштабга қатъий риоя эгалмайди.

2. Буюмнинг учта текисликдаги кўринишини қўлда тасвирланиши эскиз дейилади. Бунда ҳам буюм қисмлари орасидаги мутаносиблик сақланади, бироқ аниқ ўлчам ёки масштабга қатъий риоя этиш талаб қилинмайди.

3. Буюмнинг учта текисликдаги кўриниши берилган ўлчам ёки масштаб асосида чизмачилик асбоблари ёрдамида аниқ, қатъий тасвирланиши иш чизмаси деб юритилади.


Бунда техник расм, эскиз буюм ҳақида дастлабки тушунча беришда қўлланилса, иш чизмасидан бевосита буюмни тайёрлашда фойдаланилади. Шунингдек, буюм ҳақидаги маълумотга ҳам унинг чизмаси илова этилади. Мазкур тушунчаларни ўқитувчи бевосита турли кўргазмалардан фойдаланилган ҳолда баён қилиши ҳам мумкин. Бундан ташқари дарсада ўқувчиларни янада фаоллаштириш мақсадида кичик гуруҳларида ишлаш усулини қўллаш яхши натижа беради. Бу усулни қўллаш учун синф ўқувчилари уч гуруҳга ажратилади ва машғулот ҳам уч босқичда олиб борилади.

1-босқичда 1-гуруҳ ўқувчилари техник расм; 2-гуруҳ ўқувчилари эскиз; 3-гуруҳ ўқувчилари эса иш чизмасига оид маълумотларни ўрганадилар, керакли тасвирларни чизадилар. Бу – ўрганиш босқичи дейилади.

2-босқичда ҳар бир гуруҳдан биттадан ўқувчи ажралиб чиқади ва улар бошқа гуруҳларга бирикиб, янги гуруҳларни ташкил этади. Янги ташкил этилган бу гуруҳдаги ўқувчилар биринчи босқичда ўрганган нарсаларни бир-бирларига ўргатадилар. Бу – ўргатиш босқичи дейилади.

3-босқичда ўқувчилар 1-босқичдага ўз гуруҳларига қайтадан бирлашадилар ҳамда 2-босқичда бажарган ишлари, ўрганган-ўргатганлари юзасидан ўзаро фикр алмашадилар. Бу – муҳокама босқичи дейилади (схемага қаранг). Дарс охирида ўқитувчи бажарилган ишларни текширади ва баҳо қўяди.

Бу усулнинг афзаллиги шундаки, ўқувчилар қисқа вақт ичида катта ҳажмли маълумотларни ўрганиш имкониятига эга бўладилар. Бир-бирларига ўз фикрларини тушунтириш, савол бериш, эслатиш, мулоқот қилиш каби усуллар орқали ўқувчиларда мустақил ва ижодий ишлаш кўникмалари таркиб топади. Шу сабабли маълум тайёргарлик ишларини бажаргандан кейин ҳажми кенгроқ бўлган мавзуларни ўрганишда ҳам бу усулдан фойдаланиш яхши самара беради. Бу ишларни янада қизиқарлироқ бўлиши учун гуруҳларни номлаш, гуруҳ аъзоларига турли ранглардаги карточкалар, белгилардан фойдаланиш ва бошқа шу кабиларни тавсия этиш мумкин. Иш давомида турли рангдаги карточкалар қўлланилганлиги учун ҳам мазкур усул айрим адабиётларда мозаика усули деб ҳам юритилади.



Ўқувчиларни кичик гуруҳларда ишлаш схемаси

Фойдаланилган адабиётлар;

1. Haqberdiyev, B. R. (2021). Goals and objectives of pedagogical experimental work. *International Engineering Journal For Research & Development*, 6(3), 2-2.
3. Haqberdiyev, B. R., & Rustamov, U. (2021). Creative design of buildings and structures. *current research journal of pedagogics (2767-3278)*, 2(09), 76-78.

4. Haqberdiyev, B. R. (2020). Contents, value of interdisciplinary relations. *Solid State Technology*, 63(6), 203-206.
5. Haqberdiyev, B. R. The method of modeling in the integration of disciplines design and engineering graphics *Bulletin of Osh State University*. 2018. № 3. С. 17-20.
6. Nasritdinova, U., & Khahkberdiyev, B. (2020, July). Results theoretical study of the form of a front surface of a chisel-cultivator stand. In *IOP Conference Series: Materials Science and Engineering* (Vol. 883, No. 1, p. 012108). IOP Publishing
7. Valiyev A.N., Haqberdiyev B.R., Gulomova N.X., Boboyeva Z.A. "Drawing" (mechanical drawing) Tashkent 2020
8. Haqberdiyev Bakhtiyor Rustamovich Designing of architectural elements DOI: <http://doi.org/10.5281/zenodo.4716849> Primedia E-launch LLC, 5518 Flint St, Shawnee, 66203, USA
9. Abbasov I.B., Hakberdiyev B.R. The integrated design and engineering graphics subjects described in the design and integration В сборнике: International scientific and practical online conference "Innovative ideas, developments in practice: problems and solutions". 2020. С. 121-123.

ПРОФЕССИОНАЛ ТАЪЛИМ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ МАЛАКАСИНИ ОШИРИШ ЖАРАЁНИДА КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

**Л.Р.Зарипов, педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
М.Худойназарова, Жиззах давлат педагогика институти магистранти
С.Э.Зарипова, Тошкент давлат педагогика университети магистранти**

• *Ушбу мақолада профессионал таълим ўқитувчиларининг малакасини ошириш жараёнида касбий компетентлигини шакллантиришининг назарий муаммолари ёритиб берилган. Компетентлик тушунчаси таърифи келтирилган.*

• *В данной статье освещаются теоретические проблемы формирования профессиональной компетентности в процессе повышения квалификации педагогов профессионального образования. Дано определение понятия компетентности.*

• *This article highlights the theoretical problems of the formation of professional competence in the process of advanced training of vocational education teachers. The definition of the concept of competence is given.*

Калим сўзлар: компетентлик, билим, кўникма, малака, технология, шакл, метод, қобилият, эҳтиёж, қизиқиш, интеграция, дидактика.

Ключевые слова: компетентность, знание, умение, квалификация, технология, форма, способность, требование, интерес, интеграция, дидактика.

Keywords: competence, knowledge, skill, qualification, technology, shape, capacity, demand, interest, integration, didactics.

Таълим соҳасида амалга оширилаётган ислохотлар ва эришилаётган ютуқларга қарамасдан профессионал таълимни янада жадаллаштириш, яратилаётган ишқониятлардан самарали фойдаланган ҳолда рақобатбардош кичик

мутахассисларни тайёрлаш вазифасини қўймоқда. Бундай вазифани амалга оширишда албатта профессионал таълим ўқитувчиларини мунтазам равишда изланишлари ва соҳага оид билим, кўникма ва малакаларини ривожлантириб боришлари шарт.

Ҳозирги даврда ишлаб чиқаришда техника ва технологияларнинг қисқа фурсатларда янгиланаётганлигини, илм ва фаннинг жадал тараққиёти мутахассис кадрлардан ўз билимларини мустақил ва мунтазам равишда чуқурлаштириб, янгилаб, тўлдириб ва кенгайтириб боришни талаб этади. Мутахассисларни касбий жихатдан тайёрлаш ва малакасини ошириб бориш борасида хорижий мамлакатларда асосий ўринни мутахассиснинг компетентлик малака даражаси эгаллайди.

Компетентлик - шахснинг муайян таълим йўналиши ёки мутахассислиги бўйича олган билим, малака ва кўникмалари ҳамда шаклланган шахсий хислатларини меҳнат фаолиятида муваффақиятли қўллаш олиш қобилияти.

Компетентлик мутахассиснинг алоҳида йўналиш бўйича интегратив билим, ҳаракатларнинг ўзлаштирилишини назарда тутди ва доимо ўсиб боровчи тасниф бўлиб, реал ҳаётнинг вазиятларда юзага келган муаммоларни ечиш қобилияти, ўз билими, ўқув ва ҳаётиш тажрибалари, кадриятлари ва қизиқишларини унга сафарбар этиш имкониятлари ҳисобланади. Компетенция ўз билимларини тинмай бойитиб боришни, янги ахборотларни ўрганишни, шу кун ва давр талабларини хис этишни, янги билимларни излаб топиш маҳоратини, уларни қайта ишлашни ҳамда ўз амалий фаолиятида қўллашни талаб қилади. Профессионал таълим ўқитувчиларининг малакасини ошириш жараёнида *“Ижтимоий фанлар”* блокни ўқитишда компетентликнинг қуйидаги турлари бўйича шакллантирилади.

Яхлит -мазмунли компетентлик. Бу тингловчининг ўз мутахассислиги бўйича ижтимоий борлиқни хис эта олиши, иш фаолиятида мақсадга кўра мустақил фикрга эга бўлиши ва қарор қабул қила олиши, муаммоларни ҳал эта олиш компетентлиги.

Ижтимоий-маданий компетентлик. Тингловчи чуқур ўзлаштириши зарур бўлган билим ва фаолият тажрибасининг доираси бўлиб миллий ва умуминсоний маданияти, маънавий-ахлоқий ва оила маданияти, вақт меъёрини тўғри тақсимлаш, бўш вақтларини самарали ташкил этишусулларини билиши.

Ижтимоий фаолиятли компетентлик. Тингловчи иқтисодий ва ҳуқуқ масалалари, шахсий мавқеини аниқлаш, билим ва тажрибаларни эгаллаш, меҳнат бозоридаги мавжуд вазиятни таҳлил қила олиш, шахсий ва ижтимоий манфаатларни кўзлаб ҳаракат қилиш маҳоратига эга бўлиши.

Профессионал таълим ўқитувчиларининг малакасини ошириш жараёнида *“Умумкасбий фанлар”* блокни ўқитишда компетентликнинг қуйидаги турлари бўйича шакллантирилади.

Ахборот олиш компетентлиги Аудио-видео кўрсатув воситалари ва ахборот технологиялари ёрдамида мустақил изланиш, таҳлил қилиш, ва зарур ахборотларни танлаб олиш, уларни ўзгартириш, сақлаш ва узатиш маҳорати шакллантирилади.

Ушбу компетентлик тингловчининг касбий фанларни ўқитишда муҳим ахборотлар асосида таълим беришни таъминлайди.

Коммуникатив компетентлик Таълим олувчилар билан ўзаро муносабарлар, уларнинг усуллари, мулоқот жараёнида устивор ўрин тутувчи тилни ўзлаштириш, гуруҳларда ишлаш кўникмалари, жамоада турли хил маънавий-маърифий тадбирларни ташкил қилиш ва ўтказишни билишни ўз ичига олади.

Профессионал таълим ўқитувчиларининг малакасини ошириш жараёнида *“Мутахассислик фанлар” блокани* ўқитишда компетентликнинг қуйидаги турлари бўйича шакллантирилади.

Назарияни амалиётга тадбиқ этиш компетенцияси. Тингловчилар буюмларни конструкциялаш, лойиҳалаш, тайёрлаш технологияларини билиши ва уни ўргата олиши, Технологик хариталарни тузиши ва ўзгартириш кирита олиши, ишлов бериш усуллари ва вазиятларга кўра ўзгартира олиши.

Метод ва технологияларни ўқув жараёнига тадбиқ этиш компетенцияси. Анъанавий ва ноанъанавий методлар, фан ва мавзуларни ўргатиш вақтида илғор таълим технологияларни танлай олиш, касбий фанларни ўқитишда метод ва технологияларни ижобий қўллаш олиш, фактларни таҳлил қилиш, умумлаштириш, шу асосда хулоса чиқара олиши.

Ўқув жараёнини ташкил этиш ва бошқариш компетенцияси. Дарс типларини билиш ва уларни мақсадга мувофиқ ташкил этиш, ўқув меъёрий ҳужжатларни тузиш ва уни таҳлил қилиш, ўзгартиришлар кирита олиш. Профессионал таълим муассасаларида методик бирлашмалар ишини режалаштира олиш ва раҳбарлик қила олиш компетенциясига эга бўлиши.

Юқорида келтирилган компетенция турларини профессионал таълим ўқитувчиларини малака ошириш ўқув режасидаги блоклар ва фанларни ўқитиш жараёнида шакллантириб бориш орқали ҳозирги кундаги касб таълими ўқитувчиларига қўйиладиган замонавий талабларга эга бўлишларига имкон яратилади. Профессионал таълим ўқитувчиларини касбий компетентлигини кадрларни малакасини ошириш ва уларни қайта тайёрлаш жараёнида шакллантиришда замонавиқ педагогик ва ахборот технологияларини жорий этиш орқали эришилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйҳати

1. Шарипов Ш.С. Ўқувчилар касбий ижодкорлиги узвийлигини таъминлашнинг назарияси ва амалиёти. Дисс. ... пед. фан. док. – Т., 2012. – 307 б.
2. Л.Н.Серебренников Структура технологической подготовки школ. Костромской педагогический вестник. – 2003. - № 4. –С. 23-26.
3. Кларин М.В. Инновации в мировой педагогике обучение на основе исследований, игр, дискуссий. –Рига: НПЦ«Эксперимент», 1995. –176 с.
4. Зарипов Л.Р. Инновацион ёндашув асосида 5-7-синф ўқувчиларида технологик компетенцияларни шакллантириш методикаси. Дис. ... п.ф.ф.д. (PhD) – Т.: 2020. - 141 б.

ПРОФЕССИОНАЛ ТАЪЛИМДА УЗВИЙЛИК ВА УЗЛУКСИЗЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИ МАЗМУНИ

Ғ.Абдуқодиров - Низомий номидаги Тошкент Давлат Педагогика Университетининг “Профессional таълими методикаси” кафедраси ” кафедраси катта ўқитувчиси.

Ю.Жўраев - Низомий номидаги Тошкент Давлат Педагогика Университетининг “Профессional таълими методикаси” кафедраси катта ўқитувчиси.

АННОТАЦИЯ

Таълимда фан ва ишлаб чиқариш, давлат ва жамият билан ўзаро мавжуд боғлиқ томонлари ёритиб берилган. Давлат ва жамият дастури бўйича ишлаб чиқаришни кадрларга бўлган эҳтиёжини, унинг сифатига талабларни белгиловчи буюртмачилар билан амалга оширилаётган ишлар. Таълим ва тарбия жамият тараққиётини таъминловчи муҳим тамойиллари.

АННОТАЦИЯ

Раскрыты вопросы взаимосвязи системы профессионального непрерывного образования науки, производства и общества. Даются выводы проводимой работы по разработке предъявляемых требований к специалистам исходя из необходимых условий в свете Национальной программы по подготовке кадров и заказчиков. Основные принципы обучения и воспитания в условиях развития общества.

SAMMARY

Disclosed with the relationship of continuous education of science production and society .Given the findings of ongoing work on the development of a claim against a specialist on the basis of the conditions necessary in the light of the national program for training and education in terms of social development.

Таълимда фан ва ишлаб чиқариш, давлат ва жамият билан ўзаро боғлиқ. Таълим жамият тараққиётини таъминловчи муҳим омилдир.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Профессional таълим тизимини янада такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар” тўғрисида 2019-йил 6-сентябрдаги ПҚ 5812-сон қарори ижросини таъминлаш, профессионал таълим тизимини илғор хорижий тажрибалар асосида малакали ва рақобатбардош кадрлар тайёрлаш ҳамда мазкур жараёнга иш берувчиларни кенг жалб қилиш мақсадида таълим бериш соҳасида бир қатор ишлар олиб борилмоқда.

Мана шу борада Юртбошимиз профессионал таълим тизими соҳасидаги ислохотларни янада жадаллаштириш бўйича устувор вазифаларга бағишлаб ўтказган йиғилишида профессионал таълим соҳаси учун мутахассислар тайёрлаш тизимини бугунги кун талабига бутунлай янгича асосда ташкил этиш, меҳнат муҳофазасини кучайтириш, яхши натижадор бўлишини таъкидлаган эди [1]. Профессional таълим тизимида ўрта бўғин мутахассислари ва ишчи касблар классификаторини жорий қилиш ҳамда унга мувофиқ кадрлар тайёрлаш вазифаси қўйилди ва таълим дастурларини юқори технологиялар ва инновацион ёндашувлар асосида янгидан ишлаб чиқиш, бўлажак кадрларни замонавий лойиҳалаш ва дастурий таъминот, хусусан, BIM (Building Information Modeling) технологиялари

билан ишлашга ўргатиш, профессионал таълим соҳасида ёшларга чуқур билимлар бериш, мазкур соҳада фаолият олиб борадиган олий ўқув юртларининг асосий вазибаларидан бири ҳисобланишини таъкидлади. Бугунги кундаги профессионал таълим тизимида таълим олган талабалар инновацион технологияларидан фойдаланишни билладиган, ўз касбини ситқидилдан севадиган, эркин фикрловчи, фаъол, миллий архитектурани сақлаб қола оладиган ва бойитадиган, ватан тақдири учун масъулиятни ҳис этадиган шахс, ижтимоий ва маданий шароитларда ўзини интилувчан ватанпарвар инсон бўлишини тақазо этишини талаб этади. Таълим мазмунини ташкил этиш илмийлик, фаоллик, тушунарлик, таълим ва тарбиянинг бирлиги, кўргазмалилик ва мунтазамлик, узвийлик, изчиллик каби дидактик тамойилларлар асосида амалга оширилади. Ана шу тамойилларлардан бири таълим тизимида узвийлик бўлиб, у профессионал таълимни ташкил этишда етакчи тамойилларлардан ҳисобланади.

Профессионал таълимда узвийлик тамойиллари ўтилган ўқув материали билан келгусида ўтиладиган ўқув материали ўртасидаги мантикий боғланишни тақозо этади. Бу тамойилларнинг моҳиятига кўра ўтилган ўқув материали янги ўтилиши керак бўлган ўқув материали учун асос яратади. Бунда профессионал таълим тизимининг босқичлари ва курсларида билимлар мантикий жиҳатдан бир-бирини тўлдириб бориши, ўқув предметлари мазмуни узвийлик ва узлуксизликни таъминлашга қаратилиши, ўқув материалларининг баёнида маълум кетма-кетлик, яхлит тизим бўлиши ҳамда мавзуларнинг бир-бирига мантиқан боғлиқлиги, уларнинг кетма-кетлиги таълим мавзуларининг юқори босқичларда чуқурлаштирилган, кенгайтирилган ҳолда берилиши ҳисобга олинади.

Узлуксиз таълим тизимида узвийлашган фан дастурларининг мавжуд бўлиши ва уни ўқув жараёнига жорий қилинганлиги катта аҳамиятга эга.

Демак, узлуксиз таълим тизимида методик таъминотни: Давлат таълим стандартлари, ўқув режалари ва ўқув дастурларининг аҳамияти, таълим сифатини оширишда, узлуксиз таълимни такомиллаштиришда узвийлашган дастурларнинг яратилиши ва изчиллик билан амалиётга татбиқ этилиши муҳим аҳамият касб этади.

Профессионал таълим самарадорлигини оширишнинг асосий йўналишларидан бири таълим турлари узлуксизлигини такомиллаштириш ва фанлараро узвийликни таъминлашдир. Олий таълим босқичлари ўртасидаги узвийликнинг таъминланиши – таълимнинг кейинги босқичи мазмуни аввалги босқичдаги мазмунни бевосита давом эттирибгина қолмай, балки мазмун жиҳатдан узвий боғланган тарзда, айрим фанларни кенгайтирилган ва чуқурлаштирилган ҳолда такомиллаштириши ва бойитишида ҳамда фанлараро узвийликнинг таъминланиши асосида ноўрин тақдорланишларга чек қўйишида ўз ифодасини топади.

Олий таълим тизимида меҳнат бозорида ўз ўрнини топадиган юқори малакали мутахассислар тайёрлаш сифатини кўп жиҳатдан умумкасбий, профессионал ва махсус фанларни юқори даражада ўқитиш белгилайди.

Умумкасбий фанлар фундамента фанлар ҳисобланиб, умумтаълим фанлар негизида ўқитилади ва махсус фанлар йўналишидаги билимларни кенгайтиради, чуқурлаштиради ҳамда шу махсус фанни ўргатиш учун асос яратади. Махсус фанларни ўқитиш амалий билим кучли ва ишлаб чиқаришга боғлиқ билимлар билан боғланган бўлганлиги, ўзлаштирилган назарий-амалий билимлари асосида ишлаб чиқариш муаммоларини ҳал қилишга йўналганлиги сабабли ўзига хосликни намоён этиб, ўқув мақсадларини белгилашда ҳам ўзига хосликни талаб этади.

Ёшларни (талабалар)ни ,касб-ҳунарга йўналтиришда махсус ва профессионал таълим фанлари бутунлигича (мазмун ва билими даражаси бўйича) шу касб хусусиятига мос тушиши, фаолият турлари тўлиқ ёритилиши керак.

Умумкасбий ,профессионал ва махсус фанлардан таълим мазмунини белгилашни, ўқув жараёнини ташкил этишни ўқитишнинг методик тавсия ва талаблари асосида амалга оширилади.

Профессионал таълимда фан дастурларидаги мавзуларнинг мазмуни ва тузилиши ўқув материалларининг мантикий кетма-кет қўйилишини, ўқитиш методларини, дидактик қўлланмалар характерини белгилайди. Ўқитиш методлари унинг элементлари ва улар орасидаги боғлиқликларни ўрганишда унга тизимли ёндашиш зарурлигини ҳам эътиборга олиш мақсадга мувофиқдир.

профессионал таълим тизимида қандай фанларни билиши, нималарни қила олиши, инновацион технологиялардан фойдаланиши учун ундан катта ирода ва тасаввур талаб қилишини талабаларга етказа олишимиз зарур ва тайёрлаган кадрларимиз ўз соҳасида инновацион технологиялардан фойдаланишни тўғри тадбиқ этувчи, профессионал даражада янгиликлар яратишда устувор тамойилларини шакллантиришга асос бўлиб хизмат қилишади. “Улуғ аждодларимиз томонидан яратилган ва бугунги кунда бутун маърифатли дунёни ҳайратга солиб келаётган илмий мерос фақат бир миллат ёки халқнинг эмас, балки бутун инсониятнинг маънавий мулки бўлиб, бу бебаҳо бойлик янги ва янги авлодлар учун донишмандлик ва билим манбаи, энг муҳими, янги кашфиётлар учун мустақкам замин бўлиб хизмат қилиши шубҳасиздир.” [3] деган эди президентимиз Шавкат Мирзиёев.Таълим тизимида узвийлашган фан дастурларининг қўлланилиши авваламбор ноўрин такрорланишларга барҳам беради, талабаларга бериладиган билим, кўникма ва малакаларни тизимлаштирилиб, уларнинг билимларидаги бўшлиқларни тўлдиришда ҳамда таълим сифати ва самарадорлигини оширишда муҳим аҳамиятга эга бўлади.

Ана шундай муҳим ишларни амалга оширишда олий таълим тизимида узвийлик ва узлуксизликни янада такомиллашувига хизмат қилувчи янги услубий шакл, восита ва тажрибаларни кенгроқ жалб қилиш мақсадга мувофиқдир.

Фойдаланган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 11 ноябрдаги “Ўзбекистоннинг янги тараққиёт даврида таълим-тарбия ва илм-фан соҳаларини ривожлантириш чора тадбирлари тўғрисида” ги 6108-сон Фармони

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 2020 йил 7 январь куни “Қурилиш соҳасидаги ислохотларни янада жадаллаштириш” Халқ сўзи газетаси 8 январ кунидаги 7-сони.

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги йиғилишидаги Ўзбекистонда ислом маданияти марказини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида номли”Тошкент шахри, 2017 йил 23 июнь маърузасидан. Маърифат газетаси, 2017 йил 24-июн, №50 (9011).

ТЕХНОЛОГИЯ ДАРСЛАРИ ВА ТУГАРАК МАШҒУЛОТЛАРИДА ХАЛҚ ХУНАРМАНДЧИЛИГИ

**Л.Р.Зарипов, педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
С.Э.Зарипова, Тошкент давлат педагогика университети магистранти**

***Аннотация:** Ушбу мақолада умумий ўрта таълим мактаби ўқувчиларида миллий хунармандчиликни креатив ёндашув асосида ўрганишининг педагогик-психологик имкониятлари ишлаб чиқилган.*

***Калит сўзлар:** Миллий хунармандчилик, амалий ва бадий безак санъати, Технология таълими, креативлик, креативлик сифатлари, креатив фикрлаш, ахборот технологиялари, компьютер соводхонлиги, ахборот муҳити.*

***Аннотация:** В данной статье разработаны педагогические-психологические возможности изучения национального ремесленничества учениками средних общеобразовательных школ на основе креативного подхода .*

***Ключевые слова:** Национальное ремесленничество, прикладное и художественное искусства, Технологическое обучение, креативность, креативные качества, креативное мышление, информационные технологии, компьютерная грамотность, информационная среда.*

Қадимдан халқимиз ўзининг миллий санъати ва хунармандчилиги билан жаҳонда машҳур бўлиб келган. Бироқ кейинчалик халқ хунарманчилигини ўрганиш ишларига етарли эътибор берилмай қуйди. Натижада ўқувчиларда миллий узликни англаш, маънавий кадриятлар, халқ амалий санъати ва хунармандчилигини тушуниш, кадрлаш ва ярата олиш хислари йўқолиб борди.

Республикаимиз мустақилликка эришгандан сўнг, халқ амалий санъати ва хунармандчилигига алоҳида эътибор бериб келмоқда.

Хозирги кунда мактабларда хусусан технология дарслари машғулотларида, тугаракларда устоз ва шогирд анъаналари тикланиб давом этмоқда.

Кузатишларимиздан шу нарса маълум бўлдики, кўпгина ўқувчилар наққошлик, ёғоч ва ганч уймакорлиги, мисгарлик каби халқ амалий санъати ва хунарманчилигига хайрихоҳдир. Шунинг учун улар дарсларда амалий ҳаракатларни бажаришига ошиқади. Ана шуларни эътиборга олган ҳолда мактабнинг технология тўғарагида миллий амалий санъати ва халқ хунармандчилиги соҳалари ўргатилса мақсадга мувофиқ бўларди.

Технология дарслари ва тугарак машғулотларида халқ хунармандчилигига оид ишларни ташкил этишда ва ўтказишда қуйидагиларга эътибор бериш лозим.

1. Ўқувчиларнинг халқ хунармандчилигини қайси соҳасига қизиқишини аниқлаш.

2. Амалий машғулот учун шароит яратиш, керакли хомашё, асбоб ускуна ва адабиётлар билан таъминлаш.

3. Тугарак машғулотларида ўқувчиларга халқ хунармандчилигига оид назарий маълумотларни бериб бориш.

4. Машғулотлар давомида устоз ва шогирд муносабатлари, муомала маданиятини сингдириб бориш.

5. Амалий ишларда буюмларни кўпроқ нусхада тайёрлашга имконият яратиш. Бунда мактабга тайёрланган ишлар келгуси синф ўқувчиларида қизиқиш уйғотиш, мактаб билан алоқни вужудга келтириш, сотув учун тайёрлаган намуналар моддий манфатдорликни яратишга олиб келади.

6. Тўғарак аъзолари тайёрлаган жува, сандикча, эшик дераза, сури, турли хил нарсалар қўйиш учун тагликлар ва шунга ўхшаш хунармандчилик буюмларини сотишни йўлга қўйиш.

7. Савдодан тушган даромадни тақсимлаш ва синфлашни ўргатиб бориш.

Ўқувчилар технология дарсларида олган билим, кўникма ва малакаларини дарсдан сунг тўғарак машғулотларида қўллайдилар. Улар тўғарак машғулотларида эркин ижод қиладилар. Турли хил буюмлар тайёрлашга интиладилар.

Маълумки, тўғарак машғулотларида амалий ишлар умумлашган (комбинациялашган) ҳолатда бўлади.

Мисол тариқасида телефон аппаратини қўйиш учун таглик тайёрлаш ишини олайлик. Телефон аппаратини тайёрлашда кам меҳнат, материални тежаб ишлатиш, нафис ва гўзаллик яратишга эришиш талаб этилади. У уч босқичда амалга оширилади.

1. Буюм тайёрлаш шартини таҳлил қилиш.

Маълумки, телефон узоғимизни яқин, оғиримизни енгил қилувчи муҳим алоқа ва сўзлашув воситаларидан биридир. Телефон аппаратларидан қулайроқ фойдаланиш мақсадида тагликлар ишлатилади.

Ўқувчиларга икки уч кўринишдаги тагликларнинг ўзи ёки тасвири, чизмаси кўрсатилади.

Шартга кўра, ўқувчилар ижодий ёндашиб ишга киришади.

2. Тагликни лойиҳалаш, таглик қисмларининг ўлчамларини аниқлаш ва уларни ўзаро муносиблаштириш.

3. Тагликни тайёрлаш.

Ўқувчилар ишни таҳлил қилиб, режалаб бўлгандан сўнг буюмни тайёрлашга киришадилар. Бу жараён ҳам ўз навбатида бир неча босқичларга бўлинади.

1. Таглик қисмлари учун материал тайёрлаш.

2. Керакли асбоб ускуна ва станокларни ишга созлаш.

3. Дастаки ва электр асбобларида(станокларида) механик ишлов бериш.

4. Таглик қисмларини йиғиш ва пардозлаш, бадий ишлов бериш (гул, чизиш,

куйдириш, нақш солиш ёки ўйиш ва ҳакозо)

5. Тагликни синаб кўриш.

6. Ишлатилган материални сарфини ҳисоблаш.

7. Буюм нарҳини аниқлаш ва унга баҳо қўйиб сотувга чиқариш. Телефон апаратыга таглик тайёрлаш учун ўқувчи бир қанча билимларга, амалий ҳаракат малакаларига таянади. Режалашда эллипс, айлана компьютерда чизмаларини намойиш этиш, чизиш туғри бурчак, марказни аниқлаш ишларини билиши лозим.

Ижодий ёндашиб, таглик бир қанча, қўшимча вазифаларни бажаришга мослаштирилади, тагликда дафтар, китоб, ручка қўйиш учун тоқча; устбош, кийим, қўл сочиғи илиш учун илгич; киши кайфиятини кўтариш учун гулдон жойлаштирилади

Қисмларни йиғишда турли бирикма, ҳар хил бириктириш ва маҳкамлаш буюмларидан, буюмдаги камчиликларни бартараф этиш, қулайликларни кенгайтириш ва бошқа ўзгартиришларни амалга ошириш харидорлар талаблари асосида ўрганиб чиқилади. Бозорни ўрганиш ишлари олиб борилади.

Ўқувчиларга тўғарак машғулотларида халқ амалий санъати ва ҳунармандчилиги соҳаси ўргатилганда қуйидаги педагогик хусусиятлар ва тарбия тизими амалга оширилиши мумкин.

- техникавий дунёқарашни кенгайтириш;
- политехник таълимини чуқурлаштириш;
- ижодкорлик, ташаббускорлик хислатларини ривожлантириш;
- меҳнатсеварлик ҳиссини тарбиялаш;
- тадбиркорлик ва ишбилармонлик ишларини ўргатиш;
- маданий меросга муҳаббат уйғотиш;
- ўзгалар меҳнатини ҳурмат қилишга одатлантиш;

Халқимизга мерос бўлиб қолган нодир санъат ва ҳунармандчилик ишлари ўқувчиларимизни умуминсоний фазилатларини ўзида мужассамлаштирган баркамол инсон бўлиб шаклланишида сезиларли ўринни эгаллайди.

Адабиёт

1. Абдуллев У. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар. - Т.: Янги аср авлоди, 2005. -Б. 214-215.
2. Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. -Тошкент: Меҳнат, 1991. -Б. 9
3. Гончарова П.А. Бухоро Зардўзлик санъати. -Тошкент: Ўзбекистон, 1986. -121 б.
4. Гюль Э. Жойнамоздаги рамзлар. // Халқ талими. –Тошкент. -1993. -5-сон. - Б.23.
5. Жаббаров И. Ўзбеклар: турмуш тарзи ва маданияти. Монография. -Тошкент: Ўқитувчи, 2004. –Б. 13.
6. Йўлдошев Ж. Ф. Таълимга инновацион ёндашув. // Халқ талими. – Тошкент. - 2014. -3-сон. - Б.14.
7. Karimov I. Mehnat ta'limida o'quvchilar ijodkorlik faoliyatini tashkil etishning uyg'unlashgan texnologiyalari: Monografiya, uslubiy yo'nalish. –Т.: “Adabiyot uchqunlari”, 2015. – В. 66
8. Қўйсинов О.А., Шарипов Ш.С., Арипов М., Бегимқулов У. ва.б. Билим

- олишнинг интеллектуал тизимини ишлаб чиқиш назарияси ва амалиёти.
Монография. Т.: “Фан”, 2011. -14 б.
9. Шомирзаев М.Х. Ўзбек миллий хунармандчилигида инновацион жараёнлар.
Ўқув-услубий қўлланма. -Т.: “Yangi nashr”, 2017. -48 б.
10. Алан Дж. Роу. Креативное мышление / Алан Дж. Роу; пер. с англ.
Островской В.А. - М.: НТ Пресс, 2007. - 176 с.
11. Zargarov A., Toychiev R., Khusanov U. Teaching technology in general secondary schools on the “stem” educational approach. «Экономика и социум». № 1(80) 2021, стр. 107-115.

БЎЛАЖАК “ТЕХНОЛОГИЯ” ФАНИ ЎҚИТУВЧИСИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИ

Хайдаров Рамазон Мамаюсупович

Термиз давлат университети Технологик таълим кафедраси ўқитувчиси

E-mail: haydarov_ramazon@mail.ru

Аннотация: Ушбу мақолада технологик таълими ўқитувчиларини олий таълим муассасасида тайёрлаш давридан талаб қилинадиган касбий компетентлик даражасини таъминлашга қаратилган

Калит сўзлар: компетентлик, коммуникатив компетентлик, гностик, ўқув-методик, креатив, коммуникатив-ташқиллий.

Аннотация: Данная статья направлена на обеспечение уровня профессиональной компетентности, необходимого на период подготовки учителей технологического образования в высшей школе.

Ключевые слова: компетентность, коммуникативная компетентность, гностик, учебно-методический, творческий, коммуникативно-организационный.

Resume: This article is aimed at ensuring the level of professional competence required for the period of training technology education teachers in higher education.

Key words: competence, communicative competence, gnostic, educational-methodical, creative, communicative-organizational.

Таълим жараёнини такомиллаштиришнинг муҳим омили олий таълим тизимида технологик таълими ўқитувчилари касбий компетентлигини юқори даражада шакллантирилиши билан узвий боғлиқ. Шу сабабли, замонавий таълим технологиялари имкониятларидан ҳамда яратилаётган ўқув услубий мажмуалардан унумли фойдаланиш негизида технологик таълими ўқитувчилари касбий компетентлигини шакллантириш жараёнининг назарий ҳамда амалий асосларини яратиш долзарб вазифалардан бири эканлигини белгилайди.

Шу муносабат билан технологик таълими ўқитувчиларини олий таълим муассасасида тайёрлаш давридан талаб қилинадиган касбий компетентлик даражасини таъминлайдиган янгича ёндашувларни илмий асослаш долзарб вазифа бўлиб келмоқда.

Мутахассисларни касбий жихатдан тайёрлаш борасида хорижий мамлакатларда амалда бўлган таълим мазмунини бевосита ўрганиши шуни кўрсатдики, Фарб мамлакатларида асосий ўринни мутахассиснинг компетентлик малака даражаси эгаллайди. Республикаимизнинг миллий таълим тизими моҳиятига

кура таълим мазмунининг минимал талаблари билим, кўникма ва малакага асосланади.

Агарда «компетент» ва «компетентлик» тушунчаларининг этимологик тахлилига назар ташласак, улар тасодифан юзага келмаганлигини англаш мумкин.

Компетентлик талаба томонидан алохида билим ва малакаларни эгалланишини эмас, балки ҳар бир мустақил йўналиш бўйича интегратив билимлар ва ҳаракатларнинг ўзлаштирилишини назарда тутди.[1]

Битирувчиларнинг касбий тайёргарлиги даражасига қуйилувчи талаблар нуқтаи назаридан компетентлик талабаларнинг муайян вазиятларда билим, малака ва фаолият усуллари тўпламини мақсадга мувофиқ қўллаш қобилиятини англатади.

Компетентлик - бу талабанинг шахсий ва ижтимоий аҳамиятга эга касбий фаолиятни амалга оширилиши учун зарур бўлган билим, кўникма ва малакаларнинг эгалланиши ҳамда уларни касбий фаолиятда қўллаш олиши билан ифодланади. Мазкур ўринда «компетентлик» тушунчасининг моҳияти ҳам тўла очилади, у қуйидаги икки кўринишда намоён бўлади: компетентлик талабаларнинг шахсий сифатлари тўплами ҳамда касбий соҳанинг таянч талаблари сифатида.[1]

Таълим мазмунининг ўқув режадаги фанлар блоклари (барча фанлар учун), фанлараро (фанлар тўплами учун) ва предметли (маълум бир фан учун) тарзда гуруҳланганлиги боис қуйидаги уч даражани намоён этувчи компетентликни эътироф этиб ўтаемиз:

- **таянч компетентлик** (таълимнинг гуманитар, ижтимоий- иқтисодий мазмунига кура);

- **фанлараро компетентлик** (умумкасбий тайёргарликнинг ўқув фанлари ва таълим блокларининг маълум доирлигига кура);

- **битта предмет(фан) бўйича компетентлиги** (махсус ўқув фани доирасида аниқ ва маълум имкониятга эгаллигига кўра).

Шундай қилиб, таянч компетентлик олий педагогик таълимнинг ҳар бир босқичи учун таълим блоклари ва ўқув фанлари даражасида аниқланади. Таянч компетентлик тартибини белгилашда касбий педагогик таълимнинг асосий мақсадларига мувофиқ ижтимоий ва шахсий тажрибанинг моҳияти, ижтимоий жамиятда касбий фаолиятни ташкил этиш жараёнида ҳаётий кўникмаларни эгаллашга имкон берувчи асосий турлар муҳим аҳамият касб этади. Ушбу нуқтаи назардан улар қуйидаги компетентлик турларига булинади:

Яхлит-мазмунли компетентлик. Бу талабанинг кадриятли йўналишлари билан боғлиқ, унинг ижтимоий борлиқни ҳис эта билиши ва тушуниш қобилияти, мустақил ҳаёт йўлини топа олиши, ўзининг ижтимоий жамиятдаги роли ва ўрнини англаб етиши, ҳаракатларни ташкил этишда аниқ мақсадни белгилаш ҳамда қарор қабул қилиш малакаси, дунёқараши билан боғлиқ компетентлик, у талаба учун ўқув ва бошқа вазиятларда ўзини аниқлаш механизмини таъминлайди. Талабанинг индивидуал таълим йўналиши ва унинг ҳаётий фаолиятининг умумий дастури ана шу компетент- ликка боғлиқ.

Ижтимоий-маданий компетентлик. Талаба чуқур ўзлаштириши зарур бўлган билим ва фаолият тажрибасининг доираси бўлиб, миллий ва умуминсоний маданиятлар хусусиятлари, инсон ва инсоният ҳаётининг маънавий-ахлоқий асослари, оилавий ва ижтимоий анъаналарнинг маданий асослари, инсон ҳаётида фан ва диннинг роли, уларнинг моддий борлиққа таъсири, турмуш ва дам олиш борасидаги билимлар, масалан, бўш вақтни самарали ташкил этиш усулларини билиши.

Ўқув-билиш компетентлиги, бу талабанинг ўрганилаётган аниқ объектлар билан боғлиқ мантикий, методологик ва ижтимоий фаолияти элементларидан иборат бўлган мустақил фикрлаш компетентликларининг тўплами бўлиб, унга мақсадни кўра билиш, фаолиятни режалаштириш, унинг мазмунини таҳлил қилиш, рефлексия, фаолиятга шахсий баҳо бериш борасидаги билим ва малакалар киради. Ўрганилаётган объектларга нисбатан талабаларни креатив кўникмалари, яъни билимларни бевосита борликдан олиш, ностандарт вазиятларда муаммони ҳал этишнинг ҳаракат усуллари ва эвристик методларини эгаллайди.

Ахборот олиш компетентлиги. Аудио-видео кўрсатув воситалари ва ахборот технологиялари ёрдамида мустақил изланиш, таҳдил қилиш ва зарур ахборотларни танлаб олиш, уларни ўзгартириш, сақлаш ва узатиш маҳорати шакллантирилади. Ушбу компетентлик талабанинг ўқув фанлари асосларини муҳим ахборотлар асосида ўзлаштиришини таъминлайди.

Коммуникатив компетентлик. Таълим олувчилар билан ўзаро муносабатлар, уларнинг усуллари, мулоқот жараёнида устувор ўрин тутувчи тилни ўзлаштириш, гуруҳларда ишлаш кўникмалари, жамоада турли хил маънавий-маърифий тадбирларни ташкил қилиш ва утказишни билишни ўз ичига олади.

Ижтимоий-фаолиятли компетентлик фуқаролик (фуқаро, кузатувчи, сайловчи, вакил вазифасини бажарувчи), ижтимоий- меҳнат соҳаси (истеъмолчи, харидор, миждоз, ишлаб чиқарувчи ҳуқуқлари), оилавий муносабатлар ва мажбуриятлар, иқтисод ва ҳуқуқ масалалари, касбий, шунингдек, шахсий мавқеини аниқлаш борасидаги билим ва тажрибаларни эгаллаш(хусусан, меҳнат бозоридаги мавжуд вазиятни таҳлил қилиш, шахсий ва ижтимоий манфаатларни кўзлаб, ҳаракат қилиш маҳорати, меҳнат ҳамда фуқаролик муносабатларининг одобини билиш)ни англатади.

Амалий фаолиятга оид компетентликда бир ҳаракат ҳолатидан иккинчи ҳаракат ҳолатига кўчира олиш, ҳаракат ва амалларни янги вазиятларда қўллай олиш, янги ахборотлар ичида тез йўналиш олиш кўникмалари тушунилади.

Мутахассисни тайёрлашнинг бўлажак касбни эгаллаш бўйича ўқув ва билиш фаолиятини ўз ичига оладиган меъёрий моделини кўриб чиқиш мақсадга мувофиқдир. У олий таълим муассасаси битирувчиси тегишли йўналиш ва тайёргарлик даражасининг малакавий характеристикасида ифодаланган ва илмий асосланган билим, кўникма ва малакалар шахснинг касбий муҳим хислатлари таркибини акс эттиради.

Жумладан, Технологик таълими таълим йўналиши бўйича ўқитувчи малакасини олган олий таълим муассасаси битирувчиси: давлат таълим стандартлари талабларига мувофиқ равишда педагогик фаолият олиб боришга тайёр бўлиши, юқори назарий ва амалий тайёргарлик даражасини таъминлайдиган замонавий ўқитиш технологияларидан фойдаланиши, таълим дастурларини ишлаб чиқишда иштирок этиши, уларни ўқув режаси ва ўқув жараёнига мувофиқ равишда тула ҳажмда амалга оширилиши учун масъул бўлиши, таълим олувчиларнинг билим, кўникма ва малакаларини назорат этишни ташкил этиши, олинган билимларни амалий фаолиятда қуллашга уларни тайёрлаши ва таълим олувчиларнинг мустақил ишларини назорат қилиши, аниқ ўқув фани ўқув-методик жиҳозланишининг базасини яратиши; таълим муассасасининг илмий-методик фаолиятида иштирок этиши, синф раҳбари вазифасини бажариши, таълим олувчилар билан тарбиявий ишни ташкил этиши ва ўтказиши, ўқув режалари ва дастурларининг бажарилишини таъминлаши, таълим интизомини таъминлаши, таълим олувчиларнинг ҳуқуқлари ва эркинликларига риоя этиши, ўз касбий

малакасини ошириши лозим.

Мутахассиснинг малакавий тавсифида, таълим йўналиши бўйича бакалаврларни тайёрлаш мазмуни асосан бўлажак ўқитувчи билимининг фаолиятли-ижодий аспекти билан ифодаланган ва у ўрта махсус касб-хунар таълимининг касбий вазифаларини яхлит ҳал этиш тажрибасини назарда тутди.

Касбий компетентлилик мутахассис фаолиятини ва унинг ички тузилиши муҳим характеристикаларини акс эттиришга таянади деб тушунишга асосланган ҳолда, касбий компетентлилик структурасини унинг асосий компонентларини тавсифлаш нуқтаи назаридан ойдинлаштириш мумкин.

Педагогик фаолиятга нисбатан унинг компонентларини педагог фаолиятининг нисбатан мустақил функционал турлари сифатида ажратиш ёндашуви устун туради.

Масаланинг бундай қўйилиши воситалар, методларга ва талабада фаолиятнинг маълум турини тарбиялашни амалга ошираётган ўқитувчининг билимларига ҳам бошқача ёндашувни талаб этади. Фаолиятли ёндашувнинг амалга оширилишига Б.Джураеванинг фикри кўп даражада мос келади: у ўқитувчи фаолиятининг ушбу турларини ажратади: гностик, ўқув-методик, креатив, коммуникатив-ташкилий. Педагогик фаолиятнинг структуравий элементлари сифатида қуйидагилар келади:

Мазкур фан учун хос бўлган билимлар таркибини мутахассис касбий фаолиятининг типик масалалари структурасига интеграциялаш. Ўқув фанини ўқитиш мақсадларини ишлаб чиқиш ва таснифлаш.

Фаннинг ўқув-методик мазмунини танлаш ва ўқитиш дастурини талабаларнинг билиш фаолиятлари элементлари бўйича ёйиш.

Креатив фаолият - барча ажратилган мавзулар бўйича ўқув дастурига мувофиқ равишда ўқув-методик таъминотни ишлаб чиқиш.

Талаба ва ўқитувчи ўзаро ишлашининг коммуникатив- ташкилий аспектларини талабаларнинг ўзича бошқариладиган иши жараёнида ишлаб чиқиш. Туғриловчи назоратни ташкил этиш.

Фаолиятнинг конструктив ва лойиҳалаш компонентлари муаллиф томонидан гностик элемент таркибига киритилган. Бу билан бир вақтда ўқитувчи фаолиятининг креатив ва коммуникатив- ташкилий компонентларини мустақил компонентлар сифатида қараш таклиф этилади. Бундай ёндашувда эътибор талабаларнинг ўзича бошқариладиган ўқув фаолияти жараёнида ўқитувчи ва талабаларнинг ўзаро ишлашларини ташкил этиш заруратига қаратилган. Фаолиятнинг бу турлари касбий-йўналтирилган ўқитиш технологиясини лойиҳалаш, тузиш ва амалга оширишда ўқитувчи томонидан бутунлай ва тўла амалга оширилади .

Ўқитувчиларнинг касбий компетентлиги педагогик меҳнатнинг барча томонларида: касбий фаолиятда, кундалик муносабатларда, шахсият ривожланишида, меҳнатнинг мажмуий натижасида намоён бўлади ва унинг барча компонентлари шаклланганлигини талаб этади.

Шуни таъкидлаш керакки, олий таълим муассасалари ўқитувчисининг энг муҳим вазифаси талабаларнинг касбий компетентлиликларини барқарорлаштириш, тўлдириш ва узатиш механизмларини бошқариш имкониятларини босқичма-босқич тарбиялаш учун психолого-педагогик шароитларни яратишдан иборат [7]. Уларни амалга ошириш босқичлари қуйидагича: талабанинг фаолиятини ўқитувчи бошқариши; ўқитувчи ва талаба томонидан касбий компетентлилик иш механизмларининг биргаликда бошқарилиши; булажак мутахассиснинг касбий ўз-ўзини ривожлантиришини ўзи бошқариши.

Технологик таълим ўқитувчиларини касбий компетентлигини шакллантиришда талабаларнинг педагогик ҳамда ишлаб чиқариш муаммоли вазиятларида аниқ қарор қабул қила олиш қобилиятларини ривожлантириш, таълим йўналиши ўқув режасидаги фанлар бўйича ахборотлар олиш имкониятига эга бўлишлари учун фанлараро ўзаро алоқадорликка эришиш асосида муаммоли вазиятли топшириқларни ишлаб чиқиш уни тизимлаштириш, педагог кадрлар тайёрлаш тизими сифатини оширишда таълимнинг янги шаклларида фойдаланиш, фундаментал, хусусан, педагогик ва техник билимларни ўзлаштиришда фанлараро узвийлик ва узлуксизликни таъминлаш, педагогик фанларнинг гуманитар, ижтимоий-иқтисодий, математика ва табиий фанлар ҳамда умумкасбий ва мутахассислик фанлари билан ўзаро алоқаси кўп қиррали муаммо бўлганлиги сабабли назарий ва амалий жиҳатларини илмий асослашни тақозо этади.

Педагогик туркум фанлари ва умуммуҳандислик фанлари ўртасидаги ўзаро алоқадорлик ишлаб чиқариш йўналиши махсус технологиясининг санъат, маҳорат ва зукколик тарзида талқин этилади. Ўқув жараёнига ахборот технологияларини кенг кўламда татбиқ этиш шароитида «педагогик технология» тушунчасининг моҳияти узгармоқда. Мазкур тушунча дастлаб технологиянинг хусусиятларини ифода этишга хизмат қилган бўлса, ҳозирда педагогик технологияни мазмунан бойитиш кўп жиҳатдан унга муайян техник элементларни қушиш ҳисобига кечмоқда.

Таълим жараёнида компьютер воситаларини куллаш, компьютердан ўрганиш объекти сифатида фойдаланиш, педагогик технологияларни ахборотлаштириш жараёнининг энг янги восита ва объектлар билан ўзаро алоқада бўлиши боис техник имкониятлари ошиб боради. Ахборот технологиялари таълим мазмунини қайта шакллантиришга замин яратади.

Шундай қилиб, олий таълим муассасасида касбий фанларни ўқитиш амалиётида юқорида тавсифланган механизмлардан фойдаланиш касбий компетентлиликнинг шаклланишига, шунингдек, талабалар фаолиятининг касбий муҳим йўналганлигига ёрдам берадиган психолого-педагогик шароитларнинг яратилишига шароит яратиб беради.

Ҳозирги вақтда касбий компетентлиликни шакллантиришда бу вазифаларни ҳал этишга қодир бўлган касбий йўналтирилган ўқитиш технологиясига катта эътибор берилмоқда. Олий таълим муассасаларининг профессор-ўқитувчилар таркиби томонидан ишлаб чиқиляётган ва фойдаланиляётган ўқитиш технологиялари бўлажак мутахассис касбий компетентлигининг қарор топиши ва тарбиялаш таълим тизимининг таркибий қисми булиб, касбни эгаллашнинг касбий-аҳамиятли базасини дастлабки яратишга, касбий фаолиятни юқори даражада амалга ошириш учун назарий, амалий ва мотивацияли тайёргарликнинг ва қодирликнинг секин- аста шаклланишига ёрдам беради.

Фойдаланган адабиётлар рўйхати

- 1.Муслимов Н.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантириш. Монография. – Тошкент: Фан, 2004. – 128 б.
- 2.Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари. Пед. фан. докт. Дисс – Тошкент, 2007. – 45 б.
- 3.Муслимов Н.А., Қўйсинав О.А. Касб таълими ўқитувчиларини тайёрлашда мустақил таълимни ташкил этиш. Методик қўлланма. – Тошкент: ТДПУ, 2006. – 46 б.

4. Қўсинов О.А. Компетентли ёндашув асосида бўлажак ўқитувчи-ларнинг касбий-педагогик ижодкорлигини ривожлантириш технологияси. Пед. фан. док. дисс. – Т., 2019. – 218 б.
5. Шомирзаев М.Х. Мактаб технология таълимида миллий хунармандчиликнинг спектрал-вариатив компонентларини фанлараро такомиллаштириш. Педагогика фанлари бўйича докторлик (ДSc) дисс. - Тошкент, 2021. – 219 б.
6. Шомирзаев М.Х. Мактаб технология таълимида миллий хунар-мандчиликнинг спектрал - вариатив компонентларини фанлараро такомил-лаштириш. Монография. - Т.: Tafakkur, 2020. - 330 б.
7. Shomirzayev, M.Kh. (July, 2020). Technology of Educational Process in School Technology Education. The American Journal of Social Science And Education Innovations. Impact Factor 5.366 № 02. P. 212-223. (www.usajournalshub.com/index.php/tajssel).
8. Shomirzayev, M.Kh. (30 July, 2020). Developing Educational Technologies in School Technology Education. The American Journal of Social Science And Education Innovations, Impact Factor 5.26, P.II/VII 51–57. (www.usajournalshub.com/index.php/tajet)

TEKNOLOGIK TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARINING O'RNI

**Xursanboeva Irodaxon Maxammatalievna – Andijon pedagogika instituti
1-bosqich magistranti**

Anotatsiya: *Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan maqsadli foydalanish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lish ta'lim jarayonida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *Texnologik ta'lim, kompyuter grafikasi, dasturlar, roliklar, dizaynlar, multimedia texnologiyalari, Internet tarmog'i.*

Анотация: *Знания, умения и компетенции в области целевого использования информационных и коммуникационных технологий, используемых в образовании, являются ключевым фактором образовательного процесса.*

Ключевые слова: *Технологическое образование, компьютерная графика, программное обеспечение, видео, дизайн, мультимедийные технологии, Интернет.*

Annotation: *Knowledge, skills, and competencies in the field of targeted use of information and communication technologies used in education are key factors in the educational process.*

Key words: *Technology education, computer graphics, software, video, design, multimedia technologies, Internet.*

Texnologik ta'lim sifatini oshirish uchta eng asosiy tarmoqlarning birdek takomillashuviga bo'liq bo'lib, ular umumta'lim muassasalarining moddiy texnika bazasini rivojlantirish, uni o'quv metodik adabiyotlar bilan ta'minlash, o'quv jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni tadbiq etishdan iborat. Boshlang'ich

ta'limda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llashda o'qituvchining didaktik o'quv material, dars ishlanmalari kabilar kiradi.

Jahon miqyosida nazar soladigan bo'lsak kompyuter grafikasi va dizayn juda ham keng darajada rivojlangan. Ularni amalda anchadan buyon qo'llab kelishmoqda. Lekin bu yaratilayotgan barcha dasturlar, roliklar, dizaynlarning asosiy qismi kinofilmlar, multafilmlar, web-saytlar uchun yaratilmoqda. Maxsus saytlarda fanlarga mavzulashtirilgan multimediali darsliklarning kamligi, borlarini ham aniq bir fanni mavzularini to'la yoritib bera olmasligi ta'lim sohasiga yanada ko'proq e'tibor berish lozimligini e'tirof etadi. Lekin elektron darsliklar ichiga kiritilgan matnli yozuvlar, rasmlardan hozirda grafikaning eng zamonaviy yo'nalishi bo'lgan roliklarning yaratilishi saytlarga va shunga tegishli bo'lgan narsalarga qiziqishni oshiradi. To'g'ri bu sohada ko'p ishlar amalga oshirilgan. Darslarning multimedia imkoniyatlaridan foydalanib o'tilishi o'qituvchilarga bir qancha qulayliklar tug'diradi. Chunki, shu fanga mavzulashtirilgan ovozli dasturlar, rasmlar, harakatli yozuvlar (prezentatsiyalar), multiplikatsiya ko'rinishida yaratilgan filmlar, animatsiyalar bir tomondan o'qituvchi uchun yangillik bo'lsa, ikkinchi tomondan ta'lim oluvchilar uchun qiziqarli va diqqatini o'ziga jalb qiladi va mavzuni yaxshi o'zlashtirilishiga turtki bo'ladi.[1]

Multimedia texnologiyalarining afzalliklari va alohida xususiyatlarini sanab o'tamiz:

- turli xil ko'rinishdagi katta hajmdagi axborotlarni bitta diskda saqlash imkoniyati mavjud (bir necha bobli matnlarni, minglab yuqori sifatli tasvirlarni bir necha soatli film va roliklarni hamda tovushli axborotlarni);
- sifati saqlangan holda ekranda tasvirlarni qismlarga ajratish yoki ularni eng qiziq hamda kerakli qismlarini kattalashtirish imkoni mavjud;
- grafiklar, tasvir va rasmlarni qiyosiy tahlil qilish, ularning ko'rsatgichlarini hisoblash, ilmiy yoki o'rganish maqsadida dasturiy vositalar yordamida ishlov berish imkoniyati;
- tasvir yoki tasvirni yoritish maqsadida foydalanilgan matn hamda boshqa ko'rsatilayotgan axborotdan kalit so'zlarni yoki tasvirni kerakli qismini ma'lumot olish hamda tushuntirish uchun kerakli axborotni ajratib olish imkoniyatlari mavjud;
- statik yoki dinamik tasvirga monand uzluksiz musiqa hamda boshqa audio ta'minotini olib borish imkoniyati;
- «stop-kadr» (kadrlarni to'xtatish) ish tartibidan foydalanib videoyozuv lavhasidan foydalanish imkoniyati;
- global Internet tarmog'iga ulanish hamda uning resurslaridan foydalanish imkoniyati mavjud;
- grafik va tovush redaktorlari, kartografik axborot va matnlarga ishlov bera oladigan shaxsiy amaliy dasturlar bilan ishlash mumkin. [2]

Demak, bugungi kunda ta'lim-kommunikatsiya texnologiyalari zamonaviy kompyuter uskunalari, shuningdek dasturiy va uslubiy ta'minotdan foydalangan holda zamonaviy o'qitish texnologiyalarini ta'minlovchi dasturiy ta'minot sifatida faoliyat yuritayotganini ta'kidlash zarur. Ayni paytda mutlaqo har qanday o'qituvchi AKTni

o'qitishda muhim vosita sifatida foydalanib, ta'lim jarayonini yaxshilash uchun turli xil imkoniyatlarga ega.[3]

Yuqorida sanab o'tilgan afzallik va xususiyatlardan tashqari yana ko'pgina imkoniyatlar ham mavjud, jumladan, tasvirni yaxlit yoki bir qismini avtomatik ravishda ko'rish, tanlangan joyini saqlab qolish va belgilab qo'yishlardir.

Multimedia vositalari asosida o'qitish jarayonida aniq fanni kompyuter asosida to'liq o'qitish, ma'ruza matnlarini taxrirlash, o'quvchilar topshirgan nazorat natijalarining tahlili asosida ma'ruza matnlarini bayon qilish uslubini yaxshilash, o'quvchilar axborot texnologiyalarini multimedia vositalari asosida animatsiya elementlarini dars jarayonida ko'rishi, eshitishi va mulohaza qilish imkoniyatlariga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. L.N.Xamdamova Boshlang'ich sinflarda o'qitish sifatini oshirish. O'zbekiston ilmiy-amaliy tadqiqotlar mavzusidagi respublika 22-kop tarmoqli konferensiya to'plami. Toshkent 2020.
2. I.Aldashev "Of using information technologies in the educational process" International Journal of discourse on innovation, integration and education **Volume: 01 Issue: 04 | NOVEMBER 2020 ISSN: 2181-1067**
<http://summusjournals.uz/index.php/ijdiie>
3. Tursunov S.K. Ta'limda axborot resurslarini yaratish yo'llari va muammolari // Pyataya Mejdunarodnaya konferensiya "Obrazovaniye cherez vsyu jizn: nepreryvnoye obrazovaniye ustoychivogo razvitiya". – Tosh. II. – Sankt – Peterburg – Tashkent: 2007. – S. 90 – 92.

БЎЛАЖАК ТЕХНОЛОГИЯ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ КРЕАТИВЛИК СИФАТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Н.Н.Утаева

Т.Н.Қори Ниёзий номидаги Ўзбекистон Педагогика фанлари илмий тадқиқот институти таянч докторанти

***Аннотация:** Ушбу мақолада бўлажак технология фани ўқитувчиларининг креатив сифатларини ривожлантириши ёритиб берилган.*

***Таянч сўзлар:** креативлик, ижодий-фаолият, рефлексия, маҳсулот, метод, эвристик фаолият.*

***Аннотация:** В данной статье освещается развитие творческих качеств будущего учителя технологии.*

***Ключевые слова:** творчество, творческая деятельность, рефлексия, продукт, метод, эвристическая деятельность.*

***Annotation:** This article highlights the development of the creative qualities of a future technology teacher.*

***Key words:** creativity, creative activity, reflection, product, method, heuristic activity.*

Бўлажак Технология фани ўқитувчиларини креатив сифатларга эга бўлиши ўқув тарбия жараёнини ноанъанавий тарзда ташкил этишига ёрдам беради. Бўлғуси ўқитувчининг креатив сифатлари касбий фаолиятини ташкил этишда ижодий ёндашиши, илғор педагогик тажрибаларни ўзлаштириши, бирор муаммонинг ечими юзасидан янги ғояларни яратишдаги фаоллигида ақс этади.

Ўқитувчининг креативлик сифатларини ривожлантиришнинг мазмунини тўлиқ англаш учун аввало “креативлик” тушунчасига тўхталсак. Кен Робинсоннинг фикрига кўра, “креативлик – ўз қийматига эга оригинал ғоялар мажмуи” (Аззам, 2009 й.) саналади. Гарднер эса ўз тадқиқотларида “креативлик – шахс томонидан амалга ошириладиган амалий ҳаракат бўлиб, у ўзида муайян янгиликни ақс эттириши ва маълум амалий қийматга эга бўлиши лозим” деб изоҳлайди. Эмебайл (1989 й.)нинг қарашларида, креативлик “муайян соҳа бўйича ўзлаштирилган пухта билимлар билан бирга юқори даражада ноодатий кўникмаларга ҳам эга бўлиш”дир. Кўплаб тадқиқотларда интеллект ва креативлик ўртасидаги алоқадорлик хусусида турлича қарашлар мавжуд. Бир гуруҳ тадқиқотчилар улар ўртасида ҳеч қандай боғлиқлик йўқ эканлигини уқтирсалар, иккинчи гуруҳ вакиллари креативлик ва интеллект даражаси бир-бирига боғлиқ эканлигини таъкидлайдилар (Ким, 2005 й.).

Бўлажак ўқитувчиларнинг креативлик сифатларига эга бўлмаслиги натижасида таълим олувчилар томонидан ўқув фанларини ўрганишидаги қизиқиш, интилишлари ривожланишига тўсқинлик қилади.

Технология фани ўқитувчиларига хос креативлик сифатлари қуйидагилардир:

- ижодий йўналганлик;
- мантиқий фикрлаш қобилияти;
- билафонлик;
- бой тасаввурга эгалик;
- ижодий таъсирчанлик ва ташаббускорлик;
- ўз ижодкорлигини тўла тўқис намойиш этиш;
- рефлексия қобилияти;
- ҳиссиётга бойлик;
- таваккал қила олиш қобилияти;
- тафаккур тезлигига эгалик;
- ички сезгининг ривожланганлиги;
- оригинал ғояларни илгари сура олиш қобилияти;
- инновацион қобилиятга эгалик;
- юксак бадиий қадриятларга эгалик;

- мавжуд тажриба ва билимлар асосида янги қарорларни қабул қила олиш қобилияти.

Юқорида келтириб ўтилган креативлик сифатлари ўз-ўзидан ривожланмайди. Балки уларни бир қатор йўллар орқали ривожлантириш зарур. Яъни:

- креатив фикрлаш кўникмасини шакллантириш ҳисобланиб, асосий урғу креатив фикрлаш кўникмаларини шакллантиришга берилади. Бу жараёнда педагог турли, антиқа, ноанъанавий ҳамда пухта жавобни беришга мажбур қилувчи сўз (фёъл)лардан фойдаланади. Масалан: Бирон бир муаммоли топшириқ ечимини топиш юзасидан “боғлиқликни топинг”, “яратинг”, “башорат қилинг”, “фикрни мантиқан баён этинг”, “тасаввур қилинг” каби сўз (фёъл)лардан фойдаланиши зарур.

- амалий креатив ҳаракат кўникмаларини ривожлантириш – бунда ўқитувчи талабаларда креатив ҳаракат кўникмаларини шакллантириш ва ривожлантиришда кўрсатмали метод ва усуллардан фойдаланади.

- креатив фаолият жараёнларни ташкил этиш, бу жараёнда талабаларни муаммони ечиш ҳамда инновацион ғояларни илгари суриш жараёнида креатив, ижодий фикрлашга урғу берилди.

- креатив маҳсулот (ишланма)лардан фойдаланиш йўли орқали талабаларга креатив фикрлаш кўникмалари фаол ривожлантириш мумкин.

Хулоса қилиб айтганди, замонавий дунёда илмий кашфиёт ва ихтиролар тобора ортиб бориши билан креатив шахсларга бўлган эҳтиёж ҳам кучайиб бормоқда. Ўз навбатида бўлажак технология фани ўқитувчиларининг креативлик сифатларига эга бўлиши таълим олувчиларнинг билим сифатини ошишига олиб келади. Педагог креатив сифатларини ривожлантириб бориши учун креатив фикрлаш кўникмасини шакллантириши, амалий креатив кўникмаларини ривожлантириб бориши, фаолиятида креатив фаолиятини ташкил этиши, иш жараёнида креатив маҳсулотлардан фойдаланиши мақсадга мувофиқ.

Адабиётлар:

1. Усмонбоева М., Тўраев А. Креатив педагогика. – ТДПУ. 2017. 19-20 б.
2. Ильин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности.–СПб.: Питер, 2009. – 448 с.
3. Алимов Н., Тоғаев Х., Турматов Ж. Ўқувчиларни техник ижодкорлик фаолиятига раҳбарлик қилиш // Касб-хунар таълими. -Т.: 2004.-№ 3.–Б. 26-27.
4. Зоиров.К.А. Политехническое основы формирования конструкторско-технологических знаний и умений у будущих учителей труда с применением компьютерной техники: Дисс.канд.пед.наук.-Т.1994.-146 с.

BOSHLANG`ICH SINIF O`QUVCHILARINI KREATIV FIKRLASHGA O`RGATISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

I.O. Xodjaeva – Andijon davlat universiteti O`quv-uslubiy boshqarma nazoratchisi.

Маърузада бoshlang`ich sinf o`quvchilarini kreativ fikrlashga o`rgatishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari hamda metodikasi bayon qilingan.

Kalit so`zlar: kreativ fikrlash, innovatsion texnologiyalar, ijodiy rivojlantirish, interfaol usullar, ta`lim vositalari, interfaol faoliyat.

В докладе описаны возможности и методы использования инновационных технологий в обучении младших школьников креативному мышлению.

Ключевые слова: творческое мышление, инновационные технологии, творческое развитие, интерактивные методы, средства обучения, интерактивная деятельность.

The report describes the possibilities and methods of using innovative technologies in teaching creative thinking to younger readers schools.

Key words: creative thinking, innovative technologies, creative development, interactive methods, teaching aids, interactive activities.

Hozirgi davrda ta`lim sohasida eng muhim vazifalar eskirgan tamoyillar va bir qolipdagi o`qitish metodlaridan voz kechib, zamon talablariga javob beradiganyangi yo`nalishlarni izlashni taqozo etmoqda[1,2].

O`qitishning eng samarali yo`li - mashg`ulotlarda o`quvchilarning haqiqatni bilishga, kreativ fikrlashga, erkin muloqotga, hamkorlikka intilishidir. Darslarda bu ruh bo`lmasa, bunday mashg`ulotlar jonsiz, zerikarli va samarasiz bo`ladi.

Zamonaviy ta`limni tashkil etishga qo`yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o`quvchilarga yetkazib berish, ularda ma`lum faoliyat yuzasidan ko`nikma va malakalarni hosil qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko`nikma hamda malakalar darajasini baholash o`qituvchidan yuksak pedagogic mahorat hamda ta`lim jarayoniga nisbatan texnologik yondashuvni talab etadi.

Ta`lim jarayonida o`qituvchi o`quvchi shaxsiga mos metodlarni qo`llay olmasa, o`quvchi shaxsini o`zgartirish uchun sharoit yaratilmasa, uning tarbiyasida chekinish yuz beradi. Ayni paytda o`qituvchi oldida mas`uliyatli va mashaqqatli vazifa - o`quvchilarni erkin fikrlashga o`rgatish hamda ijodiy fikrlashni shakllantirish turibdi.

Ta`lim jarayonida amalga oshirilayotgan o`zgarishlar o`sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash, ularga ta`lim berish jarayonini sifat jihatidan takomillashtirishni talab qilmoqda. Ilmiy-texnik taraqqiyot jadallik bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda mehnat bozorida raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan kadrlar tayyorlash uchun o`quvchilarning ijodiy qobiliyatini o`stirish muhim ahamiyatga ega va rivojlangan mamlakatlar tajribasida isbotlangan.

O`zbekistonning to`la mustaqil bo`lishida fuqarolarning ruhiy va fikriy mustaqilligi muhim kasb etadi. Shuning uchun ham jamiyat a`zolarini, ayniqsa yoshlarni mustaqil

fikrlay olishga o'rgatish bugungi kunda o'ta dolzarb masala bo'lib turibti. Yoshlarni tashabbuskor kishilar sifatida tarbiyalash, ularni nostandart fikrlashga odatlantirishda ta'lim tizimi alohida o'rin tutadi.

Hozirgi paytda milliy pedagogikaning asosiy diqqati tarbiyalanuvchi shaxs ma'naviyatini kamol toptirishga, uning o'ziga xos tarzda fikrlaydigan, mustaqil xulosalarga kela oladigan, ijodkor, tashabbuskor, mas'uliyatni zimmasiga olishdan cho'chimaydigan faol inson qilib shakllantirishga qaratilgan.

Ta'limda innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo'llari izlanmoqda, ta'limda yangi axborot texnologiyalarni joriy etish masalasi ommalashmoqda. Bu esa o'qituvchilarning o'z mehnati faoliyatiga yangicha yondashuvini talab etadi. O'quv jarayonida yangi texnologiyalarning joriy etilishi, o'qituvchini texnikaviy vositalar tomonidan siqib chiqarilishiga emas, balki o'qituvchining vazifalari va rolini o'zgartiradi.

Zamonaviy o'qituvchi kelajak bunyodkori, yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, kontsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ'ibotchisidir. Zero o'qituvchi ta'lim islohotining bosh ijrochisidir. Bunda har bir o'qituvchini qisqa vaqt ichida juda katta miqdordagi axborot to'plamini o'zlashtirish, qayta ishlash va amalda qo'llay olishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Uni hal qilishda o'qituvchiga o'qitishning an'anaviy usullari bilan birga zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan, kompg'yuterlardan foydalanish yordam beradi.

Darsda kompyuterdan foydalanish o'qitish jarayonini qiziqarli olib borish, har bir o'quvchiga individual yondashish imkonini beradi. Ta'lim-tarbiya jarayonidagi innovatsiyalar, ilg'or pedagogik texnologiyalar, yangiliklar, dars o'tishning interfaol usullari o'z-o'zidan ta'limga kirib kelmaydi. Demak, o'qituvchidan bilim, ijodiy mehnat va kasb mahorati talab qilinadi. Chunki o'qituvchi faoliyati yangilan-masa ta'limda samaradorlikka erishib bo'lmaydi. O'qituvchi tomonidan bolalarni ijodiy izlanish, faollik, erkin fikr yuritishga yo'naltiruvchi ta'lim shakli, metod va vositalarining to'g'ri tanlanishi darslarning qiziqarli, bahs- munozaralarga boy bo'lishi, ijodiy tortishuvlarning yuzaga kelishiga turtki beradi. Mana shu holatdagina bolalar tashabbusni o'z qo'llariga oladilar, o'qituvchining zimmasida esa ularning faoliyatini ma'lum yo'nalishga solib yuborish, umumiy faoliyatni nazorat qilish, murakkab vaziyatlarda yo'l-yo'riq ko'rsatish, maslahatlar berish hamda ular faoliyatini baholash kabi vazifalar qoladi. Berilayotgan bilim oddiygina xotira yordamida emas balki, bolaning kreativ fikrlash sahy-harakatlari bilan egallangandagina mustahkamlanadi.

Kreativ fikrlash nima?

Kreativ fikrlash - bu innovacion (yangi, novator, original, nostandart, noodatiy va xokazo...) va samarali (amaliy, natijaviy, tejimli, optimal va xokazo) echimlarni topish, yangi bilimlarni e'gallash, tasavvurni ta'sirchan ifodalashga qaratilgan g'oyalarni ishlab chiqish, baholash va takomillashtirish jarayonida samarali ishtirok e'tish qobiliyatidir[6].

Kreativ fikrlash bizga muammolarni hal qilishda noodatiy echim topishga yordam beradi. Biroq biz uni tanqidiy fikrlash bilan adashtirib yubormasligimiz, aksincha bizga imkonsiz muammolarni hal qilishda bir-birini to'ldirib turuvchi echimlarni topishda

yordam beradigan “aka-ukalar”dek qarashimiz kerak. Kreativ fikrlashning ushbu tavsifi kreativ fikrlash strategik guruhi tomonidan taklif etilgan ta’rifga mosdir. Ushbu tavsif o’quvchilarning turfa kontekst va ta’lim darajasida g’oya be rish amaliyotida samarali qatnashishni o’rganishlari kerakligiga, g’oyaning o’ziga xosligi va mu nosibligini baholagan holda uning ustida mulohaza yuritishga va toki maromiga yetkazmaguncha g’oyani takomillashtirishga urg’u beradi. Bu tavsif ishlab chiqilayotganda, shuningdek, turli sohadagi mutaxassislar maslahati va kreativlik borasidagi keng adabiyot tahlilining natijalari ham inobatga olingan.

Kreativ fikrlash endigina shakllanayotgan talqin bo’lib turgan bir paytda ancha keng, ammo ich-ichidan bog’liq kreativlik tuzilmasi kuchli tadqiqotchilik an’anasiga ega bo’ladi. Ushbu konsepsiyaning ko’p qirraligi va ijtimoiy mohiyatini hisobga olgan holda taklif etgan ta’rifiga ko’ra, kreativlik – layoqat, jarayon va muhit o’rtasidagi o’zaro munosabat bo’lib, u orqali shaxs yoki guruh ushbu ijtimoiy kontekst uchun ham yangi, ham foydali bo’lgan salmoqli mahsulotni yaratishidir.

Ijodiy maqsadlarni ro’yobga chiqarish kreativ fikrlashni taqozo etadi, lekin shu bilan birga aqliy salohiyat, soha borasidagi bilim va san’atkorlik talanti kabi kengroq va maxsus ko’nikma va qobiliyatlar ham zarur bo’ladi. Masalan, san’at durdonalari yoki texnologik kashfiyotlarni yaratish bilan bog’liq buyuk ijodkorlikda kreativ fikrlashdan tashqari salmoqli talant, chuqur bilim, muayyan sohada tinimsiz mehnat hamda jamiyat tomonidan ushbu mahsulot qiymatga ega ekanligi haqidagi e’tirof ham talab etiladi. Va aksincha, kichik yoxud kundalik kreativlik (masalan, fotojurnalda rasmlarni mahorat bilan joylashtirish; tibbiyot sohasida yangi zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash, oziq-ovqat qoldiqlaridan yangi taomni hosil qilish yoki ishxonadagi murakkab muammoga ijodiy yechim topish kabi ijodiy fikrlashga qodir deyarli barcha insonlarga zarurdir.

Umuman olganda, tadqiqotchilar kreativ fikrlash kundalik ijodkorlik amaliyot va ta’lim orqali takomillashtirilishi mumkin degan xulosada yakdildir. Demak, tug’ma talantning ahamiyatini kamaytirish hamda takomillashtirish mumkin bo’lgan shaxsning kreativ fikrlash qobiliyatiga ko’proq urg’u berish maqsadida PISA tadqiqoti kreativ fikrlash yo’nalishining baholashi mana shu kichik kreativlik bilan bog’liq vazifalarga asosiy e’tiborni qaratadi. Kreativ fikrlashning bu turi nafaqat insho yozish yoki rasm chizish kabi asosan ichki dunyoni aks ettirish talab qilinadigan ta’lim kontekstiga, balki g’oya berish masalalarini tahlil etish, jamiyatdagi muammolarni hal etishga aloqador bo’lgan kengroq sohalarga ham taalluqlidir.

Bolaning kreativ fikrlash, ayniqsa tasavvur etish, faraz qila olish qobiliyatini rivojlantirish, ko’nikma va malakalarni vujudga keltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun har bir o’qituvchi o’z darslarida bolalarga chuqur bilim berishi uchun axborot va pedagogik texnologiyalar, innovatsion metodlardan foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Darslar o’tishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo’llash natijasida samarali natijalarga erishadi. Bugungi kunda boshlang’ich ta’limda innovatsion texnologiyalardan foydalanishga alohida ehtibor berilayotganining asosiy sababi quyidagilardir:

Birinchidan, innovatsion texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta’limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida.

Ikkinchidan, innovatsion texnologiyalar o`quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan, innovatsion texnologiya o`qituvchini ta`lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo`lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi. To`rtinchidan, innovatsion texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo`llashga asoslanganligi sababli, ularning qo`llanilishi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablarini amalga oshirishni ta`minlaydi. Har qanday innovatsion texnologiyaning o`quv-tarbiya jarayonida qo`llanilishi shaxsiy harakterdan kelib chiqqan holda, bolani kim o`qitayotganligi va o`qituvchi kimni tarbiyalayotganiga bog`liq. Innovatsion texnologiya asosida o`tkaziladigan mashg`ulotlar bolalarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o`z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o`z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi. Shuning uchun ham ta`lim muassasalarining o`quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o`qitish uslublari interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o`rni va ahamiyati beqiyosdir.

Innovatsion texnologiya va ularning ta`limda qo`llanilishiga oid bilimlar, tajriba bolalarni bilimli va yetuk malakaga ega bo`lishlarini tahminlaydi. Shu bilan birga ta`lim-tarbiya jarayonlarida yangi pedagogik texnologiyalarni qo`llashda allomalarimizning g`oya va qarashlaridan foydalanish o`quvchi-talabalarni o`qitish va tarbiyalashni yanada samarali bo`lishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang`ich sinf o`quvchilarini kreativ fikrlashga o`rgatish, o`z fikriga ega, o`quv fanlarini muvaffaqiyatli o`zlashtiradigan, chuqur bilimli yoshlarni tarbiyalash o`qituvchilarning innovatsion faoliyati samarasi o`laroq rivojlanadi.

ADABIYOT

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-4947-сонли “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони.// Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. –Т., 2017. –Б.39.
2. O`zbekisto Respublikasi Vazirlar Maxkamasi. “Umumiy o`rta, o`rta maxsus kasbhunar ta`limining davlat ta`lim standartlari”. - Toshkent 2017 yil.
3. www.ziyouz.com. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. M-harfi. T.: 186-bet
4. O`qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. “O`qituvchi” T.: 2016-yil.
5. O`qish kitobi. 4-sinf uchun darslik. “Yangiyol poligraf servis” T.: 2017-yil. 53-bet
6. Zaparov A.A. Oliy o`quv yurtlari talabalarida kreativ fikrlashni rivojlantirishga innovatsion yondashuv. “XALQ TA`LIMI” ilmiy-metodik jurnali. 2021. № 2. 22-26 bb. www.xtjurnali.zn.uz
7. Tolipov O`., Usmanova M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: —Fan, 2005 y. - 206 b.
8. Azizxo`jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat.– Toshkent: 2003. -174b.

ЁШЛАРНИ ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ БЕРИШДА МИЛЛИЙ КАШТАЧИЛИКНИНГ ЎРНИ

Йулдашов Кахраман Камулович

Урганч давлат университети катта ўқитувчиси

Аннотация. Муаллиф мазкур мақолада каштачиликнинг миллатлараро ўзига хос хусусиятларини мисоллар асосида тушунтирган. Шунингдек, меъморчиликда ва бирор буюмни безашда аппликация усулидан кенг фойдаланишига нисбатан тавсиялар берилган.

Калит сўзлар ва тушунчалар: урф-одат, хусусият, элемент, нақш, япроқ, сўзана, кирпеч, чойшаб, ойнахалта, чойхалта, зардевор, палак.

Резюме. Автор поясняет в данной статье примеры межэтнических особенностей вышивки. В нем также содержатся советы о том, как применять самые разнообразные приложения в архитектуре и при украшении предметов.

Ключевые слова и понятия: обычай, особенность, элемент, узор, лист, сюзане, плетъ, лист, зеркало, чайник, базилик, палак.

Summary. The author explains in this article examples of interethnic features of embroidery. It also contains tips on how to apply a wide variety of applications in architecture and in decorating objects.

Keywords and concepts: custom, feature, element, pattern, leaf, suzane, whip, leaf, mirror, teapot, basil, palak.

Ёшларни ўқитиш, уларга таълим-тарбия бериш, келажак учун муносиб кадрлар тайёрлаш ҳамма вақт ҳам ҳар бир давлатнинг энг биринчи навбатдаги ишаридан бири бўлиб келган. Худди шунингдек, бизнинг мамлакатимизда ҳам бундай ишлар давлатимиз раҳбарларининг доимий равишда диққат марказида турибди, десак – айтиш ҳақиқатни айтган бўламиз.

Республикамиз Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг бевосита ташаббуси ва раҳбарлигида қабул қилинган ҳамда изчил равишда амалга оширилаётган Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиш бўйича Ҳаракатлар стратегияси республикамизда ривожланиш тараққиётининг янги босқичини бошлаб берди. Бу жараённинг амалий натижалари бугунги кунда ҳаётимизнинг барча соҳаларида, энг муҳими халқимизнинг онгу таффақури, интилиш ва ҳаракатларида яққол намоён бўлмоқда.

Ҳаракатлар стратегиясининг тўртинчи – ижтимоий соҳани ривожлантиришнинг устувор йўналишларидан бири бўлган таълим тизимини такомиллаштириш масаласига ҳам алоҳида эътибор қаратилган.³

Давлатамиз раҳбари ҳар бир вилоятга ташрифи доирасида ўтказилган йиғилишларда, турли учрашувларда сўзланган маърузалари ва суҳбатларида баркамол авлодни тарбиялаш, ёшларни соғлом турмуш тарзига амал қилиб яшаш масалаларига кун тартибидаги долзарб масала сифатида қараш зарурлигини

³Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. Тошкент шаҳри, 2017-йил 7- февраль PF - 4947.

таъкидлаб келмоқда. Президентимиз таъкидлаганидек: “Агар фарзандларимизга тўғри тарбия бермасак, ҳар куни, ҳар дақиқада уларнинг юриш – туриши, кайфийатидан огоҳ бўлиб турмасак, уларни илму ҳунарга ўргатмасак, муносиб иш топиб бермасак, бу омонатни бой бериб қўйишимиз ҳеч гап эмас”.⁴

Шу мақсадларни ўзида асос қилиб олган педагогика фани ўз мазмун моҳиятини бойитишда, янгилашда мавжуд педагогик ҳодиса ва жараёнларни унинг мақсади ва вазифаларига мувофиқ келадиган усуллари билан ўрганади. Ушбу илмнинг илмий-тадқиқот усуллари деганда ёш авлодни тарбиялаш, билимли қилиш ва ўқитишнинг реал жараёнларга хос бўлган ички алоқа ва муносабатларни текшириш, билиш йўллари, услублари ва воситалари мажмуи тушунилади.

Ҳар бир халқнинг ўзига хос урф-одатлари ва хусусиятлари бўлади. Чунончи, украин халқ нақшларида кўпроқ кунгабоқар, хўрса, қуш, буғдой ва бошқа нарсаларнинг кўринишлари акс этса, қирғиз ва қозоқ нақшларида эса шохли ҳайвонлар ва уларнинг шохлари, ўтовлар тасвир чизилади. Тожик халқ нақшларида лола, бодом, ҳар хил гуллар; туркман халқ нақшларида эса эчки калласи, узум танаси, қушлар кўп тасвирланса, ўзбек халқ нақшларида эса типик элементлар сифатида япроқ, гул, ғунча, куртак, лола, қалампир, анор, анор барги, нок, кўп баргли гул ва бошқалар ифодаланади.

Апликация – лотинча ёпиштириш деган маънони билдириб, газлама қоғоз ва бошқа тикиш йўли билан безаш демак. Апликация каштадўзликни махсус тури бўлиб, у ўзига хос технологияга эга. Асосий матога рангдор мато парчасини, чарм ва бошқаларни қадаб, атрофи чокланади. Апликацияда кўпинча чизма чоклардан фойдаланилади. Каштанинг бу тури Ўзбекистонда яхши ривожланган. Ҳозирги вақтда кўпинча болалар пальтоларига, кўйлақларига, бош кийимларига ҳар хил қуш, мева, гул ва ҳайвонлар тасвири апликация усулида чокланади. Айрим ҳолларда аёлларнинг кийимлари шу усулда безатиляпти. Архитектурада ва бирор буюмни безашда апликация усулидан кенг фойдаланиб келинмоқда.

Ўрта Осиёда каштачилик санъати кенг тарқалган бўлиб, оилада ҳар бир аёл кашта тикишни билиши шарт бўлган. Шунинг учун ҳар бир оила ўзи учун кирпеч, сўзана, дорпеч, ойнахалта, чойхалта ва бошқаларни ўзлари тайёрлаган. Безак буюмларининг тури жуда кўп, масалан, сўзана, кирпеч, чойшаб, ойнахалта, чойхалта, зардевор, палак, гуокўрпа, дорпеч, бугжома, парда, белбоғ, такяпуш (ёстиқ устига ёпиладиган), дўппи, кўйлак, дастрўмол, ҳамён, жойнамоз, сўмка, нимча, маҳси-кавуш, халтача ва бошқалар бадий дид билан матоларга тикилган. Кейинчалик сатин, шойи бахмалга тикиладиган бўлди.

Жойнамоз – ерга солиб, устида намоз ўқийдиган тушама. Ислом динига эътиқод қилувчилар ишлатишади. У ибодат вақтида кишини бу дунёдан ажратувчи омил деб тасаввур қилинади. Жойнамоз ҳар хил матодан тайёрланиб, унинг уч томони меҳроб шаклида тикилган бўлиб, ундан масжид, мадраса ва уйларда фойдаланилади. У турли ўлчамда бўлади. Ибодатни қанда қилмаслик учун бошқа

⁴Мирзиёев Ш.М. Ватанимиз тақдири ва келажаги йўлида янада ҳамжиҳат бўлиб, қатъият билан ҳаракат қилайлик. // “Халқ сўзи” газетаси., 2017-йил, 16-июнь.

нарсалардан фойдаланиш мумкин. Масалан, чопон, қийиқча, шолча кабилардан, чунки улар диний нуқтаи назардан пок ҳисобланади. Жойнамоз каштачиликда чиройли қилиб безатилган бўлади.


Зардевор – уй жиҳози. У сидирға шойи, бахмал, сатинга кашта тикиб безатилган бадий буюм. Зардевор ўзбек ҳамда тожикларда янги тушган келиннинг уйига, шафтига ёки деворига илиб қўйилади. У зар ип ёки ипак ҳажмли бўлиб, эни 40-70 см, узунлиги мўлжалланган уйнинг деворига мослаб тикилади.

Палак – деворларга илинадиган энг йирик, энг қиммат безак буюмларидан бири. Палакда осмон ва тўлин ой акс эттирилади. У қадимда оқ ва малла бўзга кашта тикиб тайёрланган. У сўзанадан гулларининг йириклиги, заминга ҳам кашта қопланиши билан фарқ қилади. Палакнинг ўртасида йирик ой тасвири қизил қирмизи, пушти ипак билан кашталанади ва атрофи жуда чиройли қилиб қалампир элементлари қўлланилади. Палакда қирқтача ойни тасвирлаш мумкин. Шунинг учун ойнинг сонига қараб олти ойли палак, ўн икки ойли палак, ҳаттоки катта уйлар учун қирқ ойли палак тикилгани бизга маълум. Ойлар турли ранглар билан бир неча хил тасвирланган. Машҳур каштадўзлар баъзида ойни ажойиб нақшлар билан безаб, ўз маҳоратларини намоён этганлар. Агар ойнинг ичи сидирға рангда ифодаланган бўлса, уни ойпалак, агар нақшли бўлса, гулпанак ва ҳоказо номлари билан юритилади. Кейинги вақтларда палакни қўлда тикишга катта аҳамият берилмоқда.

Кирпеч – кирпуш, токчага тахлаб қўйилган кийим-кечак устидан ёки деворни вертикал бўш жойларига илиб, уйни безатиб туриши учун ишлатиладиган бадий буюм. Кирпеч кашталари қўлда ёки машинада тикилади. Кирпеч қўлда илма кашта билан безалади. У кийим-кечакни чангдан саклайди ва уйни безаб туради. Одатда, палакка ўхшатиб тикилган кирпечпалак деб юритилади. Бу тури ҳам кенг ишлатилади.

Сўзана – форсча сўзана деб ҳам юритилади. Игна билан тикилган деган маънони беради. Сўзана матога кашта тикиб тайёрланган бадий буюм бўлиб, хонани безатиш учун деворга илиб қўйилади. У сатин, бахмал, шойи ва бошқа матоларга кашта тикиб тайёрланади. У ўзига хос бадий кўринишга эга. Матонинг рангидан устарамиз кашта замин сифатида фойдаланадилар. Шунинг учун палакдан фарқ қилади. Сўзана ҳар бир хонадонда бўлган, чунки ҳар бир қиз турмушга чиқишдан олдин ўзи учун сўзана тайёрлаган. Сўзана келинларнинг сепи ҳисобланган.

Камбағал оилада сўзанани малла, оқ бўздан, бадавлатларида эса шойидан, бахмалдан тикишган. Сўзана учун композицион жойлашган ўсимликсимон нақшлардан фойдаланилади. Сўзана ўртасида кўпинча доирасимон гул тикилиб, атрофи гулдор исломий нақшлар билан безатилади. Сўзана тикиш жуда қадимдан ривожланган бўлиб, XIX асргача бўлган сўзаналар сақланмаган. Фақат XIX асрга оид Самарқанд, Бойсун, Бухоро, Нурота, Фарғона, Ўратепа, Шаҳрисабз, Тошкент ва бошқа жойлардаги сўзана турларидан намуналар бор. Санъатнинг бу тури, айниқса, Ўзбекистон ва Тожикистон ҳудудларида қадимдан кенг тарқалган. XX асрнинг 40-йилларидан бошлаб, сўзана машинада тикилиб келинмоқда.



1-расм. Ўқувчиларни амалий ва бадиий безак санъатига қизиқтиришларини орттиришга қаратилган тадбирлар тизими

Чойшаб – форсча-тожикча руйжо – тун чодир деган маънони билдиради. Чойшаб асосан, тахмонга тутиш, ётганда ёпиниш учун тўшак устига тўшалади. Тўшак устидан ёзиладиган чойшаб кам каштали оқ суруп, тахмонга тутиладиган сатин, шойи, бахмал ва бошқалардан тикилади. Ҳозирги вақтда чойшабдан сўзана каби бадиий буюм сифатида ҳам фойдаланиб келинмоқда.

Ўқувчиларнинг амалий санъатга бўлган қизиқишлари атрофлича ўрганилди ҳамда уларнинг бу қизиқишларини орттиришга қаратилган тадбирлар тизими ишлаб чиқилди (1-расм).

Ўқувчилар ўзбек халқ амалий санъатининг асосини каштачилик ташкил этиши, қадимги Шарқ меъморчилик санъатининг бетакрор композициялари, ганч, ёғоч ўймакорлиги ва амалий санъатнинг бошқа турларида кашта композициялари ўзининг чиройи, гўзаллиги ва нафислиги билан бутун дунёга машҳурлиги ҳақидаги маълумотларга эга бўладилар.

Каштачиликнинг асосий тамойиллари – уйғунлик, мутаносиблик, колорит ва усулларнинг вужудга келиши тарихи ва уларнинг аҳамияти билан танишадилар. Каштачилик анъаналари (санъатнинг ана шу турини ўргатиш методлари сифатида ҳам), унда рангнинг табиий жилоси, бежирим шакли, олий намуналари бой ижодий фантазияси ҳақидаги билим, кўникма ва малакаларга эга бўладилар.

Ўқувчиларнинг амалий ва бадиий безак санъатига бўлган қизиқишларини ривожлантиришда қуйидаги тавсияларни ошириш мақсадга мувофиқ:

- умумтаълим мактабларининг ДТСлари, намунавий ўқув режалари ва дастурларида таълим олувчиларга амалий ва бадиий безак санъатини ўргатишнинг турли усуллари, ўқитишнинг самарали йўллари ривожлантириш тўғрисида маълумот бериш;

- амалий ва бадиий безак санъатидан дарс берувчи мутахассис ўқитувчиларнинг касбий билимлари бўйича ахборот технологиялари асосида малака оширишини ташкил этиш;

- республикада тасвирий ва амалий санъат турлари бўйича турли танловларнинг юқори савияда ўтказилишини ва уларда талабаларнинг иштирокини таъминлаш лозим.

Зеро, бугун ҳеч кимга сир эмаски, биз яшаётган XXI аср – интеллектуал бойлик ҳукмронлик қиладиган аср. Кимки бу ҳақиқатни ўз вақтида англаб олмаса, интеллектуал бойликка интилиш ҳар қайси миллат ва давлат учун кундалик ҳаёт мазмунига айланмаса, бундай давлат жаҳон тараққиёти йўлида четда қолиб кетиши муқаррар.

Хулоса қилиб айтганимизда умумтаълим мактабларида миллий қадриятларимиз бири бўлган миллий каштачилик касб-корлигини ўқувчининг фаолиятида тўғри ташкил этиш - оиладаги ижодий муҳит, ёшларни ота-боболаримиздан мерос бўлиб келган ўзбек халқ амалий санъатининг ҳақиқий давомчилари қилиб тарбиялашда, ҳаётга тўғри йўналтиришда муҳим омил бўлиб хизмат қилади.

Адабиётлар:

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. Тошкент шаҳри, 2017-йил 7- февраль РҒ - 4947.

2.Мирзиёев Ш.М. Ватанимиз тақдири ва келажаги йўлида янада ҳамжиҳат бўлиб, қатъият билан ҳаракат қилайлик. // ”Халқ сўзи” газетаси., 2017-йил, 16-июнь.

3.Сотиболдиев З.Ш. “Дизайн асослари”. -Т.: “Иқтисод-молия”. 2008.Б.31

4.Стефановская Т.А. Педагогика: наука и искусство. –М.: Издательство “Совершенство”. -1998. С.112

5.Толипов Ў.Қ., Шарипов Ш.С., Исламов И.Н. Ўқувчилар дизайнерлик ижодкорлиги. –Тошкент: “Фан”, 2006. Б.69

6.Ҳабибулло Солих. Рамзий безаклар маъноси. –Тошкент: “Ўзбекистон”, 2003. №3. Б.13

7.Ходжабоев А.Р. Научно-педагогические основы учебно-методического комплекса подготовки учителя труда. Автореф. дисс...д-ра пед. наук. –Т.: 1992. С.51

8.Нишаналиев У.Н. Формирование личности учителя трудового обучения: проблемы и перспективы. –Ташкент: Ўқитувчи, 2000. С.69

9.Shomirzayev, M.Kh. (2019). Ethnic peculiarities of artistic embroidery of the peoples of the Ferghana valley. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. -7 (12). -P. 966-969.

10.Shomirzayev, M.Kh. (2019). Local features of the traditional embroidery of the Ferghana valley. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. - 7 (12). -P. 970-973.

11.Shomirzayev, M.Kh. (2020). Education is personally focused technology. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (8), Part. 93-99.

12.Shomirzayev, M.Kh. et al. (2020). National handicrafts of Uzbekistan and its social – economic significance. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (8), Part III. 129-138.

13.Shomirzayev, M.Kh. (July, 2020). Technology of Educational Process in School Technology Education. The American Journal of Social Science and Education Innovations. Impact Factor 5.366. -№ 02. -P. 212 - 223. (www.usajournalshub.com/index.php/tajssel).

14.Shomirzayev, M.Kh. (30 July, 2020). Developing Educational Technologies in School Technology Education. The American Journal of Social Science And Education Innovations, Impact Factor 5.26. -P.II/VII 51 - 57. (www.usajournalshub.com/index.php/tajet).

UZLUKSIZ TA'LIMDA TALABALARNI MUSTAQIL TA'LIM O'LISHGA O'RGATISH MEXANIZMI

Avazov Jo'rabek Donaevich

Termiz muhandislik va texnologiya instituti katta o'qituvchisi
jurabek-avazov@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak muhandislarning intellektual va aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish orqali o'quv jarayonining samaradorligini oshirish masalasi yoritilgan.

Tayanch so'zlar: talaba, ta'lim, tarbiya, bo'lajak, kasbiy, muhandis, loyihalash, kompetentlik, intellektual, integratsiyalashuv, intellektual, ijodiy, kognitiv, kelajak, qobiliyat, ilm, hunar, samaradorlik.

Резюме. В статье рассматривается вопрос повышения эффективности учебного процесса за счет развития интеллектуальных и интеллектуальных способностей будущих инженеров в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: студент, образование, воспитание, будущее, профессионал, инженер, дизайн, компетентность, интеллектуальный, интеграционный, интеллектуальный, творческий, познавательный, будущее, способности, наука, профессия, эффективность.

Annotation. The article addresses the issue of increasing the effectiveness of the educational process in higher education by developing the intellectual and intellectual abilities of future engineers.

Keywords: student, education, upbringing, future, professional, engineer, design, competence, intellectual, integration, intellectual, creative, cognitive, future, ability, science, profession, efficiency.

Muhandislar tayyorlash tizimida mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirishning ahamiyati muhimdir. Bu grafik ta'lim mazmuni va tuzilmasini modernizatsiyalash masalasi bilan bog'liq bo'lib, zamonaviy muhtasham bino va inshootlarni loyihalash jarayonida zarur bo'lgan ijodiy tafakkur, fazoviy tasavvur va kompyuter grafikasi savodxonligini shakllantirishni talab etadi.

Oliy ta'lim jarayonida mustaqil ishlar samaradorligini oshirishning ahamiyati va dolzarbligi me'morchilik yo'nalishi bakalavrlarini kasbiy layoqatlilik sifatini beruvchi asosiy kurslardan biri "Chizma geometriya"dan auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarni faollashtirishning yangi yo'llarini ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

Tadqiqotimizning maqsadi muxandislar tayyorgarligi tizimida talabalarning fazoviy tasavvuri va ijodiy tafakkurini rivojlantirish, tashabbuskor, ijodkor mutaxassis, grafik ijodkorlik bo'yicha ma'lumotlarni mustaqil o'qib biladigan va foydalanish qobiliyatli yangi tipdagi me'mor kadrlar tayyorlashda mustaqil ta'limni samaradorlashtirish yo'llari, vosita va metodlarini ishlab chiqishdir.

Bo'lajak muxandislarining grafikaviy tayyorgarligini takomillashtirish, xususan, ularda mustaqil ijodiy tafakkur, fazoviy tasavvur va politexnik tafakkurni shakllantirishning pedagogik shartlaridan biri – "Chizma geometriya" kursi bo'yicha auditoriyadan tashqari mustaqil ishlar mazmuni, uni tashkil etish va o'tkazish metodikasini ishlab chiqishdir.

Oliy o'quv yurtlarida bo'lajak muxandislarni chizmalarni o'qish va bajarishga o'rgatish – zamonaviy oliy ta'limning asosiy vazifasidir. Bu chizmalarni o'qish va bajarish maqsadga muvofiq, ijodiy va ma'suliyatli bo'lishi zarur, albatta. Shu bilan birga, ta'kidlash joizki pedagogik adabiyotlarda oliy maktab talabalarining o'qishi faqat o'qitish bilangina emas, balki ularning mustaqil ta'lim olishi bilan ham tavsiflanadi.

To'plangan va tahlil qilingan ma'lumotlar muayyan xulosalar chiqarish imkonini berdi:

Talabalar:

- mustaqil ta'lim olishga alohida qiziquvchanlik (motiv)ni namoyon qilmayaptilar;
- o'zlariga berilayotgan tayyor bilimlarni, o'quv axborotlarini ancha sustkashlik bilan qabul qilmoqdalar;
- o'quv mashg'ulotlarida mustaqil o'quv faoliyati ko'nikma va malakalarini sayoz egallayaptilar;
- darslik materiallari va o'qituvchi so'zlari asosidagi yozuvlar (tushuntirish, hikoya, ma'ruza)ni ko'r-ko'rona o'rganadi;
- qo'shimcha bilim manbalari (doimiy ijodiy o'quv kurslarining zarurligi va bilimlarning alohida o'rin olishiga ishontiruvchi didaktik va badiiy adabiyotlar, kishilar bilan maqsadga muvofiq muloqot va boshqalar)dan foydalana bilmasliklar;
- o'zlashtirgan bilimlar ko'pincha reproduktiv xarakter kasb etmoqda;
- o'quv faoliyati motivlari ishonchsiz, sust ifodalanmoqda.

O'qituvchilar:

- talabalarda mustaqil ta'lim olishga ongli munosabat va faol o'quv faoliyatga intilishni shakllantirishda o'z o'quv predmeti, uni o'qitish metodikasining imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanmayaptilar;

- ko'rsatmalilik tamoyiliga rioya qilmaydilar, o'quv dasturida ko'zda tutilgan tayyor bilimlar asosida o'qitishning og'zaki metodlarini afzal ko'radilar;
- talabalarning bilishga oid qiziqishlarini rivojlantirish, bilimlarini kengaytirish, ma'naviy dunyosini boyitish, shaxsning yuksak axloqiy sifatlarini tarbiyalashga imkon beruvchi auditoriyadan tashqari mustaqil ishlar imkoniyatlaridan kam foydalanadilar;
- mustaqil o'quv faoliyatini tashkil qilish ko'nikma va malakalariga ega emas;
- talabalarning mustaqil o'quv faoliyatiga pedagogik rahbarlikni ahyon-ahyonda amalga oshiradilar, bunda asosan topshiriqlar berish, uning bajarilishini tekshirish va baholash bilan cheklaniladi.



1-rasm. Talabalar mustaqil ta'lim olish faoliyatining kontseptual modeli.

Yuqorida bayon qilinganlardan kelib chiqqan holda talabalarni mustaqil ta'lim olishga o'rgatish - mustaqil grafik faoliyat ko'nikmalarini shakllantirish ob'ektiv zarurligi o'quv faoliyati holati bilan ta'lim oluvchilarning mazmun, metod va natijalarga ko'ra xilma - xil mustaqil o'quv ishlarini yuritishning ichki imkoniyatlari o'rtasidagi nomuvofiqlik ko'zga tashlanadi. U talabalarning mustaqil ta'lim olish faoliyati xususiyatlari, uning mohiyati, tashkil qilish printsiplari, mazmuni va metodlarini qarab chiqishga mavjud yondoshuvlarning har xilligi bilan tavsiflanadi.

Ko'p yillik pedagogik tajribalarga tayanib aytish mumkinki, talabalar fan asoslaridan yangi bilimlarni izlash, topish, shu asosda o'z bilim sifatlarini oshirishga yo'naltirilgan faol mustaqil o'quv faoliyatini olib borishlari mumkin. Buning isboti quyidagi asoslardan iborat:

-fiziologik xarakterdagi asoslar: mijoz turlari, irsiyat, mintaqamiz bolalarining erta rivojlanishi;

-ruhiy xarakterdagi asoslar: qiziqish va moyillik, ruhiy jarayonlarning holati, hissiyotning faolligi va yo'nalishi;

-ijtimoiy xarakterdagi asoslar: yangi huquqiy davlatning barpo bo'lishi, jamiyatning demokratlashuvi, mintaqaning etnopsixologik xususiyatlari, ijtimoiy texnik bazasining rivojlanishi, milliy o'zlikni anglash va madaniyatning yuksalishi.

Bu asoslar talabalarning faol, mustaqil ijodiy o'quv faoliyatga ichki(potensial) tayyorligini ko'rsatadi. Biroq bu ichki imkoniyatlardan muvaffaqiyatli foydalanishi uchun alohida omillar zarur.

Bu omillar 4 guruhga bo'linadi:

1. Ilmiy asoslangan tavsiyalar, olimlar tomonidan taklif qilingan maxsus didaktik tadqiqotlar materiallari bilan shartlangan omillar.

2. O'qituvchi faoliyati bilan yaratilgan omillar.

3. Talabalarning ota-onalari tomonidan yaratilgan omillar.

4. Talabalarning individual xususiyatidan kelib chiqadigan omillar.

Tadqiqot jarayonida yaratilgan kontseptual modelning mazmuni quyidagilardan iborat (1-rasm):

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik. // "Xalq so'zi" gaz., 2017 yil, 16 iyun.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi tarqkiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni. T., 2020 yil 6 noyabr PF-6108

3. Skatkin M.N., Kraevskiy V.V., Kiselev A.F. Sovershenstvovanie protsessa obucheniya - M., 1971. - C.97

4. Chekmarev A.A. Nachertatelnaya geometriya i cherchenie: Ucheb. dlya stud. vyssh. ucheb. zavedeniy. - 2-e izd., pererab. i dop. - M.: Gumanit. izd. sentr VLADOS, 2003. – С.52 .

5. Shishov S.Ye., Kalney V.A. Monitoring kachestva obrazovaniya v shkole. -M., 1999. – С.67

6. Shomirzaev M.X., I.Karimov Texnologiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. –T.: "Universitet", 2021. – 196 b.

BOSHLANGICH TA'LIM DARSLARIDA O'QUVCHILARNI IJODIY FIKRLASHGA O'RGATISH

U.A. Kamoldinova - Andijon tuman 18 - maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Maqolada oquvchilarga bilim berish bilan bir qatorda ularda ijodiy fikrlashni shakllantirish zarurligi asoslangan. O'quvchi faoliyati ijodiy bolsa, unda shaxsga hurmat tuygusi paydo boladi. Fikrlashni tarbiyalash muayyan moddiy, pedagogik sharoitlarni talab qiladi. Mustaqil fikrlovchi inson birinchi navbatda, borliqni kuzatish, his qilish, idrok etish imkoniyatiga ega bolmogi zarur, ya'ni jismoniy-ruhiy sog'lom bolmog'i kerak.

Kalit so'zlar: ijodiy yondashuv, ijodiy fikrlash, ruhiy erkinlik, mustaqil fikrlash.

В статье обосновано, что ученикам необходимо не только овладеть знаниями, но и научить творческому мышлению. Когда деятельность ребёнка имеет самостоятельный характер, у него появляется чувства уважения к окружающим. Самостоятельно мыслящий человек в первую очередь должен иметь возможность наблюдать окружение, чувствовать, размышлять его. т.е. должен духовно здоровым.

Ключевые слова: свободное мышление, индивид, духовная самостоятельность, самостоятельное мышление.

At the same time, it became clear that in addition to educating students, they need to cultivate free thinking. If the child's activity is free, if it is not interfered with, then there is a sense of respect for the person. Nurturing thinking requires certain material, pedagogical conditions. An independent thinker must first be able to observe, feel, and perceive existence, that is, he must be physically and mentally healthy.

Keywords: free thinking, personality, mental freedom, independent thinking.

Hozirgi davrda ta'lim sohasida eng muhim vazifalar eskirgan tamoyillar va bir qolipdagi o'qitish metodlaridan voz kechib, zamon talablariga javob beradigan yangi yo'nalishlarni izlashni taqozo etmoqda.

O'qitishning eng samarali yo'li - mashg'ulotlarda o'quvchilarning haqiqatni bilishga, fikrlashga, erkin muloqotga, hamkorlikka intilishidir. Darslarda bu ruh bo'lmasa, bunday mashg'ulotlar jonsiz, zerikarli va samarasiz bo'ladi.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ular tomonidan egallangan bilim,

ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogic mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan texnologik yondashuvni talab etadi.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi o'quvchi shaxsiga mos metodlarni qo'llay olmasa, o'quvchi shaxsini o'zgartirish uchun sharoit yaratilmasa, uning tarbiyasida chekinish yuz beradi. Ayni paytda o'qituvchi oldida mas'uliyatli va mashaqqatli vazifa - o'quvchilarni erkin fikrlashga o'rgatish hamda ijodiy fikrlashni shakllantirish turibdi.

Ta'lim jarayonida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash, ularga ta'lim berish jarayonini sifat jihatidan takomillashtirishni talab qilmoqda. Ilmiy-texnik taraqqiyot jadallik bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda mehnat bozorida raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan kadrlar tayyorlash uchun o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini o'stirish muhim ahamiyatga ega va rivojlangan mamlakatlar tajribasida isbotlangan.

O'zbekistonning to'la mustaqil bo'lishida fuqarolarning ruhiy va fikriy mustaqilligi muhim kasb etadi. Shuning uchun ham jamiyat a'zolarini, ayniqsa yoshlarni mustaqil fikrlay olishga o'rgatish bugungi kunda o'ta dolzarb masala bo'lib turibdi. Yoshlarni tashabbuskor kishilar sifatida tarbiyalash, ularni nostandart fikrlashga odatlantirishda ta'lim tizimi alohida o'rin tutadi.

Hozirgi paytda milliy pedagogikaning asosiy diqqati tarbiyalanuvchi shaxs ma'naviyatini kamol toptirishga, uning o'ziga xos tarzda fikrlaydigan, mustaqil xulosalarga kela oladigan, ijodkor, tashabbuskor, mas'uliyatni zimmasiga olishdan cho'chimaydigan faol inson qilib shakllantirishga qaratilgan.

Insonning tuyg'ular olami, hissiyotlar dunyosi erkin bo'lmas ekan, o'qituvchi yoki o'zga kishining tazyiqlaridan, zo'ravonliklaridan hayiqib turar ekan, u hech qachon mustaqil fikr aytolmaydi.

Hissiyotlariga daxl qilinmagan odamdan erkin fikrlay oladi, o'z fikrini asoslay biladi, uni himoya qila oladi.

Erkin fikrlashga o'rgatish zarurati, qolaversa mustaqillikni mustahkamlash ehtiyojini ko'zlab, xalq ruhiga singib qolgan mute'lik, jur'atsizlik kabi illatlarni tugatish, shuningdek serandishalik, kattalarga ko'r-ko'rona itoat qilish, sabrtoqatlilik kabi fazilatlarini ongidan chiqarish lozim edi.

Ushbu masalalarni hozirgi kunda bevosita aloqador muassasalar, shaxslar hisobga olib, tarbiyalanuvchiga bo'lgan munosabatni o'zgartira boshladilar va ta'lim jarayonining pirovard maqsadi □ erkin fikrlash va ma'naviyat ekanini tushunib yetdilar. Eng muhimi, mustaqil fikrlaydigan o'quvchi shunday sifatga ega bo'lmagan sinfdoshidan farqli o'laroq barcha narsani bilishga qiziqdi, ta'lim jarayonidan zavqlandi.

Shuni ta'kidlash lozimki, o'quvchi erkin va mustaqil fikrlashning usul va yo'llarini egallaganda o'quv materialini tez idrok etadi, puxta o'zlashtiradi. Dars mashg'uloti bilan qanoatlanmay qoladi. Sinfdoshining fikrlashiga xalal beruvchi nojo'ya xatti-harakatlaridan ranjiydi.

Ayni paytda fikrlashga o'rganmagan o'quvchi fikrlaydigan sinfdoshi oldida o'zligidan iymnadi, iztirob chekadi, turli salohiyatdagi o'quvchilardan tashkil topgan guruhda ishlashdan esa o'qituvchi tez toliqadi.

Bunday holatlar esa sinf o'quvchilarining tayyorgarlik darajasi, qobiliyatiga qarab guruhlashga taqozo qiladi.

O'quvchilar ishining yuqori samaradorligini asosiy sharti, tashabbuskorlik va faolligini vujudga keltirish ular faoliyatlarini vujudga keltirish ular faoliyatlarini baholashdan iboratdir.

Ba'zida o'qituvchilar, o'quvchilar qobiliyatini yaxshi bilaman deb o'ylaydilar va shuning uchun biri biriga baho qo'yishi mumkin, bu yerda shaxsiy bilim va mashqlarni bajara bilishliklarini tekshirmaydilar, ayniqsa, axborot va o'rganuvchi asosiy vazifa tomonlarini yoddan chiqaradilar. Bu vazifalar, aytilgan talablarni bajarish uchun darsda besh olti bolaga baho qo'yishni talab etadi.

Bundan tashqari, har bir darsda sizlarga barakalla! «Xammasi yaxshi bolyapti. Sizlar tezda o'rganib olasizlar! Yana biroz kuchaytirsalariz sizlar kuchli yengil, chiroyli bolasizlar degan sozlarni ishlatish maqsadga muvofiqdir. Bunday so'zlarni har dam ishlatmasdan nigoh tashlash, imo ishora korsatish, luqma tashlashorqali izxor qilish zarur.

ADABIYOT

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-4947-сонли “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони.// Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. –Т., 2017. –Б.39.
2. O`zbekisto Respublikasi Vazirlar Maxkamasi. “Umumiy o`rta, o`rta maxsus Kasb-hunar ta`limining davlat ta`lim standartlari”. - Toshkent 2017 yil.
 1. Azizxojayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - T.: 2003.
 2. Yo`ldoshev J.G`. - Talim yangilanish yo`lida. - T.: O`qituvchi. 2000.

РАЗВИТИЕ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Д.Ш. Зухриддинова - учительница начальных классов.

Школа № 32 города Андижан, Узбекистан.

Мақолада бoshlang'ich sinflarda rus tili darslarida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda ijodiy vazifalarni ijodiy fikrlashni rivojlantirish vositasi sifatida ishlatish aoslangan, muallif ijodiy vazifalarning moslashtirilgan namunalarini tasvirlaydi.

Калит сўзлар: *ijodkorlik, ijodiy faoliyat, so'z birikmalari, o'yinlar, ijodkorlik, ijodiy fikrlash.*

В статье рассматривается вопрос применения творческих заданий как средство развития креативного мышления на уроках русского языка и внеурочной деятельности в начальной школе. Автором описываются адаптированные примеры творческих заданий.

Ключевые слова: *креативность, творческая деятельность, словарные слова, игры, творческие способности, творческое мышление.*

In this thesis of the scientific report discusses the use of creative tasks as a means of developing creative thinking in the lessons of the Russian language and extracurricular activities in elementary school. The author describes adapted examples of creative tasks.

Keywords: *creativity, creative activity, vocabulary words, games, creativity, creative thinking.*

Как справедливо отметил, наш Президент Ш.Мирзиёев, развивающиеся страны достигли настоящего уровня развития за счет воспитания талантливых людей, на что мы не уделяли достаточного внимания[1].

Актуальность этой темы в том, что в современной школе возникает насущная потребность в расширении методического потенциала в целом, и в активных формах учебы в частности. К таким активным формам учебы, недостаточно освещенным в методике преподавания русского языка, относятся игры и упражнения для развития креативного мышления.

Творчество – высшая ступень психической активности, самостоятельности, способность создавать нечто новое, оригинальное. Творчеству благоприятствует развитие наблюдательности, лёгкость комбинирования извлекаемой из памяти информации. Творческие возможности зависят не только от умственных способностей, но и от определённых черт характера.

Л. Толстой указывал на необходимость развития творческого потенциала ребенка : «Если ученик в школе не научится сам творить, то и в жизни он всегда только будет наследовать, будет копировать, поскольку мало таких, которые, научившись копировать, умели сделать самостоятельное дополнение этих сведений".

Стремительные изменения в различных сферах современного общества ставят перед образованием принципиально новый социальный заказ –превратить процесс обучения в мощный фактор развития способностей к постановке новых задач. Это говорит об актуальности существующей проблемы, воспитания творчески мыслящих школьников, обладающих нестандартным мышлением, владеющих навыками исследовательской работы.Одной из составляющих этой проблемы является задача развития креативного мышления учащихся.

Что такое креативное мышление? Насколько важно его развитие у детей младшего школьного возраста? Именно в младшем школьном возрасте формируется психологическая основа для развития креативного мышления. В.А.Сухомлинский утверждал, что жизнь требует «исподвольного» овладения знаниями, а учеба-самый серьезный и кропотливый труд ребенка и она должна быть радостным трудом.

В буквальном переводе креативность означает «творческость».Это способность порождать необычные идеи, отклоняясь в мышлении от привычных схем, разрешать проблемные ситуации необычным способом. Креативность является полной противоположностью шаблонного мышления. Она уводит в сторону от банальных идей и скучного , привычного взгляда на вещи, рождает оригинальные решения. Креативность делает процесс мышления интересным и

увлекательным, помогает находить новые нестандартные решения в стандартных ситуациях.

Психологи и педагоги убеждены, что формирование креативного мышления невозможно без проблемного обучения, т.е. процесс обучения должен содержать в себе проблемные ситуации. Подавляющее большинство выводов, закономерностей, обобщений, умозаключений младшие школьники, при руководстве и при разной степени помощи педагога должны формировать сами и даже сами должны приходить к постановке вопросов.

Трудно найти педагога, который бы не стремился развить в своих учениках не только определенные знания, умения и навыки, но и способность самостоятельно учиться, добывая эти знания и на их основе решать творческие задачи, которые поставит жизнь.

Все мы хотим, чтобы наши дети выросли счастливыми, здоровыми и развитыми. Есть много путей, позволяющих этого достичь. Уроки русского языка увлекательны, интересны, многогранны. Они помогают всестороннему развитию личности маленького человека, открывают перед ним удивительный мир творчества.

Структура креативного урока с применением технологии ТРИЗ по методологии творчества отличается от традиционного урока и включает в себя блоки, реализующие цели урока, адекватные целям креативного образования в целом.

Логика построения занятий обусловлена целью, сделать процесс обучения подлинно развивающим. Овладение различными способами разных видов активной деятельности; размышлениями об удивительных предметах; действиями с головоломками; решением творческих задач существенно обогащает развитие ребенка.

ЛИТЕРАТУРА

1. Обращение Президента Республики Узбекистан Ш.Мирзиева в Олий Мажлис от 3 января 2020 г.
2. Зиновкина М. М. НФТМ – ТРИЗ: Креативное образование 21 века. Теория и практика – М. МГИУ, 2008, с.306
3. Е.В. Бунеева, Н.А.Исаева. Русский язык. Методические рекомендации. - М. Баласс – 2013.

MILLIY HUNARMANDCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA O‘QITUVCHI-AYOLLARNING O‘RNI

Nabieva Xatiraxon Abdugarimovna, AVXTXQTMOHM amaliy fanlar va maktabdan tashqari ta’lim metodikasi kafedrasida katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Buyuk va g‘oyatda boy hunarmandlar merosini yosh avlodga avaylab-asrab mehr bilan etkazish texnologiya fani o‘qituvchisining muqaddas burchidir.

Kalit so‘zlar: Milliy hunarmandchilik, kiyim, bilim.

Аннотация: Священный долг учителя технологии - бережно и с любовью передать подрастающему поколению наследие великих и богатейших мастеров.

Ключевые слова: Народные промыслы, одежда, знания

Annotation: The sacred duty of a technology teacher is to carefully and lovingly pass on to the younger generation the heritage of the great and richest masters.

Key words: National handicrafts, clothing, knowledge

Inson borki yashash bor, inson borki taraqqiyot bor. Umr davomida chiroyli yashab, o‘zidan yaxshi nom qoldirish barcha ongli insonlarning yashash oliy maqsadidir. Hayot davomida o‘qish va o‘rganish insonlarning yashash tarzidir. Bilim olish bilan birga hunarmandchilikning bir turini o‘rganish ham maqsadga muvofiqdir.

Mustaqil o‘zbek davlatining milliy belgilaridan biri uning an’anaviy kiyimlari hisoblanadi.

YAponiya kimonosi, hind sarisi, arab qabosi, ozarbayjon arhaligi kabi o‘zbek milliy kiyimlari ham asrlar osha yashab, xalqimizning o‘zligini, o‘tmishini anglashiga katta yordam beradi.

Kaufmanning o‘zbek milliy liboslari bo‘yicha kolleksiyasida 365 ta buyum 5661-6026-tartib raqamlari bilan ro‘yxatda turadi. U 1870-1871 yillarda Sirdaryo va Samarqand viloyatlarida (ya’ni Toshkent, Samarqand, Farg‘ona, CHimkent shaharlarida) to‘plangan bo‘lib o‘zbek xalqining hayot tarzi, mashg‘ulot va kasb-korliklarining ko‘pgina jihatlarini namoyish etadi. Bu kolleksiya uy-joy, maishiy, kiyim-kechak, hunarmandlar ishlagan turfa mahsulotlar, gazlama va matolar, kundalik va marosimlarda kiyiladigan erkaklar va ayollarning ust-boshlaridan iborat.

Xunarmandlar yaratgan zarbof to‘nlar, etik, kovush va ipak sallalari, zarlar bilan ziynatlangan so‘zanalar, qilichlar, pichoqlar, do‘ppilar, ayollarning ipak liboslari, gilam va poloslar, mis kandakorligi buyumlari, kashtado‘zlik, to‘qimachilik namunalari o‘zbek milliy xalqlarining bebaho va asl madaniy xazinalaridan hisoblanadi.

Qadimdan yaratilgan “Xiva xazinasi” oltin va kumushdan ishlangan zebu ziynatlar jumladan, qini va dastasi oltin va yoqut toshlar bilan bezatilgan qilichlar, xanjarlar, naqshinkor egar-jabduqlar, zarbof, kimxob to‘nlar (Buxoro), eng va yoqalari kashtali to‘nlar. (SHahrisabz), oppoq ipak liboslar, so‘zanalar, yumshoq kiyik terisidan tikilgan guldor shimlar, zar ipak bilan tikilgan duxoba do‘ppilar, sidirg‘a va uchlari kashtalik sallalar, kumush rang ipak va kumush qadama duxoba kamarlar, qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan, sidirg‘a ipak iplar bilan gul solingan kamarlar, bizning oltin merosimizdir. Kashtado‘zlar o‘z kashtasiga, gilamdo‘z o‘z gilamiga pichoqchi pichoq va qinlariga, zardo‘zlar esa zar buyumlariga o‘z tarixlarini, hayot tarzini va manzillarini buyumlariga esdalik tariqasida qoldirganlar.

Bizning mintaqamizda hunarmandlarning: zardo‘zlik, kashtachilik, do‘ppido‘zlik, gilamdo‘zlik, zargarlik, misgarlik, to‘qimachilik, kulolchilik san’ati keng rivojlangan.

Buxoro o‘lkashunoslik muzeyida 444 ta matodan tashkil topgan gazlamalar turkumi ham e’tiborga loyiq. Ular ichida dastgohlarda to‘qilgan ip-gazlama namunalari hamda o‘zbek va tojik ayollari tikishgan 600 dan ziyod kashtalar bo‘lib, shunday 300 tasi kiyim-kechak tikilgan mayda gullar tikilgan kashtalardir. Ayniqsa, ayollarning liboslariga ipak va jun iplardan tikilgan kashtalar diqqatga sazovor, bular o‘tgan asrning 70-80 yillarida

tayyorlangan. Ayollar ro‘mollari va peshonabog‘lariga, erkaklarning belbog‘lariga va pichoq qinlariga tikilgan kashtalarni ham uchratish mumkin.

Hunarmandlar yaratgan buyumlar yodgorlik hisoblanib, ularning ahamiyati beqiyosdir. Chunki uni mutaxassis va olimlar, qiziquvchilar uchun O‘rta Osiyo xalqlarining hayot tarzini, turmushini, did va nafosatini, tadqiq qilishda bebaho manba hisoblanadi. XIX asrda o‘zbek milliy kiyimlarini tikishda ishlatiladigan asosiy matolar sirasiga ip-gazlama, ipak, nimshoyi va jun gazlamalari kiradi.

Quyida mana shu gazlamalarning ayrimlariga bir-ikki og‘iz ta’rif berib o‘tamiz.

Beqasam – yo‘l-yo‘l gazmol bo‘lib, undan erkak, ayol va bolalar uchun kundalik kiyiladigan to‘nlar, ko‘rpa, ko‘rpachalar tikishda foydalanilgan.

Banoras – beqasamdan rang turlari bilan farqlanib, undan ayollarning ustki kiyimi bo‘lmish paranji tikilgan.

Pariposhsha - beqasamdan qalinroq matodirki, chopon tikishda ishlatilgan.

Adras – abr iplari bilan gul solingan nimshoyi gazmoldir. SHuningdek, kanovus, shoyi, xonatlas, guldor kimxob, duxoba kabilar ham keng qo‘llanilgan.

Nimshoyi matolar – beqasam, adras, yakro‘yo, katak shoyi, tovlanma shoyi, abrshoyi va xokazolarga turli tuman gullar solingan.

XIX asr oxiri XX asr boshida o‘zbeklar orasida ham asosan fabrikada tayyorlangan ip-gazlamalar: chit, bo‘z, kolenkor, xom surpdan tikilgan kiyim-kechaklarni kiyish rasm bo‘ldi. Boy-badavlat kishilar esa kimxob, ipak, atlas, duxoba, rango-rang movutlardan kiyim tikirib kiya boshladilar. SHunga qaramay, kosiblar dastgohidan chiqqan mahalliy gazlama: mato, bo‘z, nimshoyi, gazmol, adras, beqasam, podshoi, kimxob, xonatlas, katak shoyi kabilar turli xillariga ham ehtiyoj katta edi.

Xozirgi kunga kelib ham ipak va shoyi gazlamalar qo‘li gul hunarmandlar tomonidan yaratilmoqda. Marg‘ilonda yaratilayotgan adras gazlamalari shular jumlasidandir.

YUqorida keltirilgan barcha hunarmandlar orasida ayollarning o‘rni beqiyosdir. Erkaklar uchun yaratiladigan do‘ppilar faqat nozikqalb ayollar tomonidan tikiladi. Qiyiqcha va chorsilar ham faqat xotin-qizlar tomonidan yaxshi niyat bilan erkaklar uchun tikiladi. Ayollar buyumlarni ko‘zlarining nuri va qalb gavxari bilan yaratadilar. Har bir hunarning o‘z gashti bor deganlaridek, ham hunarmand ham o‘qituvchi bo‘lgan texnologiya fani o‘qituvchi ayollarining hozirgi kunda mas’uliyatlari katta.

Buyuk va g‘oyatda boy hunarmandlar merosini yosh avlodga avaylab-asrab mehr bilan etkazish texnologiya fani o‘qituvchisining muqaddas burchidir.

O‘quvchilarning asta-sekin hunarga jalb qilishning asosiy yo‘li bu: plastilin orqali buyum yaratish, uni loy orqali yaratish hamda qog‘oz orqali buyum yasash. Yaratilgan buyumlarni suv yoki zanjir choki orqali kashtalarda tushirish so‘ng zar iplarda zardo‘zlik buyumini yaratish, hamda to‘quvchilik orqali hayot go‘zalligini buyumlarda yaratish orqali bola qalbiga kirib bora olamiz. O‘quvchilarga o‘z-o‘zidan mehnatga muhabbat hissini yaratamiz.

Darhaqiqat A.Navoiy aytganidek:

Hunarni asrabon netgumdir axir

Olib tuproqqami ketgumdir oxir

Biz AVXTXQTUMOH Markazining texnologiya o'qituvchilari bilgan bilim va hunarlarimizni kursga kelgan tinglovchilarga o'rgatib shakllantirishimiz kerak. Bunda kursga kelgan tinglovchilar o'zaro tajribalarini oshirishga imkoniyat yaratiladi.

O'z malakalarini oshirish maqsadida, kelgan pedagog ayollar nafaqat maktabda, balki mahallalarda ham o'z faoliyatini davom ettiradilar. Texnologiya fani o'qituvchilari uylarda tashkil etilgan kasanachilik va xususiy tadbirkorlik faoliyatini milliy hunarmandchiligimizni o'z hunarlari orqali rivojlantirib kelmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. «Uy-ro'zgor ensiklopediyasi». O'zbek sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyasi. Toshkent. 1982 yil.
2. I.Eryomenka. «Sexrli igna». Toshkent. O'qituvchi. 1990 yil.
3. Tejamkorlik va isrofgarchilik haqida maqolalar to'plami. UZ.Baza.uz.

TEXNOLOGIYA FANI DARSLARIDA IQTISODIY TEJAMKORLIKDAN FOYDALANISH

Nabieva Xatiraxon Abdulkarimovna, AVXTXQTMOHM amaliy fanlar va maktabdan tashqari ta'lim metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Texnologiya fani darslarida iqtisodiy tejamkorlikdan foydalanib dars jarayonini tashkil etish. O'quvchilarning amaliy mashg'ulotlar davomida ishbilarmonlik va tejamkorlik faoliyatlarini rivojlantirish.*

***Kalit so'zlar:** Texnologiya, tejamkorlik, iqtisod, amaliy mashg'ulotlar*

***Аннотация:** Организация учебного процесса на уроках экономических наук с использованием экономических сбережений. Развивать предприимчивость занятий.*

***Ключевые слова:** Технология, экономия, экономика, практика.*

***Annotation:** Organization of the teaching process in economic science classes using economic savings. Develop student's entrepreneurial and thrifty activities during hands-on activities.*

***Key words:** Technology, economic, economics, practice.*

Mehnat inson hayotining, uning o'sib kamon topishining, u yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarning asosiy manbai ekanligi, hal qilishning boy ma'naviy merosida, xadisshunos mutafakkirlarimizning asarlarida o'z aksini topgan.

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi barcha sohalarda zamonaviy texnologiyalar rivoji bilan bog'liq ekan, ishbilarmonlik va iqtisodiy tejamkorlik yo'llarini puxta o'zlashtirgan barkamol avlodni tarbiyalash Respublikamiz ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri sifatida yuzaga chiqadi. Bu masalaning asosiy echimi umumta'lim maktablari texnologiya fani darslarini maqsadga muvofiq tashkil qilish bilan hal etiladi.

Texnologiya fani darslari maktab o'quv ustaxonalarida olib boriladi va amaliy mashg'ulot tarzida tashkil qilinadi. Mashg'ulotlarga tayyorlanish jarayoni sermashaqqat ish va o'qituvchi faoliyatining juda muhim qismidir.

O'quvchilarga texnologiya fani darslarida ishbilarmonlik va tejamkorlik ishlarini o'rgatishda tadbirkorlik qonuniyatlari talablari asosida sifatli, raqobatbardosh, iste'mol mollari, uy-ro'zg'or buyumlari, turli xil asbob-uskunalarni tayyorlash va iste'molchilarga etkazish vositalari haqidagi belgilarni berish, bozor munosabatlari sharoitida o'quvchilarning ishbilarmonlik va tejamkorlik faoliyatlarini tashkil qilishning muhim omili hisoblanadi. Ammo o'quvchilarning ishbilarmonlik va tejamkorlik faoliyati bilimlarni egallash jarayonida o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Bu esa o'z navbatida, texnologiya darslarida o'quvchilarning ishbilarmonlik va tejamkorlik faoliyatini tashkil qilishda ikki yoqlama muammo mavjudligini bildiradi. Bir tomondan, o'quvchilarga ishbilarmonlik, vakolatlilik, tejamkorlik, tashabbuskorlik ishlari sifatlarini birinchi o'ringa qo'yuvchi bozor munosabatlari talablari asosida harakat qilish lozim bo'lsa, ikkinchi tomondan o'quvchilarning ma'naviyati, ahloqi va xulq atvorini boyitish, emotsional va madaniy rivojlantirish va kreativligini oshirish uchun keng imkoniyatlar berishdir.

Bu kabi muammolarni hal qilishdagi asosiy kamchilik texnologiya darslarida o'quvchi faoliyatining etarli emasligidandir. O'quvchi ko'pincha tayyor axborotni qabul qiladi, bu esa hozirgi davr talabiga javob bermaydi. Chunki, boshqa fanlardan farqli o'laroq texnologiya darslarida o'quvchilar o'qituvchi tomonidan berilgan dastlabki bilimlar asosida mustaqil fikrlash, mustaqil ishlay olish, o'z-o'zini nazorat qilish madaniyatini rivojlantirish, buyumlarning tayyorgarlik sifatini oshirishning yangi yo'llarini izlash va dars mobaynida ulardan foydalanish va mustaqil ravishda ijodkorona mehnat qilish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

O'quvchilarning amaliy mashg'ulotlar davomidagi ishbilarmonlik va tejamkorlik faoliyatlari faqatgina materiallardan to'g'ri, aniq, rejali va tejamli foydalanish orqaligina shakllanib qolmasdan, balki quyidagi omillarga ham bog'liq bo'ladi :

- axborot berish (ish usullarini almashish yoki tayyorlangan buyumlarni namoyish qilish orqali)
- nazorat qilish ;
- materiallarni tejash va iqtisod qilish ;
- vositachilik qilish ;
- rag'batlantirish.

Texnologiya darslarida ishbilarmonlik va tejamkorlik faoliyatini tashkil qilish bilan birga milliy qadriyatlarimiz haqida ham etarlicha bilim berishimiz kerak.

Xalqimiz yaratgan qo'l ishlari orqali bizga hunarmandchilik deb atalgan san'at milliy qadriyatlarimizning asosidir.

Milliy qadriyatlarimiz nima o'zi ?

Uni qanday ta'riflash mumkin ?

“Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'atida” qadriyatlarga mana bunday ta'rif berilgan : Qadriyatlar jamiyatda, kishilar o'rtasida obro'ga, e'tiborga, hurmatga, nufuzga, ahamiyatga ega kishilar, munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma'naviy boyliklar majmuasi. Qadriyatlar tushunchasi voqeilikdagi muayyan xodisalarini insoniy, ijtimoiy va madaniy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladi.

Milliy qadriyatlar milliy shaxsning tili, tarixi urf-odatlarida namoyon bo‘ladi. Milliy qadriyatlar negizida “Millat”, “O‘zbek” degan so‘zlar o‘z ifodasini topgan. Milliy urf-odatlar, rasm-rusumlar, marosimlar va an‘analari milliy qadriyatlarning yo‘nalishlaridir. Milliy qadriyatlar mamlakatimiz mustaqilligini mustaxkamlaydigan ma‘naviy merosdir. Milliy qadriyatlar – bu millatning tarixi, yashash tarzi, kelajagi uni tashkil etuvchi avlodlar, ijtimoiy qatlamlar, milliy ong, til, ma‘naviyat, madaniyat ekanligini o‘quvchilarga dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda tushuntirish darkor.

Azaliy udumlar bobolardan, momolardan, nabiralarga meros tariqasida o‘rgatib borilgan. Maqsad : farzandlarni ertakl orqali, ijobiy, ahloqiy sifatlar orqali mehnatsevarlikka o‘rgatish bo‘lgan.

Mehnatsevarlik eng avvalo bolalar hayotining emotsional sohasidir.

Mehnatkash insongina yuksak ahloqli bo‘la olishi mumkinligini, mehnat insonni faqat yuksaklikka intiltirishini yosh avlodga uqdirib berishimiz kerak.

Ulug‘ avliyo Xoja Bahovuddin Naqshbandiydan bizga etib kelgan ma‘naviy qadriyatlardan biri “Vuqufi zamoni” – zamon, vaqt, on, nafasdan ogoh bo‘lish g‘oyasidir. Bu alloma “Musibatlar dunyoda juda ko‘p, lekin eng katta musibat vaqtni behuda sarflashdir” deb aytgan.

Darhaqiqat, hozirgi shiddatli zamonda har bir narsadan unumli foydalanib, isrof qilmasdan buyum yaratish kerakligini, bu dunyoda hamma narsa kerakli ekanligini, yosh avlod ongiga singdirib borishimiz kerak. Texnologiya fanining maqsadi: bo‘ysunmagan narsani bo‘ysundirish, ochilmagan qo‘riqni ochib, undan bog‘u bo‘ston yaratish, keraksiz buyumlardan kerakli, ya‘ni iste‘molga kerakli buyumlar yaratish, o‘rganilmagan ishni o‘rganishdan iborat. YUqoridagilarning barchasida ulkan mehnat qilish vazifasi bor. Har bir ishni sidqidildan qilish, materialdan unumli foydalanib go‘zallik yaratishdir. CHunki, go‘zallik dunyoni qutqaradi deb bejiz aytishmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tejamkorlik va isrofgarchilik haqida maqolalar to‘plami. UZ.Baza.uz.
2. Tejamkorlik.Odam.uz.Odamlar uchun veb-sayti.

ТЕХНОЛОГИЯ ТАЪЛИМИНИНГ ОПТИМАЛЛАШТИРИЛГАН МАЗМУНИНИ ТАНЛАШ МЕТОДИКАСИ

Холикова Хумора Аттиллаевна

Андижон давлат университетининг педагогика институти магистранти

Аннотация: Ушбу мақолада технологик таълимнинг касб танлашда ўрни ва аҳамияти ёритилган бўлиб ўқитувчиларни ўқувчилар билан алоқаси ва дарс ўтиши технологияси ёритилган.

Калит сўзлар: технология, таълим, методика, касб-хунар, касб, композитсион

Аннотация: В данной статье описывается роль и значение технологического образования в выборе профессии, взаимоотношения педагогов со студентами и технологии преподавания.

Ключевые слова: технология, образование, методика, профессия, занятие, состав.

Annotation: This article describes the role and importance of technological education in choosing a profession, the relationship between teachers and students and teaching technologies.

Key words: technology, education, methodology, profession, occupation, composition.

Ўзбекистон Республикасининг демократик ҳуқуқий давлат ва адолатли фуқаролик жамияти қуриш йўлидан изчил илгарилаб бораётганлиги; мамлакат иқтисодиётида туб ўзгаришларнинг амалга оширилиши, республика иқтисодиёти асосан хомашё йўналишдаги рақобатбардош пировард маҳсулот ишлаб чиқаш йўлига изчил ўтаётганлиги, мамлакат экспорт салоҳиятми кенгаяётганлиги давлатимизни касб танлашга, технологик таълимнинг оптималлашга қаратиётган эътибори келажак авлодни ҳаётда ўз ўрнини топишига ёрдам беради.[1,3]

Касбий маҳорат ва лаёқат шахснинг шундай сифатларики, улар бўлажак мутахассиснинг ҳаётий ва меҳнат муваффақиятларини белгилаб беради. Республикамизда таълимни ривожлантиришнинг замонавий босқичида касб таълими педагогикаси фанининг асосий вазифаси сифатида жаҳон талаблари даражасида янгиланиб бораётган ишлаб чиқариш шароитларига мослаша оладиган, мамлакатимиз иқтисодиётини буюк давлат даражасига кўтарадиган мутахассисларни тайёрлаш, ва бу жараёнда асосий омил сифатида бериладиган ахборотлар ҳажмини эмас, балки ижодий ёндошувни шакллантириш, мустақил фикрлаш ва тадбиқ қилиш сифатларини тарбиялашга эътибор қаратиш лозим.

Касб таълим педагогикаси фани инсонни касбий фаолиятга тайёрлаш, янги авлодни касбий тарбиялаш, малакали ишчи кучини янги талаблар даражасига мослаб боришни кўзда тутди. Касб таълим педагогикаси жаҳон миқёсида тан олинган энг илғор методлар ва йўналишлар билан бойиб бормоқда. Бугунги кунда ўзининг кенг дабиқини кутиб ётган, фаннинг бошқа соҳалари билан боғлиқ равишда ишлаб чиқилган янги концепциялар ва назариялар ривожлантирилмоқда. Касб таълим педагогикаси умумий педагогика фанининг тармоғи сифатида касбий - техник таълим тизимининг такомиллашиш жараёнида шаклланиб боради. У нисбатан замонавий фан соҳаси саналиб, бугунги кунда кўплаб тушунчалари шаклланиб, ривожланиб келмоқда. Республикамиз таълим тизимидаги ислохотлар натижасида касбий таълим ишчи касбларига махсус тайёрлаш масаласига, таълим олувчи шахсида касбий маҳорат ва лаёқат сифатларини шакллантиришга алоҳида эътибор берилмоқда. Жумладан умумий ўрта таълим мактабларида ўқитувчиларнинг иш тажрибаси ўқувчиларни касб танлашга форма ва методларни белгилаб берди. Уларнинг асосийлари қуйдагилардан иборат. Дарсларда касб танлашга ёллаш. Масалан, ўқитувчи ўқувчиларни улар устахоналардаги машғулотларида бажарадиган иш билан боғлиқ касблар билан таништиради.

Чунончи, ўқувчилар ёғочга ва турли мато ва газламаларга ишлов беришни ўрганаётганларида тикувчи, ошпаз, дизайнер, дурадгор, ёғочсоз, фанер қопловчи, ёғоч кесувчи, ром ясовчи, токар, пармаловчи касблари хақида билиб оладилар. Бундан ташқари, айрим темаларни ўрганиш давомида ўсмирларнинг металлга ишлов бериш корхоналари ишчи касблар: термик ишлов берувчи, прокатловчи, пўлат эритувчи ҳамда қизлар даврасига тикувчилик, пазандачилик ва хоказо касблари тўғрисидаги тасаввурларини кенгайтириш мумкин. Электр монтаж ишларига багишланган машғулотларда ўқувчилар электромонтёр, электрослесар (ремонтчи электромонтёр, электромонтажчи слесар, ўровчи электромонтёр ва хаказо) касблари билан танишадилар.

2.Экскурсияларда касб танлашга ёллаш. Одатда, экскурсияларда ўқувчиларни ўқувпрограммаси доирасидан чикувчи материал билан таништиришга қулай шароит юзага келади. Бу имкониятдан ўқувчиларни касб танлашга ёллаш учун фойдаланиш мумкин. Масалан, ўқувчилар металлга ва ёғочга ишлов бериладиган механика цехларига боришганда ускуналарнинг кўп группа ва типларни кўрадилар.

3. Тўғарак машғулотларида ўқувчиларни турли касблар билан таништиришга кўпроқ имкониятлар вужудга келади.

4.Ишлаб чиқариш новаторлари ва мактабни битиргандан сўнг моддий ишлаб чиқариш соҳасида ишлаётганлар билан учрашувлар. Одатда, мазкур мактабни битиргандан кейин саноат корхоналарида ишлаётган кишиларнинг чиқишлари ўқувчиларда катта таассурот қолдиради. Меҳнат таълими жараёнида ўқувчилар танишадиган касблар анча кўп. Шунинг учун, ўқитувчилар ўқувчиларга ўз касби хақида хикоя қилиб берадиган ишлаб чиқариш новаторларини топишда қийналишмайди. Ишлаб чиқариш топшириқларини бажаришда фан асосларига доир билимлардан фойдаланиш тўғрисида ишлаб чиқариш илғорлари айтган гаплар, айниқса қимматлидир.

5.Хар хил маданий оммавий тадбирлар ўтказиш. Касб танлашга ёллаш ишининг муваффақиятли олиб борилишига ёрдам берувчи хар хил маданий-оммавий тадбирлар мактабларнинг иш тажрибасидан маълум. Масалан, «Касб хақида кимкўпроқ билади» темасига бағишлаб конкурслар ўтказиш, «Касблар дунёсида»номли оғзаки журналлар чиқариш, «Касб танлашда шахсий ва жамоат фикри» темаси бўйича мунозаралар уюштириш, тегишли адабиётлар кўрғазмасини ташкил қилиш, китоб ва кинофилмларни муҳокама қилиш шулар жумласидандир.

6.Касбларни чуқур ўрганиш. Ўқитувчи муайян касблар тўғрисида тасаввур бериш учун бир ёла барча ўқувчилар билан иш олиб боришдан ташқари, у ёки бу касб билан яхшилаб танишиш истаги бўлган ўқувчилар билан жиддийроқ иш олиб боради. Ўқувчилар қизиқишларига қараб группаларга ёки клубларга бирлаштириладилар. Бунда ишнинг турли-туман ташкилий формалари қўлланилади. Ўқувчилар ўз кучи билан музей яратадилар, рефератлар ёзадилар, экскурсиялар ўтказадилар. Буларнинг барчаси ўқитувчига муайян касб инсонга қандай талаблар қўйишини кенроқ тушунтириб беришга ўқувчиларнинг касб танлаш негизларини тушуниб олишларида кўмаклашишга имкон беради. Мисол

учун, 9-синф мавзуларни олсак Мавзу: Композитсион яхлитлик. халқ хунармандчилигига оид танланган битта касб-хунар турини тавсифлаш. Шакллантирилаётган компетенциялар ва амалга ошириш усули:[2,5]

Таянч компетенциялар: Коммуникатив компетенция, ахборот билан ишлаш компетенцияси, шахс сифатида ўз-ўзини ривожлантириш компетенцияси, ижтимоий фаол фуқаролик компетенцияси, умуммаданий компетенцияси, математик саводхонлик, фан ва техника янгиликларидан хабардор бўлиш ҳамда фойдаланиш компетенцияси

Фанга оид компетенциялар:

1. _____
2. _____

Амалга ошириш усуллари: Мальумотнома, дарслик, луғат, жадвал, энциклопедия, интернетдан мавзуга оид ахбо-ротни ола билиш интерактив теслар, дидактик материаллар б/н ишлаш.

Нутқда математик терминларни саводли қўллай олиш. Гуруҳларда ва жуфтликларда ишлаш.

Дарс жараёни ва унинг босқичлари

Ишнинг номи, бажариладиган иш мазмуни

Вақт: 1-босқич: Ташкилий қисм

Саломлашиш. Давоматни аниқлаш. Маънавийт дақиқаси. 3 мин

2-босқич: Рефлексия. Эҳтиёжларни аниқлаш.

Мавзуга таълуқли лиғатлар. 6 мин

3-босқич: Янги мавзу баёни

Амалий ва назарий тушунтириш, Тест саволлари. Слайд. 20 мин

4-босқич: Мустаҳкамлаш“Ақлий ҳужум” 11 мин

5-босқич: Баҳолаш. Дарс якуни.

Дарсга фаол қатнашган ўқувчиларни рағбатлантириш 3 мин

6-босқич: Уйга вазифа Назарий маълумотларни ёдлаб, амалий топшириқларни мустақил бажариш 2 мин

Мавзу: Композитсион яхлитлик. Халқ хунармандчилигига оид танланган битта касб-хунар турини тавсифлаш.

Дарсинг мақсади:

Таълимий мақсад: Ўқувчиларга композитсион яхлитлик. Халқ хунармандчилигига оид танланган битта касб-хунар турини тавсифлаш ҳақида маълумотлар бериш.

Тарбиявий мақсад: Ўқувчиларни тозалikka, меҳнатсеварликка ўргатиш. Турмушдаги эҳтиёжлар ва улардан фойдаланишни тушунтириш. Техника хавфсизлиги қоидалари, иш ўрнини ташкил қилиш қонун қоидаларини тушунтириш, санитария гигиена талабларига тўлиқ риоя этишни ўргатиш.

Ривожлантирувчи мақсад: Ўқувчилар тасавурида композитсион яхлитлик. Халқ хунармандчилигига оид танланган битта касб-хунар турини тавсифлаш ҳақида билим, кўникма ва малакаларни ҳосил қилиш.

Дарс тури: Билимларни мустаҳкамловчи. Янги билим берувчи.

Дарс услуги: Тушунтириш, суҳбат, тезкор савол – жавоб, амалий мустақил ишлар бажариш, мунозара, кўргазмали ва бошқалар.

Дарс методи: гуруҳларда ишлаш, “Ақлий хужум”, “Ким эпчил-у, ким чакқон”, “Клацер”, “Б/Б/Б” методларидан фойдаланилади.

Дарсда жихози: пазандачилик ўқув хонаси, тикувчилик иш қуроллари ва жихозлари, расм ва тарқатма материаллар, ўқув қуроллари, электрон материаллар, тест материаллари.

Дарснинг бориши: Ташкилий қисм, саломлашиш, давоматни аниқлаш,

Дарсга тайёргарлик кўриш: Ўқувчилар диққатини дарсга қаратиш.

Уйга вазифани сўраш:

Савол – жавоб ўтказиш

Топшириқларни текшириш

Янги мавзу баёни:

Янги мавзунини мустаҳкамлаш.

Мустаҳкамлаш учун саволлар:

1. Композитсия деб нимага айтилади?
2. Композитсия санъати санъаткорнинг қандай маҳоратини ўзида намоён этади?
3. Кийимнинг композитсияси устида ишловчи мутахассиснинг асосий вазифаси нималардан иборат?
4. Кийим композитсиясининг қандай асосий белгилари бор?
5. Мутаносиблик деб нимага айтилади?
6. Силует ва ритм деб нимага айтилади?
7. Кийимда чизикларнинг вазифасини айтиб беринг.
8. Симметрия ва асимметрия деб нимага айтилади?
9. Кийимда газлама ва безаклар қандай рол ойнайди?

Дарсни якунлаш ва ўқувчиларни баҳолаш. Касбга йўллаш хонасини тартибга келтириш. Уйга вазифани эълон қилиш: мавзу бўйича берилган барча маълумотларни ўқиб-ўрганиб келиш.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Азизхўжаев Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. Тошкент ТДПУ. 2003
2. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. М.: Изд-во Института профессионального образования Минст.образ. России. 1995
3. Кузьмина Н.В. Метод исследования педагогической деятельности 1970
4. Лернер Н.Я. Дидактическая система методов обучения М. 1976
5. Sattarova Z., Abdusalomova N., Ahmedova N. 9 sinf uchun Texnologiya. “O`zbekiston” (Toshkent) 2019

OLIV TA'LIMDA "TEKNOLOGIYA TA'LIMI" YO'NALISHIDA O'QITUVCHILAR TAYYORLASHGA ZAMONAVIY TALABLAR VA MUAMMOLAR

Anarkulova G.M. p.f.n dots.

Nizomiy nomidagi TDPU Professional ta'lim metodikasi kaf. dotsenti

Annotatsiya

Makolada oliy ta'limda "Texnologiya ta'limi" o'qituvchilarini tayyorlashga qo'yilgan zamonaviy talablar va ularni yechimiga qaratilgan muammolari yoritilgan.

Аннотация

В статье описаны современные требования к подготовке преподавателей «Технологического образования» в высшей школе, проблемы и пути решения

Annotation

The article describes modern requirements for the training of teachers of "Technological education" in higher education, problems and solutions

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, zamonaviy talab, kasbiy tayyorgarlik, o'qituvchi tayyorlash.

Ключевые слова: высшее образование, современные требования, профессиональная подготовка, подготовка учителей.

Key words: higher education, modern requirements, professional training, teacher training.

2020 yilning 23 sentyabrida tasdiqlangan O'RQ-637 sonli "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonunida maktabgacha ta'limdan boshlab, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, maktabdan tashqari ta'limning uzviyligini, mazmun jihatdan ketma-ketligini ta'minlashga alohida ahamiyat berilgan. Ta'lim tizimi bosqichlarining mazmunan uzluksiz va uzviy bo'lishi mutaxassis kadrlar tayyorlashda ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir qiladigan pedagogik tizimni joriy etish zarur. Bu borada ayniqsa umumiy o'rta ta'lim, professional ta'lim tizimi, oliy ta'limning uzluksizligi va uzviyligi ta'minlash alohida o'rin tutadi. [1]

Bugungi kunda ta'lim tizimining bu bosqichlarining uzluksizligi va uzviyligini ta'minlash muammosi bilan bir qatorda ta'lim tizimining bu bosqichlarining har birini, ulardagi Texnologiya, professional ta'lim, oliy ta'limning o'rtasida uzviylikni ta'minlashga qaratilgan ta'lim dasturi asosida amalga oshirish muammolari mavjud.

O'zbekiston respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2019 yil 30-31 yanvar kunlari Jizzax viloyatiga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar va kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan 5-sonli majlis bayonida "Ijtimoiy rivojlantirish masalalari bo'yicha" 119 - bandida quyidagi vazifalar belgilab berilgan:

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Jizzax viloyati pedagogika institutining "Mehnat ta'limi" bakalavriat yo'nalishi negizida "Texnologik ta'lim" yo'nalishini 2019-2020 o'quv yilidan tajriba sifatida joriy etish, o'quv rejalari va dasturlarini konstruksiyalash, robototexnika, texnik ijodkorlikka yo'naltirib ishlab chiqishi ta'minlansin, deb belgilab berilgan.

Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasida oliy ta'lim tizimini jahon standartlari "...Pedagogik ta'limning 6 ta yo'nalishi bo'yicha o'qish muddati 3 yil qilib belgilanadi" – deb ko'rsatib o'tgan, bular maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim tasviriy san'at, Texnologiya, jismoniy tarbiya, musiqa. [2]

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Texnologiya" fani o'quv me'yoriy xujjatlarini o'rganish unda ayrim bo'shliq va kamchilik mavjudligini ko'rsatdi:

- texnologiya fanining ilmiy metodik ta'minoti (darslik, o'qituvchi kitobi, ish daftari, multimedia ilovalar, didaktik materiallar va boshqa) yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi;

- umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan amaldagi texnologiya fani mazmuni, mustaqil hayotda qo'llash imkoniyati bo'lgan texnologik savodxonlikni, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirish uchun yetarli emasligi;

- mavjud oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy texnologiya fani yo'nalishida o'qituvchi pedagog- kadrlarni tayyorlashda amaliy ta'lim sifati bugungi kun talablariga mos kelmasligi texnologiya fanini o'qitishni tubdan qayta ko'rib chiqish va zamon talabiga mos ravishda yangilashni taqazo etayotganligi va boshqalar.

Texnologiya fanini o'qitish Konsepsiyasida "Texnologiya" o'quv fanining asosiy vazifalari qilib quyidagilar belgilangan:

- materiallar va ularning xossalari, xususiyatlari hamda texnik ob'ekt va texnologik jarayonlarga oid ma'lumotlarni o'rgatish;

- texnik ob'ekt hamda texnologik jarayonlarda maxsus va umummehnat amallarini qilishni o'rgatish;

- o'quvchilarda texnik va kreativ fikrlashni, intellektual qobiliyatlarini shakllantirish;

- texnologik jarayon va tayyorlangan mahsulotlarni bajarish ketma-ketligi hamda mahsulot sifatini tahlil qila olishni o'rgatish;

- jarayonlarning bajarilishiga oid xulosalar chiqarish hamda mehnat operatsiyalarini, mahsulot sifatini baholay olishni o'rgatish;

- kasb tanlashga yo'naltirishdan iborat.

Konsepsiya doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali quyidagi ko'rsatkichlarga erishish nazarda tutiladi:

- davlat ta'lim dasturlari tarkibiga kiruvchi texnologiya darslari o'quvchilarda metafan, XXI asr va hayotiy ko'nikmalarini, bitiruvchilarda nostandart sharoitlarda yuzaga keladigan muammolarni hal etish, ta'limning barcha bosqichlarida injenerlik qobiliyati va ijodkorlikni rivojlantirish hamda mustaqil hayotda zarur bo'ladigan mehnat ko'nikmalarini o'zlashtirish, maktabdan keyingi ta'lim bosqichiga yoki mustaqil hayotga qadam qo'yishda zarur boladigan bazaviy kompetensiyalar va dunyoqarashlarni shakllantirish;

- STEAM (Science - tabiiy fanlar, Technology - texnologiyalar, Enjinerling - muhandislik, Art - san'at, Mathematics - matematika) ta'limini joriy etish orqali maktab o'quvchilarining fanlar integratsiyasiga qurilgan savodxonlik darajasini oshirish;

-texnologiya fanini o'qitish-maktab bitiruvchilarining ilmiy-texnik savodxonligini, ilk muhandislik ko'nikmalarini va kompetensiyalarini shakllantirish, shu bilan birga zamonaviy texnik tizimlar va texnologiyalardan professional darajada foydalanish, loyihalashtirish va texnik tizimlarni boshqarishni o'zlashtirish imkonini berish;

-texnologiya fani umumiy o'rta ta'lim tizimida asosiy integratsion mexanizm vazifasini bajarish, tabiiy, ilmiy-texnik, texnologik, tadbirkorlik va gumanitar fanlar doirasida olgan bilimlarini meta-fan darajasida qo'llashni o'rgatish va umumiy o'rta ta'limning amaliy jihatlarini kuchaytirishga yordam berish va shu kabilar.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, bugungi kunda Texnologiya fani mazmunini va uni o'qitish metodikasini zamonaviy talablar asosida yanada takomillashtirish, kelgusida maktab bituvchisi sifatida xam mehnat bozorida o'z biznesini tashkil eta olish ko'nikmasiga ega bo'lishga tayyorlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun. 2020 y. 23.09.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi (2020 yil 24 yanvar)

BO'LAJAK "TEXNOLOGIK TA'LIMI" O'QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI

Anarkulova G.M. -ped.f.n. dos.

Nizomiy nomidagi TDPU Professional ta'lim metodikasi kaf. dotsenti

Xudoyberganova Xurshida Ixtiyorjon qizi

AnDU 1- kurs magistsranti

Annotatsiya

Maqola bo'lajak "Texnologiya ta'limi" yo'nalishida o'qituvchilar tayyorlashda kasbiy kompetentlikni shakllantirish muammolari yoritilgan.

Аннотация

В статье рассматриваются проблемы формирования профессиональной компетентности при подготовке будущих учителей «Технология»

Annotation

The article deals with the problems of the formation of professional competence in the preparation of future teachers "Technology"

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, kompetentlik, o'qituvchi tayyorlash, kasbiy kompetentlik.

Ключевые слова: высшее образование, компетентность, подготовка учителей, профессиональная компетентность.

Keywords: higher education, competence, teacher training, professional competence.

Respublikamizda ta'lim tizimini isloh qilish va ta'limning xalqaro andozalarga to'liq mosligini ta'minlash maqsadida izchil va keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Buning amaldagi ijrosi sifatida Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoev tomonidan 2020-yil 27-fevral, PQ-4623-sonli "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi qarorini keltirishimiz mumkin. Qarorda davlat raxbarimiz tomonidan – "Pedagogik ta'lim sohasini yanada takomillashtirish, zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda munosib hissa qo'shuvchi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun professional pedagog kadrlar yetkazib berish, sohaga ilg'or ta'lim texnologiyalarini joriy qilish mamlakatimiz oliy ta'lim tizimi oldida turgan asosiy masalalar sifatida ko'rsatib o'tildi.⁵ Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'limga oid belgilab berilgan vazifalar qatorida quyidagilar alohida ta'kidlab o'tildi:

– tarbiya va o'qitish usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda xorijiy tillarni puxta o'zlashtirgan, ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega professional pedagog kadrlar tayyorlash;

– oliy pedagogik ta'limga raqamli texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy axborot kommunikatsiya va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash pirovardida pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish;

– yuksak madaniyatli, amaliy kasbiy ko'nikmaga ega, tarbiya, o'qitish metodlari va baholash mezonlarini puxta egallagan zamonaviy pedagog kadrlarni shakllantirish jarayonlari samaradorligini oshirish pedagogika ta'lim sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilandi.

Mazkur vazifalarni amalga oshirishda oliy ta'limda bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuv asosida kasbiy faoliyatga mukammal mexanizmlar asosida tayyorlash muhim masalalardan biridir.

Yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga qaratilgan yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash amaliyotiga joriy qilish uchun ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy va texnologik kompetentligini rivojlantirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Yuqoridagi tahlillar asosida bugungi kunda respublikamiz "Umumiy o'rta ta'lim milliy dasturi"ning "Texnologiya" fani bo'yicha dasturni tuzishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratilishi ko'zda tutilgan:

- o'zgarmas va o'zgaruvchan modullarni qamrab olish zamonaviy innovatsion texnologiyalar;

–texnologik tayyorgarlikning dolzarb yo'nalishlarini o'rganish, texnik va texnologik yo'nalishdagi maktabdan tashqari mashg'ulotlar;

– rahbarlik ostida talabalarning texnologik amaliyotini tashkil etish viloyat korxonalarini (7-sinfdan boshlab);

– iqtisodiyotda texnika va texnologiyalarning rivojlanishi tufayli fan sohasi mazmunini o'rganishning o'zgaruvchanligini kengaytirish, respublika regionini bo'yicha mintaqaviy xususiyatlarni e'tiborga olgan holda ta'lim dasturining 30 foizigacha o'zgaruvchanligini ta'minlash;

⁵ O'zbekiston Respublikasi

Prezidentining "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. Toshkent. 2020-yil 27-fevral, PQ-4623-son.

- “Texnologiya” maxsus jihozlangan ustaxonalar va laboratoriyalarda amalga oshirilishini ta’minlash;

- 8-11-sinf o’quvchilarining texnologik tayyorgarligi yo’nalishlaridan birida chuqurlashtirish imkoniyatlarini yaratish (shu jumladan ixtisoslashtirilgan).

Kompetentlik deganda mustaqil, mas’uliyatli (faoliyatni amalga oshirishga layoqatlilik) va muayyan mehnat funksiyalarini bajarish qobiliyati bilan ko‘nikmalarning uyg‘unligi sifatida belgilanadi. Kompetensiyaviy yondashuv bizga o‘quvchining faoliyat natijalarini yanada to‘liq va oqilona tasavvur qilish imkonini beradi, ya’ni nafaqat ijtimoiy hayotga tayyorlikni, balki zamonaviy texnologiyalar olamida ham, jamiyat hayotida ham dinamik o‘zgarishlar sharoitida ishlash qobiliyatini anglatadi. Kelajakka yo‘naltirilgan mutaxassis o‘z kasbi sohasida yangilik (masalan, raqobatbardosh mahsulotlar) yaratishga tayyor bo‘lishi kerak, shuningdek, o‘zining bilimlar zahirasida tayyor algoritmlar mavjud bo‘lmagan taqdirda ham nostandart vaziyatlarda yaratuvchanlik, ijodiy fikr yuritish asosida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga qodir bo‘lishi kerak.

Xorij adabiyotlarda kasbiy faoliyatga tayyorlashda fanga oid tayanch kompetensiyalarning turli xil tasniflari mavjud. M.Stobart tayanch kompetensiyalarning quyidagi beshta guruhini belgilab ko‘rsatgan:

- 1) Siyosiy va ijtimoiy kompetensiyalar (masalan, ma’suliyatni o‘z zimmasiga olish, birgalikda qarorlar qabul qilishda ishtirok etish, ziddiyatlarni murosaga keltirish yo‘li bilan hal etish, demokratik institutlarning faoliyatida ishtirok etish);

- 2) Ko‘p madaniyatli jamiyat hayotiga oid kompetensiyalar (masalan, tafovutlarni to‘g‘ri tushunish, bir-biriga nisbatan hurmat, boshqa madaniyat, til va diniy etiqodga ega bo‘lgan odamlar bilan hamjihatlikda yashash);

- 3) Og‘zaki va yozma muloqatni amalga oshira bilishga oid kompetensiyalar (masalan, bir nechta tillarni egallaganlik);

- 4) Axborot jamiyatining vujudga kelishi bilan bog‘liq bo‘lgan kompetensiyalar (masalan, yangi texnologiyalarni egallaganlik, ularni qo‘llay olish, ommaviy axborot vositalari kanallari orqali tarqatiladigan axborot va reklamalarga nisbatan tanqidiy munosabatda bo‘la olish);

- 5) Uzlüksiz ta’limning asosi sifatida butun umri davomida kasbiy jihatdan hamda shaxsiy hayotida ta’lim olishga kompetentlik.

Davlat ta’lim standartlarida bo‘lajak Texnologiya ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy kompetentligini shakllantirishga qo‘yilgan talablardan o‘qituvchilarni tayyorlash sifat va samaradorligini oshirishning quyidagi asosiy bosqichlarini keltirish mumkin:

1. bo‘lajak mutaxassislarda shunday bilimlar tizimini tarkib toptirish kerakki, u bir vaqtning o‘zida politexnik va pedagogik jihatdan zamon talablariga javob beradigan kasbiy savodxonlikni ta’minlash, ya’ni o‘quv-bilish va axborot olish kompetentliklarini shakllantirish;
2. – mutaxassisning istiqboldagi faoliyati va kasbiy kompetentligini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan bilim va kasbiy ish-harakat usullari, shaxsiy fazilatlarini, ya’ni amaliy faoliyatga oid kompetentlikni tarkib toptirish;

3. – ilgari noma'lum bo'lgan shart-sharoit va favquloddagi vaziyatlarda to'g'ri xulosa chiqarish uchun mustaqil fikr yuritishga, ya'ni ijtimoiy-madaniy kompetentlikka o'rgatish;
4. – talabalarni imkon qadar, mustaqil ishlarga yo'naltiruvchi ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish. Referat, kurs ishi yozish asosida bitiruv malakaviy ishlarini bajarishga o'rgatish.

Shunday qilib bo'lajak texnologiya ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda talabada kasbiy kompetensiya shakllanishi uchun umumkasbiy, maxsus fanlardan nazariy, intellektual bilim hamda amaliy ko'nikmalar, avtomatlashtirilgan ko'nikmalar majmui ishlab chiqilishi, talabalarining o'zlashtirishi doimiy nazorat qilinishi, shuningdek, monitoringi yuritilishi zarur. Bu davr moboynda talabalar tomonidan fanlardan o'zlashtirilgan nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar integratsiyalashib faoliyat davomida bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetensiyasining shakllanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. Toshkent. 2020-yil 27-fevral, PQ-4623-son.
2. Муслимов Н.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантириш. -Т.: Фан нашриёти, 2004. -130 б

O'QUV JARAYONLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Abdullayev S.X., Uluhanov I.T. - NamDU Texnologik ta'lim
kafedrasi dotsentlari**

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'quv jarayonini samarali tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati, afzalliklari va interfaol darslarning tashkil etish natijasida erishiladigan yutuqlar haqida, shuningdek o'quv jarayonini samarali tashkil etish ko'p jihatdan o'qituvchining mahoratiga bog'liq ekanligi to'g'risidagi fikrlar ko'rsatib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar:** Xalq ta'limi tizimi, ta'lim-tarbiya, pedagogik texnologiya, innovatsion texnologiya, interfaol ta'lim, interfaol metod, pedagogik mahorat.*

Bugungi mustaqillik sharoitida xalq ta'limi tizimi o'ziga xos rivojlanish davrini boshidan kechirmoqda. Bu o'ziga xoslik eng avvalo ta'lim-tarbiya mazmunini milliy lashtirish, ya'ni o'zimizning juda boy o'tmish tariximiz, madaniyatimiz, fanimiz, tilimiz o'z mohiyati bilan juda chiroyli, yuksak insoniy, axloqiy mazmunga ega bo'lgan milliy urf-odatimlarimiz asosida jamiyatimiz kelajagi bo'lgan yosh avlodni o'qitish baxtiga muyassar bo'ldik. Bu narsa xalqimizning qalbida yuksak g'urur hislarini to'lqinlantiradi. Mana shu sharoitda hammamizdan juda katta ko'tarinkilik bilan

jamiyatimizning yosh avlodini yuksak vatanparvarlik, xalqparvarlik milliy g'urur ruhida tarbiyalashimizni, shu bilan birga ta'lim-tarbiyaga yangicha yondashuv, yangicha uslub va mazmun, shakl va vositalardan foydalanishni taqazo etmoqda.

Mustaqillik yillarida o'z mustaqil fikriga ega, har jihatdan yetuk jahon standartlariga mos keladigan barkamol avlodni voyaga yetkazish maqsadida O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida o'ziga xos pedagogik texnologiyalar maktabi yaratildi. Hozirgi kunda ta'lim tizimida hal etilishi zarur muammolardan biri sobiq sho'rolar davridan qolgan mafkuraviy qarashlardan voz kechib, ta'lim tizimida uzviylikni ta'minlash, zamonaviy bilim va dunyoqarashga ega o'quvchilarni tayyorlash, ta'lim sifatini oshirish masalasidir. Chunki, jamiyat, yurtimiz kelajagi ko'p jihatdan o'quvchilarimizning ilmiy, axloqiy va ma'naviy saviyasiga bog'liq.

Endilikda fan, texnika va innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi natijasida o'quv tarbiya jarayonida interfaol usullardan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, ehtibor kundan-kunga kuchayib bormoqda.

Innovatsion texnologiyaning afzalligi ta'lim jarayonini bir butunlikda ko'rib, ta'lim maqsadi uning mazmuni, bilim berish usuli, natijalari, ta'lim bosqichlarini loyihalab, uni nazarat qilish, natijalarini baholash kabi uzviy bog'lashdan iborat.

Innovatsion texnologiya ta'lim tizim sifatida o'quvchilarni bilish faoliyatini maqsadga muvofiq tashkil etish va amalga oshirishni nazarda tutadi.

O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olish va tarbiyalanishiga, shuningdek, erkin fikrlab sinfdoshlari bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchi harakat ishtirokchisiga aylanadi.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va ta'lim oluvchilar faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan foydalaniladi. Interfaol metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash va ishlashdir, yangi pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmuninin tarkibiy qismlari hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'qituvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Interfaol metodlarning asosiy maqsadi o'qitish tizimida dars jarayonining markaziga o'qituvchi o'rniga o'quvchini olib chiqishdir. O'qituvchi interfaol metoddan foydalanar ekan, qaysi mavzuda qaysi metodda foydalanishni tanlay olishi juda muhimdir. O'qituvchi interfaol metodlardan avvalo oddiydan murakkabga o'tish nazariyasiga amal qilgan holda foydalanmog'i lozim. Interfaol darslarning tashkil etilishi natijasida quyidagilarga erishiladi:

- darsga nisbatan barcha o'quvchilarda yuqori darajada qiziqish uyg'otiladi;
- belgilangan o'quv materialini puxta o'zlashtirish imkoni yalatiladi;
- o'quvchilarda mustaqil fikrlash hamda hozirjavoblik qobiliyati shakllanadi;
- olingan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash malakasi shakllanadi;
- barcha o'quvchilarning faolligi oshadi;
- muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishi;
- muammolarni yechish ko'nikmalarini shakllantirilishi;
- o'quvchilar o'rtasida do'stona munosabatlar shakllanadi;

Hozirgi zamon ta'lim tizimidagi amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, oldindan puxta tayyorlangan innovatsion texnologiyalardan foydalanib o'tilgan dars, albatta o'qituvchi va o'quvchiga darsni qiziqarli bo'lishi, shuningdek, ijobiy natijaga erishishlariga imkoniyat yaratadi hamda darsning samaradorligini oshiradi.

Shunday ekan, u yoki bu texnologiyani o'quv jarayoniga qo'llashdan avval uning barcha xususiyatlari va imkoniyatlarini, nimaga yo'naltirilganligi, qanday maqsadlarda foydalanish, muayyan bir sharoitda qanday vazifalarni yechishga yordam berishini o'rganib chiqish, keyin uni qo'llash kerak.

Xulosa qilib aytsek, har bir pedagog o'z fanini chuqur bilishi, oquvchilarini shu fanga qiziqitira olishi, dars jarayonlarida innovatsion texnologiyalardan unumli va o'rinli foydalanishlari lozim, chunki, maktabda ta'lim-tarbiya ishining yuqori saviyada olib bo'lishi faqat o'qituvchiga uning kasbiy mahoratiga ham bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). -T.: "Iste'dod" jamg'armasi, 2008. -180 b.
2. Choriev R. Yangi pedagogik texnologiyalar-ta'lim tarbiya sifat va samaradorligi omili "Xalq ta'limi" jurnali.2004.No4.

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MUAMMOLI TA'LIMDA STEAM YONDASHUV

Abdullayev S.X., Uluhanov I.T. - NamDU Texnologik ta'lim kafedrasi dotsentlari

***Annotasiya:** Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida dars mashg'ulotlarida STEAM o'qitish metokasidan samarali foydalanish va dars jarayonlarida nimalarga e'tibor berish kerakligi haqida fikr-mulohazalar bildirilgan.*

***Kalit so'zlar:** STEAM, Tehnologiya, Muhandislik, San'at, Matematika, o'qituvchi, o'quvchi, muammoli vaziyat, dars jarayoni, laboratoriya jihozlari.*

**STEAM approach to problem-based learning in secondary schools.
Abdullayev S.X., Uluhanov I.T. - NamSU Technological education
associate professors of the department**

***Annotation:** This article discusses the effective use of the STEAM teaching method in secondary school lessons and what to look for in the teaching process.*

***Keywords:** STEAM, Technology, Engineering, Art, Mathematics, Teacher, Student, Problem Situation, Lesson Process, Laboratory Equipment.*

Bugungi kunda o'qituvchilar va ta'lim muassasalari rahbarlari uchun katta vazifa o'quvchilarga kerakli ko'nikmalarni egallashlari va ularning ta'lim ehti-

yojlarini qondirish hamda ota-onalarning umidlarini qondirish uchun darslar va o'quv jarayonini tashkil etishdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019 yil 20 fevraldagi PQ-4199-son qaroriga asosan Respublikamizning har bir hududida iqtidorli yoshlarni aniqlash maqsadida Prezident maktablari ochildi. Ular STEAM fanlarini o'qitishga ixtisoslashgan. STEAM — maktab o'quvchilarini yangi o'qitish metodikasi bo'lib, an'anaviy o'qitish tizimiga muqobil tizim hisoblanadi. U bolalarni bir vaqtning o'zida Science (tabiiy fanlar), Technology (texnologiya), Engineering (muhandislik), Art (san'at) va Mathematics (matematika) bo'yicha o'qitish tizimiga asoslangan, bunda o'quvchilar amaliy va ko'ngilochar loyihalar mashg'ulotlari yordamida saboq oladilar.

STEAM ta'limi texnologiyasi loyihalash metodiga tayangan holda uning asosida bilish va badiiy izlanish yotadi. Bunday izlanish amaliy faoliyat jarayonida bilimlarni olish, so'ngra ulardan amaliyotda qayta foydalanish, ya'ni o'yinlarda konstruksiyalar tuzish, texnik ijodiyot elementlarini qo'llab, bilim olishga oid tadqiqot ishlarida amalga oshiriladi. STEAM ta'limi o'quvchi yoshlarning rivojlanishini tashqi olam bilan bevosita bog'laydi.

Ma'lumki, tabiiy fanlar atrofimizdagi olam bilan bevosita bog'liq texnologiya kundalik hayotimizda doimiy ravishda qo'llaniladi, muhandislik esa uylar, yo'llar, ko'priklar va mashina mexanizmlarda o'z aksini topgan, biror bir kasb, kundalik mag'ulotlarimiz ozmi-ko'pmi matematika fani bilan ham bog'langandir. STEAM ta'limi asosida yondashuv o'quvchi yoshlarga dunyoni tizimli ravishda o'rganishga, atrofda ro'y berayotgan jarayonlarni mantiqiy mushohada qilishga, ulardagi o'zaro aloqani anglab yetishga o'zi uchun yangi, noodatiy va qiziqarli narsalarni kashf qilishga imkon beradi. Qandaydir yangilikni kutish orqali o'quvchi yoshlarda qiziquvchanlikni rivojlantiradi, o'zi uchun qiziqarli masalani aniqlab olishni, yechimini topishning algoritimini ishlab chiqishni, natijalarni tanqidiy baholashni, fikrlashning muhandislik jihatlarini shakllantirishga olib keladi.

Ko'proq o'qituvchilar STEMga ishonishadi, chunki ushbu yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari haqiqatan ham ko'plab muammolarni hal qilishi mumkin. Bugungi bitiruvchilar - bo'lajak kashfiyotchilar va innovatorlar tabiat va texnika fanlari haqida puxta bilimga ega bo'lishlari, XXI asrning yangiliklari va jamiyatning dolzarb ehtiyojlari sharoitida aloqa, jamoaviy ish va muammolarni hal qilish kabi ko'nikmalariga ega bo'lishlari kerak.

O'zbekistonda STEM so'nggi yillarda juda mashhurlikka erishdi, ammo bu yondashuv har doim ham to'g'ri tushunilmaydi. Shuni esda tutish kerakki, haqiqiy STEM darslari birinchi navbatda shou emas, balki o'quv jarayoni. STEM-darsida har bir mashg'ulot o'quvchilar tomonidan aniq tushuniladi, laboratoriya asboblari, robototexnika ob'ektlari dars tuzilishida bevosita ishtirok etadi. Bunday sinflarni ishlab chiqish oson ish emas, chunki o'qituvchi har tomonlama o'ylashi va ba'zi sohalar bo'yicha bilim darajasini oshirishga, tajriba o'tkazishga va kerakli natijani kutib

sabrli bo'lishga tayyor bo'lishi kerak. Agar siz ta'lim muammosiga tayyor bo'lsangiz - yaxshi STEM darsini yaratishda quydagilarga e'tbor qarating.

1. ***O`quvchilarni haqiqiy muammolar va vaziyatlarni hal qilishga jalb qilish.*** Masalan, siz hayvonlarning bir turi boshqa afsonaviy turlarga zarar etkazadigan holatni ixtiro qildingiz. Ha, hayvonlarni yuqtirish haqiqiy muammo bo'lishi mumkin, ammo vazifada xayoliy ob'ektdan foydalanish vaziyatni haqiqiy emas qiladi va shuning uchun STEM darsi bo'lmaydi. Albatta, bunday usullardan o'quvchilarning qiziqishini oshirish uchun foydalanish kerak, ammo badiiy voqealar bo'yicha darsning asosini yaratmaslikka harakat qiling. O`quvchilar haqiqiy ijtimoiy, iqtisodiy, atrofmuhit muammolarini ilmiy bilimlar, texnologiyalar, muhandislik va matematikani qo'llash orqali hal qilishadi.

2. ***O`quvchilar bajaradigan vazifalar uchun aniq mezonlarni shakllantirish.***

Agar siz o`quvchilardan model yoki prototip ishlab chiqishni so'rasangiz, mahsulotga aniq talablarni yozing (materiallar, o'lchamlar, funktsional imkoniyatlar va boshqalar), natijada atrof-muhit muammolari yoki rivojlanish jarayonida xavfsizlik omillari hal qilishi kerak bo'lgan boshqa muhim masalalar.

3. ***Jamoa bilan samarali ishlashni rag'batlantirish.*** Sifatli mahsulot ishlab chiqarish uchun o`quvchilar yagona mexanizm sifatida ishlashi, vazifalarni taqsimlashi, yaqin va uzoq muddatli maqsadlarni belgilashi, oraliq natijalarni tahlil qilishi va ichki aloqalarni yaxshilashi kerak. Ba'zi joylarda darslarning ushbu komponenti o`quvchilar uchun eng qiyin hisoblanadi.

4. ***Ish samaradorligini oshirish uchun muhandislik dizayni elementlaridan foydalaning*** (Engineering Design Process, EDP):

- Muammoni aniqlash: o`quvchilar muammoni hal qilishdan oldin uni aniqlaydilar.

- Tadqiqot: Jamoa a'zolari turli xil ma'lumot manbalaridan foydalanib, muammo haqida kerakli ma'lumotlarni to'plashadi. O`quvchilarga fan va matematikaning sifatli manbalarini va bir nechta echimlarni taklif qiladigan muammolarni taklif eting.
- Muammoni hal qilish variantlarini ishlab chiqing: tadqiqot guruhidagi o`quvchilar turli xil g'oyalarni taklif qilishadi, muhokama qiladilar va tahlil qiladilar (masalan, "Aqliy hujum" yoki g'oyalarni yaratish uchun boshqa usullardan foydalanish).
- Qarorni tanlash va ishni rejalashtirish: o`quvchilar ish bosqichlarini belgilaydilar, dizayn, eskiz va boshqalarni yaratadilar.
- Mahsulot yaratish, muammolarni hal qilish.
- Mahsulotni sinovdan o'tkazish va sinash.
- Ish natijalarini tahlil qilish va rivojlanishni takomillashtirish.

5. ***O`quvchilarni amaliy va ochiq tadqiqotlarga jalb qilish.*** laboratoriya asboblari, robototexnika ob'ektlari dars tuzilishida bevosita ishtirok etadi. Boshlang'ich, o'rta va o'rta maktablarda STEM o'quvchilarning bilim va ko'nikmalariga qarab amalga oshiriladi, lekin umuman bolalarda qiziqishni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, fan,

texnika, muhandislik va bizning kundalik hayotimiz o'rtasidagi bog'liqlikni namoyish etish kabi vazifalarni bajarishi aniq.

Integratsiyalashgan mashg'ulotlar orqali o'quvchilar texnologik taraqqiyot va hayotimida ilmiy bilimlarning ruhini his qilishi, individual tafovut qilingan faktlardan dunyoning keng qamrovli rasmini tuzishni o'rganish, ilmiy bilimlarning ob'ektivligi, asosiligi va tizimlashtirilishini ko'rish, fan eng muhim omil ekanligiga ishonch hosil qilish imkoniyatiga ega. Bu nima uchun muhim? Raqobatbardosh bo'lish uchun Uzbekistonda yuqori malakali ishchilarga ega bo'lishi kerak, ammo bu isloh qilingan ta'lim va o'qimishli jamiyatsiz mumkin emas.

Xulosa qilib aytganda, STEAM o'quvchilarni tajribalar o'tkazish, modellarni konstruksiyalash, musiqa va filmlarni mustaqil yaratish, o'z g'oyalarini amalga oshirish va mahsulot yaratishni rag'batlantiradi. O'qitishga bunday yondashuv bolalarga nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini samarali chog'ishtirish imkonini beradi. O'quvchilarning ijodkorligini oshiradi, yuqori malakali, zamon talabiga mos kadrlar tayyorlashda mustahkam poydevor bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. "STEAM ta'lim tizimi nima?" <https://www.integer.uz/steam>.
2. "STEAM education for English learners" <http://exclusive.multibriefs.com/content/steam-education-for-english-learners/education>.
3. "English Teachers: How You Can Use STEAM in Your Classroom By Jennifer Gunn" <https://resilienteducator.com/classroom-resources/steam-lessons-english-classroom/> References 1. "

ТЕХНОЛОГИК ТАЪЛИМ ЙЎНАЛИШИДА ТАЛАБАЛАРНИ ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВ АСОСИДА ШАКЛЛАНТИРИШ

Зокирова Наргиза Акбаржонова

Андижон давлат университетининг педагогика институт магистранти

Аннотация: Ушбу мақолада ўқитувчи-талабалар ўртасида ўқув жараёнларини лойиҳалаштиришида таълим мазмунини, таълим мақсади, кутилаётган натижани тўғри белгилаш, таълим методлари, шакллари ва воситаларини тўғри танлаш, талабаларнинг билим, кўникма ва малакаларини баҳолашни аниқ мезонларини олдиндан ишлаб чиқиши, машгулотга ажратилган вақт ичида уларни тўғри амалга ошириши ва бир-бири билан уйғунлашувига эътиборни қаратиши мақсадга мувофиқлиги ёритилган.

Калит сўзлар: харита, интерактив, инновация, дурадгорлик, метод, педагогика

Аннотация: В данной статье описаны содержание образования, цель образования, ожидаемый результат, правильный выбор методов, форм и средств обучения, разработка четких критериев оценки знаний, умений и навыков учащихся. описано. Выделена целесообразность концентрации внимания на отведенном времени и гармонизации учебного процесса.

Ключевые слова: карта, интерактив, инновация, столярное дело, метод, педагогика.

Annotation: This article describes the content of education, the purpose of education, the expected result, the correct choice of methods, forms and means of education, the development of clear criteria for assessing the knowledge, skills and abilities of students. described. The expediency of focusing attention on the allotted time and harmonization of the educational process is highlighted.

Key words: map, interactive, innovation, carpentry, method, pedagogy.

Юртимиз олий ўқув юртларида малакали касб эгаларини тайёрлашда замонавий ўқитиш методлари - интерактив методлар, инновацион технологияларнинг ўрни ва роли бениҳоя каттадир. Бунда педагогик технология ва педагогик маҳоратига оид билим, тажриба ва интерактив методлар талабаларни билимли, етук малакага эга бўлишларини таъминлайди.

Инновацион технологиялар педагогик жараён ҳамда ўқитувчи ва талаба фаолиятига янгилик, ўзгаришлар киритиш бўлиб, уни амалга оширишда асосан интерактив методлардан тўлиқ фойдаланилади.

Педагогик ҳамкорлик жараёни ўзига хос хусусиятларга эга бўлиб, уларга куйидагилар киради:

- талабанинг дарс давомида бефарқ бўлмасликка мустақил фикрлаш, ижод этиш ва изланишга мажбур этиши;

- талабаларни ўқув жараёнида билимга бўлган қизиқишларини доимий равишда бўлишини таъминлаши;

- талабанинг билимга бўлган қизиқишини мустақил равишда ҳар бир масалага ижодий ёндошган ҳолда кучайтириши;

- педагог ва талабанинг ҳаммиша ҳамкорликдаги фаолиятини ташкилланиши.

Педагогик технологиялар масалаларининг муаммоларини ўрганаётган ўқитувчилар, илмий-тадқиқотчилар, амалиётчиларнинг фикрича, педагогик технология - бу фақат ахборот технологияси билан боғлиқ, ҳамда ўқитиш жараёнида қўлланиши зарур бўлган ТСО – ЎТВ (таълим самарадорлигини ошириш), (ўқитувчининг технологик воситалари), компьютер, масофали ўқитиш, ёки турли хил техникалардан фойдаланиш деб белгиланади. Педагогик технологиянинг энг асосий негизи - бу ўқитувчи ва талабанинг белгиланган мақсаддан қафолатланган натижада ҳамкорликда эришишлари учун танланган технологияларига боғлиқ деб ҳисоблаймиз.

Ўқитувчи ва талабанинг мақсади бўйича натижага эришишида қандай технологияни танлашлари улар ихтиёрида, чунки ҳар иккала томоннинг асосий мақсади аниқ: натижага эришишга қаратилган, бунда талабаларнинг билим савияси, гуруҳ характери, шароитга қараб ишлатилган технология танланади, масалан, натижага эришиш учун балким, компьютер билан ишлаш лозимдир, балким фильм, тарқатма материал, чизма ва плакатлар, турли адабиётлар, ахборот технологияси керак бўлар, булар ўқитувчи ва талабага боғлиқ.[5,7]

Бундан ташқари ўқитиш жараёнини олдиндан лойиҳалаштириш зарур, бу жараёнда ўқитувчи ўқув предметининг ўзига хос томонини, жой ва шароитини, ТСО-ЎТВ ни энг асосийси, талабанинг имконияти ва эҳтиёжини ҳамда ҳамкорликдаги фаолиятини ташкил эта олишини ҳисобга олиш керак, шундагина, керакли кафолатланган натижага эришиш мумкин. Қисқа қилиб айтганда, талабани таълимнинг марказига олиб чиқиш керак.

Ўқитувчи томонидан ҳар бир дарсни яхлит ҳолатда кўра билиш ва уни тасаввур этиш учун бўлажак дарс жараёнини лойиҳалаштириб олиш керак. Бунда ўқитувчига у томонидан бўлажак дарсни технологик ҳаритасини ҳар бир мавзу, ҳар бир дарс учун ўқитилаётган предмет, фаннинг хусусиятидан, талабаларнинг имконияти ва эҳтиёжидан келиб чиққан ҳолда тузилади.[7]

Бундай технологик ҳаритани тузиш осон эмас, чунки бунинг учун ўқитувчи педагогика, психология, хусусий методика, педагогик ва ахборот технологиялардан ҳабардор бўлиши, шунингдек, жуда кўп методлар, усулларини билиш керак бўлади. Ҳар бир дарсни ранг-баранг, қизиқарли бўлиши аввалдан пухта ўйлаб тузилган дарснинг лойиҳалаштирилган технологик ҳаритасига боғлиқ.[5]

Дарснинг технологик ҳаритасини қай кўринишда ёки шаклда тузиш бу ўқитувчининг тажрибаси, қўйган мақсади ва ихтиёрига боғлиқ. Технологик ҳарита қандай тузилган бўлмасин, унда дарс жараёни яхлит ҳолда акс этган бўлиши ҳамда аниқ белгиланган мақсад, вазифа ва кафолатланган натижа, дарс жараёнини ташкил этишнинг технологияси тўлиқ ўз ифодасини топган бўлиши керак. Технологик ҳаритани тузилиши ўқитувчидан дарсни кенгайтирилган конспектини ёзишдан халос этади, чунки бундай ҳаритада дарс жараёнининг барча қирралари ўз аксини топади.

Қуйида “Ёғоч ва бошқа материаллардан халқ ҳунармандчилиги иш усуллари асосида буюмлар” мавзуси бўйича ўтказиладиган дарснинг олдиндан лойиҳалаштирилган технологик ҳаритасини мисол тариқасида сизга ҳавола қиламиз.

Технологик ҳарита

Мавзу:	Ёғоч ва бошқа материаллардан халқ ҳунармандчилиги иш усуллари асосида буюмлар тайёрлаш
Мақсад, вазифалари	Талабаларга дуродгорликда ишлатиладиган асбоблардан фойдаланиб, ёғочни қўлда ўйишни ўргатиш. Тарқатилган материалларга яқка ва гуруҳ ҳолатида ўзлаштириш ҳамда суҳбат-мунозара орқали тарқатма материаллардаги матнларнинг ўзлаштириш даражасини назорат қилиш, уларнинг билимини баҳолаш.
Ўқув жараёнининг мазмуни	Талабаларни дуродгорликда ишлатиладиган ўйювчи асбобларни кундалик ҳаётимиздаги аҳамияти. Иш ўрнини тоза тутиш ва гигиена қоидаларига риоя қилишга ўргатиш . Ёғочларни ўйишни турли хил усулларини ўргатиш, талабалар ижодкорлигини

	ўстириш ва ривожлантириш. Дуродкорликда ишлатиладиган ўювчи асбоблар (искана, болға, арра, қискич ва бошқалар)
Ўқув жараёнини амалга ошириш технологияси	<p>Метод: Сухбат-мунозара технологияси.</p> <p>Шакли: Кичик гуруҳлар билан ишлаш.</p> <p>Восита: Тарқатма материаллар: матнлар, маълумотлар.</p> <p>Усул: Тайёр ёзма материаллар ва чизмалар асосида.</p> <p>Назорат: Оғзаки назорат, савол-жавоб.</p> <p>Баҳолаш: 5 балли тизим асосида рағбатлантириш.</p>
Кутиладиган натижалар	<p>Ўқитувчи: Мавзуни қисқа вақт ичида барча талабалар томонидан ўзлаштирилишига эришади. Талабалар фаоллигини оширади. Талабалар дарсга нисбатан қизиқиш уйғотади. Бир вақтнинг ўзида кўпчилик талабаларни баҳолайди. Ўз олдига қўйган мақсадларига эришади.</p> <p>Талаба: Янги билимларни эгаллайди. Якка ҳолда ва гуруҳ бўлиб ишлашни ўрганadi. Нутқи ривожланади ва эслаб қолиш қобилияти кучаяди. Ўз-ўзини назорат қилишни ўрганadi. Қисқа вақт ичида кўп маълумотга эга бўлади.</p>
Келгуси режалар (таҳлил, ўзгаришлар)	<p>Ўқитувчи: Замонавий педагогик технологияларни ўзлаштириш ва дарсда тадбиқ этиш, такомиллаштириш. Ўз устида ишлаши. Мавзуни ҳаётий воқеалар билан боғлаш. Педагогик маҳоратни ошириш.</p> <p>Талаба: Матн билан мустақил ишлашни ўрганиш. Ўз фикрини равон баён қила олиш. Шу мавзу асосида қўшимча материаллар топиш, уларни ўрганиш. Ўз фикрини ва гуруҳ фикрини таҳлил қилиб бир ечимга келиш малакасини ҳосил қилиш.</p>

Ўқитувчи томонидан ўзи ўқитаётган фаннинг ҳар бир мавзуси, ҳар бир дарс машғулотни бўйича тузилган юқоридаги каби технологик ҳарита унга ўз фани, предметини яхлит ҳолда тасаввур этиб ёндошишга, тушунишига (бир семестр, бир ўқув йили бўйича), яхлит ўқув жараёнининг бошланиши, мақсадидан тортиб, эришиладиган натижасини кўра олишига ёрдам беради. Айниқса, технологик ҳаритани талабанинг имконияти, эҳтиёжидан келиб чиққан ҳолда тузилиши, уни шахс сифатида таълимнинг марказига олиб чиқишга имкон яратади. Бу эса ўқитишнинг самарадорлигини оширишга олиб келади.

Инновацион фаолият мотивацион, технологиклик рефлексиялик

қисмлардан ташкил топади. Ўқитувчини бу фаолиятга тайёрлаш икки йўналишда амалга оширади: янгиликни идрок қилишга инновацион таёргарликни шакллантириш ва янги харакат қилишга ўргатиш.

Инновацион фаолиятни ташкил этишда талабаларнинг билиш фаолияти ва уни бошқариш алоҳида аҳамиятга эга.

Инновация жараёнлари, функциялари, механизмлари ва уни амалга ошириш технологиялари ва бошқариш тамойилларининг педагогик асосларини ўрганиш ўқув жараёнини замонавий педагогика ва психология фанлари ютуқ -лари асосида ташкил этиш имконини беради.[1,2]

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ю. К. Бабанский «Ўқитиш жараёнини оптималлаштириш», М. 1977 йил.
2. В.И. Загвезинский «Инновационные процессы в образовании и педагогическая наука», Тюмень 1990 г.
3. А.Х. Мунавваров таҳрири остида. «Педагогика» Т. Ўқитувчи 1996 йил.
4. В.А.Сластинин, Л.С.Кедымова, «Педагогика», «Инновационная деятельность», М. Магистр 1997 г.
5. Н.Х. Авлиякулов «Замонавий ўқитиш технологиялари» Т. 2001 йил.
6. А.Х. Қосимов «Махсус фанларни ўқитиш методикаси» Тошкент, ТАТУ 2004 йил.

ТЕХНОЛОГИЯ ЎҚИТУВЧИСИНИ КАСБИЙ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ ФАНЛАРАРО АЛОҚАДОРЛИК ОРҚАЛИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Абдурасулова Оминахон Жакбарали қизи

Андижон давлат университетининг педагогика институт магистранти

***Аннотация:** Ушбу мақолада, ҳар қандай фан ўзига яқин бўлган бошқа фанларнинг таъсирида юзага келади ва улар билан биргаликда ривожланади. Мактабларда, билим юрти ва олий ўқув даргоҳларида фанларни ўқитиш-ўргатиш ишларида фанлараро боғланиш ва алоқалардан фойдаланиш муҳим аҳамиятга эга эканлиги ёритилиб ўтилган.*

***Калит сўзлар:** интеграция, алоқадорлик, дарс, амалий, машгулот, технология*

***Аннотация:** В этой статье видно, любая наука возникает под влиянием других близких ей наук и развивается вместе с ними. Подчеркнута важность использования межпредметных связей в преподавании естественных наук в школах, колледжах и вузах.*

***Ключевые слова:** интеграция, актуальность, урок, практика, обучение, технология*

***Annotation:** This article shows that any science arises under the influence of other sciences close to it and develops along with them. The importance of using interdisciplinary connections in the teaching of natural sciences in schools, colleges and universities is emphasized.*

***Keywords:** integration, relevance, lesson, practice, learning, technology.*

Таълим тизимини мамлакатда амалга оширилаётган ижтимоий-иқтисодий ислохотлар, ривожланган хорижий мамлакатларнинг илғор тажрибалари ҳамда илм-фан ва замонавий ахборот-коммуникация технологияларига асосланган ҳолда ташкил этиш, маънавий баркамол ва интеллектуал ривожланган шахсни тарбиялашдан иборат.[1,5]

Интеграциялашган дарсларни ташкил қилишда қуйидагиларга эътибор бериш лозим: Фан йўналишлари бўйича ишлаб чиқилган йиллик тақвим мавзуий режа таркибида интеграциялашган мавзулар киритилиши керак. Унда тақвим мавзуий режа қуйидаги 6-жадвал асосида тузилади. Дарс ишланмасини ёзишда: 1. Асосий мавзу ёзилгандан кейин қавс ичига интеграциялашган мавзунини ёзиш керак. 2. Асосий мавзунинг мақсадини (таълимий, тарбиявий ва ривожлантирувчи) ёритиш билан унинг таркибида интеграциялашган мавзунинг мақсади ҳам ёритилиши лозим. 3. Асосий мавзу билан интеграциялашган мавзунини ўқишда фойдаланиладиган кўргазмалар ва кўрсатмаларни воситаларни қўшиб ёзиш керак. 4. Ушбу дарс ишланмасига интеграциялашган мавзу юзасидан бериладиган маълумотни киритиш керак.[4]

Ўқитувчи ва ўқувчиларда компетенцияларни шакллантиришда фанлараро боғланишлардан фойдаланиш Амалий машғулотдан кўзланган мақсад: тингловчиларга ўқувчиларда компетенцияларни шакллантиришда фанлараро боғланишлардан фойдаланишни асосида дарсларни ташкил қилишни ўргатиш. Тингловчилар фаолиятини ташкил қилиш бўйича йўл-йўриқлар: умумтаълим фанларининг мақсад ва вазифаларини ўрганиш; дарслик ва методик қўлланмаларни ўрганиш; фанларни технология фани билан ўзаро алоқасига оид маълумотларни тўплаш ва таҳлил қилиш; фанлараро боғланиш схемасини ишлаб чиқиш. Амалий машғулот учун назарий материаллар. Таълим-тарбия жараёнида фанлараро боғланишлардан фойдаланиш катта аҳамиятга эга. Маълумки, ҳар қандай фан ўзига яқин бўлган бошқа фанларнинг таъсирида юзага келади ва улар билан биргаликда ривожланади. Шунинг учун мактабларда, билим юрти ва олий ўқув даргоҳларида фанларни ўқитиш-ўргатиш ишларида фанлараро боғланиш ва алоқалардан фойдаланиш муҳим аҳамиятга эга. Худди шу сингари технология фани дарсларини ҳам бошқа фанларга боғлаб ўқиш самарали натижалар беради, дарс самарадорлигини оширишнинг муҳим омилларидан бири бўлиб ҳисобланади. Технология фанидаги фанлараро боғланишларни икки хил кўринишга бўлиш ҳамда уларни шартли равишда ички ва ташқи фанлараро боғланишлар деб аташ мумкин. Технология фани дарсларида ички боғланиш деганда шу соҳага оид фанлардаги мавзуларнинг ўзаро боғланиши, алоқадорликлари тушунилади. Ташқи боғланиш эса Технология фани дарсларини бошқа фанлар билан бўладиган боғланишларини билдиради. Юқоридагилардан кўриниб турибдики, технология фанининг бундай кетмакетликда ўқитилиши бир-бири билан узвий боғланган бўлиб, улар бир-бирларини мустақамлаб ва тўлдириб боради. Агар бошланғич синфларда тайёрлов кўринишидаги ўқув машғулотлари ўтилса, V-VII синфларда улар такомиллаштирилиб, саноат ва қишлоқ хўжалигига оид кенгрок билимлар берилди. Юқори синфларда эса маълум бир ихтисосликлар бўйича касбларга

йўналтирилади. Кўриниб турибдики, технология фани дарслари бу босқичларда ўзаро узвий боғланиб, оддийдан мураккабга, осондан қийинга қараб бориш тамойили асосида олиб борилади. Технология фани ўқитувчисининг вазифаси шу тамойилига амал қилган ҳолда янги материални олдин ўтган материаллар билан боғлаб олиб боришдир. Бу ишлар фанлараро боғланишларнинг маълум бўлган уч тури, яъни янги мавзунини ўтишдан олдин, янги мавзунини ўтиш давомида ва янги мавзунини ўтиб бўлганадан сўнг боғлаш усулларида фойдаланиб амалга оширилади. Технология таълимидаги ташқи боғланишлар эса унинг бошқа соҳалар ва фанлар билан бўлган ўзаро алоқасини билдиради. Умуман олганда, технология фани дарсларини мактабда ўтиладиган барча фанлар билан боғлаш мумкин. Амалда эса технология фани дарслари кўпроқ расм, чизмачилик, тасвирий санъат, физика, математика, жисмоний тарбия, она тили ва адабиёт, кимё, география, электрон ҳисоблаш машиналари ва информатика асослари, тарих, биология каби фанлар билан боғланади. Қуйида технология фани дарсларида бошқа фанларга оид тушунча ва маълумотлардан фойдаланиш бўйича айрим кўрсатмалар ва услубий тавсиялар берилган Амалий топшириқ. Ўқувчиларнинг компетенцияларини шакллантиришда технология фани дарсларини ўзаро ва бошқа фанлар билан боғлаб ўтиш имкониятлари бўйича берилган жадвални тўлдиринг. Т/р Фан номи
Технология фани билан ўзаро алоқаси 1. Тасвирий санъат. 2. Чизмачилик. 3. Математика. 4. Физика. Технология ва чизмачилик. Технология дарсларини чизмачиликсиз тасаввур этиб бўлмайди. Технология дарсларида чизмачилик ҳам ўз ўрнида жуда зарурдир. Чунки ҳар қандай детални яшаш унинг чизмасини ўқишдан бошланади ва бу жараёнда ўқувчида бўлажак буюм унинг қисмлари тўғрисида тасаввур ҳосил бўлади. Бинобарин, Технология дарсларидаги муҳим кўргазмалардан бири бўлган технологик ва инструкцион карталарни чизиш ва улардан фойдаланиш ҳам чизмалардан қандай фойдаланишга боғлиқдир. Демак, ўқувчиларнинг амалий фаолияти ва тайёрланадиган буюмларнинг сифати кўп жиҳатдан уларнинг чизмачиликка оид билим ва кўникмаларга ҳам боғлиқ экан. Бироқ чизмачилик VII синфдан бошлаб ўқитилади. Шу сабабли Технология ўқитувчиси V синфдан бошлаб ўқувчиларга чизма, ўлчам, ўқ чизиқлари, кесим, қирқим, чизмачилик асбоблари ва улардан фойдаланиш ҳақида маълумотлар бериб бориши зарур. Бунда ўқувчиларнинг олдинги синфларда шу соҳага оид олган билимларини ҳисобга олган ҳолда иш кўрилиши лозим. Технология ва физика. Технология таълими бўйича амалий машғулотларда турли материалларга ишлов беришдан олдин уларнинг физикавий хусусиятларини билиш зарур. Модданинг ташқи таъсир натижасида ўзининг кимёвий таркибини сақлаб қолиш хусусияти унинг физик хоссалари дейилади. Бундай хоссаларга материалларнинг ранги, зичлиги, эрувчанлиги, иссиқликдан кенгаши, иссиқлик сифими, иссиқлик ва электр ўтказувчанлиги, магнитланиши каби хоссалари киради. Масалан, металл қиздирилганда ундан иссиқлик ёки электр токи ўтганда металл магнит таъсир эттирилганда унинг таркиби ўзгармайди. Металлнинг физик хоссалари уларни бир-биридан фарқлашда ва ишлатишда жуда қўл келади. Масалан, ҳар қандай металл ўзига хос ялтироқликка эга бўлиб, бу унинг ранги дейилади. Ҳамма металлнинг

ранги бир хил эмас. Масалан, мис қизил, қалай ялтироқ ок, рух кулранг, пўлат оч кўк рангда бўлади. Бу ерда металллар хавода оксидланиб қолса ранги ўзгариши, энг юпқа металл бўлаги ҳам нур ўтказмаслигини таъкидлаш мумкин. Материал қиздирилганда ўзидан иссиқликни тез ўтказиши унинг иссиқлик ўтказувчанлиги дейилади. Металл ўзидан иссиқликни қанча тез ўтказса, у шунчалик тез ва текис қизийди ҳамда совийди. Шу сабабли металллардан буюмлар ясашда ва уларга ишлов бериш чоғида уларнинг иссиқликдан ўлчамлари ўзгариши мумкинлигини ҳисобга олиш зарурлиги кайд этилади. Умуман олганда материалларнинг физикавий хусусиятига кўра фарқлай олиш, муқобилларини танлаш орқали деталь ва буюм қисмларини тайёрлашга эришилади. Булардан ташқари, технология фани дарсларида материаллардан дастлабки асбоблар ёки дастгоҳлар ёрдамида турли буюмлар ясашда, асбобларни созлашда ҳаракат турлари, куч, босим, қувват, энергия, иш, ишқаланиш каби физик тушунчалардан кенг фойдаланиш зарур. Юқорида айтилган фикрлар технология фанидаги фанлараро узвий боғланишлар таълим самарадорлигини оширишдаги муҳим омил эканлигини кўрсатади. Биламизки, битта дарсни бирданга ҳамма фанлар билан боғлаб ўтиб бўлмайди, балки ўрганилаётган мавзуга мос келувчи тушунча ва маълумотларни танлаб олиб, зарур пайтда улардан фойдаланилади. Шунингдек, технология дарсларида бошқа фанлар, жумладан чет тили, иқтисод каби фанлардаги тушунчалардан ҳам кенг фойдаланиш мумкин, бироқ айтиб ўтилган бу ишларни биргина технология фани ўқитувчисининг ўзи уддалай олмайди. Амалга оширилиши зарур бўлган ишларни барча фан ўқитувчилари биргаликда амалга ошириши керак бўлади. [5,6]

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Diane Belcher, Ann M. Johns, Brian Paltridge. New directions in English for specific purposes research. The University of Michigan Press. 2011.
2. Ишмухамедов Р.Ж., Юлдашев М. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар.– Т.: “Нихол” нашриёти, 2016.-279 б.
3. Michael Swan, Catherine Walter. The Good Grammar Book. Oxford, 2001
4. Муслимов Н., ва бошқалар. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси. – Т.: Фан ва технологиялар, 2013 й.
5. Давлатов К., Воробьёв А., Каримов И. Мехнат ва касб таълими назарияси ҳамда методикаси. - Тошкент., Ўқитувчи, 1992. - 320 б.
6. Р.Х.Жураев, А.Зуннунов. таълим жараёнида ўқув фанларини интеграциялаш. – Т.: “Шарк”, 2005.

КРЕДИТ-МОДУЛЬ ТИЗИМИДА ТАЛАБАЛАРНИНГ МУСТАҚИЛ ИШИНИ ВА МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМИНИ РЕЖАЛАШТИРИШ ТАДБИРЛАРИ

Ғ.Абдуқодиров -Низомий номидаги Тошкент Давблат Педагогика Университетининг “Технологик таълими методикаси” кафедраси катта ўқитувчиси.

Б.Лафасов -Низомий номидаги Тошкент Давблат Педагогика Университетининг “Профессионал таълими методикаси” кафедраси катта ўқитувчиси.

Д.Бобонорова -Низомий номидаги Тошкент Давблат Педагогика Университети талабаси.

АННОТАЦИЯ

Республикада таълим тизимини мустаҳкамлаш, уни замон талаблари билан уйғунлаштириш тамонлари ёритиб берилган. Замон талабларига жавоб бера оладиган мутахассис кадрларни тайёрлашда, кредит-модуль тизимида талабаларнинг мустақил иши, мустақил таълими, ҳамда натижаларни баҳолаш усуллари баён қилинган.

АННОТАЦИЯ

Раскрыты вопросы взаимосвязи, укрепление системы образования в стране, ее приведение в соответствие с современными требованиями. Выводы проводимой студентами самостоятельной работы в условиях кредитной основе

SAMMARY

The issues of interconnection, strengthening the education system in the country, bringing it into line with modern requirements are disclosed. Conclusions of independent work carried out by students in terms of a credit basis

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон Фармони билан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси”да олий таълим жараёнларига рақамли технологиялар ва замонавий ўқитиш усулларни жорий этиш, ёшларни илмий фаолиятга кенг жалб этиш, коррупцияга қарши курашиш, муҳандислик-техник таълим йўналишларида таҳсил олаётган талабалар улушини ошириш, кредит-модуль тизимини жорий этиш, ўқув режаларида амалий кўникмаларни оширишга қаратилган мутахассислик фанлари бўйича амалий машғулотлар улушини ошириш бўйича аниқ вазифалар белгилаб берилган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги Фармони билан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси”га кўра мамлакатдаги олий таълим муассасаларининг 85 фоизи 2030 йилгача босқичма-босқич кредит-модуль тизимига ўтиши режалаштирилган бўлиб, мамлакатдаги деярли барча олий таълим муассасаларининг кредит-модуль тизимида фаолият юрита бошлашадилар.

Мамлакатимизнинг барча соҳаларида ислохотларни амалга ошириш, одамларнинг дунёқарашини ўзгартириш, етук ва замон талабига жавоб берадиган мутахассис кадрларни тайёрлашни ҳаётнинг ўзи тақозо этмоқда. Республикада

таълим тизимини мустаҳкамлаш, уни замон талаблари билан уйғунлаштиришга катта аҳамият берилмоқда. Замон талабларига жавоб бера оладиган мутахассис кадрларни тайёрлаш, олдимизда турган долзарб масалалардан биридир.

Кредит-модуль тизимида талабаларнинг мустақил иши – бу талабанинг ўзига хос ўқув фаолияти бўлиб, у дидактик топшириқларни мустақил равишда бажаришга, ўқишга қизиқтиришга ва муайян фан соҳасида билимларни оширишга йўналтирилган. Талабаларнинг мустақил иши мазмуни мантикий фикрлашни, ижодий фаолликни, ўқув материални ўзлаштиришда тадқиқотчилик ёндашувини шакллантиришга имкон берувчи амалий топшириқларни бажариш билан боғлиқ бўлади.

Талабаларнинг мустақил иши мазмуни фаннинг хусусиятидан, олий ўқув юртининг техник имкониятларидан ва кутубхонанинг ўқув-услубий таъминланганидан келиб чиқиб аниқланади.

Одатда талабаларнинг мустақил иши талабанинг мустақил таълими билан биргаликда аудиториядан ташқарида бажариладиган ўқитувчи раҳбарлигидаги талабанинг мустақил ишини ҳам ўз ичига олади.

Талабанинг мустақил таълими. Талабанинг бевосита ўзи томонидан мобил қурилмаси орқали амалга ошириладиган мустақил иш турларига қуйидагиларни киритиш мумкин:

- дарсга тайёрланиш – маъруза матнлари, водкастлар, видео материаллар, амалий машғулотлар ва лаборатория ишлари баёнларини ўрганиш;
- ахборот излаш – ўз қизиқишларидан келиб чиқиб тақдим қилинган дайжест орқали интернет материалларини ўрганиш;
- FAQ (кўп сўраладиган саволлар) – ўзини қизиқтирган муаммоларга ўргатувчи дастурлар воситасида жавоб излаш;
- Forum – фан мавзулари бўйича телеграм каналлари ёки масофавий таълим платформаларида фикр алмашиш;
- Тест ечиш – ўргатувчи тест дастурларида машқ қилиш орқали фан модулига оид материалларни мустаҳкамлаш;
- Назорат ишига тайёрланиш – фан бўйича қутилаётган оралик ва якуний назоратларга тайёргарлик кўриш.

талабанинг мустақил ишини ҳам ўз ичига олади.

нинг ҳажми, мазмуни ва ҳисобот турини тасдиқлайди, иш ҳажмини, кетма-кетлигини ва топшириш муддатларини аниқлайди, талабанинг мустақил ишини ҳам ўз ичига олади.

натижалари бўйича талабалар ва ўқитувчиларнинг ҳисоботларини кўриб чиқади.

Анъанавий шаклдаги ўқитувчи раҳбарлигидаги талабанинг мустақил ишлари:

- масала ечиш – амалий машғулот мавзуси бўйича берилган масалаларни ечиш ва уни ёзма тарзда тақдим қилиш;
- реферат – муаммонинг ёзма баёни, бунда адабий манбалар шарҳланади ёки илмий иш, китоблар таҳлилий баён қилинади;

- коллоквиум – ўқув модулининг назарий қисмининг ўзлаштирилишини текшириш мақсадида суҳбат уюштириш;
- эссе – долзарб мавзу бўйича шахсий фикрини танқид, публицистик ва бошқа жанрларда ёзма баён қилиш;
- тақдимот – берилган мавзу бўйича слайд ва видео материаллар воситасида чиқиш қилиш;
- кейс-стади – ишлаб чиқаришдаги муаммоли вазиятлар бўйича белгиланган шаклдаги топшириқлар бўйича ечим излаш;
- иш ўйинлари – касбий фаолият жараёнларини имитация қилиш, саҳналаштириш, ролларни ижро қилиш орқали касбий кўникмалар орттириш;
- глоссарий – берилган мавзу бўйича атамаларни қисқа изоҳлаш.
- гуруҳ лойиҳаси – 3- 4 талабанинг ҳамкорликда лойиҳа ишини бажариши;
- ҳисоб-чизма ишлари – одатда техник фанлар (муҳандислик графикаси, электротехника, ахборот технологиялари ва ҳ.к.) бўйича амалга ошириладиган белгиланган услубий қўлланмалар асосида ёзиладиган график ва ҳисоб ишлари;
- курс иши – фан ёки фанлар мажмуаси бўйича белгиланган услубий қўлланмалар асосида ёзма ва ҳисоб ишлари;
- диплом лойиҳаси - мутахассислик фанига оид берилган мавзу бўйича ишлаб чиқариш корхонасини ёки унинг бўлинмасини лойиҳалашга қаратилган, график чизмалар ва ҳисоб ишлари билан баён қилинадиган белгиланган услубий қўлланмалар асосида ёзиладиган лойиҳавий иш;
- амалиёт ҳисоботи – ўтказилган малакавий амалиёт (танишув, ишлаб чиқариш, битирув олди амалиётлари) бўйича белгиланган услубий қўлланмалар асосида ёзиладиган ҳисобот;
- фан тўғаракларида иштирок этиш – талабанинг фан тўғаракларида макет, слайд, намуналар каби кўргазмаларни тайёрлаш;
- танловларда иштирок этиш – талабанинг ўқитувчининг илмий раҳбарлиги остида турли танловларда иштирок этиши (“Ёш ихтирочи”, талабалар стартап лойиҳалари ва ҳ.к.);
- фан олимпиадаларида қатнашиш – фанлар бўйича олий таълим муассалари ўртасида ўтказиладиган олимпиадаларда иштирок этиш (кимё, умумий кимёвий технология, физика, ахборот технологиялари ва ҳ.к.);
- илмий анжуманларда маъруза қилиш – фанга оид илмий тадқиқот мавзуси бўйича олий таълим муассалар, Республика ва халқаро миқёсларда ўтказиладиган илмий-техникавий анжуманларда маъруза қилиш;
- илмий тезис ва мақолалар чоп этиш – илмий анжуманларнинг тўпламларида тезислар ва илмий журналларда илмий тадқиқот мавзуси бўйича мақолалар чоп қилиш;
- ўқув-услубий материалларни тайёрлашда иштирок этиш – дарслик, ўқув қўлланма, услубий қўлланма, услубий кўрсатма ва бошқа ўқув-услубий адабиётларни тайёрлашда иштирок этиш;
- Link – интернет ҳаволасини очиб унда келтирилган видео ёки матн шаклидаги материални белгиланган ҳажмда изоҳлаш;

- Chart – жадвал, диаграмма ва схемаларни чекланган ҳажмда таҳлил қилиш.
- Q/A – масофавий таълим платформасида ўқитувчи томонидан берилган саволларга белгиланган ҳажмда ёзма жавоб бериши кўзда тутилади

Шунингдек, талабанинг мустақил ишини масофавий усулда ташкил қилиш талабалар учун энг мақбул вариант ҳисобланади. Мустақил ишларни масофавий тизимда ташкил қилиш учун энг аввало қуйидагиларни : Масалан, ҳужжатга белги қўйиш, ундан нусха олиш, санаб бериш, таърифлаш, мослигини аниқлаш, маъқуллаш, изоҳлаш, қайд қилиш, эслаш, таниш, хабар бериш, сўраш, қайта сўраш, излаш, идентификациялаш, номлаш, такрорлаш, ажратиб олиш, излаш, белги қўйиш, ҳавола бериш, эсга тушириш, тасаввур қилиш, айтиб бериш, тасвирлаш, белгилаш, жойлаштириш, ўрнини белгилаш, ўхшашини топиш каби билиш категориясига тегишли фаолиятларни андроид тизимидаги Notepad+, Mental Note, Word, Google, Excel, PowerPoint, Polaris Office, ShowMe, Quick Scetch, Blogpress, SmartOffice2, Show of Hands, Zoho Docs, Prezi, Flash cards+ таълим иловалари орқали ташкил қилиш мумкин.

Талабанинг мустақил ишини масофавий тарзда ташкил қилишда иложи борича унинг қурилмасига мослашиш мақсадга мувофиқ. Ҳозирги кунда кўпчилик талабалар андроид тизимида ишловчи мобилъ қурилмаларга эга бўлганликлари сабабли m-learning тизимига мос дастурлардан фойдаланиш талаба учун ҳар томонлама қулай ҳисобланади.

Таълим натижаларини баҳолаш усуллари. Талабаларнинг билимини назорат қилиш ва баҳолаш амалда жорий қилинган Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирининг 2018 йил 9-августдаги 19-2018-сонли буйруғига илова қилинган “Олий таълим муассасаларида талабалар билимини назорат қилиш баҳолаш тизими тўғрисидаги низом”га мувофиқ амалга оширилади.

Унга мувофиқ оралиқ назоратда фан бўйича А-С даражасига эришган талабалар якуний назоратга қўйилади.

Foydalangan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 11 noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi 6108-son Farmoni

2. Muslimov N. va b. T. Mehnat ta’limi o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: 2009. 427 b.

3. Tolipov O‘.K., M. Usmonboeva. Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari - T., 2006.

O‘ZBEK TO‘Y MAROSIMLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI VA TAHLILI

Saidov Vohidjon Abdusalom o‘g‘li

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti Teatr san‘ati fakulteti
O‘quv ishlari bo‘yicha dekan o‘rinbosari, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada to‘y marosimlarining tarbiyaviy ahamiyati va o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma‘lumotlar berilgan. To‘y – bu, oilaviy marosimlar sirasiga kiradi va ijtimoiy-madaniy muhitda katta badiiy-estetik tarbiyaga ega marosim hisoblanadi. Shuningdek, to‘y marosimlarining tarbiyaviy jihatlarini o‘rganish va yanada takomillashtirish zaruriyati hususida tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *to‘y, marosim, san‘at, tarbiya, tahlil, folklor, an‘ana, ijro.*

Аннотация: *В данной статье представлена информация о воспитательном значении и специфике свадебных обрядов. Свадьба – это семейная церемония, имеющая большое художественно-эстетическое воспитание в социокультурной среде. Также даны рекомендации о необходимости изучения и совершенствования воспитательных аспектов свадебных обрядов.*

Ключевые слова: *свадьба, обряд, искусство, образование, анализ, фольклор, традиция, спектакль.*

Annotation: *This article provides information on the educational value and specifics of wedding ceremonies. A wedding is a family ceremony that has a great artistic and aesthetic upbringing in a socio-cultural environment. Recommendations were also made on the need to study and improve the educational aspects of wedding ceremonies.*

Keywords: *wedding, ceremony, art, education, analysis, folklore, tradition, performance.*

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi ajdodlarimiz badiiy salohiyatining asrlar mobaynidagi taraqqiyoti davomida shakllangan qudratli ma‘naviyat xazinasidir. Folklor xalqimizni yuksak qadriyatlar ruhida tarbiyalovchi ma‘naviyat sarchashmasidir. Xalq og‘zaki ijodiyotida mujassamlashgan xalqona g‘oyalar yosh avlodni ma‘naviy komil insonlar qilib tarbiyalashda muhim amaliy ahamiyat kasb etgan. O‘ziga xos turmush tarzi va milliy an‘analariga ega bo‘lgan xalqimiz qadim zamonlardan buyon xilma-xil janrlardan iborat og‘zaki badiiy ijod namunalarini yaratgan. Ajdodlarimizning badiiy iqtidori va ijodiy salohiyati keng qamrovli bo‘lganligi tufayli g‘oyat ulkan folklor merosi yuzaga kelganki, bu bebaho qadriyatlar silsilasi ma‘naviyatimizning taraqqiy etishini ta‘minlagan muhim omillardan biri vazifasini o‘tagan. Zero, “folklor xalq ommasining maishiy hayoti, ijtimoiy-siyosiy turmushi, kundalik faoliyati bilan mahkam bog‘langan, o‘ziga xos g‘oyaviy-estetik tizimga ega bo‘lgan ijod sifatida yuzaga kelgan va rivojlanishda davom etgan. O‘zbek folklori xalqimiz badiiy faoliyatining tarkibiy qismi, so‘z san‘atining og‘zaki turi hisoblanadi. U uzoq tarixga, murakkab taraqqiyot bosqichlariga ega [1,3]”.

Darhaqiqat, bevosita xalqning kundalik mehnat faoliyati va turmushi bilan bog‘liq holda shakllangan folklor ijrochiligi an‘analari uzoq davrlarni o‘z ichiga qamrab olgan izchil tarixiy-folkloriy jarayon natijasida muttasil takomillashib, taraqqiy etib keldi. Natijada, xalq ijodiyotining u yoki bu namunalarini (masalan, qo‘shiq, doston, rivoyat,

ertak va boshqa) aytishga, ijro etishga ixtisoslashgan professional ijrochilar tipi yuzaga kelgan.[2,3]

Ayniqsa marosimlar insonlar hayotining madaniy-ma'rifiy ko'zgusi sifatida xizmat qilgan. Xalqimiz tomonidan yaratilgan folklor san'ati an'analarini rivojlantirish va yanada kamol toptirishda, ayniqsa, folklor qadriyatlarini jahonga tanitishda o'zbek folklorshunoslari, san'atshunoslar qatori folklor-etnografik jamoalar, askiyachi va qiziqchilar, dorbozlar va xalq hunarmandlari, baxshi-shoirlar, xalfa va jirovlarni ulkan ishlarni amalga oshirmoqdalar [3,60].

Xalq ijodiyotida voqelikni badiiy idrok etish va talqin qilish usullarining takomillashib borishi jarayonida hayotiy-maishiy funksiyasi va qamrovining o'ziga xosligi, muayyan poetik tizimga egaligi hamda badiiy ifoda usulining originalligi bilan bir-biridan farqlanib turuvchi folklor janrlari tarkibi ham doimiy ravishda rivojlanib, takomillashib boravergan. Ayniqsa, xalqimizning milliy o'zligini ifodalovchi urfodat va marosimlari bilan bog'liq xilma-xil folklor janrlarining shakllanishi xalq ijodiyotining tarixiy taraqqiyotida muhim rol o'ynagan.[4,36]

Chunki marosim folklori benazir nomoddiy madaniy meros namunasi bo'lishi bilan bir qatorda, yosh avlodning badiiy-estetik didini o'stirish hamda millatning ma'naviy birligini ta'minlashga xizmat qilishi bilan ham xarakterlanadi. O'zining shakllanish tarixi va genetik asoslariga ko'ra marosim folklori janrlari badiiy tafakkurning eng qadimiy namunalari sirasiga mansub bo'lib, unda o'tmishda yashagan ajdodlarimizning mifologik qarashlaridan tortib, turli rasm-rusumlari va ibtidoiy ritullarigacha bo'lgan etnomadaniy qatlamning izlarini uchratish mumkin. Shuning uchun ham marosim folklorini o'rganish, ayniqsa, tarixan urf-odat va rasm-rusumlarning verbal komponenti sifatida yuzaga kelib, an'anaviy tarzda ijro etib kelingan marosim qo'shiqlarini turli hududlar materiallari asosida qiyosiytarixiy va areal folklorshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etish o'zbek xalqi badiiy tafakkurining shakllanishi va taraqqiyoti qonuniyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq og'zaki ijodiyoti qaynar buloqqa o'xshaydi. Tarbiyaviy ahamiyati esa, allaqachon tarbiyaviy maktab yaratgan. Uning qatlaridan ming-ming yillik umumbashariy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analar qaynab chiqaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzayev T. O'zbek folklori ocherklari. Uch tomlik. 1-tom. – Toshkent: Fan, 1988. – B.3.
2. Gazeta "XXI asr". 2021 yil. 14 oktabr № 40 (934) soni
3. Davlatov S. O'zbek marosim-udumlarining etnohududiy xususiyatlari. – Toshkent, O'zR Fanlar Akademiyasi asosiy kutubxonasi bosmaxonasi, 2019. 123-b.
4. Qoraboyev U. O'zbek xalq bayramlari. – Toshkent.: Sharq, 2002. – 240 b.

O‘ZBEK NIKOH TO‘YLARINING LOKAL XUSUSIYATLARINI O‘RGANILISHI

Saidov Vohidjon Abdusalom o‘g‘li

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Teatr san’ati fakulteti
O‘quv ishlari bo‘yicha dekan o‘rinbosari, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Ma’ruzada o‘zbek nikoh to‘ylarining lokal xususiyatlari o‘rganildi. Joylarda aholining urf-odatlarini o‘zaro yaqinligini ilmiy jihatidan aniqlandi.

Kalit so‘zlar: nikoh, to‘y, lokal, folklor, marosim, folklorshunos, etnik, kuyov, kelin.

Аннотация: В докладе исследуются местные особенности узбекских свадеб. Близость местных обычаев научно доказана.

Ключевые слова: брак, свадьба, местный, фольклор, обряд, фольклорист, этнический, жених, невеста.

Annotation: The report explores the local characteristics of Uzbek weddings. The closeness of local customs has been scientifically proven.

Keywords: marriage, wedding, local, folklore, ceremony, folklorist, ethnic, groom, bride.

Ota-bobolarimizning badiiy o‘ziga xos olamini yaqqol aks ettirgan urf-odatlar, marosimlar va marosim folklori namunalari orqali xalqimizning mentaliteti, milliy ruhiyati, ma’naviy dunyoqarashi namoyon bo‘ladi. Necha ming asrlar davomida o‘zbek nikoh to‘ylari folklori ham boshqa xalqlar milliy nikoh to‘ylari folklor an’analari singari uzoq davom etgan tarixiy jarayonlarni o‘z boshidan kechirgan bo‘lib, ko‘p asrlik badiiy tafakkur taraqqiyotining natijalarini o‘zida mujassam etgan qadimiy qadriyatlar tizimi hisoblanadi.

Yurtimizning har bir viloyat, tumanida o‘tkaziladigan to‘y marosim va udumlari har bir hududning shart-sharoitlari, badiiy-estetik an’analari, tub aholisining etnik kelib chiqishi va folklor ijrochiligining lokal xususiyatlari tufayli bir-biridan farqlanuvchi jihatlarga egadir. Bu tipdagi folklor janrlarining tarqalish areali, hududiy-lokal xossalari, umumiy va farqli jihatlarni aniqlashda folklorshunoslikdagi xaritalashtirish usulini qo‘llash shu nuqtayi nazardan yaxshi samara beradi. Folklorshunos olim S.Shodievaning to‘y marosimi tarkibidagi turli urf-odatlar, rasm-rusumlar va ularda ijro etiladigan folklor janrlarining tarqalish doirasini tadqiq etishning nazariy asoslariga doir maqolasi nashr etilganligi muhim ilmiy ahamiyatga ega bo‘ldi. Folklorshunos olim S.Shodievaning qayd etishicha, to‘y marosimi folklorini kartalashtirish, o‘zbeklarning boshqa millatlar bilan aralash yashaydigan hududlaridagi-etnik kontaktning folklorda namoyon bo‘lishini[1,39] aniqlash xalq og‘zaki badiiy ijodiyotining lokal xususiyatlarini belgilashning asosiy qonuniyatlaridan biri deb qaraladi.

O‘zbek nikoh to‘yi marosim folklori ikki katta qismdan iborat bo‘lib, uning asosiy qismi turli-tuman urf-odat, rasm-rusum, inonch-e’tiqodlardan tashkil topgan etnografik kontekst bo‘lsa, ana shu udumlar chog‘ida ijro etiladigan o‘ziga xos marosim qo‘shiqlari, magik xarakterdagi aytim-olqishlar to‘y marosimining verbal komponenti hisoblanadi.[2,190] Biz bilamizki u yoki bu hududda istiqomad qiluvchi aholining urf-

odat, rasm-rusumlarida bir xillikni kuzatishimiz mumkin. Lekin tub ma'nosida juda katta farq aks etadi.

Zamonaviy to'ylarda, o'zbek nikoh to'yi marosimi folklorining ba'zi bir qadimiy urflari unutilib ketgan bo'lsada, ko'pgina an'anaviy janrlar jonli ijro holatida yashamoqda. O'zbekiston bo'ylab o'tkaziladigan nikoh to'yi marosimi udumlarida - to'ylar muborak, xush keldingiz, yor-yor, kelin salom, kuyov salom, kelin o'tirsin, kuyov o'tirsin, to'sh qaytarar, to'y olqishi, bet ochar kabi qadimiy poetik folklor o'zining an'anaviy xususiyatlarini bugungi kunimizgacha o'zida saqlab kelmoqda. Ushbu tomonidan qaralganda, o'zbek nikoh to'yi marosimi folklorining janrlar tarkibi undagi turli-tuman urf-odat, rasm-rusum va irim-sirimlarning rang-barangligi hamda hududiy-lokal xususiyatlarga egaligi bilan boshqa xalqlarning marosimlaridan shaklan alohida bo'lib ajralib turadi. Davrlar o'tishi bilan o'zbek nikoh to'yi marosimlari va uning poetik folklori muayyan o'zgarishlarga uchragan holda bo'lsa-da, bugungi kunga qadar o'zining qiziqarli va hayajonli an'alarini saqlab kelayotganligi sababli to'y marosimi qo'shiqlarining postfolklor sifatidagi hozirgi holati, uning o'ziga xos xususiyatlari va tarixiy-ijtimoiy voqelikning to'y marosimi udumlariga ta'siri masalasini maxsus tadqiq etishni taqozo etadi. O'zbeklarda nikoh to'yini o'tkazish bilan bog'liq an'anaviy urf-odatlar bir necha bosqichlardan iborat etnofolkloristik tarzda shakllangan bo'lib, ularga amal qilish qat'iy qoida holiga kelib qolgan.

O'zbekiston Respublikasida istiqomat qiluvchi xalqlarining turmush tarzidan o'rin olgan qadimiy oilaviy-maishiy marosimlar nikoh to'ylari bilan bog'liq urf-odatlar, aytim va qo'shiqlar, kelin salom kabi nikoh to'yi marosimi folkloriga xos bo'lgan lokal xususiyatlar aniqlanib, mamlakatimizdagi marosim folklorining markaziy osiyo xalqlari folklori an'analari tizimidagi o'rni belgilandi. Yurtimiz aholisining oilaviy-maishiy marosimlar folklori an'analari yaxlit badiiy-estetik qadriyatlar sifatida boshqa qo'shni hududlar bilan umumiy, o'xshash jihatlarga ega bo'lishi bilan bir qatorda ko'plab lokal ko'rinishdagi o'ziga xos urf-odat, marosim va rasm-rusumlarga oid aytim va qo'shiqlarga egaligi bilan alohida ajralib turadi.

O'zbekistonda yashovchi aholining nikoh to'yi marosimi tarkibidagi bir qator udumlar, masalan, sovchilik, non sindirish, fotiha to'yi, kuyov sinov, olovdan aylantirar, kelin salom, yuz ochdi, it irillatar, kampir o'ldi, oyna ko'rsatar, shirin suv ichirar, soch siypatar, chiroq aylantirar singari udumlarda ijro etiladigan qo'shiq va aytimlarda umumo'zbek folklori uchun mushtarak bo'lgan belgilar ko'zga tashlanadi, buni qo'shni hududlarda boshqacha tarzda ifoda yetilishi ilmiy jihatdan o'rganildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shodieva S. O'zbek folklorini areal tadqiq etishning ba'zi masalalari. O'zbek tili va adabiyoti. – T., 1985. – №2. – B. 39.
2. Sarimsoqov B. Marosim folklori. O'zbek folklori ocherklari. 1-tom. T.:Fan, 1988. – B. 190

АЁЛЛАР КИЙИМИ АССОРТИМЕНТИНИНГ ШАКЛЛАНТИРИШДА ИСТЕЪМОЛЧИЛАР ТАЛАБИНИ ЎРГАНИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ УСУЛЛАРИ

Ғофурова Азиза Хидирназар қизи¹
Саримсоқова Сарвиноз Турғунбой қизи²
Жиззах давлат педагогика институти
ассистенти¹
Жиззах давлат педагогика институти
Дизайн йўналиши талабаси²

Аннотация: Ушбу мақолада аёллар кундалик кийимини замонавий саноат коллекцияларини яратишда аҳоли талабаларини урганиш мақсадида ўтказилган маркетинг тадқиқот асослари ва натижалари келтирилган.

Калим сўзлар: кийим, истеъмолчи, тадқиқот, бозор, маркетинг, анкета-сўров.

Аннотация: В данной статье представлены основы и результаты маркетингового исследования, проведенного с целью обучения студентов населения созданию современных промышленных коллекций женской повседневной одежды.

Ключевые слова: одежда, потребитель, исследование, рынок, маркетинг, анкетирование.

Annotation: This article presents the basics and results of a marketing research conducted to educate students of the population in the creation of modern industrial collections of women's casual wear.

Key words: clothing, consumer, research, market, marketing, survey

Кийим моделларининг замонавий саноат коллекцияларини яратишда, кўпинча ижтимоий буюртма ва келажакдаги истеъмоли, иқтисодиёт ва ишлаб чиқаришнинг ривожланиш истиқболларини жиддий таҳлил қилмасдан, фақат мода йўналишидаги тавсиялар инобатга олинади. Бироқ бўлғуси буюмнинг образи келажакдаги истеъмолчининг образини орқали қуриш керак, бу потенциал истеъмолчининг эҳтиёжларини ўрганишни талаб қилади [1].

Кийимларни лойиҳалашда илм-фан, технология ва амалий санъатнинг сўнгги ютуқларидан максимал даражада фойдаланилиш керак, лойиҳаланаётган буюмларнинг юқори эстетик ва утилитар хусусиятларини таъминлайдиган, шунингдек, турли этно-миллий истеъмолчилар гуруҳларининг эҳтиёжлари ва дидларига жавоб берадиган оптимал конструктив ва композицион ечимларни танлаш керак [2].

Бироқ ассортиментни режалаштиришнинг анъанавий усуллари ва замонавий шароитларда талаб қилинадиган тадқиқотлар керакли натижаларга олиб келмайди. Шунинг учун ассортиментни комплексли шакллантириш, оптималлаштириш ва прогнозлаштиришнинг янги йўллари қўллаш керак, бунда стандартлаштириш ва маркетингга комплексли ёндашув муҳим аҳамиятга эга бўлиши керак [1]. Илмий ютуқлар ва жамият онгининг ривожланиши билан бир қаторда маркетинг тадқиқотларининг услубий асослари ҳам ўзгаришларга учрайди. Вазифалар турли

усуллар ва техникалар ёрдамида ҳал этилади, лекин биринчи навбатда, иккита тадқиқот йўналиши мавжуд: таҳлилий-башорат ва умумилмий.

Умумилмий тадқиқот усуллари [2]:

-тизимли таҳлил: бозордаги вазият, унинг сабаб-натижа муносабатлари билан объект сифатида қаралади. Мисол учун, компьютер технологияларининг тез тарқалиши жамиятнинг ахборотга бўлган эҳтиёжига боғлиқ;

-комплексли таҳлил: ҳар қандай бозор ҳолати мураккаб тартибли муносабатлар тизими сифатида қаралади. Мисол учун, маълум бир маҳсулотга бўлган талабнинг пасайиши, тарқатиш тизимининг ўзгариши билан боғлиқ. Ушбу тадқиқотни амалга ошириш орқали вазиятни оптималлаштириш учун стратегик ва тактик мақсадларни аниқлаш мумкин;

- дастурий-мақсадли режалаштириш тадқиқотнинг бозор бўйича стратегияси ва тактикасини ишлаб чиқиш учун амалга оширилади. Маркетинг тадқиқотлари усулларининг тизимли ва комплекс таҳлиллари кўпинча параллел равишда қўлланилади. Акс ҳолда бозорда барча ўзаро алоқалар аниқланмайди ва объектив тўлиқ тасаввур ҳосил қилинмайди [2].

Яширин харидор.

Бу дўкон ўзининг бир нечта дўконларига эга. Улар Next савдо марказининг 2-қаватида, жойлашган. Тел: 71-230-05-02

№	Мезонлар	Балл					Изоҳ
		1	2	3	3	5	
Ла Мирелла.							
1	Жойлашган жойи.					+	Жойлашган жойи кўпчиликнинг эътибори марказида бўлган, аҳолининг аксарият қисми сайр қилиб, хордиқ оладиган катта савдо маркази бўлмиш НЕХТда.
2	Ички дизайни.		+				Ёруғлик етарли даражада. Ўзига хослик бор, махсус ҳушбўй ифор бор, хаттоки мижозлар кўпидан магазини ҳавоси бир оз дим бўлиб қолган. Ташқи тарафда магазин рекламаси мавжуд.
3	Кийиниш хонаси.	+					Маҳсулотни кўриб, тақиб харидорга қандай турганини кўриш учун катта кўзгу бор.
4	Сотувчилар муносабати.		+				Сотувчилар фақатгина товар сотиб олганда яхши муносабат қилмоқда.

5	Товар жойлашуви.		+				Товарлар жуда ҳам кўп, товар жойлашуви яхши бир бирига яқин
6	Ассортимент.					+	Ассортимент кўп турли кўринишдаги турли туман кийимлар бор. Нархлар ҳам қулай. Ранглар ҳам чиройли.

Махсус интервью.

Сўров –анкета саволлари

1.Сиз касбингиздан келиб чиқиб кийинасизми?

Ха албатта

2. Янги мода тенденцияларга муносабатингиз қандай?

Ўрганиб ўзимга мосини танлайман

3. Ҳарид қилаётган либосларингиз қандай бўлишини хоҳлайсиз?

Бренд остида

4. Ҳарид қилаётган маҳсулотингизда мода тенденцияларидан қай бири бўлишини хоҳлайсиз?

тахлама , бурмалар,ранглар

5. Ҳарид қилаётган маҳсулотингизнинг қайси қисмида тахлама , бурмаларни қўлланилишини хоҳлайсиз?

Енгиди, этак қисмида

6. Ҳарид қилаётган маҳсулотингизни умирбоқийлигига этибор берасизми ёки кўринишига?


Асосан кўринишига

Компьютор технологияси асосида олинган анкета-сўров натижалари

1-Жадвал

№	Буюмнинг номи	Безак турлари						
		тахлама ва плиссилар	круживадан фойдаланиш	апликация ва тугмалардан	кант ва мағизлар	безак тошлар	Каштачилик қўл иши	зардўзлик билан
1	Аёллар кўйлаги	19	18	15	6	6	5	6

Компьютор технологияси асосида олинган анкета-сўров натижалари



1-расм

Диаграммада келтирилган маълумотлар таҳлили шуни кўрсатадики, аёллар кийимни безаш учун тахлама ва плисировкаларни қўллаш (19%) круживадан фойдаланиш (18%) апликация ва тугмалардан фойдаланиш (15%) кант ва мағизлар билан безаш (6%), безак тошлар билан безаш (5%) каштачилик қўл иши (6%), зардўзи билан безаш (6%) ни ташкил этади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. З.З.Хохаева. Разработка метода комплексного проектирование форменной одежды для учащихся образовательных учреждений Республики Северная Осетия-Алания // Дисс.канд. техн. наук. М., 2005. - 337 с
2. С.И.Шарипова, У.Т.Муминова, С.Ш.Ташпулатов. Маркетинговые исследования для проектирования формы девочек старших классов общеобразовательных учреждений // Научно-технический журнал "Развитие науки и технологии" Бухара №1 2019, С.137-141.

O'QUVCHILARNI MUSIQIY BILIMLARINI OSHIRISHDA FAOLIYAT TURLARIDAN FOYDALANISH

Mansurova N.H. – Toshkent shahar 201-o'rta maktab o'qituvchisi

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini musiqiy bilimlarini oshirishda mutaxassislar tomonidan tasnif etilgan faoliyat turlari bo'yicha berilgan tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: *boshlang'ich sinf o'quvchilari, musiqiy bilim, amaliy tavsiyalar, zamonaviy, musiqa madaniyati.*

В этой статье ученикам даются рекомендации по видам деятельности, которые классифицируются профессионалами по улучшению музыкальных знаний учащихся начальной школы.

Ключевые слова: ученики начальной школы, музыкальные знания, практические советы, современная музыкальная культура.

In this article, students are given recommendations for activities that are classified by professionals to improve the musical knowledge of elementary school students.

Key words: elementary school students, musical knowledge, practical advice, modern musical culture.

O'quvchilar musiqa san'atini ixtiyoriy sevib o'rganishlarida musiqani badiiy idrok etish, yakka va jamoa bo'lib kuylash, raqsga tushish va ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirish har bir musiqa madaniyati darsining asosiy maqsad hisoblanadi. Shuningdek, o'quvchilarda musiqiy iqtidorini rivojlantirish, musiqa san'atiga mehr va ishtiyoqni oshirish, musiqa san'atiga qiziquvchi o'quvchilarning iqtidorini rivojlantirish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratib berish, ularning badiiy ehtiyojlarini qondirish kabi qator masalalar musiqa ta'lim va tarbiyasining asosiy vazifalarini tashkil etadi. O'quvchilar tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan zaruriy talablar, "Musiqqa madaniyati" o'quv fanining mazmuniga bo'lgan talablar nazariy va amaliy faoliyatlar majmuasidan tashkil topib, ular quyidagi mavzularni belgilaydi.

Boshlang'ich musiqa savodi, musiqiy asarlar ijodkorlari faoliyati, musiqa ijrochiligi, ashula, xor, ansambl, orkestr bastakorlar va kompozitorlar ijodini, o'zbek xalq cholg'u asboblarini bilish, mashhur o'zbek xalq sozanda va xonandalar ijodiy faoliyati, musiqiy atama va iboralari, musiqa janrlari, musiqada zamonaviylik va zamonaviy musiqa, milliy estrada musiqasi va uning ijrochilari kabi mavzular asosida milliy musiqa madaniyatimizni o'zlashtirishni nazarda tutadi. Bu mavzular dars jarayonida quyidagi o'quv faoliyatlarida nazariy va amaliy mashg'ulotlar vositasida bajariladi: - *Musiqa tinglash;* - *Jamoa bo'lib kuylash;* - *Musiqa savodi;* - *Musiqa ijodkorligi.* [3, 4]

Musiqa tinglash ta'lim mazmunining asosini tashkil etadi. Ularni kuylash, tinglash faoliyatlari vositasida o'rganish bilan bir qatorda cholg'uchilik, musiqali harakatlar, ijodkorlik faoliyatlari bilan har tomonlama o'rganish va o'zlashtirish, musiqiy tavsiflarni ifodalash imkoniyati yaratiladi. O'zbek xalq musiqasi, o'zbek bastakorlari va kompozitorlarining musiqiy asarlaridan namunalar tinglanadi.

Jamoa bo'lib kuylash faoliyati o'quvchilarning musiqiy qobiliyati hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Sinfda jamoa bo'lib kuylash jarayonida o'quvchi o'z ovoz ijrosini boshqarishni va ustozlari ijrosini eshitib, kuzatishni hamda ular bilan bahamjihat jo'rnavoqlik qilishga intiladi. O'zbek xalq qo'shiqlari, o'zbek bastakorlari va kompozitorlari qo'shiqlari, jahon va qardosh xalqlar kompozitorlari qo'shiqlari, mahalliy musiqa uslublariga oid folklor qo'shiqlaridan namunalar kuylaydilar.

Musiqa savodi barcha bilimlarni nazariy birlashtiruvchi faoliyat sifatida muhimdir. Darsdan qaysi faoliyat mashg'uloti (tinglash, ijroetish, musiqiyharakatlar) bo'lmasin, berilgan mavzudagi asar o'rganiladi va uning xususiyatlari (janri, shakli, tuzilishi, ijrochiligi) haqida yangi tushunchalar hosil bo'ladi. Shu bois, musiqa savodi faqatgina nota yozuvlarini o'rganishdan iborat bo'lmay, balki o'quvchilarning umumiy musiqiy bilim saviyasini tarkib toptiruvchi umumiy bilim, tushunchalar majmuasini (ijrochiligi, xalq va bastakorlik musiqasi, ularning farqlari, milliy musiqaning mahalliy

uslublari, mumtoz musiqa, nota savodi) tashkil etadi. Musiqa savodida musiqiy atamalar, an'analar, templar (sur'at), intervallar, alteratsiya belgilari, dinamik belgilar, musiqaning ifoda tili, oddiy musiqa shakllari va janrlari, major va minorladi haqida tushuncha beriladi. Musiqa tinglash yakkanavozlik va jo'mavozlikni ajrata bilish, ansambl va orkestr ijrosini farqlay bilish, sozlar va sozlar tembrini ajrata olish, musiqiy did va idrokni rivojlantirish. O'zbek, qardosh va jahon xalqlari bastakorlari asarlaridan namunalar tinglash ta'lim mazmunini tashkil etadi. [1, 9]

Musiqa ijodkorligi qo'shiq ijrochiligi, sozlar ijrochiligi, raqs ijrochiligi, yakka va jamoa bo'lib ijro etish, xalq va kasbiy musiqa, bolalar kuy va qo'shiqlari, ommaviy xalq kuy qo'shiqlari, maqom, dostonlar, zamonaviy musiqa ijodi, xalq sozanda va xonandalari ijodini bilish. Musiqaning ifodaviy tili: kuy, ritm-usul, sur'at, o'lchov, registr, dinamik belgilar bilan tanishish. Major va minorladlarini farqlay bilish. Oddiy musiqa shakllari: bir qismli, ikki qismli va uch qismli musiqa shakllari. Kupletli, rondo, sonata, syuitalar haqida tushunchaga ega bo'lish. Musiqiy janrlar: ashula, raqs, vals, marsh kabi janrlarini farqlay olish.

Asosiy musiqiy faoliyat turlari: bastakor, kompozitor, ijrochi sozandalar ijodi bilan tanishish. Ijrochilar: ansambl, orkestr, xalq va professional sozandalar ijrochiligi haqida tushunchaga ega bo'lish. Xor ijrochiligi: bolalar, ayollar, erkaklar bilan tanishish. Partiya ovozlari: soprano, alt, tenor, bas ovozlari farqlay olish. Musiqa san'atining boshqa san'at turlari bilan bog'liqligi adabiyot, kino, teatr kabi san'atlar bilan bog'liqligi. Atoqli o'zbek bastakorlari va kompozitorlari, qardosh xalqlar kompozitorlari, atoqli o'zbek xalq sozanda va xonandalari, mashhur ansambllari, orkestrlari va xor jamoalari haqida tushunchaga ega bo'lishda ushbu san'at turlarini bilishning ahamiyati katta. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'tiladigan barcha fanlar qatorida o'quvchilar musiqa madaniyati fanidan ma'lum darajada bilim va ko'nikma va tajribalarga ega bo'lishi lozim. Mazkur talablarni 1-7 sinflarda tashkil etishda nimalarga e'tibor qaratish lozimligini sinflar kesimida ko'rib chiqamiz. Jumladan, 1-sinf o'quvchilari quyidagi bilimlarni ega bo'lishlari kerak. Shoir va bastakorlarni bir-biridan farqi haqida tushunchaga ega bo'lish; musiqaning badiiy tavsifi (quvnoq, sho'x, g'amgin va v.b.)ni bilish; musiqaning tasviriy tavsifi (tabiat, o'yin, ertak, hazil, o'yinchoqlar obrazlari, kundalik hayot) haqida tushunchaga ega bo'lish; nota chizig'i, skripka kaliti, etti tovush haqida umumiy tasavvurga ega bo'lish; musiqiy ifoda tavsifiga qarab ijro tiplari sust, sekin, o'rta va tez sur'atlarda ijro etilishini bilish; kuyga tavsif berish (sekin, tez, sakramali) va unda nima ifodalanganligini bilish; xalq cholg'u asboblari doira, rubob, nog'ora, karnay bilantinish; tovushlarni baland va pastligi, yuqorilashib va pastlashib borishi, uzun va qisqaligi haqida tushunchaga ega bo'ldi. [2, 9].

Mazkur bilimlar 2-sinf o'quvchilarini tashkil etishlari lozim deb hisoblaymiz. Jumladan, asarning nomi, ijodkorlari va badiiy mazmuni haqida umumiy tasavvurga ega bo'lish; musiqaning ifoda tili - kuy, registr va dinamik tuslari haqida tushunchaga ega bo'lish, nota yozilishida etti asosiy bosqichning joylashuvini bilish; cholg'u asboblari, g'ijjak, qashqar rubobi, nog'ora bilan tanishish; yakkanavoz, yakkaxon, cholg'uchilar va xonandalar ansambli haqida tushunchaga ega bo'lish; kuyning tuzilishi, uning ifoda vositalari haqidagi tushunchalarni bilishlari lozim. 3-sinf o'quvchilari esa ansambl,

orkestr va xor haqida umumiy tushunchaga ega bo'lish, o'rganilgan qo'shiqlarning mazmuni va mualliflari haqida tushunchaga ega bo'lish; musiqa savodiga doir kuy, usul, ritm, sur'at, o'lchov notalar shakli va pauzalar cho'zimi, nota yo'lidagi o'rni; major va minor lad (tuzuk)lari xususiyatlari, ularning uch tovushliklari; oddiy musiqa shakllari volta, repriza haqida umumiy tushunchaga ega bo'lish; tinglangan musiqa asarlarining mazmuni, janri (qo'shiq, marsh, raqs) va mualliflari haqida umumiy bilimlarga ega bo'lishlari kerak. 4-sinf o'quvchilari esa quyidagi bilimlarga ega bo'lishlari kerak. Jumladan, xalq musiqa ijodi haqida tushunchaga ega bo'lish; o'zbek xalq musiqasining ommaviy janrlari: qo'shiq, alla, lapar, yalla, terma, bolalar qo'shiqlari, ommaviy kuylar haqida tushunchaga ega bo'lish; o'zbek musiqasida bastakorlik uslubi hamda kompozitorlik ijodi haqida umumiy tushunchaga ega bo'lish; rus, dunyo xalqlari musiqasi va O'zbekistonda yashovchi xalqlarining musiqasi haqida umumiy tushunchaga ega bo'lishlari, ushbu ta'kidlab o'tilgan sinflarda o'quvchilarniig musiqiy qobiliyatini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi. [1, 14].

Adabiyotlar:

1. Musiqa madaniyat fanidan majburiy standart nazorat ishlarini o'tqazish yuzasidan tavsiyalar. O'R XTV RTM, Toshkent, 2006 y.
2. Malaka oshirish va qayta tayyorlash davlat talablarining qayta takomillashtirilgan varianti. Musiqa madaniyati. Toshkent, 2009 y.
3. Askarov I. va boshqalar. Musiqa 5-7 darsliklar. T., 2002, 2006 y.y.
4. O'zRMSIV, O'D.K. R.Qodirov "Musiqa pedagogikasi" -T. -2013y.
5. Bo'lajak musiqa o'qituvchisining pedagogik mahorati asoslari. Tuzuvchi: T.V.Shevchenko.T, 1991.

INKLYUZIV TA'LIMDA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI O'QITISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Usmonova Muxlisaxon Sobirovna, Qo'qon davlat pedagogika instituti
Tel: 91 149-39-93 e-mail: usmonovamuxlisaxon@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim tarbiya olishlari uchun qilinayotgan ishlar, inklyuziv ta'lim va bu ta'lim to'g'risidagi qabul qilingan qonun va bu boradagi muammolar va ularning yechimlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim-tarbiya, inklyuziv ta'lim, imkoniyati cheklangan bolalar, maktab, darslik.

Annotation: This article discusses the work done for education of children with disabilities, inclusive education and issues on this education and their solutions and their solutions.

Keywords: Education, inclusive education, children with disabilities, school, textbook.

Аннотация: В данной статье рассматривается проводимая работа по обучению детей с ограниченными возможностями, инклюзивное образование и закон об образовании, а также проблемы и решения.

Ключевые слова: Образование, инклюзивное образование, дети с ограниченными возможностями здоровья, школа, учебник.

Imkoniyati cheklangan bolalarni tarbiyalash masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda alohida yordamga muhtoj bolalarning rivojlanish darajasi, imkoniyatlari, hususiyatlari va qobiliyatlariga ko'ra maxsus yoki umumiy ta'lim tizimida ta'limni amalga oshirish maqsadida inklyuziv ta'lim amalga oshirilmogda.

Ayni paytda Respublikamiz umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'limni joriy etish reja qilinmogda. Keyingi o'quv yilida alohida ta'limga ehtiyoji bor bolalarning 24 foizi, 2025 yilgacha esa 40 foizi odatiy maktablarga jalb qilinishi kutilmogda. Inklyuziv ta'lim bilan bog'liq qator muammolar va xavotirlar ham mavjud.

Oxirgi paytda inklyuziv ta'lim tushunchasi tez-tez tilga olinmogda, ko'pchilik bu tushunchani nogironligi bor bolalarning sog'lom bolalar bilan bir maktabda, bir sinfda o'qishi, bir partada o'tirishi deb tushunadi xolos.

"Aslida, faqat bu emas. Inklyuziv ta'lim hamma bolalarning bir xil maktab va bir xil sinfxonada – bir xil sharoitda ta'lim olishini anglatadi. Ya'ni imkoniyati cheklangan bola sog'lom bolalar bilan bir xil e'tiborda o'qiy olishi kerak. O'zbekistonda oilaviy sharoitidan qat'iy nazar, barcha bolalar davlat umumta'lim maktablariga qatnaydi. Bu davlat tomonidan kafolatlangan. Faqat xohlovchilar o'z yonidan pul to'lab xususiy maktablarda o'qishi yoki o'qitishi mumkin. Lekin imkoniyati cheklangan bolalarning boshqa sog'lom bolalar bilan teng sharoitda o'qiyotgani haqida maqtanib bo'lmaydi. Bu borada muammolar ko'p. 2020 yil 13 oktabrda qabul qilingan «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi prezident qarorida bu boradagi asosiy muammolar sanalgan:

- alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar o'qitiladigan ayrim ta'lim muassasalarida ular uchun to'siqsiz muhit va imkoniyatlar yaratilmagan;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalari zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitishga mo'ljallangan uskuna va jihozlar bilan to'liq ta'minlanmagan;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv ta'lim tizimining mazmun-mohiyati haqida jamoatchilik o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish yo'lga qo'yilmagani natijasida ota-onalar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan farzandlarini umumta'lim muassasalarida o'qitishi mumkinligi haqida yetarli ma'lumotga ega emas;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb qilish bilan bog'liq muammolarni hal etish masalalariga mahalliy ijro hokimiyati organlari tomonidan yetarli e'tibor qaratilmayabdi;
- pedagogika yo'nalishidagi OTMLar o'quv dasturlariga inklyuziv ta'lim berish metodikasiga oid fanlar kiritilmagan;

- pedagogika va metodika fanlariga oid darsliklarda inklyuziv ta'lim dasturlari kiritilmagani, shuningdek, bo'lajak pedagoglarning alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar jalb qilingan ta'lim muassasalarida amaliyot o'tamayotgani ularning kasbiy tayyorgarlik sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.


Shunday vaziyatda 86 ta ixtisoslashtirilgan maktabda 21,2 mingdan ortiq, sanatoriy turdagi maktab-internatlarda 6,1 mingdan ortiq, uy sharoitida esa 13,3 ming nafar o'quvchi uyda ta'lim oladi. 2020 yil statistikasiga ko'ra, O'zbekistonda 3,2 mingdan ortiq umumiy o'rta ta'lim maktablarida 13 ming nafarga yaqin o'quvchilar inklyuziv ta'lim bilan qamrab olingan.

Prezidentimiz qarori bilan 2025 yilgacha inklyuziv umumta'limni bosqichma-bosqich joriy etish masalasi qo'yilgan. Bunda imkoniyati cheklangan bolalarning maktablarga kelishi uchun to'siqsiz muhit yaratish, yangi quriladigan maktablarni xuddi shunday sharoitlar bilan qurish, pedagog kadrlar tayyorlash, o'quv bazasini takomillashtirish kabi vazifalar belgilangan. Keyingi o'quv yilida shaharlarda va Toshkent shahrining tumanlarida joylashgan bittadan umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish, tayanch korreksion sinf ochish reja qilingan.

Yuqoridagilarni amalga oshirish maqsadida "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni kasb hunarga o'rgatish orqali ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash" bo'yicha talaygina ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Xususan Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarining beshinchi va oltinchi sinfi uchun "Texnologiya" fani darsligi yaratildi va chop etildi. Mazkur darslik aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan bo'lib, u quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:



Ayni paytda imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarining beshinchi, oltinchi sinf qiz bolalar uchun "Texnologiya" fani darsligini tayyorlash ustida amaliy ishlar olib borilmoqda. Rejalashtirilgan darslik aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan qiz bolalar uchun mo'ljallangan bo'lib, u quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:



2025 yilgacha boʻlgan maqsadlar ham xuddi konsepsiyadagidek amalga oshirilsa, imkoniyati cheklangan bolalar boshqalar singari bir xil sharoitda taʼlim olishi kerak, ularga darsliklar, oʻquv qoʻllanmalari yetmay qolishi kerak emas. Bunday bolalar ham sogʻlom bolalar kabi qiynalmasdan maktabga borishi, kelajakda oʻz yoʻlini osonroq topishi mumkin. Jamiyat ham imkoniyati cheklangan shaxslarga begonadek ajablanib qaramaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. www.yuz.uz
2. www.norma.uz. Alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalar uchun inklyuziv taʼlim joriy etiladi. – 17.10.2020.
3. www.kun.uz. Inklyuziv taʼlim uchun 5 yillik reja. – 18.03.2021.

YOSHLARNI TEXNOLOGIYA FANIDAN TOʻGARAK ISHLARINI TASHKIL QILISHNING TAʼLIMYIY TARBIYAVIY AHAMIYATI.

**QDPI oʻqituvchisi M.Ibragimova,
QDPI oʻqituvchisi F.Yusufxodjayeva
E-mail: firdavshonyusufhujaeva@gmail.com**

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada texnologiya fanidan toʻgarak ishlarini tashkil qilishning taʼlimiy tarbiyaviy ahamiyati haqida malumot beriladi*

***Kalit soʻzlar:** Texnologiya, toʻgarak, taʼlim –tarbiya, yoshlar.*

***Annotation:** This article provides information about the educational value of the organization of work in the field of technology.*

***Key words:** Technology, clubs, education, youth.*

***Аннотация:** В данной статье представлена информация о воспитательном значении организации труда в сфере техники.*

***Ключевые слова:** Технологии, клубы, образование, молодежь.*

Bugungi kunda jamiyatimiz uchun har tomonlama rivojlangan, fan-texnika yutuqlarini hayotga tatbiq eta oladigan etuk kasb egalarini tayyorlash masalasi turibdi. Bu masalani hal etishda bizga texnologiya fanining oʻrni beqiyos. Bu fanni yoshlarga

o`rgatish uchun bizga to`garak ishlarini tashkil qilish fani yaqindan yordam beradi. Texnologiya fan to`garagini tashkil qilishdan maqsad, bo`lajak to`garak tashkilotchisiga o`quvchilarning bo`sh vaqtlarini to`g`ri tashkil etish, ularga qo`shimcha ta`lim –tarbiya hamda tanlagan ta`limiy yo`nalishi bo`yicha boshlang`ich kasb-hunar to`g`risida tushuncha berish, ko`nikma hosil qilishni o`rgatishdan iborat. Bugungi kunda bolalarning bo`sh vaqtini to`g`ri tashkil etishda maktabdan va sinfdan tashqari ta`limga alohida e`tibor berilmoqda. Maktabdan va sinfdan tashqari ta`limni tashkil qilishda O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yilda qabul qilingan “Barkamol Avlod” bolalar markazlari to`g`risidagi Nizomi asosiy hujjat hisoblanadi. Bo`lajak to`garak rahbarlarini tayyorlashda zamonaviy axborot va pedagogic texnologiyalardan foydalanish davr talabi bo`lib qolmoqda. Bu boradamalakali to`garak raxbarlari tayyorlashda mutaxassislik fanlarini o`rgatishda egallanayotgan bilim, ko`nikmalar davlat ta`limi standartlarida berilgan talablarga asoslangan bo`lishi, mutaxassislik bo`yicha ta`lim berish mazmuni fan, texnika, texnologiya taraqqiyoti darajasi talablarga javob berishiga e`tibor qaratiladi. Har bir mutaxassis o`z bilimi.

Ko`nikma va malakasiga ishongan holda to`garak mashg`ulotlarini qiziqarli, esda qolarli va tushunarli qilib olib boradi. Har qanday fan to`garaklari o`quvchilarni bilimli, aqlli va shu borada o`zi mustaqil izlanishlariga, o`z ustida ko`proq ishlashiga va eng asosiysi kelajakda komil inson bo`lib voyaga etishiga undovchi yo`l hisoblanadi. Komil inson qanday gavdalanadi, u qachonki ko`p kitob o`qisa, aqlan va jismonan baquvvat bo`lsa, ta`limiy va tarbiyaviy tomonlama hammaga o`rnak bo`la olsagina, shunda u o`z qiyofasigaega bo`ladi. Shunday ekan biz yoshlarimizni kelajak poydevorlarini xech qachon bukilmaligi uchun ularga hozirdanoq har tomonlama yetuk shaxs bo`lib yetishishlariga zamin qaratmoqligimiz kerak. Boshlang`ich sinflarda texnologiya darslarining o`ziga xos xususiyati shundaki, ular mavzuga asoslangan amaliy faoliyat va narsalar bilan amaliy harakatlar natijasida bolada voqelikni sezuvchi idrokni xosil qiladi va buning uchun noyob imkoniyatlarni o`zida mujassam etgan texnologiya darslari bolani bu fanga bo`lgan qiziqishini yanada kuchaytiradi. Bu qiziqishlari natijasida bolani bu fan to`garagiga kirishiga imkoniyat qaratadi. Bu fan to`garagida bolalar turli materiallar bilan ko`p ishlaydi, natijada ular sezgi va idroklar orqali materiallarning ko`p xususiyatlari haqida ma`lumot to`plashadi. O`quvchilar va psixologlar amaliy faoliyatda muhim holatni qayd etishgan. Ob`ektlar bilan ishlaganda odam ko`plab mavhum aloqalar va tushunchalarni aniqroq “ko`ra oladi”. Nafaqat bolalar, balki kattalar ham tez-tez bu usulga murojat qilishadi; Ongda hal qilish qiyin bo`lgan narsani, biz uni iloji boricha ob`ektlarda modellashtirishga intilamiz. Bu harakatlarning ma`nosi shundaki, odam shunchaki naqh ishlatadi; aqliy faoliyat, agar u maroqli, amaliy faoliyat bilan birga bo`lsa, osonlashadi.

Bu holatdan korinib turibdiki, texnologiya borgan sari rivojlanib bormoqda. Texnologiya darsining o`ziga xos xususiyatlari ko`p vaqtni amaliy ishlarga sarflash talabini o`z ichiga oladi, aks holda mehnat ko`nikmalari shakllanmaydi. Texnologiya bo`yicha darslar kata ahamiyatga ega sozlamasi ham bor-bu psixologik yengillik. Ishdagi sekinlik, bolalarning xotirjam, o`lchangan faolligi bunday muhitni yaratishga yordam beradi. Shu bilan birga, uni letargiya va zerikish bilan aralashtirib yubormaslik kerak eng

yuqori daraja bolaga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Texnologiya ilmiy fan sifatida kata imkoniyatlar, maktab oʻquvchilarining madaniy va shaxsiy rivojlanishi uchun sharoit yaratadi. Oʻqitish texnologiyasi sohasidagi jamiyatning ijtimoiy tartibi oʻquvchilarning shaxsiyatini rivojlantirish, taʼlimning gumonistik mazmunini mustaxkamlash, har bir oʻquvchining individualligi bilan bogʻliq holda, taʼlimning taʼlimiy, tarbiyaviy va rivojlanish salohiyatini yanada toʻliqroq amalga oshirish vazifasini qoʻyadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyhati

1. “Boladagi isteʼdod nishonalarini aniqlash” 2014
2. “Shaxs yetukligi” 2008
3. “Kasbga yoʻnaltirish” 2020

ЗАХИРИДДИН МУҲАММАД БОБУР ПОРТРЕТИДА ИННОВАЦИОН ҒОЯЛАР ТИЗИМИНИ АКС ЭТТИРИЛИШИ

**С.С.Булатов – Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети
Тасвирий санъат кафедраси профессори, педагогика фанлари доктори**

Аннотация

Ушбу мақолада атоқли давлат арбоби, истеъдодли шоир, адиб, тарихчи, олим, шу билан бирга таржимон Заҳириддин Муҳаммад Бобур rassom Ока томонидан ишланган минатюра асарини фалсафий, психологик ва мантиқий таҳлил қилиши методикаси ҳақида баён этилган.

Калит сўзлар: *модел, қуёш, булутлар, ғоя, рамз, нақш, геометрик нақш, афсонавий мавжудодлар, комиллик, муҳр, тарих, мантиқ, намоён, композиция, симметрия, тошлар, гул, кўчма тахтравон, салла, белбоғ, сув.*

Аннотация


В данной статье описывается методика философско-психологического и логического анализа миниатюрного произведения, разработанная известным государственным деятелем, талантливым поэтом, писателем, историком, ученым, а также переводчиком Захириддином Мухаммадом Бабуром, художником Ока.

Ключевые слова: *модель, солнце, облака, идея, символ, узор, геометрический рисунок, мифические существа, совершенство, печать, история, логика, проявление, композиция, симметрия, камни, цветок, переносной трон, тюрбан, пояс, вода .*

Annotation

This article describes the methodology of philosophical, psychological and logical analysis of a miniature work developed by the famous statesman, talented poet, writer, historian, scientist, as well as translator Zahiriddin Muhammad Babur artist Oka.

Keywords: *model, sun, clouds, idea, symbol, pattern, geometric pattern, mythical creatures, perfection, seal, history, logic, manifestation, composition, symmetry, stones, flower, portable throne, turban, belt, water.*



Заҳириддин Муҳаммад Бобур портрети.

Рассом Ока

Заҳириддин Муҳаммад Бобур 1483 йил Андижонда туғилган, 12 ёшида тахтга ўтирди. Ёшлигидан илмга, шеърятга берилди. Довюраклиги, жаъсурлиги, эпчиллиги туфайли уни «Бобур», яъни «Йўлбарс» деб атадилар. Устози ва пири: Хожа Авлоноий Қози Абдуллоҳ. Бобурнинг энг йирик асари «Бобурнома»дир. У қомусий характердаги асар бўлиб, тарих, география, ботаника ва бошқа фан соҳаларига оид маълумотлар берилган. Бундан ташқари Бобур ўғли Ҳумоюн Мирзога атаб мусулмончилик қоидалари ва қонуншуносликка бағишланган, давлатни бошқариш ва закот қонун-қоидалари тўғрисида «Мубаййин»,

араб алифбосининг ислоҳига оид «Хатти Бобурий», аруз вазни ва қофияга оид «Муфассал», «Рисолаи волидия», «Эътиқодия» каби асарлар яратган[1]. Рассом Ока томонидан ишланган Заҳириддин Муҳаммад Бобур портретини мантиқий таҳлил қилиб чиқамиз. БУЛУТЛАР. Рассом булутлар тасвири орқали бир қанча фалсафий фикрларни, мушоҳадаларни айтмоқчи бўлган. Бу ерда булут дунёнинг ўткинчилиги, вақтнинг ўтиб бориши ва шу билан бирга инсон умрига ишора қилинмоқда. Ҳаётда яхши-ёмон кунларнинг бўлиши, Бобурнинг ҳаёти ҳам жангу жадаллар, курашлар билан ўтганлиги, ҳаёт бор экан курашлар зиддиятлар давом этаверади деган маъноларни беради. Булутли осмон ёмғирли кунлар яъни, Бобурнинг қалб кўз ёшлари тимсолидир.

ТУРНАЛАР. Турналар соғинчни ифодалайди. Бобур кўкда турналарга боқиб балки, шу тарналар Андижон тоғларига ҳам қўниб ўтишгандир, балки шу тарафдан учиб келаётганмикин? – деган ўйни ифодалайди. Бу ўй Бобурнинг соғинч туйғуларини янада оширади. Шу билан бирга илиждек туюлар эди. Қани энди ўз ватанига қайтиб бора олса, йўқ бунинг иложи йўқ энди. Бирдамлилик, интилиш ҳиндий ва Бобурийлар сулоласини яратди.

ТОҒЛАР. Юксакликка интилиш улуғворлик Бобур ҳаётидаги амалларни тоғлар каби улуғвор абадиятга таалуқлилики билдиради. Туғилиб ўсган ватани ва ҳинд диёри ўртасида рамзий маънода ўтиб бўлмас тўсиқ чегара борлигини билдиради. Ватан соғинчи қалбида кечаётган туғёнлари гўё шу тоғларда акс садодек қалбларни ларзага келтиришини ҳис қилиш мумкин.



САЛЛА ва УКИПАРСалла Бобурнинг буюк шоҳ эканлигини, укипар эса шоирлигини билдиради. Улуғлик, билимлилик, мартаба мазҳабларни билдиради. Саллани икки тури бўлиб, уйда ва кўчада кийилади. Умрида кўп жабр зулм кўргани ва ҳаёт йўли

адабиётга ошифта эканлигини билдиради.

МЕВАСИЗ ДАРАХТ. Бобурнинг армонлари, ушалмаган орзулари, туғилиб ўсган ватанни Андижондаги ҳаётидир. Ўз ватанида оиласи кўнгидагидек бўлмаган. Мустаҳкам шажара туза олмаган. Бир жойдан иккинчи жойга қочиб юришга мажбур. Бир жойда муқим яшашига имкони бўлмайди. Ҳаётининг бу даврларини мевасиз дарахтга қиёслаш мумкин. Яъни самарасиз деса ҳам бўлади. У пайтлар Бобур ёш навниҳол шахзода бўлган.

ГУЛЛАГАН ДАРАХТ. Бобурийлар сулоласининг рамзидир. Бобурнинг Ҳиндистонда буюк давлат барпо қилганлиги, бобурийлар сулоласининг давомийлигини рамзий маънода ифодаланган. Гуллаган дарахтни тасвири орқали қайси фасл тасвирлангани кўрсатилган. Гуллаган дарахтлар баҳор фаслини, табиат гўзаллигини билдиради.

БУЛУТ ОРТИДАГИ ҚУЁШ. Булут ортидаги қуёшга эътибор қилсак мевали дарахт тепасида ботаётганини кўрамиз. Бундан кўришиб турибдики, рассом Бобур Ҳиндистонда вафот этганлигига ишора қилган. Шу билан бирга Бобурнинг ёруғликка интилиш, ҳаётидаги қийинчиликка қарамай яхши кунларга умидни билдиради.

ТАШҚИ ЛИБОС. Зарҳал рангларда ишланган кийик тасвири орқали Бобур беғубор қалб соҳиби эканлигини англаш қийин эмас. Кўнгли нозиклигини ва беозорликни ифодалайди. Нимчада Бобурнинг табиатига муносабати кўрсатилган.

КИТОБ. Билимли, ижодкорликни, ўз устида кўп ишлаганлигини ва оқиллик рамзидир. Бу китоб “Бобурнома” бўлиб, унда Бобурнинг бутун ҳаёт йўли битилган.

БЕЛБОҒ. Бардамлик, куч қудратини, оқилона сиёсат, мустаҳкам давлат кура олганлигини билдиради. Бубелбоғ матодан ишланган. У Бобурни навқирон эканини англашиб туради.

ЗИРАК ВА ТУМОР. Ҳиндистоннинг миллий тақинчоғи шу юртнинг урф-одатлари, анъаналарга бўлган ҳурматини ифодалаган. Ўз эътиқодига содиқ қолган, ҳаётдаги муаммоларнинг ечимини топа оладиган, тож-у тахт учун жон-жаҳти билан курашувчи кучли ирода эгаси, давлат бошқарувчисидир. Зирак Ҳиндистон подшоҳи бўлганлигини, тумор эса кўп қийинчиликлардан омон қолганини билдиради.

ҲАМЁН. Ўзга юртда бўлишига қарамай, бойлик пул тимсоли. Бадавлатлилик янги давлатнинг куч қудрати. Давлат тинч-тотув бўлса, турмуш фаровон бўлади. Ҳамён эса унинг бой бадавлат, подшоҳлигини англатади.


НИМЧА БЕЗАКЛАРИ. Оҳулар беозор жонивор. Тоғларда эркинликда яшайдилар. Бобур қалбини сиқиб ётган ғуборлардан ҳеч қачон қутила олмаслигидан ҳис қилиб шу оҳуларга ҳавас қилгандир. Табиатнинг гўзаллигини кўрсатади. Бу безакларда кийиклар тасвирланган.

КЎЧМА ТАХТИРАВОН. Кўчма тахтиравон шоҳлар тўртта оёғи дунё устунлиги, ўз юртидан айрилиб ўзга юртга шоҳ бўлгани ҳақида. Дарбадарлик юрт ватан соғинчи. Тахт мансаб ўткинчи нарса эканлигини билдиради. Чунки, кўчма тахтиравон муқим бир жойда бўлмаган.

Бир оёқнинг ердан узилиши муваллақ ҳолатда туриши Бобур ҳеч қачон туғилиб ўсган юртидан кўнгил уза олмаганлиги бир оёғи ҳар доим она юртига талпиниб яшаганини

билдиради. Ҳиндистонда мустаҳкам давлат барпо этганлигини, у ерда шох бўлган бўлса ҳам қалби она ватанига талпинишига ишорадир.

СУВ. Сув бу тириклик рамзи. Ҳаёт манбаи. Инсон умрининг дарёдек оқи бўтишини, ўтган ҳар бир лаҳзани ортга ҳеч қачон қайтариб бўлмаслигини рамзий



Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Портретни мантиқий ечими. Рассом Ока. 1. Андижон. 2. Ҳиндистон. 3. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. юритаётганлигини, ҳалоллигини билдиради. Ҳар бир подшоҳнинг, ҳукмдорнинг ўз узуги бўлган. Бу узук муҳр, тамға вазифасини ўтаган. Муҳр қўйиш учун узук доим қўлида бўлган.

Хулоса қилиб айтганда, рассом Ока томонидан ишланган Заҳириддин Муҳаммад Бобур портрети чуқур фалсафий ва психологик маънога эга. Бобур портретида унинг ўткинчи дунёда Андижон ва Ҳиндистон ўртасида яшаб ўтганлиги, ўзга юртда шох бўлсада, Ватан соғинчида яшаганлигини англаш қийин эмас. Шох, саркарда, шоир ҳамда юксак қалб эгаси тасвирланган. Бобурнинг энг йирик асари бўлган «Бобурнома» уни бутун дунёга танитди. Ўзга юртда яъни Ҳиндистонда вафот этади. Ватан дийдорига тўймасдан ўтганлиги тасвирда ўз аксини топган.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Булатов С.С., Саипова С.М. Бадиий таҳлил тамойиллари. Монография. Т.: «Фан ва технология» 2016, 74-95 бетлар.
2. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Энциклопедияси. 2015, 784-бет
3. *Жавоҳар Лаъл Неру. «Ҳиндистоннинг кашф этилиши» китобидан.*
4. Бобурнома. Т.: 1993.
5. Ўзбек миллий энциклопедияси. Т.: 2001. 83-бет.

маънода ифодалайди. Ҳаёт давом этаётганлигини тинчликни, осайишталикни билдиради.

ГУЛЛАР. Гуллар гўзалликка интилиш, гўзаллик, ҳаёт қувончлари, ҳаётнинг гўзаллиги, ундан баҳра олишни билдиради. Ҳаётининг гуллаган даврлари оиласи ва фарзандлари эканлигини ифодалайди.

РАССОМНИНГ МУҲРИ. Рассом ўз муҳрини расмига муҳрлаб қолдирган. Ҳаттотнинг муҳри ёки таҳаллуси бўлиши ҳам мумкин.

МУҲР-УЗУК. Давлат ҳукмдори эканини, давлатининг мустаҳкамлилигини, тўғри сиёсат

ШЕР ТАСВИРИДА ЯШИРИНГАН ОЛАМ ФАЛСАФАСИ

Саипова Мадина Саидахбор қизи - Тошкент архитектура-қурилиш институтнинг докторанти, архитектура фанлари бўйича фалсафа доктори

Аннотация

Ушбу мақолада XI асрда қурилган ва безалган Термизшоҳлар саройи маҳобатли деворий суратлари ва афсонавий мавжудотли (мифалогик) безак турларидаги ўйма ганч намоён композициясида меҳроб (икки олам дарвозасида) ичида саккиз оёқли эркак шер тасвирланган бўлиб, у 18 минг оламни яратган уни бошқариб турган Аллоҳнинг экзотерик рамзлар орқали акс эттирилганлиги аниқланган.

Калит сўзлар: шер, коинот, модел, саккиз, архитектура, фалаккиёт, астрономик, зоя, рамз, эзотрик, нақш, геометрик нақш, афсонавий мавжудотлар, комиллик, дил, тарих, мантиқ, геометрик, Термизшоҳ, намоён, композиция, симметрия.

Аннотация

В данной статье изображен восьминогий лев-самец внутри алтаря (у ворот двух миров) в составе величественных росписей Дворца царей Термеза, построенного и украшенного в XI веке, и резные ганчевые изображения мифических существ. (мифологические) орнаменты.

Ключевые слова: лев, вселенная, модель, восьмерка, архитектура, астрономия, астрономия, идея, символ, эзотрика, узор, геометрический рисунок, мифические существа, совершенство, язык, история, логика, геометрия, термизм, проявление, композиция, симметрия.

Annotation

This article depicts an eight-legged male lion inside an altar (at the gates of two worlds) in the composition of majestic murals of the Palace of the Kings of Termez, built and decorated in the 11th century, and carved ganch depictions of mythical creatures (mythological) ornaments, reflected.

Key words: lion, universe, model, eight, architecture, astronomy, astronomy, idea, symbol, esotric, pattern, geometric pattern, mythical creatures, perfection, language, history, logic, geometric, term, manifestation, composition, symmetry.

Инсонлар тасаввуридаги табиатни нақшлар ҳосиласи бўлиб, геометрик нақшлар бутун олам қатъий тартибда, маълум қонуниятлар асосида тузилганлигини билдирса, ўсимликсимон нақшлар эса тириклик ва борликни гўзал яратилганлигини рамзий билдиради. Бу билан борлик гўзал ва қатъий қонуниятлар асосида тузилганлигини, инсонларни гўзалликка ва уйғунликка ошно эканликлари сезилиб туради. Шунинг учун ҳам нақшу-нигоралар ҳар бир хонадонга ва меъморий иншоотларда ўз аксини топган. Бу эса ўзбек халқининг яъни аждодларимизнинг юксак бадий тафаккур эгаси бўлганликларидан дарак беради.

Ўрта Осиё меъморий безакларида асосан геометрик, ўсимликсимон, эпиграфик (яъни нақшсимон ёзувли безак), тирик мавжудотлар, зооморф (хайвонлар) нақшлар, антроморф (одам) ва афсонавий мавжудот нақш турлари мавжуд. Нақшнинг пайдо бўлиши қоя тошларга бориб тақалади. Нақшлар тарихи инсониятнинг бадий маданияти каби қадимийдир.

Археологик топилмалар шуни кўрсатадики, жаҳондаги барча халқларда қадимдан мавжуд бўлганлигини билдиради. Нақш турли ўлкаларда, турли халқларда географик муҳит, ўсимлик ва ҳайвонот дунёси, маданияти таъсирида турлича ривож топган. Нақш турлари Ўрта Осиё маданияти тарихида жуда қадимий бўлиб, ўзига хос намуналари билан ажралиб туради. Ҳар қандай нақшларнинг ўз қонун-қоидалари билан бирга уларнинг тақсимоти, аниқ ўлчамлари, уйғунлиги, ранглари ўзига хос ранглари ва улардаги мутаносиблик бундан далолат беради.


Биз ушбу мақолада XI асрда Термизшоҳлар саройи деворларига ўйма ганч намуналардаги безакларини кўриб чиқамиз ва бу безаклар қандай фалсафий фикрлар яширинганликларини ўрганамиз. XI асрда Термизшоҳлар саройи деворларига ўйма ганч намуналари ишланганки, уларни ҳар –бирини томоша қиларкансиз ўзига хос кўринишга ва мантиққа эгадир. Термизшоҳлар саройи деворларига ўйма ганч намуналарини Л.И. Ремпель, Булатов М.С. ва бошқа олимлар ўрганганлар лекин улар нақш ва тасвирларни эзотрик рамзий томонлари етарлича таҳлил қилмаганлиги бизга маълум бўлди.

Термизшоҳлар саройи XI асрда қурилган баланд деворлар билан ўралган катта иншоот бўлган. Сарой жамланмаси катта ҳудуд (7 гектар)ни ташкил этиб, тўртбурчак тарҳда қурилган. Саройнинг бош фасадида йирик пештоқли эшик тўрт бурчакли ҳовлига олиб киради. Иморатлар билан ўралган кенг ҳовли ўртасида сопол қувурлар сув билан таъминланиб турувчи 8,5x8,5 метрли ҳовуз, меҳмонхона (дахлизли катта зал) олдида 4 та квадрат устунли айвон бўлган[1].

Ўзбекистоннинг турли жойларидаги меъморий ёдгорликлари ва амалий санъатнинг деярли барча турларида шер тасвиридан рамзий маъноларда фойдаланиб келинганлар. Сўғда шер бошли Сенмурғ ва ер ости дунёси илоҳасининг тахтини рамз сифатида бегаган. Сурхондарё обидаларида қанотли шер тасвирлари гемма ва муҳрларда акс этиб, Самарқанд деворий тасвирида Афросиёб

ҳукмрони қабулига келган элчиларнинг либосида зарбланган қанотли шер тасвири, назаримизда, шоҳ шахсининг илоҳий тотеми ҳимояси остида эканлигига ишора этган.

Шер-мардлик, буюклик, кучлилиқ, Шер космогонияда илоҳий ҳукумронлик рамзи, кучли ирода, жасорат, ҳокимлик, куч-қудрат, илоҳий куч, шоҳона виқорлик, балоқазодан сакловчи рамзидир. Зооморф образлар маҳобатли тош капителлар, коринф ҳамда композит услубдаги капителларда тасвирланган. Улар орасида кенг тарқалган образ шер тасвиридир. Шер илоҳий куч,



Саккиз оёқли афсонавий шер.

Термиз саройи. Ганч ўймакорлик.

кўриқчи рамзини билдиради. Уни Ўрта Осиёда, Арманистон ва Эрон мамлакатларида учрайди.

Шер образи қадимги Ўрта Шарқ ва Ҳиндистон санъати ва меъморчиликда кенг тарқалган. Л.И. Ремпель “Шер космогонияда – қуёш рамзи, хайвонот оламида йиртқичлар шоҳи ҳисобланган. Маъжозий маънода эса? уни ҳукмдорга қиёслашади”, - деб ёзади.

Термизшоҳлар саройидагиганчдан ўйиббажарилган намоёнсаккиз оёқли афсонавий шер меҳроб ичида ўз аксини топган. Биз бу тасвирларни суратини тамоша қилар эканмиз, бу тасвирда мажозий маънода нималар яширинганлигини билишга инсон ҳаракат қилади. Аллбатта тасвирни ўқиш учун тарихни, эзотрик ва экзотрик рамзларни, мантиқ, фалсафа, физика, тасвирий санъат ва бошқа фанларни билиш талаб қилади. Бадиий маълумоти юксак инсон ҳар бир тасвирий санъат асарини олдида бир неча соатлаб термилиб, ундаги тасвирланган воқеъликларни рамзлар тили билан бирма-бир ўқиб чиқиб ўзига тегишли хулосаларни чиқариб олади ва ундан маънавий озика олади ҳамда ҳаётида фойдаланади. Ганчдан ўйиб ишланган афсонавий саккиз оёқли шер намоёнда тасвирланган бўлиб, яратганни меҳробдан одамларга қараб тургани тасвирланган. Бу қарашда инсонлар учун муҳум ҳақиқатни айтаётганини қалбдан сезасиз.

Хулоса қилиб айтганда, XI асрда қурилган ва безалган Термизшоҳлар саройи маҳобатли деворий суратлари ва афсонавий мавжудотли (мифалогик) безак турларидаги ўйма ганч намоён композициясида меҳроб (икки олам дарвозасида) ичида саккиз оёқли эркак шер тасвирланган бўлиб, у 18 минг оламини яратган уни бошқариб турган Аллоҳнинг экзотрик рамзлар орқали акс этирилган. Шернинг саккиз оёқ қилиниб тасвирланишини сабаби шунда бўлганки, оламнинг саккиз йўналишнинг уфқдаги нуқталари осмоннинг заминга нисбатдан таянч нуқталари ҳисобланиб, шу йўсинда оламнинг саккизлик моделини йўналишлик рамзий аломатини билдиришини ифодаланганлиги ҳамда инсонларни Аллоҳ йўлида яъни эзгулик йўлида юришликларига чорлаётганлиги ўз ифодасинитопганлиги аниқланган.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т.: 2003, 6-том, 292-бет.
2. Нозилов Д. А. Ўрта Осиё меъморчилигида одатлар, қайдлар ва рамзий ифодалар. Тошкент, «Санъат» журнали нашриёти, 2011. –123- бет.
3. Азизов С. Марказий Осиёда астрономия ва Улуғбек мактаби –Т.: “Ўзбекистон”НМИУ, 2009. 38-39–б.
4. Варга Домокаш. Древны Восток. // Т.: 1988/ 87-88 – бетлар
5. Булатов С.С., Саипова М.С., Миллий тимсоллар ва рамзлар. Энциклопедия. Т.: “Таълим нашрети” 2018 йил, 237-бет.
6. Ҳафиз. 50 газелей. –Сталинабад, 1955.
7. Исмоилова Э.М. искусство оформления Средне-Азиатской рукоинсной книги. XVIII –XIX вв . Ташкент:Фан 1982. 58-бет.

МЕЪМОРИЙ БАДИИЙ ТУГАЛЛИКЛАРДАГИ АСТРОНОМИК БЕЗАКЛАРНИНГ РАМЗИЙ ИФОДАЛАНИШИ

Саипова Мадина Саидахбор кизи - Тошкент архитектура-қурилиш
институту докторанти, архитектура фанлари бўйича фалсафа доктори

Аннотация

Ушбу мақолада миллий меъморчилигимиздаги муҳим ахамиятга эга бўлган архитектура деталлари, бошқа миллатларни меъморчилигидан ажратиб туратиган гумбаз ва унинг ички қисмларидаги астрономик безаклари ва уларни рамзий тахлили ҳақида баён этилган. Самарқанддаги XVII асрда қурилган “Тилла кори мадрасаси” гужазини ички безагининг рамзий тахлили орқали астрономик нақш орқали 18 минг оламни рамзий тусулиши тасвирланганлиги ҳақида дастлабки илмий фаразими баён этилган.

Калим сўзлар: *гўзаллик, коинот, астрономик, юлдуз, рамз, ўсимликсимон нақш, сирт, нақш, тарих, мантиқ, тўққиз қават осмон, геометрик, архитектура, астрономик, доира, композиция, тилла ранг, симметрия.*

Аннотация

В данной статье описывается архитектурная деталь, имеющая большое значение в нашей национальной архитектуре, купол, отделяющий от архитектуры других народов и астрономические орнаменты в его интерьере, и их символический анализ. Наша первая научная гипотеза заключается в том, что символический анализ интерьера купола медресе Тилля Кори, построенного в XVII веке в Самарканде, изображает символическую структуру 18000 вселенных через астрономические узоры.

Ключевые слова: *красота, вселенная, астрономия, звезда, символ, растительный узор, поверхность, узор, история, логика, девятиэтажное небо, геометрия, архитектура, астрономия, круг, композиция, золотой цвет, симметрия.*

Annotation

This article describes the architectural detail, which is of great importance in our national architecture, the dome that separates other nations from the architecture and the astronomical ornaments in its interior, and their symbolic analysis. Our first scientific hypothesis is that the symbolic analysis of the interior of the dome of the "Tilla Kori Madrasa", built in the XVII century in Samarkand, depicts the symbolic structure of 18,000 universes through astronomical patterns.


Key words: *beauty, universe, astronomy, star, symbol, plant pattern, surface, pattern, history, logic, nine-story sky, geometry, architecture, astronomy, circle, composition, golden color, symmetry.*

Кириш. Дунёдаги барча яратилган борлиқ бадий тугалликка эга. Оламни астрономик нуқтаи назардан қарасак, олам 9 қават осмондан иборат бўлиб, унинг 7 қаватида инсонлар яшаса, саккизинчисидан жаннат, 9 чи қаватида эса Арш жойлашган. Бу эса оламнинг тугал қисми ҳисобланади. Қуръони каримда “Аллоҳ гўзалликни яхши кўради. У гўзалдир” дейилган. Бадий тугаллик гўзал бўлиши керак. Шундай экан содда тилда тушунтирсак, инсон гўзаллиги ҳам унинг юксак маънавий дунёқарашидан ташқари, ташқи жисмоний кўринишига, кўп жиҳатдан боғлиқдир. Инсоннинг ташқи кўриниши эса энг аввало инсоннинг кийиниши,

қомати ва юз тузилишига боғлиқ бўлиб, юзнинг гўзаллиги қош, кўз, лаб, соч турмагига одам бошига мос тушса ижобий, агар мос тушмаса салбий “самара” беради. Чунки соч турмаги инсон боши ва танасининг тугал қисмидир. Шу сингари инсон бош кийми тўғри танланиши инсон характерини ижобий ёки салбий кўрсатади [1. 210-б.]

Асосий қисм. Дарахтлар ва буталар ташқи тугал қисмларининг кўринишига қараб биз уларни турли шаклларга яъни конуссимон, устунсимон, шарсимон, тухумсимон ва тарақийлаган кўринишларда бўлади. Сарв дарахтининг қомати ва тугал қисми ғоят гўзал. Ундан илҳомланган машҳур халқ ёзувчиси Чингиз Айтматов ўз романларининг бирида “Сарви қомат дилбарим” деб номлади. Неча асрлар давомида сарв дарахти миниатюра асарларида ўз аксини топган. Буни акси бўлган ғужум дарахти ҳам Ўрта Осиёлик миниатюраларида учратиш мумкин. Бунинг сабаби шунда бўлганки, ушбу дарахтлар ноёб бадиий тугаллик композициясидир [1. 210-б.].

Меъморчиликда безакларни ички қисмидаги шифтларда ҳам муқарнас шаклдаги чуқурлик кўринишида безаклар ишлатилган. Бу ички тугаллик ҳам ўзига хос тугаллик беради. Равоқнинг ички қисмидаги муқарнасларнинг кўриниши коинотнинг тузилишини модели кўрсатилганлиги аниқланди (1-2-расмлар).



1-расм. Тиллақори мадрасаси. Равоқнинг ички қисмидаги муқарнаслар.



2-расм. Равоқининг ички қисмидаги муқарнаслар кўриниши коинотнинг тузилишини модели кўрсатилган.

Булардан ташқари минораларни тепаларини шарафалар бажарилиши яъни бошани чиройли юлдузсимон муқарнаслар ишланиши минорада юксак тугаллик ва чирой беради. Ушбу минора ер билан осмонни уйғунлигини билдиради. Минораларни гулдасталари коинотни тузилишини модели рамзий маънода акс эттирилганлиги аниқланди [3].

Бадий тугаллик қонунини замонавий архитектураларида самарали қўлланиши ҳақида тўхталиб ўтамиз. Самарқанд яқинида 1998 йилда бунёд этилган Имом ал-Бухорий масжид-мадрасасининг масжид бош биноси, Тошкентдаги 1999 йилда қурилган Темурийлар даври маданияти ва тарихи музейи, Самарқандда 2001 йилда қурилган ал-Мотрутий макбарси устига ёпилган қовурғали баланд мовий гумбазлар ва бошқа бинолар ўзига хос салобат ва бадий тугалланиш композициясини баҳшида этган. Олий мажлис биносининг барча тарзларида қўлланилган устунли, тўсинли қурилмаларидан тузилган оқ шарафа ва Олий Мажлис залининг қовурғали мовий гумбази ташқи бадий тугал ечимга эга (3-расм).

